Тошкент кимё технология институти ноорганик  
моддалар кимёвий технология факультети ўқитувчиси

### ABSTRACT

Ушбу мақолада 2-изопропил-5-метилфенол хлорацетилхлорид билан реакцияси бензол ва 1,4-бензодиоксан билан реакциялари илк бор олиб борилди. Ушбу реакцияда модда унуми эритувчи ва реакция олиб бориш шароитига боғлиқ бўлиши аниқланди. 2-Изопропил-5-метилфенолнинг натрий метали билан таъсирлашишидан 2-изопропил-5-метилфенолят олиб хлорацетиллаш реакция олиб борилганда унум юқори бўлиши кузатилди. Ҳосил бўлган янги модданинг тузилиши ИҚ-,  $H^1$  бўйича ЯМР ва  $C^{13}$  бўйича ЯМР спектрлари орқали тасдиқланди.


**Keywords:** Хлорацетилхлорид, фенол, крезол, катализатор, бензол, эритувчи, экстракция, вакуум, колба, натрий метали, О-ациллаш, С-ациллаш, инглет, аралашма, 1,4-бензодиоксан.

Адабиёт манбаларидан маълумки, п-крезол кўп миқдордаги  $AlCl_3$  иштирокида хлорацетилланганда моноацилмаҳсулот 2-гидрокси-5-метилфенацилхлорид ҳосил бўлади. Агар катализатор миқдори икки марта оширилганда эса диацилмаҳсулот 2,6-дихлорацетат-4-метилфенол ҳосил бўлиб, у 26 % ни ташкил этган [1-2].




Фенол ва о-, м- ва п-крезолларни каталитик миқдордаги  $FeCl_3$ ,  $FeCl_3 \cdot 6H_2O$ ,  $ZnCl_2$ ,  $Fe_2(SO_4)_3$  ва ТАА катализаторлар иштирокида хлорацетилхлорид билан

реакцияси олиб борилган. Реакция натижасида О-ациллаш реакцияси бориб, фенил- ва о-, м- ва п-толилхлорацетатлар ҳосил бўлган. Ароматик ҳалқага С-ациллаш реакцияси бориб, турли хил изомерлар ҳосил бўлиши аниқланган [3-4].




Ушбу олимлар томонидан фенол ва изомер крезолларни бензол эритмасида хлорацетиллаш реакцияси олиб борилганда фақат О-ацилмаҳсулот ҳосил бўлиши аниқланган.

Янги органик моддалар синтез қилиш мақсадида 2-изопропил-5-метилфенол, бензол ва 1,4-бензодиоксан эритмасида хлорацетилхлорид билан реакцияси ўрганилди. Реакция натижасида индивидуал ҳолдаги битта модда ҳосил бўлиши аниқланди.



Реакция натижасида

2-изопропил-5-метилфенол хлорацетиллаш реакцияни натрий метали иштирокида олиб борилганда ҳам юқорида келтирилган модда ҳосил бўлиши аниқланди. Модданинг юпқа қатлам хроматографияси текширилганда битта модда борлиги кўринди. Ажратиб олинган модданинг тузилиши ИҚ ва ПМР спектрлари орқали тасдиқланди. Реакция қуйидаги схема бўйича боради.



Ажратиб олинган модданинг тузилиши ИҚ ва ПМР спектрлари орқали тасдиқланди.

### Тажриба қисми


**Тажриба №1.** Қайтарма совутгичга водород хлорид чиқиши учун мослашган найча ўрнатилган туби думалоқ колбада 11,32 г (0,05 г-мол) 2-изопропил-5-метилфенол, 50 мл абс. бензолда эритилди, устига 5,65 г (0,05 г-мол) хлорацетилхлорид солинди ва 18 соат қайнатилди. Реакция тугагани водород хлорид чиқиши тўхташи орқали аниқланди. Сўнгга аралашма 10 % ли ишқорли сувда ювилиб, бензолда экстракция қилинди, ва  $\text{CaCl}_2$  да қуритилди. Бензол оддий шароитда, модда эса вакуумда 140-145<sup>0</sup>С /20 мм. сим. уст. да ҳайдалди. Ҳосил бўлган 2-изопропил-5-метилфенилхлорацетатнинг унуми 7 г (62%).

**Тажриба №2.** Қайтарма совутгичга водород хлорид чиқиши учун мослашган найча ўрнатилган туби думалоқ колбада 11,32 г (0,05 г-мол) 2-изопропил-5-метилфенол, 60 мл 1,4-бензодиоксанда эритилди, устига 5,65 г (0,05 г-мол) хлорацетилхлорид солинди ва 7 соат қайнатилди. Водород хлорид чиқиши тўхтагандан сўнг, аралашма 10 % ли ишқорли сувда ювилди. Бензолда экстракция қилинди ва  $\text{CaCl}_2$  да қуритилди. Бензол оддий шароитда, модда эса вакуумда 140-145<sup>0</sup>С /20 мм. сим. уст. да ҳайдалди. Ҳосил бўлган 2-изопропил-5-метилфенилхлорацетатнинг унуми 8,26 г (7%).


**Тажриба №3.** Қайтарма совутгичга водород хлорид чиқиши учун мослашган найча ўрнатилган туби думалоқ колбада 11,32 г (0,05 г-мол) 2-изопропил-5-метилфенол, 60 мл 1,4-бензодиоксанда эритилди. Унинг устига оздан 1,15 г (0,05 г-атом) оксид пардасидан тозаланган натрий метали солинди. Натрий 2-изопропил-5-метилфенят, ҳосил бўлиши секинлашгач реакция аралашма 4 соат мобайнида 1,4-бензодиоксани қайнаш ҳароратида қиздирилди. Сўнгга аста секинлик билан устига 5,65 г (0,05 г-мол) хлорацетилхлорид солинди ва 3 соат давомида реакция олиб борилди. Реакция тугагандан сўнг, 1,4-бензодиоксан оддий шароитда ҳайдаб олинди ва аралашма 10 % ли ишқорли сувда ювилди. Маҳсулот бензолда экстракция қилинди ва  $\text{CaCl}_2$  да қуритилди. Бензол оддий шароитда, 2-изопропил-5-метилфенилхлорацетат эса вакуумда 140-145<sup>0</sup>С /20 мм. сим. уст. да ҳайдалди. Модда унуми 9,7 г (86%).

### Олинган реакциялар бўйича спектр таҳлили






2-Изопропил-5-метилфенилхлорацетатнинг  $H^1$  буйича ЯМР тахлилида  $sp^3$  гибридланган ва бензол халкасига боғланган метил гурухидаги водороднинг  $Ar-CH_3$  боги учун 2.977 ppm (m.u) да синглет сигнал кузатилган.  $sp^3$  гибридланган ва учламчи углерод  $R_3-CN$  гурухидаги водород 1.184-1.236 ppm(m.u) лар оралигида кватрет сигнал кайд этганлигини кузатишимиз мумкин. Ароматик халкадаги углеродга боғланган  $Ar-H$  водороднинг сигналлари 7.168 ppm ва 7.062 ppm(m.u) ларда дублет, 7.358 ppm(m.u) да синглет сигналлар кузатилган. Ён занжирда оддий эфир боги ва ацил гурухи тутган углероднинг водороди  $R-O-CN-COCl$  4.303 ppm(m.u) сохада синглет сигнал намоён килган.



2-Изопропил-5-метилфенилхлорацетатнинг  $C^{13}$  буйича ЯМР тахлилида  $sp^3$  гибридланган  $-CH_3$  гурухидаги углероднинг тебраниши туфайли 20.9, 23.1 ва 27.1 ppm (m.u) сохаларида сигналлар намоён килганлигини куриш мумкин.

$sp^3$  гибридланган ва учламчи углероднинг тебраниши хисобига  $R_3\text{-CH}$  40.897 ppm(m.u) да сигнал кузатилган. Ароматик халкадаги Ar-C богидаги углероднинг тебраниши хисобига 122.3, 126.7, 127.8, 136.9, 147.5 ва 166.3 ppm(m.u) ларда мултиплет сигналларни кузатиш мумкин. Ацил гурухидаги хлор атоми билан бог хосил килган углерод COCl боги углерод 77.160 ppm(m.u) да сигнал кузатилганини куришимиз мумкин.



2-Изопропил-5-метилфенилхлорацетатнинг IQ спектрлари Брукер фирмасининг 2021-йил ишлаб чиқарилган INVENIO-S Фурье спектрометрига олинди(4000-400  $\text{cm}^{-1}$ , ATR). Олинган 2-изопропил-5-метилфенолнинг IQ спектрида  $3033 \text{ cm}^{-1}$  ароматик халкадаги  $sp^2$  гибридланган C атомига боғланган Ar-H боғининг ютилиш чизиклари,  $1760 \text{ cm}^{-1}$  сохада C=O боғининг валент тебранишларидан хосил булган ютилиш чизикларини ва  $2962\text{-}2871 \text{ cm}^{-1}$  соха оралигида  $sp^3$  гибридланган C атомига боғланган C-H боғининг ютилиш чизиклари кузатилган. -CH<sub>3</sub> гурухининг валент тебраниши  $1457 \text{ cm}^{-1}$  соха ютилиш чизикларини намоён килди. 1,2 ва 1,5  $\text{cm}^{-1}$  сохаларда 728-726 ва 812-868  $\text{cm}^{-1}$  сохаларда ютилиш чизикларини намоён килди.

### REFERENCES:

1. Cullinane N.M., Edwards F.R. Comparison of the Fries and Friedel-Crafts reactions //J.Appl. Chem. -1959. -Vol. 9. -P.133-136.
2. Fries K., Fink G. uber Homologe des cumarons und itheabkemmlinge // Ber. 1908. B. 41. S. 4271-4284.
3. Маматкулов Н.Н. Влияние соотношения реагентов и катализатора на выход реакции хлорацетилирования фенола и изомерных крезолов// UNIVERSUM: Технический науки.Научный журнал. Выпуск 4 (82). Апрель 2021.Москва. 77-80 -С.
4. Mamatkulov N.N. Development of the mechanism of action and reaction of O-chloracetylation// International Journal of advanced Research in Science, Engineering and Technology. India. Vol. 7. Issue 1, January 2020. Pp. 12636-12639.

## TEKISLIKDA MOMENTLI ELASTIKLIK NAZARIYASI SISTEMASI ECHIMI UCHUN SOMILIAN - BETTI FORMULASI

**F.F. Homidov**

Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro, O‘zbekiston  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro, O‘zbekiston

### ANNOTASIYA

Bu ishda momentli elastiklik nazariyasi tenglamalari sistemasi yechimini fazoda yechim va uning kuchlanishi soha chegarasining musbat o‘lchovli qismida berilganda sohaning ichiga topish masalasi qaraladi. Bunday masalaga Koshi masalasi deyiladi. Qaralayotgan masalaning yechimi mavjudligi kriteriyasi keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Momentli elastiklik nazariyasi, Karleman funksiyasi, Karleman matritsasi, Somilion-betti, Koshi masalasi.

### KIRISH

Bu ish elastiklik nazariyasi tenglamalari sistemasi yechimini tekislikdagi chegaralanmagan sohada chegaraning qismida uning berilgan qiymatlari va uning kuchlanishi qiymatlari bo‘yicha davom ettirish masalasi, ya’ni elastiklik nazariyasi tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi o‘rganiladi.

Bu ishda asosan chegaralanmagan sohada mos ravishda chegaralanmagan yechim holda Karleman matritsasini qurish yo‘llari o‘rganilgan. Karleman matritsasini qurishda bundan oldin qaralgan holdan farqli ravishda maxsuslik tartibi katta bo‘lgan yadro holda Karleman matritsasini mustaqil ravishda qurildi va shu holda quyidagi yechim bilan aniq yechim orasidagi farq baholangan.

### Usullari.

$x = (x_1, x_2)$  va  $y = (y_1, y_2)$  nuqtalar  $E^2$  - ikki o‘lchovli evklid fazosidan olingan bo‘lsin va  $D$  elastik muhit  $E^2$  da bo‘lakli - silliq  $\partial D$  chiziq bilan chegaralangan sohadan iborat bo‘lsin,  $S - \partial D$  ning silliq qismi.

Dsohada bir jinsli momentli elastiklik nazariyasi tenglamalari sistemasi

$$\begin{cases} (\mu + \alpha)\Delta u + (\lambda + \mu - \alpha) \operatorname{grad} \operatorname{div} u + 2\alpha \operatorname{rot} w + \rho \theta^2 u = 0, \\ (\nu + \beta)\Delta w + (\varepsilon + \nu - \beta) \operatorname{grad} \operatorname{div} w + 2\alpha \operatorname{rot} u - 4\alpha w + j \theta^2 w = 0, \end{cases} \quad (1)$$

berilgan bo‘lsin. Bu yerda  $U(x) = (u_1(x), u_2(x), w_1(x), w_2(x)) = (u(x), w(x))$  sistemaning yechimi,  $\Delta$  - Laplas operatori,  $\lambda, \mu, \nu, \beta, \varepsilon, \alpha$  elastik muhitni

xarakterlaydigan sonlar bo‘lib, quyidagi shartlarni qanoatlantiradi  $\mu > 0, 3\lambda + 2\mu > 0, \alpha > 0, \varepsilon > 0, 3\varepsilon + 2\nu > 0, \beta > 0, j > 0, \rho > 0, \theta \in R^1$ .

**1-ta’rif.**  $D$  da aniqlangan  $\varphi$  funksiyani  $D$  da regulyar deb ataymiz, agar  $\varphi \in C^1(\bar{D}) \cap C^2(D)$  va  $\varphi$ - funksiyaning dekart koordinatalari bo‘yicha barcha ikkinchi tartibli hosilalari  $D$  sohada integrallanuvchi bo‘lsa.

Bundan keyin  $\partial D$  ni chekli  $D$  sohani chegaralovchi yopiq silliq egri chiziq deb hisoblaymiz.

**1-teorema.**  $D$  sohada (1) tenglamaning har qanday regulyar yechimi ushbu

$$U(x) = \int_{\partial D} (\Psi(y, x) \{T(\partial_y, n)U(y)\} - \{T(\partial_y, n)\Psi(y, x)\}^* U(y)) ds_y, \quad x \in D, \quad (2)$$

formula bilan beriladi. Bu yerda «\*» belgi transponirlangan matritsani bildiradi.

Formulada keltirilgan  $\Psi(y, x)$ - momentli statik elastiklik nazariyasi tenglamalari sistemasining fundamental yechimlar matritsasi bo‘lib, u quyidagicha beriladi [1]:

$$\Psi(y, x) = \begin{pmatrix} \Psi^{(1)}(y, x) & \Psi^{(2)}(y, x) \\ \Psi^{(3)}(y, x) & \Psi^{(4)}(y, x) \end{pmatrix},$$

$$\text{bunda } \Psi^{(i)}(y, x) = \|\Psi_{kj}^{(i)}(y, x)\|_{2 \times 2}, \quad i = 1, 2, 3, 4,$$

$$\Psi_{kj}^{(1)}(y, x) = \sum_{l=1}^4 (\delta_{kj} \alpha_l + \beta_l \frac{\partial^2}{\partial x_k \partial x_j}) \frac{e^{i\lambda_l |y-x|}}{|y-x|}, \quad k, j = 1, 2,$$

$$\Psi_{kj}^{(2)}(y, x) = \Psi_{kj}^{(3)}(y, x) = \frac{2\alpha}{\mu + \alpha} \sum_{l=1}^4 \sum_{p=1}^2 \varepsilon_l \varepsilon_{kjp} \frac{\partial}{\partial x_p} \frac{e^{i\lambda_l |y-x|}}{|y-x|}, \quad k, j = 1, 2,$$

$$\Psi_{kj}^{(4)}(y, x) = \sum_{l=1}^4 (\delta_{kj} \gamma_l + \delta_l \frac{\partial^2}{\partial x_k \partial x_j}) \frac{e^{i\lambda_l |y-x|}}{|y-x|}, \quad k, j = 1, 2,$$

$$r = |x - y|,$$

$$\alpha_l = \frac{(-1)^l (\sigma_2^2 - k_l^2) (\delta_{3l} + \delta_{4l})}{2\pi(\mu + \alpha)(k_3^2 - k_4^2)}, \quad \beta_l = -\frac{\delta_{1l}}{2\pi\rho\theta^2} + \frac{\alpha_l}{k_l^2}, \quad l = 1, 2, 3, 4, \quad \sum_{l=1}^4 \beta_l = 0,$$

$$\gamma_l = \frac{(-1)^l (\sigma_1^2 - k_l^2) (\delta_{3l} + \delta_{4l})}{2\pi(\beta + \nu)(k_3^2 - k_4^2)}, \quad \delta_l = -\frac{\delta_{2l}}{2\pi(j\theta^2 - 4\alpha)} + \frac{\gamma_l}{k_l^2}, \quad l = 1, 2, 3, 4, \quad \sum_{l=1}^4 \delta_l = 0,$$

$$\varepsilon_l = \frac{(-1)^l (\delta_{3l} + \delta_{4l})}{2\pi(\beta + \nu)(k_3^2 - k_4^2)}, \quad l = 1, 2, 3, 4, \quad \sum_{l=1}^4 \varepsilon_l = 0, \quad k_1^2 = \frac{\rho\theta^2}{\lambda + 2\mu}, \quad k_2^2 = \frac{j\theta^2 - 4\alpha}{\varepsilon + 2\nu},$$

$$k_3^2 + k_4^2 = \sigma_1^2 + \sigma_2^2 + \frac{4\alpha^2}{(\mu + \alpha)(\beta + \nu)}, \quad k_3^2 k_4^2 = \sigma_1^2 \sigma_2^2.$$

$T(\partial_y, n)$ -kuchlanish operatori deyilib,

$$T(\partial_y, n) = T(\partial_y, n(y)) = \begin{vmatrix} T^{(1)}(\partial_y, n) & T^{(2)}(\partial_y, n) \\ T^{(3)}(\partial_y, n) & T^{(4)}(\partial_y, n) \end{vmatrix},$$

$$T^{(i)}(\partial_y, n) = \|T_{kj}^{(i)}(\partial_y, n)\|_{2 \times 2}, \quad i = 1, 2, 3, 4,$$

$$T_{kj}^{(1)}(\partial_y, n) = \lambda n_k \frac{\partial}{\partial y_j} + (\mu - \alpha) n_j(y) \frac{\partial}{\partial y_k} + (\mu + \alpha) \delta_{kj} \frac{\partial}{\partial n(y)}, \quad k, j = 1, 2,$$

$$T_{kj}^{(2)}(\partial_y, n) = T_{kj}^{(3)}(\partial_y, n) = 0, \quad k, j = 1, 2,$$

$$T_{kj}^{(4)}(\partial_y, n) = \varepsilon n_k(y) \frac{\partial}{\partial y_j} + (\nu - \beta) n_j(y) \frac{\partial}{\partial y_k} + (\nu + \beta) \frac{\partial}{\partial n(y)}, \quad k, j = 1, 2.$$

$n(y) = (n_1(y), n_2(y)) - \partial D$ -chegaraning  $y$  nuqtasidagi tashqi normal vektori.

(2) formulani Somilian – Betti formulasi deb yuritamiz.

Karleman funksiyasini quramiz va u asosida qaralayotgan sistema uchun Karleman matritsasini quramiz

$D$  - chegaralangan bir bog‘lamli soha,  $\partial D$  - uning chegarasi,  $S - \partial D$  ning silliq qismi.

**2-ta’rif.**  $y \neq x$  da aniqlangan,  $\sigma > 0$  parametrdan bog‘liq,  $(4 \times 4)$  o‘lchamli  $\Pi_\sigma(y, x)$  matritsa  $x \in D$  nuqtada va  $\partial D \setminus S$  qism uchun Karleman matritsasi deyiladi, agar u quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:

$$1) \Pi_\sigma(y, x) = \Psi(y, x) + G_\sigma(y, x)$$

bunda  $G_\sigma(y, x) - (4 \times 4)$  o‘lchamli matritsa  $y$  bo‘yicha (1) sistemani qanoatlantiradi,

$$2) \forall x \in D \text{ da } \Pi_\sigma(y, x) \text{ matritsa ushbu}$$

$$\int_{\partial D \setminus S} [|\Pi_\sigma(y, x)| + |T(\partial_y, n)\Pi_\sigma(y, x)|] dS_y \leq \alpha(\sigma),$$

tengsizlikni qanoatlantiradi, bu yerda  $\alpha(\sigma) \rightarrow 0, \sigma \rightarrow \infty$ .

$D$  soha va  $\partial D \setminus S$  qismi uchun Karleman matritsasi mavjud bo‘lsin. Bu holda quyidagi teorema o‘rinli

**2-teorema.**  $D$  da regulyar bo‘lgan (1) sistemaning yechimi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$u(x) = \int_{\partial D} \left[ \Pi_{\sigma}(y, x) \left\{ T(\partial_y, n)u(y) \right\} - u(y) \left\{ T(\partial_y, n)\Pi_{\sigma}(y, x) \right\} \right] \partial S_y, \quad x \in D, \quad (3)$$

bu yerda  $\Pi_{\sigma}(y, x)$  -  $D$  soha uchun Karleman matritsasi.

Endi elastiklik nazariyasi sistemasining maxsus ko‘rinishdagi fundamental yechimlarini qurishga o‘tamiz.  $K(w)$ ,  $w = u + iv$  ( $u, v$  - haqiqiy) – butun funksiya, quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi  $w$  da haqiqiy bo‘lsin:

$$K(u) \neq 0, \sup_{v \geq 1} |v^{\rho} K^{(\rho)}(u + iv)| \leq M(\rho, u) < \infty, \rho = 0, 1, 2, \dots, u \in R^1$$

$$\alpha = |y_1 - x_1| \text{ bo‘lsin.}$$

$\Phi_{\sigma}(y, x, \lambda)$  funksiyani  $\alpha > 0$  va  $y \neq x$  larda quyidagi tenglik bilan aniqlaymiz:

$$2\pi K(\sigma x_2) \Phi_{\sigma}(y, x, \lambda) = \int_0^{\infty} \text{Im} \frac{K(\sigma w)}{w - x_2} \cdot \frac{u J_0(\lambda u) du}{\sqrt{u^2 + \alpha^2}}, \quad (4)$$

bu yerda  $w = i\sqrt{u^2 + \alpha^2} + y_2$ ,  $J_0(u)$ -Besselning nolinch tartibli funksiyasi.

[7] da quyidagi lemma isbotlanadi

**Lemma.**(4) formula bilan aniqlangan  $\Phi_{\sigma}(y, x, \lambda)$  funksiya quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\Phi_{\sigma}(y, x, \lambda) = \frac{\exp r}{2\pi r} + g_{\sigma}(y, x, \lambda)$$

bu yerda  $g_{\sigma}(y, x, \lambda)$  -  $x, y$  ning barcha qiymatlarida aniqlangan va butun  $E^2$  da  $y$  o‘zgaruvchi bo‘yicha Gelmgolts tenglamasining regulyar yechimi,  $r = |x-y|$ .

$\Phi_{\sigma}(y, x, \lambda)$  funksiya yordamida quyidagi matritsani quramiz:

$$\Pi_{\sigma}(y, x) = \Pi(y, x, \sigma) = \begin{vmatrix} \Pi^{(1)}(y, x, \sigma) & \Pi^{(2)}(y, x, \sigma) \\ \Pi^{(3)}(y, x, \sigma) & \Pi^{(4)}(y, x, \sigma) \end{vmatrix},$$

$$\Pi^{(i)}(y, x, \sigma) = \Pi \Pi_{kj}^{(i)}(y, x, \sigma) \Pi_{2 \times 2}, \quad i = 1, 2, 3, 4,$$

$$\Pi_{kj}^{(1)}(y, x, \sigma) = \sum_{m=1}^4 \left( \delta_{kj} \alpha_m + \beta_m \frac{\partial^2}{\partial y_k \partial y_j} \right) \cdot \Phi_{\sigma}(y, x, i\lambda_m),$$

$$\Pi_{kj}^{(2)}(y, x, \sigma) = \Pi_{kj}^{(3)}(y, x, \sigma) = 0,$$

$$\Pi_{kj}^{(4)}(y, x, \sigma) = \sum_{m=1}^4 \left( \delta_{kj} \gamma_m + \delta_m \frac{\partial^2}{\partial y_k \partial y_j} \right) \cdot \Phi_{\sigma}(y, x, i\lambda_m). \quad (5)$$

**3-teorema.** (5) formula bilan aniqlangan  $\Pi(y, x, \sigma)$  matritsa Karleman matritsasi bo‘ladi.

**Isbot.** Karleman matitsasining 1)-sharti lemmadan osongina kelib chiqadi, haqiqattan ham

$$\Pi(y, x, \sigma) = \Psi(y, x) + G(y, x, \sigma),$$

bunda

$$G(y, x, \sigma) = \begin{vmatrix} G^{(1)}(y, x, \sigma) & G^{(2)}(y, x, \sigma) \\ G^{(3)}(y, x, \sigma) & G^{(4)}(y, x, \sigma) \end{vmatrix},$$

$$G^{(i)}(y, x, \sigma) = \|G_{kj}^{(i)}(y, x, \sigma)\|_{2 \times 2}, \quad i = 1, 2, 3, 4,$$

$$G_{kj}^{(1)}(y, x, \sigma) = \sum_{l=1}^4 (\delta_{kj} \alpha_l + \beta_l \frac{\partial^2}{\partial x_k \partial x_j}) g_{\sigma}(y, x, \lambda_l), \quad k, j = 1, 2,$$

$$G_{kj}^{(2)}(y, x, \lambda_l) = G_{kj}^{(3)}(y, x, \lambda_l) = 0, \quad k, j = 1, 2,$$

$$G_{kj}^{(4)}(y, x, \lambda_l) = \sum_{l=1}^4 (\delta_{kj} \gamma_l + \delta_l \frac{\partial^2}{\partial x_k \partial x_j}) g_{\sigma}(y, x, \lambda_l), \quad k, j = 1, 2.$$

Karleman matitsasining 2)-sharti, (4) dan kelib chiqadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Айзенберг Л.А. Формулы Карлемана в комплексном анализе. – Новосибирск: Наука, 1990. -312 с.
2. Берс А., Джон Ф., Шехтер М. Уравнения с частными производными. -Мир, 1966. -351 с.
3. Бицадзе А.Б. Основы теории аналитических функций комплексного переменного. -М.:Наука,1996.-204 с.
4. Бицадзе А.Б. Краевые задачи для эллиптических уравнений второго порядка. -М.: Наука, 1966/-204 с.
5. И.Э. Ниёзов,Ф.Ф. Хомидов. Критерий разрешимости задачи Коши для систем моментной теории упругости.СамДу Ахборотнома. 2017,№1, с. 5-9.
6. I.E. Niyozov ,F.F.Homidov The Cauchy problem for the system of the thermoelasticity. Ilmiy anjuman Toshkent 2017.may.
7. Ф.Ф. Хомидов. Критерий разрешимости задачи Коши для систем моментной теории упругости. СамДу магитраларнинг XVII илмий канфрреяси 2017,№35, с. 74-76.



## MAXSUS SOHALARDA KARLEMAN MATRITSASI

**M.P. Sharipova**

Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro, O'zbekiston

### ANNOTASIYA

Bu ishda momentli elastiklik nazariyasi tenglamalari sistemasi yechimini fazoda yechim va uning kuchlanishi soha chegarasining musbat o'lovli qismida berilganda sohaning ichiga topish masalasi qaraladi. Bunday masalaga Koshi masalasi deyiladi. Qaralayotgan masalaning yechimi mavjudligi kriteriyasi keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Momentli elastiklik nazariyasi, Karleman funksiyasi, Karleman matritsasi, Koshi masalasi.

### KIRISH

Bu ish elastiklik nazariyasi tenglamalari sistemasi yechimini tekislikdagi chegaralanmagan sohada chegaraning qismida uning berilgan qiymatlari va uning kuchlanishi qiymatlari bo'yicha davom ettirish masalasi, ya'ni elastiklik nazariyasi tenglamalari sistemasi uchun Koshi masalasi o'rganiladi.

Bu ishda asosan chegaralanmagan sohada mos ravishda chegaralanmagan yechim holda Karleman matritsasini qurish yo'llari o'rganilgan. Karleman matritsasini qurishda bundan oldin qaralgan holdan farqli ravishda maxsuslik tartibi katta bo'lgan yadro holda Karleman matritsasini mustaqil ravishda qurildi va shu holda regulyarlashgan yechim bilan aniq yechim orasidagi farq baholangan.

### Usullari.

$$2\pi K(\sigma x_2)\Phi_\sigma(y, x, \lambda) = \int_0^\infty \operatorname{Im} \frac{K(\sigma w)}{w - x_2} \cdot \frac{u J_0(\lambda u) du}{\sqrt{u^2 + \alpha^2}}$$

va

$$\Pi_{kj}^{(4)}(y, x, \sigma) = \sum_{m=1}^4 \left( \delta_{kj} \gamma_m + \delta_m \frac{\partial^2}{\partial y_k \partial y_j} \right) \cdot \Phi_\sigma(y, x, i\lambda_m)$$

formulalarda  $K(w)$  funksiyani aniq ko'rinishda tanlab, momentli elastiklik nazariyasi sistemasi uchun Karleman matritsasini maxsus sohada aniq ko'rinishda quramiz.

1.  $D$  elastik muhit  $E^2$  da chegaralangan bir bog‘lamli, chegarasi  $y_1 = 0$  haqiqiy o‘qning  $l$  bo‘lagi va  $y_2 > 0$  yarim tekislikda yotuvchi silliq  $S$  egri chiziqdan iborat bo‘lsin, ya’ni  $D$  qalpoq shaklidagi soha.

$\sigma > 0$  da (4) formulada

$$K(w) = \exp \sigma w, \quad w = i\sqrt{u^2 + \alpha^2}$$

ifodani qo‘yamiz va quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$2\pi \exp(\sigma x_2) \Phi_\sigma(y, x, \lambda) = \int_0^\infty \operatorname{Im} \frac{\exp(\sigma w)}{w - x_2} \cdot \frac{u J_0(\lambda u) du}{\sqrt{u^2 + \alpha^2}} \quad (1)$$

(1) formuladan ko‘rinadiki,  $l$  da  $\Phi_\sigma(y, x, \lambda)$  funksiya, uning  $\nabla \Phi_\sigma(y, x, \lambda)$  gradiyenti va uning ikkinchi tartibli xususiy xosilalari

$$\frac{\partial^2 \Phi_\sigma(y, x, \lambda)}{\partial y_i \partial y_j}, \quad i, j = 1, 2,$$

$\sigma \rightarrow \infty$  da barcha  $y$  va  $x \in E^2$  larda eksponensial nolga intiladi.

(5) ga (6) ni qo‘yib,  $\Pi(y, x, \sigma)$  hosil qilamiz. Quyidagi teorema o‘rinli

**4-teorema.** Qurilgan  $\Pi(y, x, \sigma)$  matritsa  $D$  soha va  $l$  qism uchun Karleman matritsasidan iborat bo‘ladi.

**Isbot.**  $\Pi_\sigma(y, x) = \Psi(y, x) + G_\sigma(y, x)$  ifoda va  $G_\sigma(y, x)$  ning

$$\begin{cases} (\mu + \alpha)\Delta u + (\lambda + \mu - \alpha) \operatorname{grad} \operatorname{div} u + 2\alpha \operatorname{rot} w + \rho \theta^2 u = 0, \\ (\nu + \beta)\Delta w + (\varepsilon + \nu - \beta) \operatorname{grad} \operatorname{div} w + 2\alpha \operatorname{rot} u - 4\alpha w + j \theta^2 w = 0, \end{cases}$$

sistema yechimi ekanligi lemmadan birdan kelib chiqadi.

$$\int_l \left[ |\Pi(y, x, \sigma)| + |T(\partial_y, n) \Pi(y, x, \sigma)| \right] dS_y \leq c(\lambda, \mu, x) \sigma \exp(-\sigma x_2) \quad (2)$$

ekanligini isbotlaymiz.

$$\frac{\partial \Phi_\sigma(y, x)}{\partial y_1} = \frac{\exp \sigma(y_2 - x_2) [(y_2 - x_2) \sin \sigma |y_1 - x_1| + |y_1 - x_1| \cos \sigma (y_2 - x_2)]}{2\pi |x - y|^2},$$

$$\frac{\partial \Phi_\sigma(y, x)}{\partial y_2} = \frac{\exp \sigma(y_2 - x_2) [(y_2 - x_2) \cos \sigma |y_1 - x_1| + |y_1 - x_1| \sin \sigma (y_2 - x_2)]}{2\pi |x - y|^2}$$

va

$$|\Phi_\sigma(y, x)| \leq \frac{\operatorname{const} \left( \frac{1}{|x - y|} \right)}{\exp \sigma(y_2 - x_2)}$$

bo‘lgani uchun quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$|\Pi(y, \lambda, \sigma)| \leq \frac{c_1(\lambda, \mu)}{\ln\left(\frac{1}{|x-y|}\right)} \exp \sigma(y_2 - x_2)$$

$$|T(\partial, n)\Pi(y, x, \sigma)| \leq \frac{c_2(\lambda, \mu)}{\left(\frac{\sigma}{|x-y|}\right)} \exp \sigma(y_2 - x_2)$$

Ushbu oxirgi tengsizliklardan (2) ni olamiz. Teorema isbotlandi.

Endi  $D_p \subset E^2$  -chegaralangan bir bog‘lamli soha bo‘lib chegarasi quyidagi konusning yon sirti

$$\Sigma: \alpha_1 = \tau y_2, \alpha_1 = |y_1|, \tau = \operatorname{tg} \frac{\pi}{2\rho}, y_2 > 0, \rho > 1,$$

va konus ichida yotgan  $S$  - silliq chiziqdan iborat bo‘lsin. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$\tilde{\beta} = \tau y_2 - \alpha_0, \gamma = \tau x_2 - \alpha_0, \alpha_0^2 = x_1^2, s = \tilde{\alpha}^2 = (y_1 - x_1)^2, \\ \omega = i\tau\sqrt{u^2 + s} + \tilde{\beta}, \omega_0 = i\tau\tilde{\alpha} + \tilde{\beta}.$$

Parametr  $\sigma > 0$  da (5),(6) formulalar yordamida  $\Pi(y, x, \sigma)$  ni quyidagicha qurib olamiz.

$$K(\omega) = E_\rho(\sigma(\omega - x_2)), \quad \rho > 1.$$

deb, bunda  $E_\rho(\omega)$  - Mittag-Lefler funksiyasini olamiz.

$$2\pi K(\sigma x_2)\Phi_\sigma(y, x, \lambda) = \int_0^\infty \operatorname{Im} \frac{K(\sigma w)}{w - x_2} \cdot \frac{u J_0(\lambda u) du}{\sqrt{u^2 + \alpha^2}}$$

formulada

$$\Phi(y, x, \lambda) = \Phi_\sigma(y - x, \lambda), \quad \lambda > 0 \\ 2\pi\Phi_\sigma(y - x, \lambda) = \int_0^\infty \operatorname{Im} \left[ \frac{E_\rho(\sigma(i\sqrt{u^2 + s} + y_2 - x_2))}{i\sqrt{u^2 + s} + y_2 - x_2} \right] \frac{J_0(\lambda u) du}{\sqrt{u^2 + s}} \quad (3)$$

ni olamiz. (8) formula bilan aniqlangan funksiya uchun ham yuqorida keltirilgan lemma o‘rinli va bundan hosil bo‘lgan matritsa Karleman matritsasi ekanligini yuqorida 3,4-teoremlardagidek isbotlash mumkin.

Bizga bundan keyin  $E_\rho(w)$  funksiyaning ayrim xossalari kerak bo‘ladi. Ularning ayrimlarini keltiramiz.

Mittag-Lefler turidagi funksiya deb, quyidagi darajali qator ko‘rinishida tasvirlanga butun funksiyani tushunamiz.

$$E_\rho(w) = \sum_{n=0}^\infty \Gamma^{-1}\left(1 + \frac{n}{\beta}\right) w^n, \quad w = u + iv,$$

bu yerda  $\Gamma(s)$  – Eylerning Gamma funksiyasini ifodalaydi.

Mittag-Leffler turidagi funksiyasi  $E_\rho(w)$  moduli bo'yicha etarli katta kompleks  $w$  larda ajoyib assimtotik ko'rinishlarga ega.

$0 < \beta \leq \pi$ ,  $\varepsilon_0 > 0$  sonlari uchun quyidagi belgilashlarni kritamiz.  $\gamma(\varepsilon_0, \beta_0)$  deb  $\zeta$  kompleks tekisligida shunday konturni belgilaymizki u  $\arg(\zeta)$  ning o'sishi yo'nalishida harakatlanib, quyidagi qismlardan iborat:

- 1)  $\arg(\zeta) = -\beta_0$ ,  $|\zeta| \geq \varepsilon_0$  -nurdan
- 2)  $|\zeta| = \varepsilon_0$  aylananing  $-\beta_0 \leq \arg(\zeta) \leq \beta_0$  yoyidan
- 3)  $\arg(\zeta) = \beta_0$ ,  $|\zeta| \geq \varepsilon_0$  nurdan.

$0 < \beta_0 < \pi$  holda  $\gamma(\varepsilon_0, \beta_0)$  kontur  $\zeta$  tekislikni ikkita:  $D^-$  va  $D^+$  cheksiz sohalarga ajratadiki, bunda  $D^-$   $\gamma(\varepsilon_0, \beta_0)$  dan chapda,  $D^+$  esa o'ngda.

$\rho > 1$ ,  $\frac{\pi}{2\rho} < \beta_0 < \frac{\pi}{\rho}$  uchun quyidagi belgilashni olamiz:

$$\Psi_\rho(w) = \frac{\rho}{2\pi i} \int_{\gamma(\varepsilon_0, \beta_0)} \frac{\exp \zeta^\rho}{\zeta^{-w}} d\zeta.$$

Bu holda quyidagi integral tasvir o'rinlidir:

$$E_\rho(w) = \Psi_\rho(w), \quad w \in D^-,$$

$$E_\rho(w) = \rho \exp w^\rho + \Psi_\rho(w), \quad w \in D^+.$$

Bu formulalardan ayrim  $\eta_0 > 0$  uchun quyidagi baholashlarni olishimiz mumkin.

$$|E_\rho(w)| \leq \rho \exp(\operatorname{Re} w^\rho) + |\Psi_\rho(w)|, \quad |\arg w| \leq \frac{\pi}{2\rho} + \eta_0,$$

$$|E_\rho(w)| = |\Psi_\rho(w)|, \quad \frac{\pi}{2\rho} + \eta_0 \leq \arg w \leq \pi,$$

$$|\Psi_\rho(w)| \leq \frac{\text{const}}{1+|w|}, \quad E_\rho(w) : \rho \exp w^\rho, \quad w > 0, \quad w \rightarrow \infty.$$

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Айзенберг Л.А. Формулы Карлемана в комплексном анализе. – Новосибирск: Наука, 1990. -312 с.
2. Берс А., Джон Ф., Шехтер М. Уравнения с частными производными. -Мир, 1966. -351 с.
3. Бицадзе А.Б. Основы теории аналитических функций комплексного переменного. -М.:Наука, 1996.-204 с.
4. Бицадзе А.Б. Краевые задачи для эллиптических уравнений второго порядка. -М.: Наука, 1966/-204 с.

5. И.Э. Ниёзов,Ф.Ф. Хомидов. Критерий разрешимости задачи Коши для систем моментной теории упругости.СамДу Ахборотнома. 2017,№1, с. 5-9.
6. I.E. Niyozov ,F.F.Homidov The Cauchy problem for the system of the thermoelasticity. Ilmiy anjuman Toshkent 2017.may.
7. Ф.Ф. Хомидов. Критерий разрешимости задачи Коши для систем моментной теории упругости. СамДу магитраларнинг XVII илмий канфрреяси 2017,№35, с. 74-76.

UDK 631.31.4.4

## CLGB-160 BULDOZERINING ISHCHI JIHOZINI TAKOMILLASHTIRISH

**Qo‘ziyev Shaxzod Serobovich**

“Umumtexnik fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi

**Hayitov Bobur Komilovich**

“Umumtexnik fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada CLGB - 160 buldozeri to‘g‘risida ma‘lumot berilib uning ishchi jihozini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Bunda asosiy maqsad buldozerni atvali oldiga grunt yumshatgach qo‘yib ish unumdorligini qisman bo‘lsada yaxshilashdan iborat. Buldozerni ish jixozlari tahlil qilinib ma‘lumotlar kiritildi.

**Kalit so‘zlar:** freza, gidrosilindr, ag‘dargich, pichoq, po‘lat list, vint, buldozer, otval statik bosim.


Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini ko‘paytirish, shuningdek, melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart – sharoitlar yaratish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. [1;2]

Ish jihozi takomillashtirilgan buldozerni an-anaviy bajariladigan er ishlarda ham qo‘llash mumkin. Bunda freza gidrosilindrlar orqali transport holatiga ko‘tariladi va frezaga harakat berilsa u otval oldidagi qattiq gruntni otval pichog‘iga yumshatib berishga xizmat qiladi, surish kuchi qarshiligining kamayishiga olib keladi.


### CLGB160 Liugong – Ko‘rsatkichlari

Massa	17 t
Guruntni kesish yo‘li eni	6.51 m 3.388 m
Uzunligi	3.2 m
Zanjir qalinligi	0.51 mm
Tezligi	13.6 km/ch
Pichoq eni	3.388 m
Dvigatel quvvati	120 kVt(163 l/s)
Rabochiy ob‘em	3.7 m <sup>3</sup>
Silindrlar soni	6


Ag'dargich, buldozerning asosiy ishchi organi hisoblanadi. Ag'dargich yaxlit po'lat listdan yasalgan bo'lib, ish qismi silliqlangan bo'ladi. Ularning turli konstruksiyalari 2.69-rasmda ko'rsatilgan.



**Ag'dargich turlari:** a-to'-g'ri; b-yumshatuvchi tishi bo'lgan; d-universal; e-cho'michli; f-sferik; g-qisqa suruvchi.



**Ag'dargichning konstruksiyasi:** 1-bog'lagich; 8,12,18-quloqlar; 2-pastki kuchaytirgichning tub qatlami; 3-pastki kuchaytirgichning qobirg'asi; 4-pichoq; 5-yon qatlami; 6-pastki kuchaytirgichning orqa qatlami; 7-ag'dargich-ning yon devorlari; 9-yuqori orqa qatlam; 10-yuqori kuchaytirgich; 11-qobirg'a; 13-ag'dargich; 14 pichoqning o'rta qismi; 15-pichoqning chap qismi; 16- qirra; 17-birlashma.



**Buldozer ish jihozining vintli tirkovuchi:**

1-korpus; 2-vint; 3-tutqich bolti; 4-quloq; 5-manjet; 6-moylagich.

Vintli tirkovuchning quloqlaridan biri suruvchi rama bog'lagi-chiga, ikkinchisi esa ag'dargichning bog'lagichiga bog'lanadi. Tirko-vuch korpusining ichiga o'ng va

chap rezbalar o‘yilgan bo‘lib, unda vintlar harakatlanadi. Vintlarni qo‘zg‘atish (harakatlantirish), korpusni aylantirish orqali amalga oshiriladi.

Otval oldida frezani boshqarish ya’ni ko‘tarib tushirish girotsilindrlar orqali amalga oshiriladi. Frezani harakatga keltirish reduktor orqali gidromotor orqali beriladi. [3;4]


#### Tuproqning asosiy xususiyatlari

№	Ko‘satkichlar	Tuprokning guru‘lari			
		1	2	3	4
1.	Kesishdagi (kavlashdagi) solishtirma qarshilik, $K$ , KPa.	12...65	58...130	120...200	180...300
2.	Tuproqning yumshatish koeffitsienti, $K_r$	1,08...1,017	1,1...1,2	1,14...1,28	1,24...1,32
3.	Tuproqning (hajmiy og‘irligi) mustahkamligi, $\rho_{ep}$ t/m <sup>3</sup>	1,1...1,2	1,3...1,4	1,4...1,5	1,5...1,6
4.	Tuproqning tuproq bilan ishqalanish koeffitsienti, $f_r$	0,4...0,6	0,5...0,7	0,6...0,8	0,7...0,9
5.	Tuproqning metall bilan ishqalanish koeffitsienti, $f_m$	0,4...0,5	0,4...0,5	0,5...0,6	0,6...0,7


Buldozer quyidagicha ishlaydi.

Buldozer otvali 1 er yuzasiga tushirilib. Frezaga gidromotor orqali harakat beriladi va buldozerning oldinga harakati bilan qattiq gruntlarni yumshatib beradi.

Buldozerning oldinga yurishida otval oldida o‘rnatilgan freza qattiq guruntlarni otval pichog‘iga yumshatib beradi natijada buldozerning otvalini pichog‘iga qarshilik kamayadi. Shnek valining markaziga o‘rnatilgan freza 3 quvur yotqizish uchun mo‘ljallangan transheyani(2.2-rasm) qazib ketadi.



Buldozerning frezali kesuvchi ish jihozi –oldindan va yon tomondan ko‘rinishi



Buldozerning kesuvchi ish jihozi-yon tomonidan ko‘rinish



1-otval, 2-val, 3-freza, 4- freza valining podshipnikli tayanchi, 5-tirsak, 6-gidrotilindr, 7-tayanch

Buldozerning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash

Buldozerning asosiy bosh ko'rsatkichlari (parametrlari) dan biri – uning nominal tortish kuchi ( $T_n$ ) hisoblanib, u quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$T_n = R_{ul} \cdot \varphi_{ul}$$

bu erda  $R_{ul}$ -buldozerning ishlash holatida tuproqning buldozer harakatlantiruvchisiga bo'lgan me'yoriy ta'siri (reaksiyasi).

$$R_{ul} = (1,17 \dots 1,22) \cdot G_{a.m}$$

Buldozerning tuproqqa beradigan o'rtacha statik bosimi:

$$q = \frac{G}{F},$$

Ag'dargich oldidagi tuproqning taxminiy hajmi ( $m^3$ ):

$$V = \frac{1}{2} a \cdot b \cdot h, \quad m^3$$

bu erda a, b, h- ag'dargich oldidagi tuproqning prizma holatini geometrik o'lchamlari, m.

Qirg'ilayotgan qatlamning kesimining yuzasi ( $m^2$ ):

$$F = V \cdot S = m^2$$

bu erda S -qirg'ilayotgan tuproqning qalinligi, m.

$$H_m = 3,6 \cdot V \cdot n \cdot K_m \cdot \frac{K_u}{K_{ro}} =$$

bu erda  $K_t$ -ag'dargich geometrik prizmasi hajmining to'ldirilish koeffitsienti.  
 $K_{yu}$ -yumshatilish koeffitsienti,

### **Buldozerning tortish kuchini hisoblash**

Buldozer tuproqni tashiyotgandagi umumiy qarshilik:

$$\sum F = F_P + F_{IP} + F_{BX} + F_B, \quad kN$$

bu erda:  $F_R$ -kesishdagi qarshilik, kN;

$F_{PR}$ —surg'ich oldidagi tuproqning surishdagi qarshiligi, kN;

$F_{VX}$ —kurak ustiga tuproq surilishdagi qarshiligi, kN;

$F_B$ -buldozerning harakatlanishdagi qarshilik, kN;

Tuproqni kesishdagi qarshilik:

Buldozerning harakatlanishdagi qarshilik:

$$F_b = G \cdot f$$

Asos mashinasi uchun kerak bo'lgan quvvat o.k. (kVt) quyidagicha topiladi:

$$N = F_{vd} / 2700$$

### **Gidromotor tanlash va hisoblash**

Frezani aylantirish uchun gidromotor kerak bo'ldi.

Gidromotorni tanlashda, unga sarf qilinadigan suyuqlik miqdori va quvvatini topish talab qilinadi.

Gidromotorning quvvati quyidagi formula bilan hisoblanadi :

$$N_{\Gamma-M} = \frac{\pi \cdot n \cdot M_{\text{ай}}}{3 \cdot 10^4 \cdot \eta}$$

bu erda:  $n$  – gidromotor valining aylanishlar soni, ayl/min

Gidromotor sarf qiladigan suyuqlik quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q = \frac{\pi \cdot n \cdot M_{\text{ай}}}{3 \cdot 10^7 \cdot P \cdot \eta}$$

bu erda:  $n_{\text{ish}}$  – gidromotor valining aylanishlar soni, ayl/min

$M_{\text{ay}}$  – gidromotor valining aylanish momenti, N.m.

$R$  – gidravlik yuritmadagi suyuqlikning bosimi, MRa

$\eta$  – gidromotorning F.I.K. ( $\eta = 0,98$ ). [5;6]

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. SH.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'litshi kerak.(Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza) Toshkent, O'zbekiston, 2017 y.104 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 son Farmoni. O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlarito'plami, 2017 y., 6-son.
3. A.Vasilev, I.I.Mer, A.T.Prudnikov, T.L.Ryabov, Meliorativnye i stroitelnye mashiny. Uchebnik. M.Agropromizdat. 1986 y. (rus tilida).
4. I.Mer i dr. Meliorativnye mashiny. Uchebnik. M.Kolos, 1986 g. (rus tilida).
5. Vafoev S.T. Qurilish mashinalari. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.-T.: Fan va texnologiya, 2013, 304 bet.
6. S.T.Vafoev, T.U.Usmonov, G.D.Smelev Metodicheskie ukazaniya po vypolneniyu prakticheskix i laboratornyx rabot po dissipline "Meliorativnye, stroitelnye i dorojnye mashiny" Tashkent. 2003 g. 112s.

#### Internet saytlari:

1. [www.rumbler.ru](http://www.rumbler.ru);
2. <http://www.edd.ru>;
4. <http://www.mcsa.ac.ru>;
5. <http://www.library.tversu.ru>;
8. [www.google.com](http://www.google.com)

## ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI

**Nosirov Xusanboy Baxodir o‘g‘li**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Respublikamizga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, ularni rivojlantirishning moliyaviy masalalarini o‘rganish va O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirish holati tahlilini o‘rganib vujudga kelgan muammolar hamda ularni hal etish yo‘llarini o‘ganish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelmoqda. Ushbu maqolada respublikamizga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning afzal tomonlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** investitsiya, erkin iqtisodiy zona, mehnat taqsimoti, eksport.

Respublikamizga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, ularni rivojlantirishning moliyaviy masalalarini o‘rganish va O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirish holati tahlilini o‘rganib vujudga kelgan muammolar hamda ularni hal etish yo‘llarini o‘ganish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishishning muhim yo‘nalishlaridan biri barcha ichki manbalardan unumli foydalanish hamda xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishdir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, erkin iqtisodiy hududlar maxsus xo‘jalik tuzilmalar sifatida jahonning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Ko‘pchilik davlatlar xorijiy kapitalni jalb qilsih va iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini rivojlantirish maqsadida bir necha asrlar davomida o‘z hududlarining bir qismida imtiyozli shart-sharoitlarni yaratib kelganlar. Hozirda dunyoning 200 ta mamlakatida 5500 dan ortiq erkin iqtisodiy hududlar mavjud bo‘lib, jahon savdo aylanmasinig 40-45 foizi erkin iqtisodiy hududlarga to‘g‘ri kelmoqda va ularda 70 millionga yaqin odam o‘z mehnat faoliyatini yuritmoqdalar. Xalqaro amaliyotga muvofiq, erkin iqtisodiy hududlar xalqaro mehnat taqsimotining keng tarqalgan shakli bo‘lib, rivojlanishi sust bo‘lgan hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishda, ushbu hududlarda mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini rivojlanishida va mamlakat iqtisodiyotiga keng ko‘lamda xorijiy investitsiyalarni jalb etilishida o‘z ijobiy

samarasini bermoqda. Mamlakatimizda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarni raqobatdosh va eksportga yo'naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'zlashtirishga yanada faol jalb qilish, ishlab chiqarish, muhandislik, kommunikatsiya, yo'l transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirishni ta'minlash uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishning eng muhim omili sifatida erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat zonalarni izchil rivojlantirish borasida qulay shart-sharoitlar yaratish dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek: "Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarda biznes subyektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim".

O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy hududlar va kichik sanoat hududlar tashkil etish, ular faoliyatini kengaytirish, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va berilgan imtiyozlardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish borasida muammolarning mavjudligi, ularni hal etishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuvi sharoitida mamlakatimizda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish siyosatini amalga oshirish va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarib xorijga eksport qilish va shuningdek import o'rnini bosuvchi yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni joriy qilishda erkin iqtisodiy zonalardan foydalanish, shuningdek, mamlakatimizda "ochiq eshiklar siyosatini" amalga oshirish hamda xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish borasida rivojlangan davlatlarning, ayniqsa, jahon xo'jaligida tezkor sur'atlarda rivojlangan mamlakatlarning, jumladan, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya, Xitoy kabi mamlakatlarning tashqi savdo-sotiq siyosati tajribalaridan unumli foydalanish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyotiga ijobiy samara beradi.

Shunga ko'ra, milliy iqtisodiyotni shakllantirishda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish orqali mamlakatning tashqi savdo-sotiq jarayonini va eksport salohiyatini yuksaltirish masalasi, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos jihatlarni hisobga olishni, ayniqsa, jahon iqtisodiyoti amaliyotida to'plangan tajribalar va xalqaro qonun-qoidalar asosida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish borasida va ularni tartibga solish usullarini yanada takomillashtirish zarurligini talab etadi. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda va undagi faoliyatlarni samarali olib borishda xorij mamlakatlarining tajribalaridan va ularning usullaridan unumli foydalanish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri

hisoblanadi. Mamlakatimizda jahon andozasiga mos ravishda yuqori texnologiyalar asosida sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish tizimini bugungi kun darajasiga ko'tarish to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "Iqtisodiyotni, avvalo, ishlab chiqarish sohalarini oqilona tashkil qilish, ularga yuksak texnologiyalarni joriy etish, shu asosda zamonaviy korxonalar barpoetib, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda jahon andozalariga mos, xalqaro bozordagi raqobatga bardosh bera oladigan tizimni yaratish bizdan, shubhasiz, katta vaqt, mehnat va shijoatni talab qiladi".

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Gazeta.uz va Kun.uz Internet saytlaridan olindi.
2. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. "Fan", Vahobov A.V., Malikov T.S.
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. 2016-yil 20-yanvar. O'RQ-400 son.
4. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni.

## SONLI INTEGRALLASH UCHUN SIMPSON FORMULALARINI QO‘LLASH

**Quvvatov Behruz Ulug‘bek o‘g‘li**

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Umumtexnik fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: [ulugzbekovich.bekhruz@mail.ru](mailto:ulugzbekovich.bekhruz@mail.ru)

### ANNOTATSIYASI

Tuzilgan dastur va natijalardan aniq integrallarni turli hayotiy masalalarga tadbiqlarida, muhandislik masalalarida olinadigan differensial tenglamalar yoki integral tenglamalarda qo‘llash mumkin. Shuningdek tuzilgan dasturiy ta‘minot va sonli integrallash usullari uchun to‘plangan ma‘lumotlar hisoblash matematikasi, sonli usullar fanlarida nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

**Tadbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi:** Aniq integrallarni yuqori aniqlikda hisoblovchi taqribiy metodlarni tanlash va ularning dasturlaridan turli sohalarda foydalanish mumkin.

### ABSTRACT

Exact integrals from the compiled program and results can be applied to various life problems, differential equations or integral equations obtained in engineering problems. Also, the data collected for the structured software and numerical integration methods can be used in the teaching of theoretical and practical training in the sciences of computational mathematics and numerical methods.


**Implementation rate and cost-effectiveness:** It is possible to choose approximate methods that calculate exact integrals with high accuracy and use their programs in various fields.

### KIRISH

Hozirgi axborot zamonida biron bir faoliyat sohasini axborot – kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning o‘zaro mosligi va aloqada ishlashini ta‘minlash axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalarini ishlab chiqish va rivojlantirishni tashkil etish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishni rag‘batlantirish maqsadida yangi texnologiyalardan foydalangan holda ta‘lim sifatini va uning

ko‘lamini kengaytirish bugungi kun talabi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu sabab yurtimizda xalqaro huquq me‘yorlarini hisobga olgan holda, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi milliy qonunchiligimiz muntazam ravishda takomillashtirib kelinmoqda. Ushbu qonunchilik bugun mualliflik va boshqa turdosh huquqlar, jumladan, to‘lovlar, tijorat, elektron imzo, hujjat aylanishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solmoqda. Axborot xavfsizligini ta‘minlash iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishning milliy ustuvorliklarini hurmat qilish tamoyillari asosida ochiq axborot jamiyatini tashkil etishda muhim masala hisoblanadi.

### Simpson formulasi




1–rasm. Simpsonning 1/3 qoidasi

Simpsonning 1/3 qoidasini  $n = 2$  bo‘lgan Nyuton – Kotes formulalaridan olish mumkin, ya‘ni 1 – rasmda ko‘rsatilganidek, parabolik interpolyatsiyani uchta qo‘shni

tugun orqali o‘tkazish orqali parabola ostidagi maydon  $\int_a^b f(x)dx$  ning yaqinlashuvini ifodalaydi (1.1 – misoldagi hosilaga e‘tibor beramiz).

$$I = \left[ f(a) + 4f\left(\frac{a+b}{2}\right) + f(b) \right] \frac{h}{3} \quad (1)$$



2 – rasm. Kompozit Simpsonning 1/3 qoidasi.

Kompozit Simpsonning 1/3 qoidasini qo‘llash uchun  $(a, b)$  integrallash diapazoni 2 – rasmda ko‘rsatilganidek, har biri  $h = (b - a)/n$  kenglikdagi  $n$  ta panelga ( $n$  juft) bo‘linadi. (1) tenglamani ikkita qo‘shni panelga qo‘llaydigan bo‘lsak,

$$\int_{x_i}^{x_{i+2}} f(x)dx \approx [f(x_i) + 4f(x_{i+1}) + f(x_{i+2})] \frac{h}{3} \quad (2)$$

biz (2) tenglamani

$$\int_a^b f(x)dx = \int_{x_0}^{x_n} f(x)dx = \sum_{i=0,2,\dots}^n \left[ \int_{x_i}^{x_{i+2}} f(x)dx \right] \quad (3)$$

(3) tenglamaga almashtirish orqali

$$\int_a^b f(x)dx \approx I = [f(x_0) + 4f(x_1) + 2f(x_2) + 4f(x_3) + \dots + 2f(x_{n-2}) + 4f(x_{n-1}) + f(x_n)] \frac{h}{3} \quad (4)$$

tenglamani hosil qilamiz.

(4) tenglamadagi Simpsonning 1/3 qoidasi sonli integrallashning eng mashhur usulidir. Biroq, trapetsiya qoidasi yanada ishonchliroq va Romberg integrallashi samaraliroq.

Kompozit Simpson formulasining xatoligi:

$$E = \frac{(b-a)h^4}{180} f^{(4)}(\xi) \quad (5)$$

shundan kelib chiqib,  $f(x)$  uch yoki undan kichik darajali ko'phad bo'lsa, (4) tenglama to'g'ri degan xulosaga kelamiz.

Simpsonning 1/3 qoidasi  $n$  panellar sonini juft bo'lishini talab qiladi. Agar bu shart bajarilmasa, biz Simpsonning 3/8 qoidasi bilan birinchi (yoki oxirgi) uchta panelni birlashtira olamiz,

$$I = [f(x_0) + f(x_1) + 3f(x_2) + 3f(x_3)] \frac{3h}{8} \quad (6)$$

va qolgan panellar uchun Simpsonning 1/3 qoidasidan foydalanamiz. (6) tenglamadagi xatolik (4) tenglamadagi bilan bir xil tartibda.

## 1.2. Romberg integrallash formulasi

Romberg integrallashi trapetsiya qoidasini Richardson ekstrapolyatsiyasi bilan birlashtiradi (5.3). Formula quyidagi ko'rinishga ega:



$$R_{i,1} = I_i \quad (7)$$

Bu yerda, avvalgidek,  $I_i$ ,  $2^{i-1}$  panellari yordamida rekursiv trapetsia qoidasi

bo'yicha hisoblangan  $\int_a^b f(x)dx$  ning taqribiy qiymatini ifodalaydi. Bu taqribiy xatolik:

$E = c_1h^2 + c_2h^4 + \dots$ , bu yerda

$$h = \frac{b-a}{2^{i-1}} \quad (8)$$

panelning kengligi.

Romberg integrallashi  $R_{2,1} = I_2$  (bir panel) va  $R_{1,1} = I_1$  (ikki panel) ni trapetsiya qoidasidan hisoblashdan boshlanadi. Yetakchi xato atamasi  $c_1h^2$  Richardson ekstrapolyatsiyasi bilan yo'q qilinadi. (5.9) tenglamada  $p = 2$  (yetakchi xato atamasidagi ko'rsatkich) dan foydalanib va natijani  $R_{2,2}$  bilan belgilab, quyidagini hosil qilamiz.

$$R_{2,2} = \frac{2^2 R_{2,1} - R_{1,1}}{2^{2-1}} = \frac{4}{3} R_{2,1} - \frac{1}{3} R_{1,1} \quad (9)$$

Natijalarni forma massivida saqlash qulay

$$\begin{bmatrix} R_{1,1} \\ R_{2,1} & R_{2,2} \end{bmatrix} \quad (10)$$

Keyingi qadam  $R_{3,1} = I_3$  (to'rtta panel) hisoblash  $R_{2,1}$  va  $R_{3,1}$  bilan Richardson ekstrapolyatsiyasini takrorlash va natijani  $R_{3,2}$  sifatida saqlashdir:

$$R_{3,2} = \frac{4}{3} R_{3,1} - \frac{1}{3} R_{2,1} \quad (11)$$

$R$  massivining hozirgacha hisoblangan elementlari

$$\begin{bmatrix} R_{1,1} \\ R_{2,1} & R_{2,2} \\ R_{3,1} & R_{3,2} \end{bmatrix} \quad (12)$$

Ikkinchi ustunning ikkala elementida  $C_2h^4$  ko‘rinishidagi xatolik mavjud, uni Richardson ekstrapolyatsiyasi bilan ham bartaraf etish mumkin. (5.9) tenglamada  $p = 4$  dan foydalanib, biz quyidagi tenglamani olamiz.

$$R_{3,3} = \frac{2^4 R_{3,2} - R_{2,2}}{2^{4-1}} = \frac{16}{15} R_{3,2} - \frac{1}{15} R_{2,2} \quad (13)$$

Bu natijada  $O(h^6)$  xatolik bor. Massiv hozirgacha kengaytirildi

$$\begin{bmatrix} R_{1,1} \\ R_{2,1} & R_{2,2} \\ R_{3,1} & R_{3,2} & R_{3,3} \end{bmatrix} \quad (14)$$

Boshqa hisob –kitoblardan so‘ng biz olamiz

$$\begin{bmatrix} R_{1,1} \\ R_{2,1} & R_{2,2} \\ R_{3,1} & R_{3,2} & R_{3,3} \\ R_{4,1} & R_{4,2} & R_{4,3} & R_{4,4} \end{bmatrix} \quad (15)$$

bu erda  $R_{4,4}$  dagi xato  $O(h^8)$  dir. Integralning eng aniq bahosi har doim massivning oxirgi diagonali elementi hisoblanadi. Bu jarayon ketma – ket ikkita diagonallar orasidagi farq yetarlicha kichik bo‘lguncha davom ettiriladi. Ushbu sxemada ishlatiladigan umumiy ekstrapolyatsiya formulasi

$$R_{i,j} = \frac{4^{j-1} R_{i,j-1} - R_{i-1,j-1}}{4^{j-1} - 1}, \quad i > 1, \quad j = 2,3,\dots,i \quad (16 a)$$

(16 a) tenglamaning rasmi ko‘rinishi quyida tasvirlangan.

$$\begin{array}{c} \boxed{R_{i-1,j-1}} \\ \searrow \\ \alpha \\ \boxed{R_{i,j-1}} \rightarrow \beta \rightarrow \boxed{R_{i,j}} \end{array} \quad (16 b)$$

$\alpha$  va  $\beta$  ko‘paytirgichlar  $j$  ga quyidagi tarzda bog‘liq bo‘ladi:

$j$	2	3	4	5	6	(16 c)
$\alpha$	$-1/3$	$-1/15$	$-1/63$	$-1/255$	$-1/1023$	
3. Pulatov A.A. Voleybol- //JTI I kurs talabalariga mo'ljallangan ma'ruzalar to'plami. -T., 2004, 71b.
4. Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. o'quv qo'llanma. - T., 2007, 148 b.
5. Pulatov A.A., Isroilov Sh.X., Qurbonova M.A., Kdirova M.A. I-IV kurs talabarlari bilan seminar va uslubiy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha uslubiy ishlanmalar (voleybol nazariyasi va uslubiyati bo'yicha). -T., 2008, 78 b .
6. Pulatov A.A. Yosh voleyboichilar tezkorlik-kuch sifatlarini shakllantirish uslubiyati. Uslubiy qo'llanma. -T., 2008,38 b
7. Qurbonova M.A., Qosimova M.U. Milliy va harakatli o'yinlari. Oliy o'quv yurtlari umumiy kurs talabarlari uchun o'quv qo'llanma. -T., 2009, 67 b.
8. Ayrapetyans L.R, Pulatov A.A, Isroilov Sh.X. Voleybol Oliy o'quv yurtlari umumiy kurs talabarlari uchun o'quv qo'llanma. -T., 2009, 77 b

УДК:616-16-36-002-06

## КЕКСА ВА ҚАРИЯЛАРДА ТАЯНЧ-ҲАРАКАТ ТИЗИМИ КАСАЛЛИКЛАРИДА ОРТИҚЧА ТАНА ВАЗНИ ВА СЕМИЗЛИККА МОЙИЛЛИК ГЕН ВА ГЕНОТИПЛАРИ УЧРАШ ДАРАЖАСИ

Джумаев Б.З.

Бухоро давлат тиббиёт институти

**Мақсад:** Кекса ва қарияларда ортиқча тана вазнини белгиловчи ген ва генотипларнинг учраш даражасини таҳлил қилиш.

**Материал ва усуллар:** Бухоро вилоят кўп тармоқли клиник касалхонасининг ревматология бўлимида стационар шароитда даволанган, кекса ва қарияларда ортиқча тана вазнига эга 66 нафар беморлар текширилди. Беморларнинг бўйи, тана оғирлиги, кекса ва қарияларда ортиқча тана вазнииндекси, қондаги 3 хил турдаги генлар ва уларнинг 7 хил генотиплари ва триглицеридлар аниқланди.

**Олинган натижалар:** ТХТК ташхисланган кекса ва қария беморларда қонидаги холестерин, ЮЗЛП ва ПЗЛП миқдорларининг ген ва генотипларга боғлиқ хусусиятлари ўрганилганда ҳар учала кўрсаткичнинг ҳам асосий гуруҳда меъёр параметрларидан ишонарли равишда юқори эканлиги аниқланди, назорат гуруҳи маълумотлари меъёр (референт) кўрсаткичлар доирасида бўлди. Аммо асосий гуруҳ бўйича олинган маълумотлар бошқача бўлди. Натижалар ўзгариш тенденцияси ЮҚТТК га ўхшаш бўлса ҳам, улар интенсивлиги бўйича паст кўрсаткич ТХТК бўйича олинди

**Калит сўзлар:** кекса ва қариялар , таянч-ҳаракати тизими , ортиқча тана вазни, нутригеномика, ген ADRB3 (rs 4994), ген ADRB2 (rs1042713), ген PPARG2 (rs1801282), семизлик.

## СОСУЩЕСТВОВАНИЕ ГЕНОВ И ГЕНОТИПОВ ИЗБЫТОЧНОЙ МАССЫ ТЕЛА И ОЖИРЕНИЯ ПРИ ЗАБОЛЕВАНИЯХ ОПОРНО- ДВИГАТЕЛЬНОГО АППАРАТА У ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ

Джумаев Б.З.

Бухарский государственный медицинский институт

**Цель:** Анализ степени ассоциации генов и генотипов, определяющих избыточную массу тела у пожилых людей.

**Материалы и методы:** В ревматологическом отделении многопрофильной клинической больницы Бухарской области обследовано 66 пациентов с избыточной массой тела. У пациентов определяли рост, массу тела, индекс избыточной массы тела у пожилых и пожилых людей, 3 различных типа генов и 7 различных их генотипов и триглицериды в крови.

**Полученные результаты:** при изучении особенностей содержания холестерина в крови, ВПЛП и НПЛП в крови пожилых и пожилых пациентов с диагнозом ОДБ установлено, что все три показателя достоверно превышают стандартные показатели в основной группе, а данные в контрольной группе находились в пределах стандартных (референсных) показателей. Но данные, полученные для основной группы, были иными. Хотя результаты показали аналогичную тенденцию изменения СССБ, они были получены для индикатора низкой интенсивности ОДСБ.

**Ключевые слова:** пожилые люди, опорно-двигательный аппарат, избыточная масса тела, нутригеномика, ген ADRB3 (rs 4994), ген ADRB2 (rs1042713), ген PPARG2 (rs1801282), ожирение.

## COEXISTENCE OF GENES AND GENOTYPES OF OVERWEIGHT AND OBESITY IN DISEASES OF THE MUSCULOSKELETAL SYSTEM IN THE ELDERLY

**Djumaev B.Z.**

Bukhara State Medical Institute

**Objective:** Analysis of the degree of association of genes and genotypes determining excess body weight in the elderly

**Materials and methods:** In the rheumatology department of the multidisciplinary clinical hospital of Bukhara region, 66 overweight patients were examined. The patients' height, body weight, excess body weight index in the elderly and elderly, 3 different types of genes and their 7 different genotypes and triglycerides in the blood were determined.

**Results obtained:** When studying the characteristics of the content of cholesterol in the blood, VPLP and NSDL in the blood of elderly and elderly patients diagnosed with ODB, it was found that all three indicators significantly exceeded the standard indicators in the main group, and the data in the control group were within the standard (reference) indicators. But the data obtained for the main group were different.

Although the results showed a similar trend in SSBP, they were obtained for the low-intensity indicator ODSP.

**Keywords:** elderly people, musculoskeletal system, overweight, nutrigenomics, ADRB3 gene (rs 4994), ADRB2 gene (rs1042713), PPARG2 gene (rs1801282), obesity.

## КИРИШ

Сурункали касалликлар эпидемиологияси инсонларнинг этник хусусиятларига, географик ва социал экономик шароитига боғлиқ бўлади. Кекса ва қарияларда ортиқча тана вазни ва семизлик юрак-қон- томир хасталикларига ҳамда қандли диабетни II типи, метаболик синдром ва бошқа бир қанча касалликларни ривожланишига олиб келади. Инсон организмда тана массасини ортиши бу кўпинча кам ҳаракат қилиш ва овқат калориясининг ошиши натижасида келиб чиқади. Тана массасининг ортиши, кекса ва қарияларда ортиқча тана вазни ва семизликда асосий омиллардан ирсий мойилликнинг бўлиши генетик фонга боғлиқ бўлади [1.3,5,9].

Бугунги кунда кекса ва қарияларда ортиқча тана вазни тўғрисидаги маълумотлар кўпайиб бормоқда. Генларнинг турли хил турлари липид ва углевод алмашинуви бузилишига боғлиқ бўлиб, метаболик синдромнинг ривожланишига олиб келади. Аммо бу муаммо Ўзбекистон республикасида кам ўрганилган. Генлар полиморфизми ( $ADRB_2$  ва  $ADRB_3$ ),  $V_2$  ва  $V_3$  адренорецепторлар тана массасининг ортишида асосий роль ўйнайди. Ген  $ADRB_2$   $V_2$  адренорецепторлар силлиқ мушакларда бронхиолаларда, жигар ҳужайраларда, скелет мушакларда ва бошқа тўқималарда учрайди. Жигарда гликогенолиз бошланиши билан скелет мушакларида гликогенларнинг парчаланиши кузатилади ва метоболизм фаоллашади. Энг кўп тарқалган  $ADRB_2$  гени семизлик билан боғлиқ.  $ADRB_3$  гени  $V_3$  адренорецепторлар вицерал ёғ тўқималарда аденилатциклазани фаоллаштиради, бунинг натижасида ёғ тўқималарда липолиз кучаяди.  $ADRB_3$  генини  $Trg$  64  $Ag$  оқсил рецепторларга таъсир қилиб тана массасини ошишига олиб келади [2.6,8,10].

Кекса ва қарияларда ортиқча тана вазни ва семизлик бирлашиб метаболик синдром (МС) ни юзага келтиради. Метаболик синдромни ривожланиши инсонни яшаш сифатини ёмонлаштиради. Эрта ногиронликка, ўлимга олиб келади. Метаболик синдромга учраган беморларда юрак-қон-томир тизими касаллигининг ривожланиш хавфи 1,7-2,2 % ни ташкил этади. Метаболик синдром кузатилган инсонларда метаболик синдром бўлмаганларга нисбатан ушбу хасталик 3 баробар кўп учрайди. Иштаҳани назорат қиладиган генлар асосан лепин–меланокаротинли тизимни назорат қилади. Бу тизимнинг

бузилиши оқибатида оғир даражадаги семизликка олиб келади. 5 та ген LEP, LEPR, POMC, PCSKI ва MC4R иштаҳани кучли даражада оширади бу шахсларни тўқликка бўлган ҳиссини йўқотади. Адабиёт манбаларда келтирилишича 20 дан ортиқ генлар метаболик синдромнинг ривожланишига олиб келади. Ген FABR<sub>2</sub> ингичка ичакнинг эпителийсида бўлади. Шу ген ёрдамида ингичка ичакда ёғлар сўрилади. Th 54 гени мавжуд шахсларда кекса ва қарияларда ортиқча тана вазникузатилади. Бунда асосан абдоминал семизликка мойиллик ошади [8.9,10].

Кекса ва қарияларда ортиқча тана вазни индекси турли даражаларида генларнинг тарқалиши Ўзбекистонда тўлиқ ўрганилмаган. Кекса ва қарияларда ортиқча тана вазнива семизлик нафақат этник муаммо ҳисобланади, бу ўз навбатида атеросклерозни, ЮИК, артериал гипертония, ишемик инсульт, II типдаги қандли диабет, эркаклар ва аёллар бепуштлигига олиб келувчи хавфли омиллар ҳисобланади. Бу ўз навбатида кекса ва қарияларда ортиқча тана вазнива семизликда генларнинг тарқалишини ўрганиш, илмий изланишларни давом этиришни талаб қилади.

**Мақсад:** Кекса ва қарияларда ортиқча тана вазнига эга бўлган беморларда ген ва генотипларнинг тарқалишини ўрганиш.

**Материал ва усуллар:** Бухоро вилоят Жондор тумани кўп тармоқли тиббиёт бирлашмаси марказининг турли бўлимларида ётиб даволанган ортиқча тана вазнига эга бўлган 92 нафар беморлар текширишдан ўтказилди. Текширишдан ўтган 92 нафар беморнинг 30 нафари назорат гуруҳида, 62 нафари асосий гуруҳда тақсимланди. 62 нафар асосий гуруҳдаги беморлар кекса ва қарияларда ортиқча тана вазни индексига қараб 3 гуруҳга бўлинди. 20 нафар беморда ортиқча тана вазнининг биринчи даражаси, 13 нафарда иккинчи даражаси ва 11 нафарда эса учинчи даражаси аниқланди. Юқорида кўрсатилган беморларда бўйи, тана оғирлиги, кекса ва қарияларда ортиқча тана вазнииндекси, қондаги 3 хил турдаги генлар ва уларнинг 7 хил генотиплари аниқланиб натижалар таҳлил қилинди.

**Олинган натижалар.** Юрак қон-томир касалликлари кузатилган беморлардагига ўхшаш тадқиқотлар таянч-харак тизими касалликлари ташҳисланган беморларда ҳам ўтказилди. Солиштириш осон бўлиши учун уларда ҳам худди шу ген ва генотиплар аниқланди.

Олинган натижалар шуни кўрсатдики, таққослаш гуруҳида барча ген ва генотиплар учраш даражаси ўртача ёши назорат гуруҳига нисбатан барча ҳолатларда катта бўлди (3.5-жадвал).

### 3.5 - жадвал

#### Таянч-ҳаракат тизими касалликлари ташхисланган беморларда ёш ва жинсига боғлиқ ҳолда

Генлар	Гено-типлар	Холестерин, (3,1-5 ммоль/л)		ЮЗЛП (0,72-1,63 ммоль/л)		ПЗЛП (2,02-4,79 ммоль/л)	
		АГ	НГ	АГ	НГ	АГ	НГ
ADRB2(rs1042713) A>G	A/A	6.9±0,17*	4,3±0,16	2.93±0,3*	1,03±0,0	6.94±0,5*	2,54±0,19
	A/G	7.1±0,13*	4,1±0,13	2.95±0,2*	1,08±0,0	6.97±0,3*	2,31±0,13
ADRB3(rs4994) Trp64A <sub>rg</sub>	Trp/Trp	7.2±0,0,12*	4,2±0,12	2.96±0,2*	1,05±0,04	6.95±0,3*	2,41±0,14
	Trp/A <sub>rg</sub>	7.4±0,3*	4,5±0,36	2.67±0,4*	1,04±0,04	7.04±0,2*	2,60±0,1
	C/G	7.05±0,11*	3,9±0,18	2.89±0,3*	1,08±0,04	6.91±0,6*	3,0±0,13
PPARG2(rs1801282)_C34G	C/C	7.01±0,14*	4,3±0,16	2.97±0,2*	0,96±0,04	6.98±0,3*	2,29±0,14
	G/G	6.9±0,12*	4,4±0,26	3.01±0,3*	1,43±0,14	7.03±0,2*	3,35±0,6
Жами		7.05±0,12*	4,2±0,11	2,42±0,1*	1,10±0,03	6.97±0,2*	2,64±0,12

Изох: АГ - асосий гуруҳ, НГ - назорат гуруҳи. \*- асосий ва назорат гуруҳлар орасидаги ишонччилик белгиси.

Хар иккала гуруҳда ҳам энг юқори ёш градацияси бир хил ген ва генотипда учради - мос равишда ТГда 50,6 ёш ва НГда 28,7 ёш PPARG2(rs1801282)\_C34G генига қарашли С/С генотипида. Энг ёш беморлар гуруҳида ҳам аниқ қонуният кузатилди, бундай ҳолатда ҳам битта ген ва G/G генотипида бўлди-мос равишда 41,0 ёш ва 23,0 ёш.

Эркак жинсига мансуб ТГга киритилган беморларда энг кўп учраган генотип Trp/Trp бўлди - 73,1% (n=19), аёлларда ҳам худди шунга ўхшаш натижа қайд қилинди - 75,0% (n=6) учраш даражаси айнан шу генга (Trp/Trp) тўғри келди. Энг кам учраш даражаси бўйича ҳам ТГ ва НГларга кирувчи эркакларда битта генотипда кузатилди - G/G да мос равишда 15,4% (n=4) ва 12,5% (n=1). Бундай аниқ қонуният ушбу касалликка хос бўлиб, патологик жараён организмда генотипик даражада ўзгаришлар келиб чиқмагани билан изоҳланади.

Аёлларда ҳам кўрсаткичлар амалий жихатдан бир хил бўлди - энг кўп учраш фоизи Trp/Trp генотипига тўғри келса, энг ками G/G генотипига тўғри келди.

Жинслараро тафовут кузатишга таянч-ҳаракат тизим касалликлари учун ўзига хос хусусият сифатида талқин қилинди.

ТГга мансуб эркаклар ва аёлларда, шунингдек НГга мансуб турли жинсларга мансуб шахсларда ҳам айнан шу генотипларга таалуқлиги эътиборлидир.

Шундай қилиб, таянч-ҳаракат тизими касалликлари ташхисланган беморлар ёши ва жинсга боғлиқ ҳолда ген ва генотиплар учраш даражаси ўзига хос бўлди. Таққослаш ва назорат гуруҳлари орасида энг ёши катталар ва энг ёши кичикларда учраш бўйича бир хил бўлди - ҳар иккала ҳолатда ҳам Trp/Trp ва G/G генотиби бўлди. Худди шу генотиплар турли жинсларда ҳам бир хил бўлди, бу ҳолатда ҳам Trp/Trp ҳамда G/G генотиплари кўпроқ аниқланди, улар энг кўп тарқалган генотиплар сифатида эътироф этилди.

Ушбу беморларда ген ва генотиплар учраш даражаси беморлар бўйи ва оғирлигига боғлиқлиги ўрганилди (3.6-жадвал).

Беморлар бўйича боғлиқлик ТГда Trp/Arg генотиби ва A/G генотипларида кузатилди, НГда бўлса бу боғлиқлик G/G ва C/C генотипларида кузатилди. ТГ ва НГларида беморлар бўйича маълум қонуниятлар кузатилмади. Энг юқори вазн G/G генотипда (ҳар иккала солиштирилаётган гуруҳда ҳам) учради. ТМИ бўйича ҳам шундай қонуният кузатилди.

**Таянч-ҳаракат тизими касалликлари кузатилган беморлар бўйи ва оғирлигига боғлиқ ҳолда ген холида генотиплар**

Генлар	Генотип	Бўйи		Вазни		ТМИ	
		ТГ	НГ	ТГ	НГ	ТГ	НГ
ADRB2,(rs1042713) A>G	A/A	168,1	167,3	67,4	77,6	30,4	27,5
	A/G	165,7	171,4	81,3	79,1	29,4	27,3
ADRB3(rs4994) Trp64A <sub>rg</sub>	Trp/Trp	166,3	169,2	82,6	77,8	29,8	27,4
	Trp/A <sub>rg</sub>	168,5	169,0	85,5	81,5	30,5	27,5
PPARG2(rc18012 82)_C34G	C/G	165,8	170,0	84,5	79,8	30,8	27,3
	C/C	167,2	167,0	82,4	77,0	29,4	27,5
	G/G	167,0	177,5	89,0	81,5	32,0	27,0
Жами		166,9	170,2	79,0	79,2	30,3	27,4

**Изоҳ:** ТГ-таққослаш гуруҳи; НГ-назорат гуруҳи.



Учраш даражаси бўйича ҳам ўзига хос хусусиятлар кузатилди. Эътиборли жихати шундаки, таққослаш гуруҳида Trp/Trp генотиби энг кўп учради 74,5% (3.7 - жадвал).

Кейинги ўринда C/C генотиби (68,9%) ва A/Gгенотиби (56,9%) бўлишди. Энг кам учраш даражаси G/G генотиби (5,9%) ва C/Gгенотипларига (25,5%) учради.

Назорат гуруҳида энг кўп учраган генотип Trp/Trp бўлди (86,7%), кейинги ўринларда C/C генотиби (60,0%) ва A/A генотиплари (53,3%) бўлди. Кўриниб турибдики, хар учала генотип ҳам турли генларга мансублиги эътиборни тортди, шунингдек уларнинг турли генларда учраш даражаси бўйича назорат гуруҳида маълум қонуният кузатилмади.

Энг кам учраган генотипларга Trp/Trp (13,3%) ва G/G генлари кирди (13,3%).


### Таянч-ҳаракат тизими касалликлари кузатилган беморларда ген ва генотиплар учраш кўрсаткислари

Генлар	Генотип	Учраш даражаси			
		ТГ		НГ	
		Мут	%	Мут	%
ADRB2,(rs1042713) A>G	A/A	22	43,1	8	53,3
	A/G	29	56,9	7	46,7
ADRB3(rs4994) Trp64A <sub>rg</sub>	T <sub>rp</sub> /T <sub>rp</sub>	38	74,5	13	86,7
	T <sub>rp</sub> /A <sub>rg</sub>	13	25,5	2	13,3
PPARG2(rc18012 82)_C34G	C/G	13	25,5	4	26,7
	C/C	35	68,6	9	60,0
	G/G	3	5,9	2	13,3
Жами		51		15	

**Изоҳ:** ТГ-таққослаш гуруҳи; НГ-назорат гуруҳи.

Хар иккала гуруҳ солиштирилганда энг кўп учраш даражаси хар иккала гуруҳда олиш жихатдан бир хил эканлиги аниқланди - Trp/Trp ва C/C генотиплари. Энг кам Учраш даражаси бўйича ҳам бир хил натижалар олинди (3.5 - расм).

3.5-расмдаги учраш даражаси бўйича ҳосил бўлган “чўкки”лар ва “пасайиш”лар хар иккала гуруҳда бир хил бўлгани эътироф этгулик ҳолатдир.



### Таянч-ҳаракат тизими касалликлари кузатилган беморларда генотиплар учраш даражаси параметрлари, %

Ортиқча тана вазни ва семизлик учун холестерин, юқори ва паст зичликдаги ёғ кислоталарининг улкан аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда уларнинг ген ва генотипларга боғлиқлик хусусиятини ўргандик (3.8-жадвал).

Таққослаш ва назорат гуруҳларига киритилган беморлар қонидаги холестерин миқдорининг ўртача кўрсаткичлари солиштирилма ўрганилганда шу аниқландики, барча ҳолатларда ушбу кўрсаткич ўртача (6,1 ммоль/л дан 6,8 ммоль/л гача) меъёр кўрсаткичлардан (референт параметрлар - 3,1 ммоль/л дан 5,0 ммоль/л гача) ишонарли даражада юқори бўлди ( $P < 0,05$ ).

Генотиплар бўйича тақсимланганда холестериннинг энг юқори концентрацияси PPAR2(rs1801282)\_C34G генининг C/G генотипига тўғри келди (ўртача 6,8 ммоль/л), энг кам миқдори эса шу генининг G/G генотипига мос бўлди (ўртача 6,1 ммоль/л).

### Таянч-ҳаракат тизими касалликлари кузатилган беморлар қонидаги холестерин ва ёғ кислоталарининг ген ва генотипларга боғлиқ ҳолатдаги аниқланиш кўрсаткичлари

Генлар	Геноти п	Холестерин, 3,1 - 5 моль/л		ЮЗЛП, 0,72 - 1,63 ммоль/л		ПЗЛП, 2,02 - 4,79 ммоль/л	
		ТГ	НГ	ТГ	НГ	ТГ	НГ
ADRB2 (rs1042713) A>G	A/A	6,5	4,3	2,47	1,03	6,90	2,54
	A/G	6,6	4,1	2,51	1,08	6,50	2,31
ADRB3 (rs4994) Trp64A <sub>rg</sub>	T <sub>rp</sub> /T <sub>rp</sub>	6,6	4,2	2,45	1,05	6,60	2,41
	T <sub>rp</sub> /A <sub>rg</sub>	6,5	4,5	2,62	1,04	7,03	2,60
PPARG2 (rc18012 82)_C34G	C/G	6,8	3,9	2,11	1,08	6,68	3,00
	C/C	6,5	4,3	2,67	0,96	6,69	2,29
	G/G	6,1	4,4	2,14	1,43	6,56	3,35
Жами		6,5	4,2	2,42	1,10	6,71	2,64


Назорат гурухи бўйича натижалар тамомила бошқача бўлди: биринчидан беморларнинг барча кўрсаткичлари референт кўрсаткичлар доирасида бўлди, меъёрдан ошиши аниқланмади;

иккинчидан, холистириннинг энг юқори концентрацияси ADRB3(rs4994)Trp64Arg генининг Trp/Arg генотипига тўғри келди (ўртача 4,5 мкмоль/л), энг кам миқдори эса PPARG2(rs1801282)\_C34G генининг C/G генотипига тўғри келди (ўртача 3,9 мкмоль/л).


Таққослаш ва назорат гуруҳларида генотиплар мос келмаслиги, холистириннинг қонда кўп миқдорда учрашини таъминловчи генлар мавжудлиги аниқланди.

ЮЗЛП ва ПЗЛП бўйича ҳам юқоридагига ўхшаш натижалар олинди. Хар иккала ҳолатда ҳам таққослаш гуруҳида барча кўрсаткичлар танланган меъёр параметрларидан (ЮЗЛП бўйича 0,72 - 1,63 мкмоль/л; ПЗЛП бўйича 2,02 - 4,79 мкмоль/л) юқори бўлди. Кўрсаткичлар юқори даражада учраш интенсивлиги ПЗЛП да сезиларли равишда баланд бўлганлиги эътиборли ҳолатдир.

ЮЗЛП энг юқори даражаси таққослаш гуруҳида C/C генотипи (ўртача 2,67 ммоль/л) ва Trp/Arg генотипларига (ўртача 2,62 мкмоль/л) мос келди (3.6-расм). Эътиборлиси шундаки, назорат гуруҳидаги энг юқори кўрсаткичлар (ўртача 1,43 мкмоль/л ва 1,08 мкмоль/л) бошқа генотипларга тўғри келди - G/G ва C/G генотиплари.



а



б

### Таққослаш (а) ва назорат (б) гуруҳлардаги генотипларнинг ПЗЛП частотаси

ПЗЛП бўйича ҳам натижалар шунга ўхшаш бўлди, таққослаш ва назорат гуруҳлари энг кўп учраган параметрлари бошқа-бошқа генотипларга тўғри келди. Бу ҳолат ПЗЛП нинг қондаги юқори канцентрация организмнинг маълум генотиплари билан бошқарилишини кўрсатиб турибди.

### ХУЛОСАЛАР

Кекса ва қарияларда, ТХТК ташҳисланган беморлар қонидаги холестерин, ЮЗЛП ва ПЗЛП миқдорларининг ген ва генотипларга боғлиқ хусусиятлари ўрганилганда ҳар учала кўрсаткичнинг ҳам асосий гуруҳда меъёр параметрларидан ишонарли равишда юқори эканлиги аниқланди, назорат гуруҳи маълумотлари меъёр (референт) кўрсаткичлар доирасида бўлди. Аммо асосий гуруҳ бўйича олинган маълумотлар бошқача бўлди. Натижалар ўзгариш тенденцияси ЮҚТТК га ўхшаш бўлса ҳам, улар интенсивлиги бўйича паст кўрсаткич ТХТК бўйича олинди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

1. B.Z Dzhumaev., STUDY OF THE DISTRIBUTION OF GENES AND GENOTYPES DETERMINING EXCESS BODY WEIGHT IN THE ELDERLY AND THE ELDERLY - Educational Research in Universal Sciences, 2023
2. Djumaev B. Z. WAYS FOR REDUCING OVERWEIGHT AND OBESITY IN CHRONIC LIVER DISEASES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 1615-1619.

3. Nurbaev F.E., Djumaev B.Z. Gene and genotype polymorphism in patients with overweight and obesity // Scientific and international conference scientific ideas of young scientists Conference proceedings available at virtual conference press/ - Warsaw, Poland, 2021. - Jenuar-february. – P. 31-32.
4. Nurbaev F.E., Djumaev B.Z. Identification of genes and polymorphisms of genotypes, lipid spectra in patients, prone to excess body mass and obesity // International scientific and practical conference CUTTING EDGE-SCIENCE. Conference Proceedings. Available at virtualconferences.press. - Shawnee, USA, 2020. – P.110-111.
5. БЗ Джумаев., [КЕКСА ВА ҚАРИЯЛАРДА ОРТИҚЧА ТАНА ВАЗНИНИ БЕЛГИЛОВЧИ ГЕН ВА ГЕНОТИПЛАРНИНГ ТАРҚАЛИШИНИ ЎРГАНИШ](#) - Educational Research in Universal Sciences, 2023
6. Джумаев Б. З. АБУ АЛИ ИБН СИНОНИНГ СОҒЛИКНИ САҚЛАШ ТАДБИРЛАРИДА ҚАРИЯЛАРДА СУРУНКАЛИ КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ОРТИҚЧА ТАНА ВАЗНИ ВА СЕМИЗЛИКНИ КАМАЙТИРИШНИ ЙЎЛЛАРИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 357-363.
7. Джумаев Б. З. ИЗУЧЕНИЕ РАСПРОСТРАНЕННОСТИ ГЕНОВ И ГЕНОТИПОВ ИЗБЫТОЧНОЙ МАССЫ ТЕЛА ПРИ ХРОНИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ ПЕЧЕНИ //Биология и интегративная медицина. – 2022. – №. 2 (55). – С. 95-103.
8. Джумаев Б. З. Пути Снижения Избыточной Массы Тела И Ожирения При Хронических Заболеваниях Печени //AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 100-106.
9. Джумаев Б. З. Способы Снижения Избыточного Веса И Ожирения При Хроническом Заболевании Печени В Медицинских Вмешательствах Абу Али Ибн Сины //AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 94-99.
10. Джумаев Б.З.,[СУРУНКАЛИ ЖИГАР КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ОРТИҚЧА ТАНА ВАЗНИ ВА СЕМИЗЛИКНИ ГЕНЕТИК ЎРГАНИШ ВА ТАҲЛИЛ](#) Scientific Impulse 1 (5) (2022), 37-44
11. Нурбаев Ф.Э., Джумаев Б.З. Ортиқча тана вазн ва семизликка мойил бўлган беморларда ген ва генотиплар полиморфизмини аниқлаш ва диетотерапия тавсия қилиш // Услужий тавсиянома. – Бухоро, 2020. – 24 б.

## TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLARNING DOLZARB MASALALARI

**Ismoilova Umida Ergash qizi**

O'zbekiston jurnalistika va  
ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, oliy ta'lim muassasalarini byudjet va nobyudjet moliyaviy manbalar hisobiga moliyalashtirishning joriy holati, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha xulosa va tavsiyalash ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, oliy ta'lim, davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg'armalar, investisiya, natijaviylikka ko'ra moliyalashtirish, davlat-xususiy sherikchilik.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены развитие системы высшего образования в Узбекистане, повышение уровня охвата населения высшим образованием, современное состояние финансирования высших учебных заведений за счет бюджетных и внебюджетных источников финансирования, существующие проблемы в Разработаны выводы и рекомендации по финансированию высших учебных заведений и их ликвидации.

**Ключевые слова:** образование, высшее образование, государственный бюджет, внебюджетные фонды, инвестиции, результативное финансирование, государственно-частное партнерство.


### ABSTRACT

This article examines the development of the higher education system in Uzbekistan, increasing the level of population coverage with higher education, the current state of financing higher educational institutions through budgetary and extra-budgetary sources of funding, existing problems in the conclusions and recommendations on the financing of higher educational institutions and their liquidation.

**Keywords:** education, higher education, state budget, extra-budgetary funds, investments, effective financing, public-private partnership.

## KIRISH

Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar o'z mevalarini bera boshlab, O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda. Mazkur yangilanishlar ta'lim tizimining samadorligini oshirishga qaratilgani bilan ham alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kun talablariga javob beruvchi zamonaviy ta'lim talablarini belgilaydigan eng muhim omillar nimalardan iborat degan savol tug'ilishi tabiiydir. Bunday omillarning asosiysi ta'lim tizimida yangi oltinchi texnologik yo'nalishga o'tish. Shu kungacha dunyoda beshinchi texnologik yo'nalishlar, ya'ni telekommunikatsiya, internet va elektronika hukmronlik qilgan. Yangi texnologik yo'nalishlar esa biotexnologiya, nanotexnologiya, sun'iy intellektga o'tishni, shuningdek, insonlarning bilim olishiga investisiya kiritishning alohida rolini o'z ichiga qamrab oladi. Bu sivilizatsiya rivojlanishining yangi bosqichi - axborot sivilizatsiyasi bosqichidir. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ham mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini belgilashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar to'g'risida to'xtalib o'tar ekan, quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: "Tarmoqlar rahbarlari kadrlarga ehtiyoj to'g'risidagi ma'lumotni Oliy ta'lim vazirligi va Iqtisodiyot vazirligiga taqdim etishadi. Keyin mutaxassislarni tayyorlash kvotalari bo'yicha chuqur o'ylanmagan takliflar ishlab chiqiladi. Buning natijasida kadrlar sifati va ularni ishga joylashtirish muammosi yildan-yilga kuchayib bormokda". Mamlakatimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasida bu ko'rsatkichni 2030 yilga kelib 50 foizga yetkazish belgilandi (1-rasm).



**1-rasm. Bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi**

Ushbu rasm ma'lumotlaridan shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 10 yil ichida 2,5 barobarga oshirish rejalashtirilgan. 2021 yilda bu ko'rsatkich 28 foizni tashkil etdi. Bunday ko'rsatkichga nafaqat mavjud oliy ta'lim muassasalarining qabul kvotalarini oshirish orqali, balki yangi oliy ta'lim muassasalarini ochish orqali ham erishish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari jami 159 ta, ulardan universitetlar 30 ta, institutlar 45 ta, akademiyalar 3 ta, filiallar 28 ta, Konservatoriya 1 ta, chet el OTM filiallari 28 ta, nodavlat oliy ta'lim muassasalari 24 tani tashkil etadi. Shunga munosib ravishda oliy ta'lim muassasalariga talabalarning qabul kvotasi ham mutanosib ravishda oshirildi. Jumladan, 2014 yilga nisbatan 2020 yilda OTMlari soni 1,9 barobarga oshgan, OTMlarga hujjat topshirgan abituriyentlar soni hamda qabul kvotasi natijalari esa mos ravishda 3,2 va 2,6 barobarga oshgan. Shuningdek, 2014-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalari va ularda o'qish niyatini bildirgan abituriyentlar sonining oshishiga qaramay, qabul kvotasi natijalarida kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda, ya'ni abituriyentlari soni 2016 yilda 2014 yilga nisbatan 21,7 foizga oshishiga qaramay, qabul kvotasi natijalari 4,5 foizga kamaygan. 2017 yilga kelib esa, barcha tarmoq va sohalarda sodir bo'lgan o'zgarishlar kabi oliy ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotasi 2016 yilgan qaraganda 35 foizga oshdi. Ushbu islohotlarni keyingi yillarda ham davom ettirish natijasida 2020 yilga kelib qabul kvotasi 2016 yilga qaraganda 2,7 barobarga oshishiga erishildi.

Respublikaning 16 ta oliy ta'lim muassasasida 2018/2019 o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi. Birgina 2019-2020 o'quv yilining o'zida AQSh, Germaniya, Fransiya Italiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Turkiya, Indoneziya, Isroil va boshqa 22 ta davlatning 104 ta yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlarida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramay, yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, jumladan:

- bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi pastligicha qolmoqda. Bu ko'rsatkich 2016 yilda 9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib 15 foizni va 2021 yilda esa 28 foizni tashkil etdi. Biroq bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 60-70 foizni tashkil etadi;

- oliy o'quv yurtlari bilan kadrlar buyurtmachilarining o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar samarali tashkil etilmagan. Buning natijasida, birinchidan nazariya va amaliyotning uyg'unligi ta'minlanmaydi, ikkinchidan



bitiruvchilarning ish bilan bandligini ta'minlanishida qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, uchinchi dan ish beruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga investisiyalar kiritishi, homiylik yordamlarini ko'rsatishi, amaliyot jarayonida mavjud muammolarni olimlar bilan hamkorlikda bartaraf etishda faolliklari pastligicha qoladi;

- oliy o'quv yurtlarining innovasion faoliyati hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga iqtidorli yosh olimlar va talabalarni jalb etish natijadorligi yetarli darajada emasligi, shuningdek ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi ta'minlanmagan;

- talabalar turar joylari, kutubxonalar, sport sog'lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari quvvatlari mavjud ehtiyojni qanoatlantirmaydi, shuningdek ularning aksariyat qismida bugungi kun talabalariga javob beradigan moddiy-texnik baza shakllantirilmagan.

- oliy o'quv yurtlarining zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriyalar bilan jihozlanish darajasi yetarli darajada emas, xalqaro standartlarga javob beruvchi o'quv laboratoriya uskunalarning ulushi atigi 10 foizni tashkil etadi, shuningdek o'quv jarayoni laboratoriya materiallari bilan yetarli darajada ta'minlanmagan;

- oliy o'quv yurtlari mablag'larining asosiy qismi ish haqiga sarflanib, o'quv va ilmiy laboratoriyalarni modernizatsiyalashga, bino va inshootlarni kapital hamda joriy ta'mirlashga yetarlicha mablag' yo'naltirilmagan. Buning asosiy sabablaridan biri oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mablag'larining yetishmasligi hisoblanib, uni bartaraf etish maqsadida moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, uni diversifikatsiya qilish lozim;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiya qilinmaganligi, uning asosiy manbasini to'lov-kontrakt summalari tashkil etishi;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda hududiy omillarni hisobga olmaslik va mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanmaslik;

- oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda ishchi xodimlarining ish haqi va unga ustamalar hisoblashning samarali tizimi ishlab chiqilmagan va boshqalar.

## **XULOSA**

Mazkur muammolarning bartaraf etilishi nafaqat oliy ta'lim muassasalarining reytingini va ta'lim sifatini oshishiga olib keladi, balki ularning moliyalashtirish mexanizmiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish natijasida ularning ayrimlaridan mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimida ham foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. /Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi.
3. Raxmonov D.A. O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishning metodologik asoslari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2017. –248 b.
4. Gulyamov S.S., Jumaev N.X., Raxmonov D.A., Tashxodjaev M.M. Ijtimoiy sohada investisiyalarning samaradorligi. Monografiya. – T.: «Iqtisodiyot», 2019. – 342 b.

## AXBOROT KUTUBXONA MUASSALARINING METODIK ISHLARI

**Mambetova Ayxan Abat qizi**

Ózbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti  
Nukus filiali 4-bosqish talabasi

Ilmiy rahbar: **Xudaybergenova Marjan**

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kutubxonalarning metodik ishlari, metodik ishlarni tashkil etishning prinsiplari, shakillari va zamonaviy usullari haqidagi malumotlar bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** Metodik uslub, metodik markazlar, ilmiylik princip, metodik qollanmalar.

Metodik uslub. Bul qidirish yoʻli. Qandaydir bir maqsadga erishish uchun yechim hisoblanadi. Bajariladigan ishlarning umumiyliigi bilan bogʻliq uslublarning tartibga solinishi metodik tushunchaning mazmunin tashkil etadi. Masalan, kitob oʻquvchilarga xizmat koʻrsatish metodikasi, adabiyotlar bibliografik tafsiflash tuzish metodikasi.

Metodik taminlash ishlarin “metodik markazlar” dep nomlanuvchi kutubxonalar amalga ochiradi. Metodik markazlar kutubxona va axborot tarmoqlari ilmiy metodik ishlarni va metodik raxbarlikni amalga oshiruvchi markaziy kutubxona sanaladi. Bular:

1. Oʻzbekiston Milliy kutubxonsi Respublika metodik markazi
2. Boshqarmalar ora kengashining ishki organi orqali
3. M. Ulugʻbek nomidagi Milliy universitetning ilmiy kutubxonasi. Yoqori taʼlim
4. Qoraqalpogʻiston respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri AKMLari, muassasa metodik markazlari orqali amalga oshiriladi.

Metodik xizmat tizimin tuziahta bir qotar prinsiplarga asoslanadi. Bu princilar 2ga ajratiladi;

1) Kutubxonachilik ishi nazaryasi va amaliyotidagi zarur prinsiplarga assoslangan ilmilik, foallik, guruhlarga ajiratish kabi umumiy prinsiplar;

2) Bosh mavzuni ajiratib tafsiya etish, kutubxonalar bilan bilvosita munosabatta boʻlish, tezlik doim va rejali kabi asosli prinsiplar hisoblanadi;

Metodik ishlarda ilmiylik principga amal qilsh barcha metodik maslahatlar kutubxonachilik ishi nazaryasi va amaliyoti fanining eng soʻngi yutuqlari asossinda ilmiy asosalangan va tajribada sinalgan boʻlishi lozim.

Metodik markazlar o'zlarining faoliyatini guruhlariga ajratgan holda kutubxonalar turlari va tiplari kutubxonachi xodimlarning malumoti, vazifasi, amaliy tajribasini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Metodik ishlarni amalga oshirishda har xil shakillar va uslublardan foydalaniladi. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish,
- Maslahatlar,
- Axborotni ko'rip chiqish,
- Metodik qollanmalar yaratish,
- Ishlarni va yo'l-yo'riqlar tuzish,
- Seminar va konferensiyalar tashkil etish,
- Kurs va amaliyot mashinlarini tuzish v.h.

Metodik yordam va uni amalga oshirish uslublariga qarab, ular 3 shakilga ajratish mumkin.

- Og'izaki shakillar – tafsirlar, bayonotlar va abzorlar;
- Bosma shakillar – metodik qollanmalar axborot materiallari;
- Ko'rgizma shakillar – bannerlar, kino va tevideyelardan foydalanish, yana da foal ishlarni joriy etish bilan kutubxonalarda kechalar tashkil etish, amaliy tadbirlarni ko'rsatish;

**Maslahatlar.** Ular mazmuniga binoan har xil va shakli bo'yicha yakka tartibdagi, guruhli va umumiy bo'ladi. Yakka tartibdagi maslahatlar maslahatchi va kutubxonachi ortasida bo'ladi. Guruhli maslahatlar bir vaqtning o'zida bir nechta insonlarga beriladi, o'z mazmuniga ko'ra ular umumiylik xarakterdagi yoki boshidan belgilangan mavzuga binoan bo'ladi. Umumiy maslahatlar seminar, yig'inlar, konferensiya qatnashuvlari og'izaki va yozma shaklda beriladigan savollar asosida o'tkaziladi.

**Metodik qo'llanmalar** orasida aniq ishchi xarakteri yuqori bo'lgan xabarlar qo'llanmasi: kadrlar tayyorlash bo'yicha turli mashinlar o'tkazishga tegishli qo'llanma; ularni joriy etishga tegishli rasmiy qoydalar va ko'rsatmalardan iborat yo'l ko'rsatkichli metodik qo'llanma bo'lishi mumkin.

**Metodik materiallar** metodik maktub shaklida, zarur vazifalarni bajarishga, joriy etishga va boshqalarga yordam berishda zarur tafsiranoma xarakterdagi bosma maslahatlar yoki yo'l ko'rsatkichi metodik maktub shakliga ega bo'lishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Maxmudov M.X. Kutubxona – axborot faoliyatini boshqarish. Darslik. Toshkent. 2009.
2. Davlatov S.X, Nosirov O‘, Berdiyeva Z.Sh, O‘rozov A.N. Kutubxonashunoslik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2021.-423 b.
3. Yuldashev I.J, Nosirov O‘. Kutubxona – axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2021.-352 b.

## УМУМТАЪЛИМ МАКТАБИ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ТАФАККУРИНИ ЎСТИРИШ (ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА)

**Ш.О. Холмуродов**

Термиз давлат педагогика институти

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада информатика дарсларида ўқувчилар тафаккурини ривожлантириш диалектика қонунларига таянган ҳолда ўз олдига қўйилган масалаларини тўғри ҳал қила олишлиги ҳақида фикр юритилган.

**Калит сўзлар:** диалектика, қонуният, ҳамкорлик, тафаккур, фикр, мантик, ҳодиса, жараён, хотира, фаолият, руҳият, қараш, алоқа, ҳақиқат, қонун, қоида, далил, муаммо.

Ўқувчиларда тафаккур ўстириш, фикрнинг мантиқий ривожланишини шакллантириш, улар онгига миллий ғояни сингдириш учун информатика ўқитишининг замонавий технологияларини жорий этиш, дарс мазмунига фалсафий методологияни сингдириш лозим.

Маълумки, инсон тафаккур орқали ҳар нарсани билади, ўрганади, нарса ва ҳодисалар ўртасидаги муносабатларни англаб етади. Ана шу англаб этиш руҳиятини сингдириш учун ўқитувчилар дарсда хотира жараёнлари билангина кифояланмасдан, балки ўқувчиларни ўйланишга, ўйлантиришга, ниманидир янгидан яратишга ўргатишлари зарур. Чунки Янги Ўзбекистонда креатив тафаккур, умумназарий, фалсафий тафаккур ривожлантирилмоқда. Бугун ўқувчилар қандай тафаккурга эгаллиги, яшаши ва амалий фаолиятлари қайси тамойилларга, мақсадларга бўйсундирилганлигини билиш зарур. Билишгина эмас, балки ана шу тафаккурни ўзгартириш, мустақил фикрловчи шахсни тарбиялаш, фалсафий қонуниятларни, айниқса, ҳозирги информатика дарсларида қўллаш муҳим аҳамият касб этади.

Маълумки, ўқувчилар тафаккурининг воқеланиши улар нутқининг ривожланиши билан боғлиқ. Шу боис тил тафаккурининг моддийлашуви дейилади. Тафаккури ривожланган ўқувчи фикрини изчил баён этади, маълум масала бўйича кенг мушоҳада қилади, тўғри ҳукм чиқаради, шароитга кўра, ўз қарашларини баён қилади, асосли равишда баҳсга киришади. Ана шу мақсадга эришиш учун информатика фанини фалсафа фани билан боғлаб ўқитиш эътиборга лойиқ.

Арасту “Метафизика” асарида бир неча жуфт категориялар, яъни зарурият ва тасодиф, бутун ва бўлак, яккалик ва умумийлик категорияларининг моҳияти, уларнинг ўзаро алоқвадорлиги ҳақидаги фикрларни илгари сурган. Унинг диалектикаси асосида инсоннинг ҳақиқатга эришишида фикрлаш жараёни ётади. Шунинг учун ҳам диалектика борлик ва тафаккурнинг ҳақиқий асосини аниқлаш билан боғлиқ [6; 132-б.]. жумладан, диалектика информатикани ўқитишда жуда зарур ва муҳим ўрин тутди. Баъзи ўқувчилардаги фикрлашнинг пойма-пойлиги мантиқий тўғри фикр юритишни билмаганлигидан. Ҳар бир фанни ўқитишда фалсафа ва унинг бир бўлими бўлган мантиқ илмининг тўртта асосий қонун-қондасига риоя қилинмас экан, тафаккурни ривожлантириш ҳақида гап бўлиши мумкин эмас, яъни айният қонуни – бирор нарса ҳақидаги фикр [6; 132-б.] тугамасдан бошқасига ўтиб кетмаслик; зиддиятсизлик қонунига биноан бир вақтнинг ўзида иккита зид фикрнинг бўлмаслиги; истисно қонуни бир вақтнинг ўзида иккита зид фикрдан бири ҳамиша рост бўлиб, иккинчиси ёлғон бўлиши; етарли асос қонуни далиллар асосида ўз фикрини исботлаш бўлиб, тўғри фикрлаш асосланганликни, исботлашни талаб қилади. юқоридаги фикрларга таянган ҳолда, шуни айтишимиз жоизки, умумтаълим мактаби ўқувчиларининг тўғри фикрлашлари учун далиллаш, асослаш, зиддиятсизлик, истисно, айният қонунларини пухта билмоғи, шундан сўнггина тўғри фикр юрита олмоғи мумкин.

Демак, замонавий ўқувчидаги тафаккур – чуқур, илми асосланга, мустақил, мантиқий бўлмоғи лозим.

Тафаккурнинг ривожланишига кенг имкониятлар очиб беришнирнг йўл-йўриқларини педагог олима Э.З.Усмонова қуйидагича кўрсатган:

- 1) муаммонинг юзага келиши ва фикрий вазифанинг шаклланиши;
- 2) вазифа жавобини излаш ва уни топиш;
- 3) ушбу топилган жавобни субъектив янгиликнинг очилиши сифатида идрок этиш;
- 4) эришилган жавобнинг тўғрилигини исботлаш, уни бошқа кишига асослаб бериш, тушунтириш [2; 36-б.].

Ҳақиқатан ҳам, муаммонинг жавобини ҳамда жавобнинг асосини ахтариш тафаккур ривожланишига кенг имкониятлар яратиб беради.

Фалсафий категориялар бошқа фанларнинг тушунчаларидан ўзининг умумлашганлик, изчиллик, мувофиқлаштириш каби хусусиятларга эга эканлиги билан фарқ қилади. Демак, умумтаълим мактаби ўқувчиларида тафаккурни ривожлантирмоқчи бўлинса, қуйидаги жиҳатларга эътибор қаратмоқ зарур: ўқувчиларнинг тартиб билан гаплашишига, фикрларини умумлаштиришга,

асослай олишига, креативлиги, топқирлиги ва тезкорлигига эътибор бермоқ жоиз.

А.Чориев “Инсон фалсафаси” номли монографик асарида инсон муаммосини ўрганувчи тадқиқотчиларнинг саъй-ҳаракатлари икки йирик кутбга бўйсундирилишини, биринчи кутб – инсоннинг табиий – ижтимоий моҳиятини ўрганувчи барча фанларнинг ўзаро алоқадорлигини таъминлаш зарур эканлигини таъкидлайди [3; 139 б.].

Унинг фикрича, фанлар ўртасидаги ҳамда нарса – ҳодисалар ўртасидаги алоқадорликни англаган ўқитувчи ўз дарсларини тўғри лойиҳалай олади. Онгида антициприк лаёқатлар ривожланган ўқитувчигина таълим жараёнида ўқувчилар тафаккурини ўстира олади. Оннинг антициприк лаёқатида унинг уч хил функцияси ажратилади: билиш (фаразлар қўйиш, келажакни кўра билиш), лойиҳалаш (фикран ҳисоб-китоб қилиш, лойиҳани олдин онгда, сўнгра амалиётда тайёрлаш), тасдиқлай билиш (мақсад, режа, дастур, концепцияларни амалга ошириш) [1; 136 б.].

Умумтаълим мактаби ўқувчиларининг тафаккурини ўстириш, уларни мустақил фикрлашга ўргатиш информатика фанининг “жон томир”и.

Мустақил фикрлаш, бошқалар фикридан билиб-билмай андоза олиш эмас, балки кўрган, идрок этган, мушоҳада қилган нарса – ҳодисаларга онгли муносабат билдирган ҳолда, таҳлил қилиш тизимлаш, таснифлаш, улар ичидан ўзига тегишли томонларини олиб умумлаштириш ва таққослаш орқали ҳукм чиқариш, ўзнутқида буни айта олиш қобилияти.

Маълумки, умумтаълим мактабида ўқиш ўспиринлик даврига тўғри келади. Бу ёшда оламни билишга, фалсафий мушоҳадага, психологик таҳлилга, мантикий фикрлашга, тафаккур қирраларини ривожлантиришга иштиёқ ва ҳаракат кучли бўлади. Шу билан бирга, ўспиринларда фантазияга мойиллик ҳам мавжуд бўладики, мана шу физиологик – психологик ҳолат тафаккурни ривожлантириш, билишга интилиш учун омил ҳисобланади. Бу эса ўспириннинг психологик-педагогик имкониятлари бошқа ёшдаги ўқувчиларга нисбатан кўпроқ эканини, оламни билишга иштиёқ кучлироқлигини билдиради. Шунинг учун ҳам ўспиринлик ўқувчининг шахс сифатида шаклланишида асосий босқич бўлиб хизмат қилади

Биз тадқиқот объекти сифатида танлаб олган умумтаълим мактаби ўқувчилари ўспиринлик ёшидаги илғор, билимдон, қизиқувчан, билимга интилувчи, ахлоқ – одоби шаклланган, мустақил креатив фикрловчи шахс бўлиб, улардаги ички эҳтиёж ўзининг имкониятлари даражасида амалга ошади.

Ўқувчи шахсининг ривожланишида ўсмирликдан ўспиринликка ўтиш ўзига хос хусусиятга эга. “Бу, энг аввало, уларда ўзини такомиллаштириш истаги



(ёқимли бўлиш)нинг кучайиши ва ўқишга бўлган қизиқишнинг ўсиши билан тавсифланади” [4; 138 б.]. ўспириннинг энг муҳим хусусиятларидан бири мустақил фикр юритишга иштиёқнинг пайдо бўлиши. Негаки, бу ёшдаги ўқувчилар руҳиятида ўзини катта бўлиб қолгандай ҳис этиш ўзининг мустақил овози бор эканини исбот қилиш, ҳатто ўз тенгқурлари орасида ҳам устунлик таллашиши – лидерликка даво қилиш ҳолати пайдо бўлади. Физиологик жиҳатдан ҳам ўзгаришларнинг рўй бериши (овознинг дўриллаши, бўй чўзилиши, йигитлик ёки қизлик хусусиятлари ва ҳ.к.) ўспирин психологиясига таъсир этади. Шу боис бу даврда фақат назарий билим бермасдан, турли амалий вазиятларга муносабат билдиришни шакллантириш, кўпроқ изланиш, креатив ёндашув, тафаккур ривожига эътибор қаратиш лозим. Жаҳон таълим тизимида фалсафа, психология ҳар бир фан учун методологик асос саналади. Чунки барча фанлар назарий жиҳатдан фалсафий қонуниятларга асосланади. Шунингдек, илмий тафаккур ҳам инсон психологияси ва фалсафиц қонуниятлар билан чамбарчас боғлиқ.

Шуни эътиборга олган ўзбек психолог олим Э. Ғозиев ўспиринларга дарс жараёнида ўзига хос равишда ёндашув зарур эканини таъкидлайди. Унинг фикрича, ўқувчилар ўрганилаётган нарса ва ҳодисаларнинг объективлиги, ҳаққонийлиги, тўғрилигига ишонч ҳосил қилишлари ва уларни исботлашни ўрганишлари, фан ўқитувчилари уларни нарса ва ҳодисалар тўғрисида оригинал фикр юритишга йўналтиришлари, шунингдек, ўқувчиларнинг машғулотларда қўлланавериш, маънавий эскирган бир қолипдаги сўзлардан, иборалардан фойдаланишларига йўл қўймасликлари; фан ўқитувчилари ўспиринларга билимларини амалиётга татбиқ қилишни ўргатишлари керак [5; 168 б.]. бунинг учун ўқувчиларда амалий малакаларни шакллантириш муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун ҳам ўспирин тафаккурини ривожлантириш учун унга психологик жиҳатдан ёндашиш зарур.

Фалсафий тафаккур воқеликдаги нарса ва ҳодисаларга хос бўлган барча алоқаларни, зиддиятларни, унинг тараққиёт қонуниятларини билиш, ҳар томонлама таҳлил қилиш имкониятини яратади.

Борлиқни англаш – тафаккур шакллари орқали вужудга келади. Ҳар бир ўқувчи ўз амалий фаолиятида фикрлашнинг мазмун-моҳияти, унинг ранг-баранглиги, кўп қиррали хусусиятларини ҳисобга олиб, уларга онгли равишда амал қилишлари лозим.

Реал борлиқни англаш таълимнинг ҳаёт билан алоқадорлигини ўргатишдан иборат. Ўқувчининг фикри кенг ва атрофлича бўлиши учун ўқитувчи таълимнинг ҳаёт билан алоқадорлик томонини ўқувчиларга англантиши лозим. Билим оловчи ана шуни тушуниб етсагина ўз куч-ғайратини билимларни қизиқиб ўрганишга сарфлай олади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)**

1. Ибрагимов Р. Проблемный подход обучения младших школьников. Автореф. канд. дисс. – Т., 1985. – 16 с.
2. Усманова Э.З. Ўқувчиларда мустақил тафаккурни қандай шакллантириш мумкин? – Т.: Педагогика ва психология илмий-оммабоп нашри, 2000. – Б. 36.
3. Чориев А. инсон фалсафаси. -Т.: Chinor ENK, 2002. -139 б.
4. Фридман Л.М., Кулагина И.Ю. Психологический справочник учителя. – М.: «Просвещение», 1991. -288 с.
5. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: “Ўқитувчи”, 1990. -Б. 167-168.
6. Ғарб фалсафаси. -Т.: “Шарқ”. -Б. 132.
7. Холмуродов Шухрат Окбоевич РОЛЬ ИННОВАЦИИ В ТЕХНОЛОГИИ ВОСПИТАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ИНФОРМАТИКИ // Вопросы науки и образования. 2021. №18 (143). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-innovatsii-v-tehnologii-vospitaniya-professionalnoy-i-tvorcheskoy-deyatelnosti-buduschego-uchitelya-informatiki> (дата обращения: 20.05.2023).
8. Okboevich K. S. Mathcad system as a means of increasing the efficiency of physics //Archive of Conferences. – 2021. – С. 138-141.
9. Kholmurodov S. A., Kabilovich X. N. The State of Multimedia Software Today //Eurasian Journal of Media and Communications. – 2022. – Т. 12. – С. 10-14.
10. Kholmurodov S. A. Mechanisms for improving the professional and creative activity of a computer science teacher //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 12. – №. 1. – С. 153-157.
11. Kholmurodov S. O. DIGITAL INFORMATION AS A MEANINGFUL ELEMENT OF DIGITAL INDUSTRY COMPONENTS //Thematics Journal of Business Management. – 2021. – Т. 10. – №. 7.
12. Kholmurodov S. O. IMPROVING THE STRUCTURE AND CONTENT OF THE COURSE THEORY AND METHODS OF TRAINING AND EDUCATION IN COMPUTER SCIENCE IN ACCORDANCE WITH THE STATE STANDARDS OF

EDUCATION OF UZBEKISTAN //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 7. – C. 89-92.

13. Xolmurodov S. O. METHODOLOGICAL ASPECTS, CONTENT AND ORGANIZATIONAL FORMS OF TEACHING A COMPUTER SCIENCE COURSE AT HUMANITARIAN FACULTIES OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – C. 239-241.

14. Shuxrat Okboevich Xolmurodov OSNOVA RAZVITIA OBshxESTVA PROTSSESY INFORMATIZASII OBRAZOVANIYA // Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osnova-razvitiya-obschestva-protsessy-informatizatsii-obrazovaniya> (ma'lumotlar manzili: 20.05.2023).

15. Xolmurodov Sh. O. SISTEMA INFORMATSIONNYX TEXNOLOGIY V OBRAZOVANII STUDENTOV INFORMATIKOV // Digital. 2021. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-informatsionnyh-tehnologiy-v-obrazovanii-studentov-informatikov> (ma'lumotlar manzili: 20.05.2023).

## SANOAT VA MAISHIY CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASH UTILIZATSIYALASH

**B.T. Botirova**

QarMII “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ta’lim yo‘nalishi III- kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada chiqindilarni utilizatsiya qilish muammosini hal qilishning zamonaviy yondashuvlari, ikkilamchi xomashyoni qayta ishlashning eng istiqbolli yo‘nalishlari va texnologiyalari, talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash jarayonini samarali zamonaviy asbob-uskunalar bilan uyg‘unlikda tashkil etish xususida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** tog‘-kon sanoati, sanoat chiqindilari, qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish, iqtisodiy tartibga solish.

Sanoatning asosiy kamchiliklaridan biri uning yuqori resurs zichligi, boshqa narsalar qatori, ikkilamchi xom ashyodan past darajada foydalanish bilan bog‘liq. Hatto eng ifloslangan - shahar chiqindilari ham 30-40% ga qayta ishlatilishi mumkin. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida ushbu salohiyatdan foydalanish taxminan 70% ga etadi.

Rossiya Federatsiyasida chiqindilarni utilizatsiya qilishning o‘rtacha darajasi 25% dan kam, ulardan sanoat chiqindilari 35%, qattiq maishiy chiqindilar esa atigi 3-4% qayta ishlanadi. Buning sabablaridan biri tarmoqlararo muammolar: chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilishning sanoat tarmoqlari o‘rtasida aylanishini ta’minlaydigan umumiy tizim mavjud emas [1].

O‘zbekistonda har yili 13-15 mln tonnadan ziyod qattiq maishiy chiqindilar (QMCh) hosil bo‘ladi, ularning 90%dan ortig‘i poligonlarga jo‘natiladi va faqat 8% chiqindi ikkilamchi qayta ishlab chiqariladi. Har bir million tonna qattiq maishiy chiqindi (QMCh)da 360 ming tonna oziq-ovqat chiqindisi, 160 ming tonna qog‘oz va karton, 55 ming tonnagacha mato, 45 ming tonnagacha plastmassa va ko‘plab boshqa qimmatli komponentlar yo‘q bo‘lib ketadi[5].

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2020 yil yakunlariga respublika bo‘yicha toksik va notoksik chiqindilar hosil qiladigan tashkilotlarda hosil bo‘lgan jami chiqindilar miqdori 125,6 mln tonnani tashkil etdi. Qayd etilishicha, ushbu ko‘rsatkich hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ulush Navoiy viloyatida ekani ma’lum bo‘lgan – 48,2 foiz. Keyingi o‘rinlardan Toshkent viloyati (34,6 foiz) va Jizzax viloyati (9,1 foiz) joy oldi. Aksincha, toksik va notoksik chiqindilar bo‘yicha eng kam ulush Sirdaryo viloyatida

qayd etildi – 0,01 foiz. Keyingi o‘rinlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi (0,02 foiz) hamda Farg‘ona viloyati (0,03 foiz) [4].

Rivojlangan mamlakatlarda chiqindilar muammosini hal qilishning zamonaviy yondashuvi o‘ziga xos tamoyilga asoslanadi:

- chiqindilar hosil bo‘lishini kamaytirish;
- tarkibini o‘zgartirmasdan qayta foydalanish;

Sifatiga ko‘ra chiqindilar quyidagi yo‘nalishlarda qayta ishlanadi:

- foydali komponentlarning yuqori konsentratsiyasiga ega bo‘lgan chiqindilar, qimmatli materiallar va mahsulotlar manbai, qog‘oz, plastmassa, kimyo sanoati chiqindilari;

- birinchi navbatda qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan yirik sanoat chiqindilari (qurilish chiqindilari, metallurgiya, tog‘-kon, ruda boyitish sanoati). Hozirgi vaqtda Rossiyada qurilish plomba moddalarini ishlab chiqarish uchun 300 million tonnadan ortiq qazib olinadi.

Tabiiy xom ashyo, bu xom ashyoning uchdan bir qismi sanoat chiqindilari bilan almashtirilishi mumkin;

- qayta ishlanmaydigan chiqindilar energiya salohiyatidan foydalangan holda yonish yo‘li bilan ham ishlatilishi mumkin.

Chiqindilarni qayta ishlash jarayoniga jalb qilish orqali erishiladigan asosiy maqsadlar:

- birlamchi xomashyodan tayyorlangan mahsulotlarga nisbatan ishlab chiqarish uchun energiya va iqtisodiy harajatlarni kamaytirish;
- chiqindilar bilan almashtiriladigan mineral xomashyo ishlab chiqarishni qisqartirish hisobiga atrof-muhitga etkazilgan zararni kamaytirish;
- chiqindilarni utilizatsiya qilish natijasida atrof-muhitga yetkaziladigan zararni kamaytirish va begonalashtirilgan yer resurslarini qisqartirish [2].

### **Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash.**

Qattiq maishiy chiqindilarni to‘liq yo‘q qilish yoki qisman qayta ishlash muammosi, birinchi navbatda, atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatish nuqtai nazaridan dolzarbdir. Qattiq maishiy chiqindilar ikkilamchi resurslarning (jumladan, qora, rangli, noyob va dispers metallar) boy manbai, shuningdek, "erkin" energiya tashuvchisidir, chunki maishiy chiqindilar yoqilg‘i energiyasi uchun qayta tiklanadigan uglerodli energiya xom ashyosi hisoblanadi. Biroq, har qanday shahar yoki shahar uchun qattiq maishiy chiqindilarni olib tashlash yoki zararsizlantirish muammosi doimo birinchi navbatda ekologik muammo hisoblanadi. Maishiy chiqindilarni qayta ishlash jarayonlari shaharning ekologik xavfsizligini, umumiy sanitariya va gigiena nuqtai nazaridan shahar iqtisodiyotining normal ishlashini, shuningdek, aholining turmush sharoitini buzmasligi juda muhimdir.

Ma'lumki, dunyoda qattiq maishiy chiqindilarning katta massasi hanuzgacha o'z-o'zidan paydo bo'lgan yoki "chiqindilar poligonlari" shaklida maxsus tashkil etilgan poligonlarda saqlanadi. Biroq, bu qattiq chiqindilar bilan kurashishning eng samarasiz usuli, chunki ko'pincha unumdor erlarning keng maydonlarini egallagan va uglerod o'z ichiga olgan materiallarning (qog'oz, polietilen, plastmassa, yog'och, kauchuk) yuqori konsentratsiyasi bilan ajralib turadigan poligonlar ko'pincha yonib ketadi, hamda atrof-muhitni chiqindi gazlar bilan ifloslantiradi, bundan tashqari, chiqindixonalar yog'ingarchilik bilan yer usti va yer osti suvlarini ifloslantiruvchi manba hisoblanadi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashni oqilona tashkil etish qurilish sanoatida qayta ishlanadigan mahsulotlarning 90 foizigacha qayta ishlab xom ashyodan foydalanish imkonini beradi.


Hozirgi kunda Qarshi shahrida yashovchi 250 000 dan ziyod kishi tomonidan har yili 79 ming tonna tartibsiz sanitar epidemiologik me'yorlariga zid bo'lgan holda chiqindilar chiqarilmoqda. Ularni asosiy qismini qurilish va aralash chiqindilar tashkil etadi. Vaholanki, bizning uyro'zg'or chiqindilarimiz qayta ishlatishga yaroqli resurslarga boy manba hisoblanadi. Ularni 18,9% - qog'oz, 38,4% - oziq-ovqat, 4,9% - yog'och, 3,4% - metal, 3,9% - latta, 3,9% - oyna, 0,8% - charm va rezina, 0,9% - plastmassa va boshqa qayta ishlanadigan ikkilamchi resurslarni tashkil etadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, asosiy maqsad shahardan chiqadigan plastmassa buyumlarini yig'ib, ularni hajmini kichraytirib, ikkilamchi material ishlab chiqarishga tayyorlash kerak.

Hozirgi vaqtda qattiq maishiy chiqindilarni saqlash va qayta ishlashning bir qancha usullari mavjud, xususan: oldindan saralash, biotermik kompostlash, chiqindilarni yoqish, past haroratli piroliz, yuqori haroratli piroliz. Qattiq maishiy chiqindilarni saralashdan oldingi bosqichda chiqindilarni qayta ishlash zavodlarida qo'lda yoki avtomatlashtirilgan konveyerlar yordamida fraksiyalarga bo'linadi. Bu chiqindilarni tarkibiy qismlarini maydalash va elakdan o'tkazish yo'li bilan hajmini kamaytirish, shuningdek, katta yoki kichikroq metall buyumlarni olib tashlash jarayonini o'z ichiga oladi.

Tuproqni sanitariya holatini yaxshilash uchun - qattiq maishiy chiqindilarni yo'q qilishning texnologik yondashuvi biogaz ishlab chiqarish va undan keyin yoqilg'i sifatida foydalanish kerak. Shu maqsadda maishiy chiqindilar 0,6-0,8 m qalinlikdagi siqilgan tuproq qatlami bilan ma'lum bir texnologiya yordamida qoplanadi. Biogaz poligonlari ventilyatsiya quvurlari, gaz puflagichlar va biogazni yig'ish uchun konteynerlar bilan jihozlanadi. Chiqindixonalarda axlat qalinligida g'ovaklik va organik komponentlarning mavjudligi mikrobiologik jarayonlarning faol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Yoqib yuborish qattiq maishiy chiqindilarni yo'q qilishning keng tarqalgan usuli bo'lib, 19-asrning oxiridan beri keng qo'llaniladi. Qattiq maishiy chiqindilarni to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilishning qiyinligi, bir tomondan, uning juda ko'p komponentligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni qayta ishlash jarayoniga sanitariya talablarining oshishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan, yoqish hali ham maishiy chiqindilarni birlamchi tozalashning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Maishiy chiqindilarni yoqish, hajm va vazni kamaytirishdan tashqari, markazlashtirilgan isitish va elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha energiya resurslarini olish imkonini beradi.



Ushbu usulning kamchiliklari atmosferaga zararli moddalarni chiqarish, shuningdek, maishiy chiqindilar tarkibidagi qimmatli organik va boshqa komponentlarni yo'q qilishni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda maishiy chiqindilar tarkibidagi o'zgarishlar va qat'iy ekologik standartlar bilan bog'liq bo'lgan yonish jarayonlarini yaxshilash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Biotermik kompostlash.** Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning ushbu usuli taxminan 60°S haroratda issiq havo shaklida kislorodning kirishi bilan chiqindilarni aylantirishning tabiiy, ammo tezlashtirilgan reaksiyalariga asoslangan.

Qattiq chiqindilar biomassasi biotermik qurilmada (barabanda) bu reaksiyalar natijasida kompostga aylanadi. Biroq, ushbu texnologik sxemani amalga oshirish uchun dastlabki chiqindilarni yirik ob'ektlardan, shuningdek, metall, shisha, keramika, plastmassa va kauchukdan tozalash kerak. Olingan chiqindi fraksiyasi biotermik barabanlarga solinadi va u mahsulot olish uchun 2 kun saqlanadi.

Maishiy chiqindilarni piroliz yo'li bilan qayta ishlash usuli, ayniqsa, yuqori narxi tufayli mamlakatimizda juda kam ma'lum. Bu chiqindilarni zararsizlantirishning arzon va ekologik toza usuliga aylanishi mumkin. Piroliz texnologiyasi kislorodga kirish imkoni bo'lmagan harorat ta'sirida chiqindilarning qaytarilmas kimyoviy o'zgarishini o'z ichiga oladi. Chiqindilarga harorat ta'siri darajasiga ko'ra, jarayon sifatida piroliz shartli ravishda past haroratli (900 ° C gacha) va yuqori haroratli (900 ° C dan yuqori) bo'linadi. Past haroratli piroliz - bu ezilgan chiqindilarni termal parchalanish jarayoni.

Yuqori haroratli piroliz. Qattiq maishiy chiqindilarni yo‘q qilishning bu usuli axlatni gazlashtirishdan boshqa narsa emas. Yuqori haroratli piroliz qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning ekologik xavfsizligi nuqtai nazaridan ham, milliy ishlab chiqarishda keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sintez gazi, metallar va boshqa materiallarning ikkilamchi foydali mahsulotlarini ishlab chiqarish nuqtai nazaridan iqtisodiyotda eng istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Yuqori haroratli gazlashtirish qattiq maishiy chiqindilarni oldindan tayyorlanmasdan, ya’ni saralash, quritish va hokazolarsiz iqtisodiy jihatdan foydali, ekologik toza va texnik jihatdan nisbatan sodda tarzda qayta ishlash imkonini beradi [3].

AQSH tajribasi shuni ko‘rsatdiki konserva bankalarni qayta ishlash jarayonida alyuminiy olish boksitlardan (tabiiy konlardan) ajratib olishga nisbatan 10 barobar arzonroq ekan. Shishalarni ham qayta ishlash jarayoni uni tabiiy resrulardan ajratib va qayta ishlash jarayoniga nisbatan ancha arzon. Bundan tashqari, yuqorida misol kilib keltirilgan jarayonlarda suv sarfi tejaladi, atrof muhitga, ayniqsa atmosfera havosiga salbiy ta’siri kamayadi. Makalaturadan qog‘oz ishlab chiqarish jarayonida daraxtlardan olish jarayoniga nisbatan atmosfera havosining ifloslanishi 73%, suvning ifloslanishi – 25%, qattiq chiqindilarning hajmi 39% ga kamayadi. Bundan tashqari, makalaturadan 1tonna qog‘ozni ishlab chiqarilishida 4.7-5,6 m<sup>3</sup> hajmdagi daraxtlar va 165-200 m<sup>3</sup> suv saqlab qolinadi yoki tejaladi.

Polimer chiqindilarini qayta ishlash. Polimer chiqindilari asosan plastik idish chiqindilari bilan ifodalanadi. Polimer turlari bo‘yicha saralangan katta hajmdagi xom ashyo mavjud bo‘lganda, plastik idish chiqindilari ikkilamchi plastmassa ishlab chiqarish uchun qimmatli xom ashyo hisoblanadi. Qayta ishlash maydalash, yuvish, suvsizlantirish va quritish operatsiyalarini o‘z ichiga oladi. Aglomeratsiya operatsiyasini qo‘shganda aglomerat olinadi, granulyatsiya jarayonini qo‘shganda plastmassa ishlab chiqarish uchun tayyor ikkilamchi xom ashyo bo‘lgan granular olinadi. Qayta ishlangan plastmassaning har bir turi maxsus plastmassa mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, axlat qutilari, kabelni himoya qatlami, uy-ro‘zg‘or buyumlari, qistirmalari va burchaklari, muhrlangan profillar, qishloq xo‘jaligi va qurilishda ishlatiladigan plyonkalar yuqori zichlikdagi polietilen chiqindilaridan tayyorlanadi. Chiqindilarni quyish uchun quyiladigan past zichlikdagi polietilen qurilish qoliplari, qistirmalari, chelaklar, chiroq ramkalari va boshqalarning elementlariga qayta ishlanadi.

Polimerlarni qayta ishlashda muhim jihatlardan biri bu ularning qayta ishlash jarayonida o‘z xususiyatlarini saqlab qolish qobiliyatidir. Aksariyat polimerlarni qayta ishlash chastotasining ularning fizik-mexanik xossalari ta’sirini o‘rganish kuchning biroz pasayishi va tashqi ko‘rinishining yomonlashishini ko‘rsatdi. Plastik chiqindilar aralashmasini oldindan ajratmasdan qayta ishlash kompozit polimer bilan to‘ldirilgan



mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun plastik chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Utilizatsiya qilishning bu usuli eng arzon hisoblanadi va turi bo'yicha saralangan yuqori sifatli xom ashyoning sanoat hajmlarini yig'ish mumkin bo'lmagan plastmassalarni qayta ishlashga imkon beradi. Jarayon yuvishni talab qilmaydi va asosiy operatsiyalardan iborat:

- maydalash bosqichlari;
- bo'yoqlar va inert plomba moddalar bilan aralashtirish (qum, shisha chiqindilari, karton, yog'och);

- polimer bilan to'ldirilgan mahsulotlarni ekstrusion kaliplama.

Olingan mahsulotlar yuqori estetik va iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan suv o'tkazmaydigan qurilish va pardoqlash materiallari: plitkalar, qoplama plitalari, yulka plitalari, shuningdek, maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mahsulotlar.

Shunday qilib, chiqindilarni qayta ishlash nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishning zarur sharti, balki global resurs va energiyani tejash vositasi ekanligini ta'kidlash mumkin. Chiqindilarni qayta ishlash jarayonini samarali zamonaviy asbob-uskunalar bilan birgalikda oqilona tashkil etish ikkilamchi xomashyodan birlamchi xom ashyodan o'xshash mahsulotlarga nisbatan 2-2,5 baravar arzon narxda, mahsulot sifati bilan taqqoslanadigan mahsulot olish imkonini beradi. Eng qimmatli ikkilamchi xom ashyoni yig'ish va qayta ishlash korxonalarining to'liq faoliyat yuritishi hamda ularni sanoat va iste'mol chiqindilarini boshqarishning yagona tizimiga kiritish uchun ikkilamchi xom ashyo yig'ishni rag'batlantiruvchi qonunchilik bazasini ta'minlash zarur va chiqindilarni qayta ishlash, shuningdek chiqindilar harakati va qayta ishlangan materiallardan mahsulotlarni sotishni iqtisodiy tartibga solish tizimini tashkil etish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Лукьянчиков, Н.Н. Стратегия управления природопользованием/Н.Н. Лукьянчиков, А.А.Улитин. М.: Эльзевир, 2005. -184с
2. Экологические проблемы мегаполисов и промышленных агломераций: Учеб. пособие/ М.А.Пашкевич, М.Ш.Баркан, Ю.В.Шариков, Р.Э.Дашко.
3. <http://www.recyclers.ru>
4. <https://kun.uz/news/2021/10/26>
5. <https://qvant.uz/uz/news/>

## МЕХНАТ БОЗОРИДА РАҚОБАТБАРДОШЛИКНИ ОШИРИШДА ИНСОН КАПИТАЛИ ОМИЛЛАРИ

Салиева А.

Нукус инновацион институти ассистент – уқитувчиси

### АННОТАЦИЯ

Меҳнат бозорида рақобатбардош бўлмаган аҳоли тоифалари – кекса ёшдагилар, ногиронлиги бўлганлар, аёллар мавжуд. Уларнинг меҳнат қилиш ҳуқуқининг кафолатлари халқаро ҳужжатларда ҳам, Ўзбекистон Республикасининг қонунлари ва бошқа норматив– ҳуқуқий ҳужжатларда мустаҳкамлаб қўйилган.

Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси ҳамда Ўзбекистон Республикасининг “Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида”ги Қонунда белгиланган ишсизлар, ёшлар, аёллар, меҳнат бозорида иш топишга қийналадиган шахсларга, ижтимоий муҳофазага муҳтож аҳоли тоифаларини ишга жойлаштириш кафолатларини рўёбга чиқаришга алоҳида эътибор қаратилган.

Ҳудудларда ташкил этилаётган янги иш ўринлари асосан эгаллаган мутахассисликларига мувофиқ таълим муассасаларининг битирувчиларига, аёллар ва ногиронлиги бўлган аҳолининг ижтимоий қўллаб-қувватлашга муҳтож тоифаларини ишга жойлаштириш учун ажратилади.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг муҳим шакли бўлган оилавий тадбиркорликни ривожлантириш учун «Оилавий тадбиркорлик тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни оилавий бизнес учун ҳуқуқий кафолатларни кучайтириш, иш ўринлари ташкил қилиш имкониятини яратади.

Оилавий тадбиркорликда фаолиятни ташкил қилишнинг бошқа шаклида бўлмаган иш куни ва меҳнат тақсимоли имконияти мавжуд, бу эса ишлаб чиқаришга, бошқа ҳолатларда «банд бўлмаганлар» қаторида бўлган, ёш болали аёлларни, ўқувчилар ва аҳолининг меҳнат бозорида рақобатбардош бўла олмайдиган бошқа тоифаларини қисман бўлса-да, оддий шароитларда жалб қилиш имконини беради. Ушбу ташкилий шакл меҳнат бозорига илк бор кириб келаётган ёшларга 48 меҳнат фаолияти ва тадбиркорликка киришиши учун қулай ва ижтимоий мақбул шароитни яратади.

Меҳнат бозорида рақобатбардош бўла олмайдиган аҳолининг ижтимоий муҳофазага муҳтож тоифаларининг иш билан бандлигини таъминлаш учун

аёллар кўплаб банд бўлган соҳаларда (енгил, тўқимачилик, озиқ-овқат саноати ва бошқалар) иш ўринлари ташкил қилишга алоҳида эътибор қаратиш зарур.

Жумладан, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Ногиронлиги бўлганлар ҳуқуқлари тўғрисидаги 159–сонли конвенциясида БМТга аъзо давлатлар ногиронлиги бўлганларнинг бошқалар билан тенг равишда меҳнат қилиш ҳуқуқини тан олиши, уларнинг бу ҳуқуқларини таъминлаши ва меҳнат фаолияти билан шуғулланишини рағбатлантиришлари зарурлиги белгилаб қўйилган.

Халқаро меҳнат ташкилотининг Ногиронлиги бўлганларнинг касбий реабилитацияси ва иш билан бандлиги тўғрисидаги 159–сонли конвенцияси ҳам ногиронлиги бўлганларнинг ижтимоий реабилитациясига кўмаклашиш мақсадида уларнинг ўзларига тўғри келадиган ишга эга бўлиш ва ушбу иш жойларини сақлаш ҳуқуқларини таъминлаш мақсадида қабул қилинган.

Халқаро меҳнат ташкилотининг Оилавий мажбуриятларга эга меҳнаткаш эркаклар ва аёллар учун тенг муомала ва тенг имкониятлар тўғрисидаги 156–сонли конвенциясида ана шу тоифа шахслар пул тўланадиган иш билан шуғулланиш ҳуқуқини камситилмасдан амалга ошириш имкониятига эга бўлишлари зарурлиги кўрсатилган.

Ўзбекистоннинг амалдаги қонунчилигида ҳам меҳнат бозорида рақобатбардош бўлмаган аҳоли тоифаларининг иш билан бандлиги кафолатлари мавжуд. «Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида»ги қонуннинг 7–моддасида аҳолининг айрим тоифаларини ишга жойлаштиришда кўшимча кафолатлар берилиши белгиланган:

– ижтимоий ҳимояга муҳтож, иш топишда қийналадиган ва меҳнат бозорида тенг шароитларда рақобатлашишга қодир бўлмаган шахсларга, шу жумладан ўн тўрт ёшга тўлмаган болалари ва ногиронлиги бўлган болалари бор ёлғиз ота, ёлғиз оналарга ҳамда кўп болали ота-оналар;

– ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларини тамомлаган ёшларга, шунингдек олий ўқув юртларининг давлат грантлари асосида таълим олган битирувчилар;

– Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларидан муддатли ҳарбий хизматдан бўшатирилганлар;

– ногиронлиги бўлганларга ва пенсия ёшига яқинлашиб қолган шахслар;

– жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган ёки суд қарорига кўра тиббий йўсиндаги мажбурлов чораларига тортилган шахслар;

– одам савдосидан жабрланганларга кўшимча кафолатларни таъминлайдиган барча фуқароларга кўшимча кафолатлар белгиланган.

Корхоналар, муассасалар ва ташкилотларга ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш топишда қийналаётган шахслар учун иш ўринларининг энг кам сонини белгилайди ва иш билан банд қилиб қўяди. Бунда:

– ёлғиз ота, ёлғиз она ва 14 ёшгача бўлган ногиронлиги бўлган болалари бор кўп болали ота-оналар учун

– болаларни тарбиялаш ва меҳнат мажбуриятлари бўйича вазифаларни уйғунлаштириш имконини берадиган, ўзгарувчан иш жадвалига эга бўлган;

– таълим муассасаларини тугатган ёшлар учун

– уларнинг касб бўйича тайёргарлигига мувофиқ бўлган;

– муддатли ҳарбий хизматдан бўшатилган шахслар учун

– уларнинг касб бўйича тайёргарлигига мувофиқ бўлган; – ногиронлиги бўлган фуқаролар учун

– меҳнат шароитлари бўйича аттестациядан ўтказилган ҳамда ходимга иш жараёнларини тўсқинликсиз бажариш имконини (соғлиғининг аҳволи ва меҳнат фаолиятига нисбатан белгиланган зид кўрсаткичлар ҳисобга олинган ҳолда) берадиган;

– аҳолини иш билан бандлигига кўмаклашиш туман (шаҳар) марказларида иш қидирувчи сифатида ҳисобда турган пенсия ёшига яқинлашиб қолган шахслар учун

– махсус малакани талаб қилмайдиган;

– жазони ўташ муассасаларидан бўшатилган, жазони ўтаётган ёки суд қарорига кўра тиббий характердаги мажбурий чоралар кўрилган шахслар учун

– уларнинг касб бўйича тайёргарлиги ҳисобга олинган ҳолдаги, муайян касб-ҳунарга, малакага эга бўлмаган шахслар учун эса

– махсус малакани талаб қилмайдиган иш ўринлари тайёрланиб меҳнат билан банд қилиб қўйилиши керак.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови / Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза // Халқ сўзи, 2016 йил 8 декабрь.

2. Қаландар Абдурахмонов. Меҳнат иқтисодиёти : Назария ва амалиёт/ Дарслик. Қаландар Абдурахмонов. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «FAN» нашриёт давлат корхонаси, Т.: 2019. – 592 б.

## ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШНИНГ ИННОВАЦИОН МОДЕЛЛАРИ

Салиева А.

Нукус инновацион институти ассистент – уқитувчиси

### АННОТАЦИЯ

Ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг инновацион моделларини ўрганиш ҳозирги кундаги замонавий концепция ва ғояларнинг мазмун-моҳияти, асосий йўналишлари, ижтимоий-иқтисодий оқибатлари ва шу каби бир қатор назарий билимларни бойитишга хизмат қилади.

Ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг инновацион моделлари мамлакатнинг жаҳон хўжалик тизимига фаол кириб бориши, иқтисодиётнинг очиқлигини кенгайтириш ва эркинлаштириш, инновация асосида Ўзбекистонда иқтисодий ўсишнинг барқарор суръатларни таъминлаш йўлларини очиб беради.

Ривожланишнинг инновацион типи тараққиётнинг ҳозирги босқичида муқобил йўл сифатида “Илмий асосга эга бўлган иқтисодиётга” ўтишини, инновацион фаолият жараёнида инновацияларнинг замонавий ҳолати ва хусусиятлари, мавжуд муаммолар ва зиддиятларни аниқлаш, ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти концепциясининг самарали амал қилишини таъминлаш, ижтимоий кадриятлар трансформациялари асосида иқтисодий тараққиётнинг замонавий тенденцияларини баҳолаш ва аҳоли фаровонлигини баҳолашнинг сифат кўрсаткичларига ўтилишини тақозо этмоқда.

Инновацион ривожланиш мамлакат халқаро рақобатбардошлиги омили сифатида инновацион салоҳият ва унинг рақобат асосида ривожланишга таъсирига баҳо бериш, ишлаб чиқариш омиллари учун шароитлар яратиш, глобал рақобатда инновацион бизнеснинг ролини ошириш биринчи даражали вазифалардир. Бунга эришиш учун давлатнинг инновацион сиёсатини ишлаб чиқиш, унинг механизмлари ва дастакларини аниқлаш, инновацион кооперациясини рағбатлантириш, инновацион моделни амалга оширишнинг ижтимоий-иқтисодий хусусиятларига (микро- макро-, мезо даражада) эътибор қаратиш, интеллетуал мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва инновацион жараёнларни бошқариш механизмини яратиш долзарб ҳисобланади.

Инновация асосий омил сифатида иқтисодий ўсишни таъминлаш, атроф-муҳит ва ижтимоий жиҳатдан муаммоларни ҳал қилиш учун шарт-шароитлар яратишга ёрдам беради. Ривожланаётган мамлакатларда инновация бойлик ва иш

ўринларини яратиш ҳамда иқтисодий ўсиш манбаи ҳисобланади. Шу билан бирга, бу янгилик тадқиқот ва ривожлантириш орқали ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларда технологик янгиликларни бошқача бошқарилишини таъминлайди.

Инновация — бу моддий ишлаб чиқариш ёки сармоя концентрацияси эмас. Айрим тадқиқотчилар, жумладан, Э. Тоффлер, Ф. Фукуяма, Д. Белл, Ж. Нейсбит каби олимлар: «Айнан инновацион технологияларга таянган давлатгина юксак тараққиёт даражасига эришади», деган фикрни илгари суришади. Аслида ҳам шундай. Зеро, саноатлашган иқтисодиёт ўрнини астасекин инновацион иқтисодиёт эгаллаши оддий ҳақиқатдир. Натижада, янгиданянги бозорлар кашф этилади. Бинобарин, инновацион мақсадларни рўёбга чиқариш учун, хусусий инвестицияларга имтиёзлар бериш, замонавий банкларни шакллантириш, инновацияларни кафолатлаш ҳамда суғурталаш, кичик ва хусусий бизнесни қўллаб-қувватлаш, йирик технологик лойиҳалар учун миллий ва хорижий сармояларни кенг жалб этиш талаб қилинади. Бундан ташқари, бу борада, инновацион сиёсатни тартибга солувчи қонунларни такомиллаштириш ҳам муҳим аҳамиятга эгадир. Бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилоти (WIPO) ўз ҳисоботларида юқоридаги талабларга қатъий амал қилаётган 20 га яқин давлатда инновацион ривожланиш тобора жадаллашаётганини эътироф этади. Швейцария, АҚШ, Швеция, Буюк Британия, Голландия, Финляндия, Гонконг, Сингапур, Тайвань, Япония, Жанубий Корея, Малайзия, Дания ва Ирландия ана шулар сирасидандир<sup>1</sup>.

К.Фриманнинг фикрига кўра, миллий инновацион тизим – жамият томонидан истеъмол қилинадиган янги технологиялар, маҳсулотлар ва хизматларнинг яратилишидаги янги билимларни ишлаб чиқишда, сақлашда, тарқатишда ва янги технологияларга айланишида қатнашадиган иқтисодий субъектлар ва ижтимоий институтларнинг (кадриятлар, меъёрлар, ҳуқуқларнинг) мураккаб тизими ҳисобланади<sup>2</sup>. Технологик изчиллик қонуниятларини ва унинг тарихий мантикий кетмакетлигини ўрганадиган эволюцион иқтисодий назария “техник иқтисодий прадиigma” ва “технологик траектория” тушунчаларига асосланади. У макродаражадаги иқтисодий ўсиш бир томондан турли-туманликка ва<sup>3</sup>ноаниқликларга, иккинчи томондан эса микродаражада иқтисодий жараёнларни бир-бирига уйғунлаштириш,

<sup>1</sup> К.Шодиметов. Муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш ва унинг иқтисодий истиқболлари. –Т.: “ILM ZIYO”. 2014. 14 бет

<sup>2</sup> Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. “Innovation and the Development Agenda”. International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. p. 9. 5F reeman C.

<sup>3</sup> Technology Policy and Economic Performance. L.: PrinterPublishers, 1987. p 57. 10

мутаносибликни таъминлаш, мувофиқлаштириш ва стандартлаштиришга боғлиқлигини қайд этади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)**

1. Сухарев О.С., Сухарев С.О. Инновации в экономике и промышленности. – М.: Высшая школа, 2010. 17.
2. Философова Т.Г., Быков В.А. Конкуренция. Инновации. Конкурентоспособность. – М., 2008. 18. Фонотов А.Г. Россия: инновации и развитие. – М., 2010.
3. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2003.

## INTERNET TILI VA USLUBI

**Zarina Komilova Zafar qizi**

Buxoro davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida o‘qituvchisi

e-mail: [komilovazarina98@gmail.com](mailto:komilovazarina98@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Uyali telefon tarmoqlarining rivojlanishi ham istalgan joydan turib, istalgan masofadagi nuqtaga individual aloqaga chiqishni oddiy holatga aylantirdi. Lekin inson tabiati ana shunday favqulodda imkoniyatdan ham qanoatlanmasligi tabiiy edi. Zero, cheklanmagan miqdordagi axborotni mumkin qadar ko‘proq odamlar diqqatiga havola qilish istagi Internet jurnalistikasining yaratilishiga, shakllanishiga olib keldi”. Internet jurnalistikasi haqida so‘z ochishdan avval, biroz global tarmoqning o‘ziga xos tili va uslubi haqida so‘z yuritamiz. Internet tizimi bizga ko‘p imkoniyatlar yaratib berdi. Uning ijobiy jihatlari juda ko‘p manbalarda ta’kidlanadi. Bu borada qator tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Bizga bunga ham ko‘p to‘xtalmaymiz. Mavzuimiz doirasida uning ayni kundagi til va uslub jihatlari nigoz tashlaymiz.

**Kalit so‘zlar:** internet tili, uslub, axborot tarqatish, ijtimoiy tarmoqlar, yozma va og‘zaki nutq va h.k.

Dunyoda Internet tarmoqlari ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning ajralmas va zaruriy vositasi sifatida borgan sari hayotning barcha yo‘nalishlarida keng va mustahkam o‘rin egallamoqda. Internet – ilmiy bilimlarning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi.

Internet XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biridir. Ushbu kashfiyot tufayli butun jahon bo‘ylab tarqalgan va turli sohalar, yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan yuz millionlab kompyuterlarning yagona informatsion muhitga biriktirish imkoniyati tug‘ildi.

#### **Internetning quyidagi imkoniyatlari mavjud:**

- ma’lumotlarni topish;
- elektron pochta xizmati;
- fayllarni uzatish;
- muloqot qilish (chat, forum, videokonferentsiya): gmail, mailagent, skype;
- ma’lumotlarni tarqatish (vab sahifalar, vab bloglar, jamoa tarmoqlari, axborotnomalar, yangiliklar);
- elektron kutubxonalar;



- masofadan o‘qitish;
- telemeditsina;
- elektron tijorat;
- elektron ofis.

Hozirgi zamonda Internet axborot olish va axborot tarqatish vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Global tarmoqning jurnalist uchun ahamiyati juda ham kattadir. Birinchi galda, u, turli-tuman manbasi aniq va aniq bo‘lmagan axborot manbaidir.

Internet tilning o‘ziga xos alohida bir funksional turi bo‘lgan elektron kommunikatsiya vositalariga xizmat ko‘rsatuvchi til turidir. Internet tili: «...boshqa kommunikatsiya platformalari orqali yetkaziladigan matnli xabarlar tili: mobil telefonlarning xabarlar xizmati... teleks orqali yuborilgan xabarlar tili va maxsus qo‘llaniladigan bir qator boshqa texnik tizimlar asosidagi xabarlar tili» hisoblanadi.

Internet o‘z foydalanuvchilarining asosiy e’tiborini o‘zi foydalanadigan lingvistik vositalarga qaratishga harakat qiladi. Bundan tashqari, foydalanuvchilarning o‘zlari, tashrif buyuruvchilar yoki "virtual shaxslar" nafaqat butun Internet makonini yaratadilar, balki buni sezmasdan ham ushbu ijtimoiy qatlam muloqot qiladigan Internet tilini ixtiro qiladilar.

Internet tilini hozirgi paytda tilning funksional turi deb hisoblash mumkin.

Birinchi, ushbu til osti tilining qo‘llanilish sohasi kommunikatsiyaning boshqa sohalaridan aniq chegaralangan, chunki u texnik elektron vositalar yordamida amalga oshiriladi va doimo ular vositasida ifodalanadi. Ikkinchi, ushbu til osti tili o‘ziga xos kommunikativ maqsadlarni qondirishga xizmat qiladi (amaldagi maqsad – muloqot uchun muloqot va hokazo). Uchinchi, ushbu til osti tili multimediyaviy janr va shakllarning yangi tizimining yuzaga kelishiga turtki berdi va, natijada, konvetsional janrlar nazariyasidagi yangi yo‘nalish – virtual janrshunoslikning rivojlanishiga xizmat qildi. To‘rtinchi, tilning ushbu funksional turiga xos vositalar noyob (yoki deyarli noyob) leksik va grammatik tavsiflarning oson ajratib ko‘rsatilishi, shaklga solinishi mumkin va yagona pragmatik majmuani tashkil qiladigan muayyan jamlanmasi bilan tavsiflanadi. [ ]

Axborot davri hisoblangan bugungi kunda Internetdagi muloqot eng ommabop muloqot turiga aylanmoqda. U o‘zida turli-tuman til amaliyotlari, kommunikatsiya uslublari va shakllarini mujassam etadi. Asta-sekin bu muloqot davrimizning belgisiga aylanmoqda. Internetda janrlarni ajratib ko‘rsatishda muloqotning boshqa sohalaridagi janrlar tasnifiga tayaniladi.

Internet nutqi o‘z xususiyatlariga ko‘ra og‘zaki nutqqa o‘xshashdir. Ya’ni:

- O‘z-o‘zidan, tayyor emaslik;
- Bir iborani qisqartirish va soddalashtirish istagi;
- Nutq aktining spontanligi;

•Turli hollarda iqtisodga yoki nutq vositalarining ortiqchaligiga olib keladigan chiziqli belgi.

Virtual dunyoda foydalanuvchilar o'z-o'zidan og'zaki suhbat qoidalariga ko'ra real vaqt rejimida yaratilgan matnli xabarlarini yuborish orqali bir-birlari bilan muloqot qilishadi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirgan holda, Internet makonida matn shaxsga ekvivalent bo'ladi, shuning uchun matnning ma'nosi sezilarli darajada oshadi va uning muallifi bo'lgan shaxs bilan to'liq bog'lanadi.

Mamlakatimizda Internet foydalanuvchilarining aksariyati chatlarda so'zlashish uchun mobil telefonlaridan foydalanadilar. Bu kabi vositalarda esa, asosan, lotin yozuvi qo'llaniladi. Shu sababdan ham chat so'zlashuvchilari o'zbek va rus tillarida quyidagi qisqartmalardan foydalanadilar:

- A.a. – Assalomu alaykum;
- V.a. – Vaalaykum assalom;
- Bn – bilan;
- Ln – lekin;
- Mm – mumkin;
- Chndm – tushundim;
- Tel.q. – qo'ng'iroq qil;
- Kn – keyin;
- Kizi – yaxshi qiz;
- Ok –yaxshi yoki tushunarli.

Shunday qilib, zamonaviy Internet makonida lingvistik o'zaro ta'sirning mutlaqo yangi shakli rivojlanmoqda, bu aslida real dunyoda - yozma nutq tilida mavjud bo'lishi qiyin. Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tganimizdek, ekspressiv-emotsional rang berish funktsiyasi turli xil lingvistik ekspressivlik usullari, masalan, kulgichlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan,

- xursandchilik – :)
- xafagarchilik – :(
- ayyorona murojaat – ;)
- ko'z yosh to'kish – :'(
- baxtdan o'zini yo'qotish – O:)

qayg'uga botish – :/ shular jumlasidandir. Mazkur smayliklarning ellikka yaqin turi bo'lib, Internet foydalanuvchilari o'z kayfiyatlariga muvofiq kerakli smaylikdan foydalanadilar.

Bugungi axborot asrining uchta asosiy jihatini shartli ravishda ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: axborotning haddan ziyodligi, texnologiyalar va ijtimoiy jihat.

Axborot miqdorining oshib borishi axborot birliklarining (grafik axborot uchun qo'llaniladigan oddiy va murakkab belgilarning) o'sishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Axboriy asrning texnologik aspektini elektron, kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalarning kun sayin taraqqiy etib borishi, buning natijasi o'laroq, axborotning juda ham katta miqdorini muavvafqiyatli qayta ishlash, saqlash va uzatish imkonini berishida ko'ramiz.

Axborot asrining ijtimoiy aspekti barchamizga nisbatan axborot bosimining kuchayishida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda har bir inson turli yo'llar orqali yetib kelgan katta miqdordagi axborotlarni qabul qilishga majbur. Mazkur axborotlarning qanchalik haqiqatga to'g'ri kelishini aniqlash va qaror qabul qilishi uchun esa ko'plab xilma-xil yangiliklarni saralash zarurdir.

Til har doim yangi ijtimoiy va texnologik tamoyillari ta'siriga uchrab, hayot tarzining o'zgarib borayotganini aks ettiradi. Bu, ayniqsa, badiiy va publitsistik uslublarda, lug'at tarkibining o'zgarib borishida ko'rinadi.

Mediamatn xususiyatlarining namoyon bo'lishi va tarqatilishining muhim tomoni uning texnik, vizual vositalarning o'zaro qorishuvi darajasida amalga oshishidan iborat.

Bugungi kunda global tarmoqning tilga ta'siri oqibatida ikki xarakterli tamoyillar yuzaga kelmoqda.

Birinchidan, adabiy til me'yorlari bilan solishtirilganda ba'zi til vositalari soddalashib, ba'zilar esa murakkablashib bormoqda. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, Internetda pragmatik murakkablik ortgani holda, ba'zi ifodali vositalarning soddalashuvi tendensiyasi yuz beradi. Biroq bu qarash biryoqlama bo'lib, ifodali vositalar soddalashuvi qatorida murakkablashuv jarayoni ham yuz berishini inkor etolmaymiz. Hozirgi vaqtda haqiqatan ham «soddalashuv» jarayoni yuqori darajani ko'rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, global tarmoqda yuz beradigan ba'zi muammoli holatlar, masalan, ma'lum mavzudagi bahs-munozaralarda ko'zga tashlanadi.

Ikkinchidan, yozma va og'zaki nutq normalariga qarama qarshi ta'siri. Bu kabi vositalar yordamida «ishtirok ta'siri», «kommunikativ yaqinlik» vositalari vujudga kelib, kommunikatsiyaga doimiy tayyorlikka o'xshaydi. Biroq, bu hamisha ham muloqot ishtirokchilarining asl maqsadlariga mos kelmaydi. Ya'ni, kommunikatsiya ishtirokchilarining bevosita ishtirok etmasligi, o'zaro muloqotga tayyorgarlik ko'rilmagani bois ziddiyatlar holati kuzatiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz joizki, jamiyat ehtiyojlari ta'sirida shakllangan internet muhiti vaqt o'tishi bilan o'ziga xos sintaktik, tinish belgilari va grafik xususiyatlariga ega bo'lgan o'ziga xos tizimga aylandi. U ochiq va mobil, chunki u doimo yangilanadi.

Yangi aloqa elementlari, "kesishlarsiz" o'zini namoyon qilish imkoniyati va muhim ma'lumotlarni olish tezligi barcha yoshdagi va kasbdagi foydalanuvchilarni o'ziga jalb qiladi. Bu kommunikatorlarning virtual haqiqat dunyosini tezda tark etish

va uni qo‘llash qobiliyatidir. Amalda, matn tuzilmalarini malakali qurish ko‘nikmalari tobora zaiflashmoqda, bu ayniqsa, yosh avlod vakillariga nisbatan kuzatish mumkin. Qulay muhit yaratish nutq savodxonligini shakllantirish uchun zarur, chunki faqat shu tarzda og‘zaki va yozma muloqot madaniyatining umumiy darajasini oshirish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. «Getty Images Launches AI Tool to Transform Search for Media Publishers.» Getty Images Press Room, 2018.
2. «PA & Urbs Media Receive €706,000 Grant from Google for Automated News.» PA, 17 Sept. 2018.
3. «Getty Images Launches AI Tool to Transform Search for Media Publishers.» MarketWatch, 2 Aug. 2018
4. Romi.center.ru ( <https://romi.center/ru/learning/article/pr-cto-eto-takoe-i-chem-otlichaetsya-ot-rekl/>)
5. PRbook.ru (<https://prbook.ru/chem-otlichaetsja-pr-ot-reklamy/>)
6. D.S. Artomonov. Istoriya reklami I PR. Uchebnoye posobiye. 2019-Saratov.
7. Guzal Malikova. (2023). Easy and Convenient Presentation of Information Modern Method. Eurasian Journal of Media and Communications, 19, 1–6. Retrieved from
8. Go‘zal, Malikova, and Sharofiddinova Mahtob. "IJTIMOIY TARMOQLAR TILI VA USLUBI." Innovations in Technology and Science Education 2.10 (2023): 152-9.
9. Zarina Komilova. “Jamiyat taraqqiyotida axborotlashganlik ahamiyati” Scientific Progress. 2023.
10. Socio-Political and Economic Efficiency of E-Government Zarina Komilova Zafar qizi International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, Volume
11. Милюкова, А. Г. Теория и практика связей с общественностью и рекламы (Внутрикорпоративный PR) : учебное пособие
12. Виктор Александрович Барезhev. PR и реклама в управлении персоналом. (Бакалавриат). Учебное пособие.
13. Клушина Г.И. Публицистический текст в прагматическом аспекте. Коллективная монография. Язык массовой и межличностной коммуникации. – М.: Медиа Мир, 2007
14. Абдусаидов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. Монография. – Самарқанд, 2004
15. Аспекты общей и частной лингвистической теории текста. – М., 1982.
16. Астафурова Т.Н. Прагмалингвистический аспект деловой коммуникации // Языковая личность: проблемы значения и смысла. – Волгоград: Перемена, 1994.
17. Атабекова А.А. Лингвистический дизайн WEB-страниц (сопоставительный анализ языкового оформления англо- и русскоязычных WEB-страниц). – М.: Изд-во РУДН, 2003.

## CORPORATE GOVERNANCE

**Abdullayeva Shahzoda Rinat qizi**

"Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" kafedra  
152-22 KB guruh talabasi

**Xashimova Salima Nigmatullayevna**

"Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" kafedrasi dotsenti  
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri

### ABSTRACT

Today, the topic of corporate governance has become vital for the most researches and scientific controversies. The corporate governance is now playing a key role in economic and social development of a country, and it has began to significantly matter for both industrialized and most of the developing countries. In the meantime, little is known for the world community about the state and problems of corporate governance in Uzbekistan.

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda korporativ boshqaruv mavzusi ko'plab tadqiqotlar va ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Korporativ boshqaruv iqtisodiy va ijtimoiy sohada muhim rol o'ynaydi, mamlakatning rivojlanishi uchun zarur. U sanoatlashgan va rivojlangan mamlakatlarda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati ayni paytda, dunyo hamjamiyatiga korporativ boshqaruv haqida juda kam narsalar ma'lum.

### АННОТАЦИЯ

Сегодня тема корпоративного управления является предметом многих исследований и научных исследований. Важно для исследования. Экономика корпоративного управления и играет важную роль в социальной сфере, она необходима для развития страны. Она важно для промышленно развитых и развитых стран начал большинство развивающихся стран мира. Общественность очень мало знает о корпоративном управлении.

Today, the topic of corporate governance has become vital for the most researches and scientific controversies. The corporate governance is now playing a key role in

economic and social development of a country, and it has begun to significantly matter for both industrialized and most of the developing countries. Year by year there increase a number of researches, books and papers on corporate governance problems which call upon to improve the state of corporate governance in the jurisdictions or in the world as a whole, and to bring it to the generally accepted international standards and principles. Corporate governance plays a crucial role in ensuring the integrity, transparency, and accountability of companies. It encompasses the principles, processes, and practices that guide the way a company is directed and controlled. The basic principle of corporate governance is to ensure the fulfillment of the company's responsibility to its stakeholders. This means that corporate governance aims to protect the interests of shareholders, employees, customers, suppliers, and the community at large. Corporate governance sets the framework for effective decision-making and establishes mechanisms to mitigate agency problems that may arise between shareholders and management, creditors and shareholders, and majority shareholders and minority shareholders. One of the key elements of corporate governance is the internal corporate governance structure, which includes the board of directors and audit committee. These mechanisms provide oversight and control over management decisions and actions, ensuring that they are in line with the company's objectives and interests of stakeholders. Corporate governance is not just a theoretical concept; it has real implications for the overall performance and success of companies. Research has shown that companies with good corporate governance practices tend to perform better financially, have higher market valuations, and attract more investors. Furthermore, corporate governance is essential for the development of a company. If the concept of corporate governance ignores the restrictions on the desire for personal gain and fails to uphold principles of integrity and responsibility, it can lead to significant consequences such as financial fraud, poor decision-making, and reputational damage. Corporate governance also plays a crucial role in promoting corporate social responsibility. By establishing mechanisms that ensure the company is accountable to its stakeholders, corporate governance can improve the business performance and enhance the company's social responsibility. Overall, Corporate governance serves as a crucial framework for companies to operate ethically, effectively, and responsibly. Corporate governance is a system of practices that guide the way a company is directed and controlled. It encompasses the responsibilities of directors to act in the best interest of the company and its stakeholders, as well as mechanisms to ensure transparency, accountability, and performance effectiveness. Corporate governance is a fundamental aspect of any company's operations as it sets the guidelines and mechanisms for effective decision-making, accountability, and performance effectiveness.

Over the last years in Uzbekistan, along with other world countries, the corporate governance has become a popular area of discussion, a great number of works on corporate governance have been done. The Uzbek researchers and scientists do not stand aside either when defining the corporate governance. The first scientist who defined and reviewed the corporate governance was T. Madiyorov (1993) stating that the corporate governance is carried out in balance with development of production activity, rational use of existing material, financial and human resources, attraction of capital and new technology. A scientist A.Zohidov (2004), in his researches, proposed to define the corporate governance as the management system ensuring the priority of shareholders' interest in combination with increasing the company performance. Another Uzbek scientist B.Berkinov (2005) has specified the corporate governance system. According to him "Corporate governance system is a complex and rapidly changing mechanism which includes many interrelated constituents, including a set of legislative, subordinate regulatory as well as internal standard acts which are the corporation's internal mechanism of control by owners, managers and creditors. One Uzbek author M.Vohidov (2007) has formed the definition to corporate governance from the legal point of view. He defines the corporate governance as the managerial activity of the company managers directed at ensuring the shareholders to participate in company governance, and held for the interests of shareholders in earning profit out of their shares, and posits that all stakeholders as creditors, company employees and partners as well as the society as a whole (customers) can and must take part in the corporate governance. Economics scientists as Sh.Zaynutdinov and D.Rakhimova (2007) in their book mention the definition by that the corporate governance is a joint activity of the stakeholders with a view to make profit. The definition for corporate governance given by another economics scientist M.Khamidulin (2007) also deserves attention, according to which the corporate governance is a conscious, direct participation of corporation's proprietor in ensuring by them the regular real influence on determination, formulation and making of strategically important decisions aimed at capital accumulation for corporation, most effective use of capital with the purpose of making profits and equitable distribution of an income earned between the parties of the corporate relations. Another definition which is worthy to note is the one originated by the researches of the economics scientist D.Suyunov (2008), according to whom the corporate governance is a complex of the effective standards which protect the rights of the entities in the form of corporate property and the actions made for goal achievement of the enterprise on the basis of definite governance principles. The corporate governance framework of Uzbek companies has been improved for many years in accordance with national legislation and taking into account the international practice. We visually bring the typical corporate governance framework

which is applied in almost all joint-stock companies (exception may be banks and other financial organizations) operating in the territory of Uzbekistan in the following figure. According to the current Law (the Law on Joint-Stock Companies and Protection of Shareholders' Rights is implied) in Uzbekistan, the General Meeting of Shareholders, Supervisory Board and Executive Body are the governing bodies of the joint-stock company (hereinafter "company").

According to the Uzbek Company Law the size of Supervisory Board of a company is determined by the Articles of Association or by the decision of the General Meeting of Shareholders. For the joint-stock company with a number of shareholders of:

- more than 500 - not less than 7 members,
- more than 1,000- not less than 9 members.

According to the German Company Act the Supervisory Board normally consists of three members. The Articles of Association may provide for a specified higher number and such number shall be divisible by three. The maximum number of members of the Supervisory Board for companies with a share capital of:

- up to 1,500,000 euros -9 members,
- more than 1,500,000 euros - 15 members,
- more than 10,000,000 euros – 21 members.

Is it evident that in contrast to German practice, the size of Uzbek Supervisory Boards is related to the number of shareholders of a company but not to the size of share capital. However, it is not a limitation for board size in Uzbek companies and the General Meeting of Shareholders, in the frame decide on how many members the Supervisory Board should have in their company and board size, if necessary.

Conclusion. In Uzbekistan, as developing country with transition market economy, the corporate governance reforms is yet underway and still needs to be further developed. Moreover, we have accepted the fact that the present urgent problem for national corporate legislation in Uzbekistan is to bring closer and to adapt them to the global corporate governance standards. We became evident from the literature review that only a few books and papers have been written in English on corporate governance in Uzbekistan. Therefore, it is not exception that a little is known about it in the world scientific community. But we think that these researches are not sufficient to study entirely the Uzbek corporate governance system. So, the more international researches and publications should be addressed on the corporate governance problems in Uzbekistan and on what aspects of Uzbek corporate governance still needs to be improved.



### REFERENCES:

1. Shrestha, Sulochana et al. (2019, October 18). of work life (QWL) situation in the Nepale. Corporate sector.  
<https://scite.ai/reports/10.3126/qjmss.V>
2. Xia, T., Luo, X., Liao, Y., & Liu, W.. (2018, January 1). Corporate Governance, Corporate Social Responsibility and Corporate Performance study.  
<https://scite.ai/reports/10.2991/sshr-17.2018.10>
3. Karimov, I.A. (2010), The Concept of the Further Deepening of the Democratic Reforms and the Formation of the Civil Society in the Country, Uzbekistan, Tashkent.
4. Khamidulin, M. (2007), Korporativ strategiyalarni moliyalashtirish usullari va mexanizmlari (trans. The Methods and Mechanisms of Financing the Corporate Strategies), Korxonani boshqarish jurnali, No.5-6, pp.4-14.
5. Kurtbedinov, E. (2009), Corporate Governance in Transition Economies: Comparative Analysis of Russia, Kazakhstan and Uzbekistan, Diss., Cuvillier Verlag, Gottingen.
6. Madiyorov, T. (1993), Dehqonchilik sanoat majmuida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tizimi va korporativ boshqaruvni joriy etish xususiyatlari (trans.: Social and Economic Reforms System in the Farming-Industry Complex and Peculiarities of Adopting the Corporate Governance), Diss. Tashkent.

## EDGES OF IMPROVING THE EFFICIENCY OF WIRELESS COMMUNICATION NETWORKS

**Ismailov Ma'murjon Mukhtarovich**  
associate professor.

**Islamov Asadbek**

is a graduate student of master degree of M30-23 group.  
Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad Al-Khorazmi Fergana branch.


### ABSTRACT

At the same time that information technologies are rapidly developing, communication and information exchange are also developing at a great speed. Use communication tools to increase the ease of communication.

These wires connected users with each other through communication centers and thus established communication between cities and countries. Nowadays, modern products of such wires are used. An example of these is fiber optic cables. It has several advantages. But even such fiber connections cannot meet the requirements of the time. Because this wire connection has several disadvantages related to it. Examples of these include pulling these wires to some communication centers, inconveniences in the placement of wires, etc. In addition, raw materials are used for making wires.

#### Figure 1. View of wireless networks

There are financial inconveniences such as In order to avoid such inconveniences and financial losses, new modern wireless communications have been developed. To give an example of this, first of all, mobile communication and wireless



communication system, which is considered one of the most convenient communication methods. Wireless communication includes Wi-Fi, Wi-MAX, Wi-Bro and a number of similar communication technologies.

The history of wireless communication technologies dates back to the end of the 19th century.

It started with the transmission of the first radio signal and the appearance of amplitude modulation radio receivers in the 20s of the 20th century greatly influenced the development of these technologies. In the 1970s and the first wireless radiotelephones that transmit sound through radio waves was created. Initially, they worked on analog networks, in the early 80s. The spectrum is good, which means that the transition to digital standards has begun.

The GSM standard has been developed, which provides distribution, the best signal quality and the best security. In the 90s of the 20th century, the processes of strengthening the state of wireless networks took place, which led to the rapid development of these technologies. Today, wireless technologies are firmly embedded in our daily life, providing high speed together they are introducing new devices and services. In conclusion, it should be noted that as a result of the development of wireless communication technology, expensive wired and satellite communication.

It is possible to achieve economic savings by using less systems. Using such technologies, the user is mobile and stationary in case of communication exchange and other communication in optional geographical environment can effectively use their services and gain both time and economy. Taking this into account, we also study the undiscovered aspects of Wi-Fi, WiMax and Wi-Bro technologies, and take measures to apply them. Finding, optimizing its parameters, and designing new network topologies are relevant and important is a matter.

## REFERENCES:

- 1.Ахмедов, Б. А. (2021). Задачи обеспечения надежности кластерных систем в непрерывной образовательной среде. Eurasian Education Science and Innovation Journal, 1(22), 15-19.
- 2.Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79), 588-591.
- 3.Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020).

## BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ONA TILINING O‘QUVCHILAR UCHUN AHAMIYATI

**Xudoyberdiyeva Azizaxon Ollanazar qizi**

Surxondaryo viloyati Uzun tumani

57-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Email: [shukurovabdurasul05@gmail.com](mailto:shukurovabdurasul05@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada ona tili ta’limi mazmunini yangilash, zamonaviy ona tili darsliklarining tuzilishi, o‘quv topshiriqlari orqali ona tilini o‘qitishga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish; ona tili o‘qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va pedagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** mashq, konsepsiya, o‘quv materiali, darslik, innovatsion yondashuv, nutq, tinglash, mashg‘ulot.

### KIRISH

Hozirgi kunda o‘zbek tilining ona tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish, zamonaviy o‘qitish metodikasini joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda shakllangan yangi til siyosati uning ta’limiga ham zarur talablarni qo‘ymoqda. Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta’minlaydigan bilimlarni tushunamiz. Shunday ekan, ona tili darsliklariga kiritilgan mashqlar va o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarda ona tili bo‘yicha bir qator lingvistik bilimlarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. O‘quv topshiriqlarini tuzishga asos bo‘luvchi o‘quv materiallarini tanlash, ona tili ta’limi maqsadini, mazmunini belgilash borasida mustaqillikning dastlabki yillarida tizimli tadqiqotlar olib borildi.

Haqiqatdan, ona tili, milliy so‘zlar aqliy rivojlanish hamda dunyoni anglashning asosidir. O‘quvchi nutqining o‘z vaqtida rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilish, savodxonligiga e’tibor berish juda muhimdir. O‘quvchining nutqi qanchalik boy va mantiqli bo‘lsa, uning o‘z fikrlarini ifodalashi shunchalik oson kechadi, olamni, borliqni anglash qobiliyati qanchalik keng bo‘lsa, o‘quvchilar turli nutq vaziyatlarida tengdoshlar yoki kattalar bilan mazmunli va to‘laonli muloqotga kirisha oladi,

tafakkuri ham shunchalik faol rivojlanishda bo'ladi. Bularning barchasi dars mashg'ulotlarida o'quvchini o'quv topshiriqlari orqali to'g'ri yo'naltirish, to'g'ri savol berish, mazmunli va mantiqli javob berishiga bog'liqdir. O'quvchi uyda, sinfda va ko'chada foydalanadigan ona tili orqali atrofidagi olam va inson faoliyati haqida dastlabki ma'lumotlarni oladi. Shuning uchun ham maktabning birinchi vazifasi bolalarni o'z ona tilida ravon, mantiqan izchil gapirishga o'rgatishdir. O'quvchilar o'z ona tilida qanchalik yaxshi nutq so'zlay olsalar, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda shunchalik yorqinroq, chiroyli va sermazmun ifodalay oladilar. Demak, bugungi kunning eng muhim masalasi – ona tili ta'limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili orqali o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar shakllanadi.

**Tahlil va natijalar.** Agar ona tili mashg'ulotlarida o'quv topshiriqlari o'z o'rnida to'g'ri qo'llanilsa, o'quvchilar ma'lumotlar bilan ishlay olishga topshiriqlar orqali to'g'ri yo'naltirilsa, axborot texnologiyalari asrida manba muammo bo'lmaydi. Endi bilimdon o'quvchilar tayyorlash vaqti o'tdi. Bugungi davrning talabi biluvchi, bilib oluvchi o'quvchilarni tarbiyalashdir. Agar o'quvchiga to'g'ri va maqsadli savol berilsa, hayot uchun foydali topshiriqlarni bajarishga o'rgatilsa, zarur nutqiy malakalar mashq orqali hosil qildirilsa, ijodiy tafakkur sohiblari yetishib chiqishiga sharoit yaratilgan bo'ladi.

O'quvchi maktabga qadam qo'yganida o'z ona tilida gaplasha oladigan, atrofidagilarning so'zlarini tushuna oladigan darajada rivojlangan bo'ladi. SHu bois, ona tili ta'limining vazifasi o'quvchini gapirish va tinglab tushunishga o'rgatishdan iborat bo'lmaydi. Til ko'nikmalarining bu ikki turi bolaga tili chiqqan paytdan boshlab singib bo'lgani inobatga olinsa, maktabda ona tili ta'limida dastlabki shakllantiriladigan ko'nikmalar – o'qish va yozishni o'rgatish ekanligi ayon bo'ladi, biroq bu til ta'limining to'rt muhim unsuri bo'lgan – gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish ko'nikmalari ustida ishlashni to'xtatish kerak degani emas.

Ona tili ta'limidan farqli ravishda boshqa tilni o'rganish jarayonida bajariladigan mashqlarning asosiy qismi muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, keyingi paytlarda bunday mashqlarni ayrim metodistlar nutq mashqlari va til mashqlariga ajratishni tavsiya etmoqdalar [1], degan mulohazasi nihoyatda to'g'ri bo'lib, mashqlar nutqiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi vosita sifatida qaraladi.

I.A.Zimnyaya ta'rificha, “malaka mashqlar natijasida harakatlarning yuqori mukammallikka erishuvi va nutqiy jarayonlarning avtomatlashuvidir”[2].

X.Muxitdinova so'zlashish, muloqot yuritish jarayoni fikrni leksik, grammatik va fonetik jihatdan rasmiylashtirishning eng samarali darajasini – yuqori darajada avtomatlashgan nutqiy ko'nikmalarni, ya'ni nutqiy malaka hosil qilinishini talab etadi [1].

Ilmiy, ilmiy-metodik manbalarda ta'lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rus pedagog-olimlari I.Ya.Lerner [6] va M.N.Skatkinlar ta'lim mazmuniga o'rganish uchun tanlangan va o'quvchilarning o'zlashtirishlariga mo'ljallangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida qaraydilar.

Ilmiy manbalarda "ta'lim mazmuni" tushunchasi bilan birga "o'quv materiali" atamasi ham qo'llaniladi. Didaktikada o'quv materiali tushunchasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda u "ta'lim mazmuni" tushunchasiga teng bo'lsa, tor ma'noda ma'lum darajada o'rganilishi kerak bo'lgan, o'quvchilarning o'zlashtirishlariga moslashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi tushuniladi.

Ta'lim mazmuni esa 1) o'quv rejalarini, 2) o'quv dasturlari, 3) darsliklar hamda 4) o'quv-metodik qo'llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o'quvchilarning o'rganishlari uchun tanlangan va ularning o'zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o'z ichiga oladi [5]. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg'or namunalari aks etishi kerak, degan ta'kid, fikrimizcha, "Ona tili" darsliklariga ko'proq tegishlidir.

Ajdodlardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha etib kelgan tafakkurning eng ilg'or mahsuli bo'lgan maqol, matal, hikmatli so'zlar, tasviriy ifodalar, iboralar ona tili ta'limining mazmunini tashkil etishi kerak, ulardan ondasonda emas, balki har darsda, har o'quv topshiriq tarkibida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. O'z o'rnida va o'z vaqtida o'quvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi xalqona, milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va o'zlarida hosil bo'lgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi.

## **XULOSA**

O'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish bo'yicha yangi yondashuvlar joriy etilmoqda, uning dastlabki nishonalari boshlang'ich sinf ona tili darsliklari mazmunida aks etgan. Integratsiyalashgan yangi "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi o'quvchilarni turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga mo'ljallangan, biroq mazkur darsliklarning o'quv topshiriqlari qismi oldinga qo'yilgan katta marrani bosib o'tishga moslanmagan. Darsni, ona tili ta'limi mazmuni o'quv topshiriqlari yuzaga chiqarishini inobatga olsak, yangi yaratilgan metodikani harakatga keltiruvchi ta'lim mazmunida muhim ahamiyatga ega ekani ma'lum bo'ladi. O'quv topshiriqlari metodikaning asosini tashkil etadi. Ona tili o'qitish metodikasini isloh qilishning asosi – bu mashq va topshiriqlarni qanday qo'yish, qanday savol berishga bog'liq. Bu esa, bugungi kunda ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish zaruriyatini o'rta qo'yimoqda. Demak, o'quvchilarga hayoti davomida har qanday vaziyatda, har onda asqotadigan bilim va ko'nikmalar berilishi kerak. Yangicha

yondashuvlarning o'z vaqtida amaliyotga joriy etilayotgani, muammoning manbasi kech bo'lsa-da aniqlangani bu jarayonni sog'lomlashtirishga imkon beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Muxiddinova X. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. Ped. f. nomz. - diss . – Toshkent: TDPI, 2011. 270 b.
2. Zimnyaya I.A. Lichnostno-deyatelnostnyy podhod v obuchenii kak faktor gumanizatsii obrazovaniya // Russkiy yazyk za rubejom. 1991. -№ 3. - S. 91-95.
3. Ne'matova G. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi va o'qituvchining mustaqil faoliyati. Ona tili o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2001. – 96 b.
4. Safarova R., Nurjanova R., Ne'matov Sh., Quchkarova F. Zamonaviy darsliklarda kontsentrizm printsipli asosida taqdim etiladigan o'quv materiallarini tanlash va bloklarga ajratish. –T.: Fan va texnologiya, 2013. – 128 b.
5. Mirzaev I.K. Ta'lim darslikdan boshlanadi. Respublika ilmiyamaliy konferentsiyasi materiallari. – Toshkent: TDPU, 2008.– 244–248 b.
6. Lerner I. Ya. Didakticheskie osnovy metodov obucheniya Tekst. / I. Ya. Lerner. – M.: Pedagogika, 1981. –186 s



## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA REFLEKSIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Hulkaroy Babayeva**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali o'qituvchisi

E-mail: [hulkaroybabayeva@gmail.com](mailto:hulkaroybabayeva@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hozirgi kundagi ta'limni rivojlantirish uchun foydalanilayotgan refleksiv texnologiyalar, kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan asosiy vazifalardan biri chuqur nazariy va amaliy bilimlar bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashilgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, yoritib berilgan.

**Kalit so'z:** refleksiv, mustaqil, tayyorgarlik, qobiliyat, ijodiy imkoniyat, kompetentlik, intellekt.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рефлексивные технологии, используемые для развития образования сегодня, одной из основных задач, определенных в национальной программе подготовки кадров, являются глубокие теоретические и практические знания, правильно выявляются, анализируются и освещаются проблемные ситуации при творческом подходе к проблеме.

**Ключевые слова:** рефлексивный, самостоятельный, обучение, способности, творческие способности, компетентность, интеллект.

### ABSTRACT

In this article, reflexive technologies used for the development of education today, one of the main tasks defined in the national personnel training program, is deep theoretical and practical knowledge. problem situations are correctly identified, analyzed and illuminated with a creative approach to the problem.

**Keywords:** reflexive, independent, training, ability, creative ability, competence, intelligence.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'umotlarni faqat auditoriya masbg'ulotlarida talabalarga yetkazib berish va to'liq o'zlashtirilishiga erishish juda qiyin. Zero kadrlar tayyorlash

milliy dasturida belgilangan asosiy vazifalardan biri chuqur nazariy va amaliy bilimlar bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishga erishishi mumkin bu esa biz pedagoglarni asosiy maqsatimiz. Asosiy bilim ko'nikma va malakalar mustaqil jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ulami ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'larini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'lanma berish oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Aynan mazkur maqolada talabalarni mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilishda reflektiv ta'lim metodlarining o'rni, ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Eng muhim jihati o'qitish jarayonida mazkur ta'limiy metodlarni qo'llash talabalarda ilmiy nazariy dunyoqarash, fikrlash malakalari mutaxassisliklariga doir zamonaviy bilimlarni egallashlariga zamin hozirlaydi. Shuning bilan birga shaxsni o'zini o'zi anglashi bilan bog'liq sifatlarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy refleksiya psixologiyasi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimda ta'lim oluvchilarning reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun reflektiv ta'lim muhitini yaratish zarur hisoblanadi. Chunki bu orqali kasbiy o'zini o'zi anglash va shaxsiy professionallikni anglashda muhim ahamiyat kasb etgan kasbiy o'zini o'zi namoyon qilish jarayoni amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish muammolari bo'yicha izlanish olib borayotgan olimlar va amaliyotchilarning fikriga ko'ra, ta'lim oluvchilarda reflektiv madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Reflektiv madaniyat orqali shaxs o'z tajribasining mazmunini anglaydi, o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash, korreksiya qilish va rejalashtirish imkoniyatiga ega boiadi. Mutaxassislarda reflektiv madaniyatni integral xususiyat sifatida shakllantirishda kasbiy refleksiyaning quyidagi dinamik tarkibiy qismlarini yuzaga keltirish zarur hisoblanadi:

- reflektiv tayyorgarlik;
- reflektiv qobiliyat;
- reflektiv ijodiy imkoniyat.
- reflektiv kompetentlik.

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida hozirgikundagi yangi pedagogik metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Bunday texnologiyalar hozirgi kunda juda ko'payib ketdi, lekin bu texnologiyalarni xar bir pedagog o'z fanidan kelib chiqib ulardan oqilonafoydalanishi kerak. Reflektiv tayyorgarlik o'zini o'zi anglash, o'zini

o'zi rivojlantirish va o'zini shaxs sifatida namoyon qilish mexanizmlarini aniqlashtirish va umumlashtirishda ko'zga tashlanadi. Bu texnologiya xaqida juda ko'plab dunyo olimlari o'z fikrlarini bildirganlar. Refleksiv tayyorgarlikning ko'rsatkichi bo'lib, shaxsning har qanday vaziyat va holatlarda faoliyat ko'rsatishi hisoblanadi. S.Yu.Stepanov tomonidan refleksiv tayyorgarlikni tashkii qiluvchi tarkibiy qismlari sirasiga emotsional, intellektual, motivatsion va xulq-atvorlarni kiritadi. Ta'kidlash joizki, refleksiv qobiliyatlar shaxsda o'zini o'zi rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Shuningdek, yangi kasb cho'qqilarini egallashga kasbiy rivojlanishiga o'zini o'zi nazorat qilishiga hamda tanlagan kasbiga nisbatan ijodiy yondashishga yordam beradi. Ular shaxsni shaxs sifatida rivojlanishiga va tevarakat-rof bilan munosabatlarini yaxshilashga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Ayniqsa, refleksiv qobiliyatlar rivojlanishi shaxsda adekvat o'z-o'ziga baho berish, o'zini o'zi yuqori darajada boshqarish va o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olish qobiliyatlarining taraqqiy etishiga imkoniyat yaratadi. Refleksiv-innovatsion metodlar o'quvchilarning ta'lim olish motivlarini kuchaytiradi hamda fikrlash qobiliyatini oshiradi. Natijada o'zini o'zi rivojlantirishga ijodiy imkoniyatidan samarali foydalanishga shart-sharoit yaratadi. A. Buzemannning sharofati bilan refleksiya fenomenini psixologiya fanining maxsus o'rganish predmetiga aylandi. U refleksiyani "tashqi olamdagi har qanday kechinmalarni o'zining ichki olamiga ko'chirish" sifatida talqin qilgan va psixologiya fanining maxsus refleksiv jarayonlar va ongni o'rganadigan refleksiya psixologiyasi deb ataladigan sohasini ajratish kerakligini taklif qiladi. Rus psixologiyasida refleksivlikni o'rganishga B.G.Anan'ev, L.S.Vigotskiy, S.L. Rubinshteynning ishlarida asos solingan. Olimlar refleksiyani o'zini o'zi anglash va psixikaning rivojlanishini tushuntiruvchi tamoyil sifatida talqin etishadi. Refleksiya-bu faoliyatning tarkibiy komponenti (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev va boshqalar). Refleksiya tufayli amalga oshirilayotgan faoliyat ichki rejada aks ettiriladi, bu sub'ektga kuzatish, tartid qilish yoki o'zgartirish uchun material hisoblanadi. Refleksiya faoliyatni nafaqat ichki, balki tashqi rejada ham takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek refleksiya insonga rivojlangan intellektning muhim tarkibiy qismi sifatida o'zining tashqi olam bilan predmetliijtimoiy munosabatlarini tahlil qilish, mushohada yuritish va qayta fikrlash qobiliyatini beradi. Shunday qilib, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev va boshqa mualliflarning ishlarida refleksiya kognitiv, genetik, shaxsiyatli va kommunikativ jihatlardan o'rganilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Абулханова-Славская К.А.- Способност сознания личности как субъекта жизни // Мир психологии. 2006. №2.
2. Анисимов О.С. Субъектная рефлексия в игромоделировании и ее понятийное обеспечение. М., 2012. 382 с.
3. Артюшина Л.А. Дидактические средства включения рефлексивных умений шкодников в содержание образования. Дис.... канд.пед.н. Н.- Новгород. 2008. 173 с.
4. Богин В.Г. Обучение рефлексии как способ формирования творческой личности // Современная дидактика: теория - практике / Под ред. И.Я. Лернера, И.К. Журавлева. М.,1993. 176 с.
5. Вулфов Б.З. Рефлексия: учит, управляя // Мир образования. 1997. № 1. С. 63-64.
6. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. М.: ИНТОР,1996. 544

## DUTOR IJROCHILIGINING SHAKLLANISHI

**Shukurjonova Xusnora Farhod qizi**

Guliston Davlat Universiteti

San'atshunoslik fakulteti, o'qituvchi

Email: [xusnorashukurjonova8@gmail.com](mailto:xusnorashukurjonova8@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Dutor Markaziy Osiyoning o'zbek, tojik, turkman va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan cholg'ulardan biridir. Ushbu maqolada dutor cholg'usining shakllanish bosqichlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Dutor, cholg'u, musiqa, madaniyat, sozanda, manbaa, tarix, tadqiqot.

### АННОТАЦИЯ

Дутор входит в число узбекских, таджикских, туркменских и уйгурских народов Средней Азии. В данной статье рассказывается об этапах формирования дуторного инструмента.

**Ключевые слова:** Дутор, инструмент, музыка, культура, музыкант, источник, история, исследование.

### ABSTRACT

Dutor is among the Uzbek, Tajik, Turkmen and Uighur peoples of Central Asia is one of the widespread instruments. This article talks about the stages of formation of dutor instrument

**Keywords:** Dutor, instrument, music, culture, musician, source, history, research.

“Dutor” (ikki torli) atamasining kelib chiqishiga sozni shakllari o'xshash torli sozlardan farqlash asosiy sabab bo'lgan. Dutorga o'xshash cholg'ularni Ozarbayjonda “Saz”, gruzinlarda “Panduri”, qirg'izlarda “Komuz”, qozoqlarda “Do'mbra” va xitoylarda “Pipa” atamalari bilan sozandachilik amaliyotida qo'llanib kelingan. Dutor - forsha "ikkita tor" degan manoni anglatadi.

“Dutor musiqiy merosimizning ibtidoiy belgilaridan biri ekanligi aniq. Qadimshunoslar O'zbekiston hududidan qazib topgan musiqiy asori atiq va tasvirlar qatorida dutorsimon ikki torli cholg'ular ko'plab uchraydi. U cholg'ularning asl

nomlari bizgacha yetib kelmagan bo'lsada, shakli – shamoiliga ko'ra dutor toifasidagi asbob ekanligi shubha qoldirmaydi.<sup>1</sup>

Bugungi cholg'umizga yaqin ma'nodagi “dutor” atamasi Alisher Navoiy homiyligida yaratilgan Zaynulobiddin Husayniyning “Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy” risolasida ilk bor tilga olinadi. Husayniyning dalolat berishicha bu cholg'u qadimda “barbat” (lug'aviy ma'nosi “urdaksiyna”) deb yuritilganligi qayd etiladi. Barbat esa o'z navbatida Faxriddin Roziyning “Miftoxi al-ulum” qomusining ilmi musiqiyga oid bo'limida islom tamaddunida “ud” nomi bilan mashhur bo'lgan mo'tabar cholg'uning qadimiy ko'rinishi deb e'tirof etiladi.

XIX asrda O'rta Osiyoga ekapeditiya uchun kelgan olimlar, tadqiqotchilar, o'lkashunos va etnograflar musiqa mahalliy aholining qon-qoniga singib ketganligini qayd qilib o'tadilar. Deyarli har bir o'zbek xonadonida dutor sozini ko'rish mumkinligi va u O'rta Osiyo xalqlarining eng sevimli cholg'u sozi ekanligini yozib, o'z kundaliklarida hamda ilmiy risolalarida bayon etganlar.

Dutor Markaziy Osiyoning o'zbek, tojik, turkman va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan cholg'ulardan biridir. O'lkamizning musiqa sozlari orasida dutor o'zining mayin, xonaki tovushi bilan alohida ajralib turadi. Ayni paytda bizning Respublikamizda dutor ijrochiligi to'rt asosiy lokal uslubga bo'linadi. Bular: Xorazm, Samarqand–Buxoro, Qashqadaryo–Surxondaryo va Farg'ona –Toshkent uslublaridir.

O'tgan asrda dutor san'atiga nisbatan ko'proq e'tibor bergan, unda ijro etilgan qo'shiqlar va kuylarni yozib olgan dastlabki ovropalik musiqashunos, harbiym orlestr dirijori va skripachi Avgust Eyxgorn bo'ldi. Eyxgorn yozib olgan ko'pgina asarlar orasida dutor jo'rligida aytilgan qo'shiqlar vas of cholg'u asari sifatida unda ijro etilgan bir necha o'nlab kuylarni uchratamiz<sup>2</sup>.

Bu uslublar ichida Xorazm va Farg'ona –Toshkent mahalliy yo'llari alohida ajralib turadi. Nafaqat folklor va klassik san'atida, balki ijrochilikda shu vohalar cholg'u sozining tuzilishi va ijro etilishida o'ziga xos xususiyatlar bilan bir-biridan farq qiladi. Vohalar ijro uslublarining takomillashib borishi natijasida dutor ijrochiligida turli maktablar vujudga keldi. Bu ijro maktablari vohalarining o'ziga xos an'analari, shevalari va urf – odatlari bilan uyg'unlashib ketgan. Bu avvalo cholg'u sozi ko'rinishida gavdalandi.

Dutor turlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, tarixiy rivojlanish jarayonida

<sup>1</sup> Matyoqubov.O:Boltayev.R, Aminov.H; O'zbek notasi T.;2009 3-bet

<sup>2</sup> Rasultoyev.J O'zbek dutor ijrochiligi T.: “O'qituvchi” 1997 7,8-bet

turkman, tojik, uyg'ur, xorazm, o'zbek dutorlari shakillangan. Bular tuzilishi jihatidan unchalik farqlanmasa-da, har holda ko'rinishi, torlari bilan bir-biridan biroz ajralib turadi. Masalan, uyg'ur va tojik dutorlarining bir-biriga o'xshashlik tomonlari shundaki, ularning kosasi turkman va xorazm dutoriga nisbatan birmuncha kattaroq bo'ladi. Odatda turkman dutoriga metallan yasalgan sim taqiladi. Tojik dutorlarini ayrimlari o'zbek dutoriga o'xshaydi. Ularning kosasining o'rtacha hajmi bilan bir-biriga yaqin turadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonning o'zida ham dutorlar azaldan 2 xil yasalgan, ya'ni erkaklar dutori va ayollar uchun mo'ljallangan dutorlar. Erkaklar dutorining kosasi kattaroq, dastasi esa uzunroq bo'ladi. Ayollar dutorlari aksincha, kosasi kichikroq va dastasi ham nisbatan qisqa, ayollarga yarashadigan va nozikroq qilib mohir soz ustalari tomonidan yasaladi. Vohalar vaturlari xalqlarga xos dutorlarning ko'rinishi ijro an'alariga ham ta'sir etishi muqarrardir. Shu nuqtai nazardan biz o'zbek, turkman, xorazm dutor ijrochiligi maktablari shakillanishini ko'ramiz mumkin. Dutor xatto yirik asarlarni yaratilishiga ham asos bo'lganligini qayd etish joizdir. Bunga Xorazm dutor maqomlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

O'zbekistonda asosan Xorazm, Qo'qon, Andijon, Toshkent kabi o'ziga xos ijrochilik maktablari shakillangan. XX-XXI asrlarga kelib, dutor ijrochiligi professional darajada rivojlana boshladi. Bir qator mohir ijrochilar shakllandi. Dutori go'zal sadolantirishning turli ko'rinishlari va uslublari paydo bo'ldi. Bu bir-biridan serjilo ijro uslublari o'ziga xosligi bilan tinglovchilar dilidan joy ola boshladi. Ularning uslublariga qiziqqan yoshlar ham paydo bo'ldi, natijada ijrochilik maktablariga aylandi. Dutor ijrochilik uslublari haqida gapirar ekanmiz, biz Xorazm dutor maktablari va o'ziga xos go'zal ijrochilik uslubini qayd etmasdan ilojimiz yo'q. Farg'ona-Toshkent vohasidagi ko'p ijro yo'llaridan - Qo'qon dutor ijrochilik maktabining an'analari ham alohida ajralib turadi. Dutor ijrochiligining an'anaviy uslubda maxsus maqom yo'llari yaratilgan.

Xorazm vohasida dutor cholg'uchiligi ham o'ziga xos bo'lib, unda o'ng qo'l zarblari rez usulidagi uzluksiz davomiy ijrosi bilan ajralib turadi. Har bir kuchli hissani bo'rttirib, o'ng qo'lning to'rt barmog'i va jimjiloqni qopqoqqa tekkizib, tirnab va chertib ijro qilish asosiy xususiyatlardan hisoblanadi. Dutorning o'ng qo'l zarblari Xorazmda "dast" deyiladi. Ular o'z ichiga kuy va usul bo'laklarini murakkab va jozibali jihatlarini birlashtiradi. Keksa sozandalarning aytishiga qaraganda, doston nomalariga jo'r bo'luvchi doira ham usulni dutor zarblaridan o'rgangan.

Nomalarning kuy tuzilishi va tezkor rivojlanganligidan baxshilar dutorning ijro Imkoniytlaridan to'liq foydalanganlar. Xorazm dutor ijrochiligini takomillashuvida bir qator ustoz ijrochilarining katta hissalar bor. Bulardan - Nurmuhammad Boltayevni alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Ustoz ijrosidagi - "Orazibon", "Qarinavo",

“Aliqambar”, “Qoradali”, “Roviy”, “Dilxiroj” kabi xalq kuylarida Xorazm ijro uslubini, ya’ni qopqoqqa urib, to‘rt barmoqni birgalikda terib chalishlarni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Farg‘ona-Toshkent dutor ijrochiligida shaxsiy uslublar muhim ahamiyat kasb etgan. O‘z ijrolari bilan musiqa ijrochiligi san‘atiga salmoqli hissa qo‘shgan ustozlar - Faxriddin Sodiqov, Mahmud Yunusov, Orif Qosimov, Zokirjon Obidov, Komiljon Jabborov, Turg‘in Alimatov kabilarning ijro yo‘llari musiqa san‘atimizda o‘rnak uslublardir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Rasultoyev.J O‘zbek dutor ijrochiligi T.: “O‘qituvchi” 1997 7,8-bet
2. Matyoqubov.O:Boltayev.R, Aminov.H; O‘zbek notasi T.;2009 3-bet
3. D.Yorov, Q.Qurbonov – “Navoi dutor”
4. M.Safarova – “Dutor mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma”



## DASTURLASHNI O'RGANUVCHILAR UCHUN ENG YAXSHI DASTURLASH TILLARI

**Z. Qadamova**

TATU FF Axborot texnologiyalari  
kafedrası o'qituvchisi

**N. Sotvoldiyeva**

TATU FF talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dasturlashni o'rganuvchilar uchun eng yaxshi dasturlash tili to'g'risida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Python, Java, C++, C#, Ruby.

Agar dasturlash tillarini o'rganishni o'ylayotgan bo'lsangiz, siz tanlamoqchi bo'lgan birinchi til nimani o'rganmoqchi ekanligingiz, bu qobiliyat bilan nima qilmoqchi ekanligingiz va natijada nimalarga erishmoqchi ekanligingizga ko'p jihattan bog'liq. Shunday bo'lsada, ba'zi tillarni boshqalari orasidan tanlab olishi osonroq, chunki ularni o'rgannish uchun manbalar ko'p yoki ularni o'rgansangiz foydaliroq ko'nikmalarga ega bo'lishingiz mumkin.

Quyida Liferhacker sayti tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra eng yaxshi beshtasini keltirib o'tamiz. Shuni aytib o'tish kerakki – dasturlashni o'rganishga qaror qilgan bo'lsangiz biz avval qaysi tilni o'rganish masalasini mutlaq hal qilmoqchi emasmiz. Har kim o'z fikriga ega va tilni o'rganish uchun sabablardan kelib chiqib bu tillarning hech biri sizga mos kelmasligi ham mumkin. Bu yerda eng mashhur nominantlar ro'yhati keltirilgan.

**Java.** Oracle korporatsiyasining Java dasturlash tili veb sohasida uzoq vaqtdan beri foydalanib kelinayotgan, barqaror va kuchli tillardan biri. Siz Javani veb yoki veb bo'lmagan "application"larning asosida, barcha platformalar, operatsion tizimlar va qurilmalarda topishingiz mumkin. U chuqur darajada klasslarga asoslanga (class-based), obyektga yo'naltirilgan (object-oriented) dasturlash tili bo'lib imkoni boricha oson ko'chirib yurishga va ko'plab platformalarda ishlashga moslashtirilgan. Shu sababli, u dunyodagi eng mashhur dasturlash tillaridan biri. Agar dasturlashni o'rganishga qiziqsangiz uni o'rganish juda ham foydali.

Java eng mukammal dasturlash tili emas, shuning uchun ko'pchilik kurslar C va C++ dan boshlanadi, chunki Java ko'p sintaksislarni ana o'sha oldingi tillardan oladi.

Java sizni dasturchilardek o'ylashga undaydi – mantiqiy va tahliliy fikrlash, komputer axborotni qanday qilib qayta ishlashini yaxshi tushunishga o'rgatadi. U boshqa tillar va texnologiyalarga o'tganingizda ham sizga yordan beradigan asosiy konsepsiyalarning fundamental to'plami hisoblanadi.

**Ruby.** Ruby dinamik, ochiq kodli (open-sorce), obyektga yo'naltirilgan dasturlash tili bo'lib, 90-yillarda kompyuter olimi Yukihiro Matsumoto tomonidan ishlab chiqilgan eng yosh tillardan biri hisoblanadi. Bu tilda o'qish va yozish uchun sodda sintaksisdan foydalanilgan, juda ko'p buyruqlarni o'rganib chiqish shart emas. Shuning hisobiga, bu tilni o'rganish nisbatan oson. Tilning o'zi obyektga yo'naltirilgan bo'lsada, protsedurali, funksional va imperativ dasturlashni ta'minlashligi bu tilni juda ham tez moslashuvchi tillardan qiladi.

Ruby nisbatan oson o'zlashtirilishi bilan dong taratgan, chamasi 20 minutlik foydalanuvchi uchun yo'riqnomadan (bu tilning rasmiy veb saytidan topishingiz mumkin) ba'zi asoslarini juda qisqa muddat ichida tanishib chiqishingiz mumkin. Perl va Pitonning ishqibozlari mavjud ba'zi o'xshashliklarni topadilar. Bu tilga ovoz berganlar uni tushunish va o'rganish, kerak bo'lganda o'qish osonligini va bu tilning muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan yirik, faol hamda jo'shqin dasturchilar jamiyatiga egaligini maqtashadi.

**Piton (Python).** Odamlar birinchi dasturlash tillari va qaysi tilni tanlash odamlar uchun osonligini muhokama qilganda, albatta Pitonga to'xtaladilar. U 80-yillarda Gvido van Rossum (Guido van Rossum) tomonidan ishlab chiqilgan. U keyinchalik tilni hozirgi kunda tilning administratori hisoblangan notijoriy Piton Softveir Foundeyshinga (Python Software Foundation) bergan, tilning o'zi esa ochiq-kodli va foydalanish uchun bepul, hattoki tijoriy dasturlar uchun ham. Piton odatda dasturchilarni qisqa vaqtda ko'p miqdorda oson o'qiladigan va funksional kodlarni yozishini ta'minlaydigan skript til sifatida foydalaniladi, biroq u dinamik, hamda obyektga yo'naltirilgan, protsedurali va funksional dasturlashni ham ta'minlaydi. Tez moslashuvchanligi hisobiga, Piton bugungi kunda yuqori darajada keng qo'llaniladigan dasturlash tillaridan biri hisoblanadi.

**C/C++.** Ko'pchilik ovozlari C dasturlash tiliga bo'lganligi, C++ ga esa kamroq ovoz berilganligi uchun ularni birga qo'yishga qaror qilinganki bu til C dan kelib chiqqan til hisoblanadi. C va C++ tillari mos ravishda qariyb 1970 va 80 – yillardan beri mavjud. C o'z o'rnida juda ham keng foydalanilgan, ommaviy, imperativ (buyruq tarzidagi) dasturlash tili bo'lib, bu tildan rivojlantirilgan deyarli barcha tillarga kuchli ta'sir qilgan. Boshqa tomondan, C++ C tilini yanada rivojlantirib, unga virtual funksiyalar va andozalar bilan birga, klasslar kabi obyektga yo'naltirilgan jihatlarni qo'shdi. C++ bugungi kunda dunyoning eng mashhur dasturlash tillaridan biri bo'lib, haligacha barcha narsada: video o'yinlardan tortib samaradorlik dasturiy

ta'minotlarigacha keng qo'llaniladi. Garchi ko'pchilik C dan boshlashga hech qanday sabab yo'qligini tasdiqlasada, C++ ni tanlash C dan ko'ra biroz qiyinroq. Hozircha, bu haqda bahslashmoqchi emasmiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Muhammadjonov A., Toxirova S. YARIMO 'TKAZGICHLARNING TURLARI. ICHKI VA TASHQI YARIMO 'TKAZGICHLAR //Research and implementation. – 2023.20:23
2. TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI Z Qadamova, A Sotvoldiyev - GOLDEN BRAIN, 2023
3. magistri Qodirova, Q. Z. T. F. Zulfiyaxon Farg'ona shahar 40-IDUM informatika fani o'qituvchisi PYTHONDA ARIFMETIK AMALLAR BAJARISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI. In Международная научно-техническая конференция «Практическое применение технических и цифровых технологий и их инновационных решений», Т.
4. BIOLOGIK NEYRONLARNING MODELI, SUN'IY NEYRON TARMOQLARINING INSONIYAT HAYOTIDAGI AXAMIYATI Z. Qadamova TATU Farg'ona filiali magistri D.Sotvoldiyev Fiskal instituti dotsenti
5. Zulfiyaxon Farg'ona shahar 40-IDUM informatika fani o'qituvchisi PYTHONDA ARIFMETIK AMALLAR BAJARISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI QZTFF magistri Qodirova
6. O. S. Rayimdjanova, M. Akbarova, & B. Ibromkhimova. (2022). THERMAL CONVERTER FOR HORIZONTAL WIND SPEED AND TEMPERATURE CONTROL. Oriental Journal of Technology and Engineering, 2(02), 14–20. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojte-02-02-03>
7. Tojiboev, I., Rayimjonova, O. S., Iskandarov, U. U., Makhammadjonov, A. G., & Tokhirova, S. G. (2022). ANALYSIS OF THE FLOW OF INFORMATION OF THE PHYSICAL LEVEL OF INTERNET SERVICES IN MULTISERVICE NETWORKS OF TELECOMMUNICATIONS. Мировая наука, (3 (60)), 26-29.
8. Rayimjonova, O. S., Tillaboyev, M. G., & Xusanova, S. S. (2022). Underground water desalination device. International Journal of Advance Scientific Research, 2(12), 59-63.
9. Abdikhalikovna, N. R., Sodikovna, R. O., Umarali, E. S., & G'anijonovich, T. M. (2022). Anomalous photovoltaic effect in dielectrics. International Journal of Advance Scientific Research, 2(06), 84-90.
10. TOJIBOEV, I., RAYIMJONOVA, O., ISKANDAROV, U., MAKHAMMADJONOV, A., & TOKHIROVA, S. МИРОВАЯ

НАУКА. МИРОВАЯ НАУКА Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития", (3), 26-29.

#### 11. PYTHON KUTUBXONALARI VA ULARNING QO‘LLANILISHI

TATU FF Axborot texnologiyalari kafedrasida o‘qituvchisi Z. Qadamova

TATU FF talabasi M. Qadamova

#### 12 PYTHONDA O‘ZGARUVCHILAR E‘LON QILISH VA ULARNI TAHLILI

TATUFF talabasi: M.Qadamova TATUFF talabasi: M.Ro‘zaliyev [Ta‘lim innovatsiyasi va integratsiyasi](#)

UDK 004.048

## DISKRET KONVOLYUTSIYANING MATLAB DASTURIDAGI TAHLILI

**D.B. Sotvoldieva**

Toshkent Axborot texnologiyalari Universiteti Farg‘ona filiali assistenti

### ANNOTATSIYA


Ushbu maqolada diskret konvolyutsiyaning asosiy tushunchalari, signallarni topish uchun konvolyutsiyadan foydalanish qo‘llanilishi va uning Matlab dasturidagi tahlili bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Diskretlashtirish, konvolyutsiya, uzluksiz signallar, shovqin foni, filtrlar.

Bir qator jarayonlar singari, konvolyutsiya ham doimiy, ham diskret bo‘lishi mumkin. Ta’rifga ko‘ra konvolyutsiyani ikkita funktsiya yoki ketma-ketlik uchun hisoblash mumkin va chiqishda uchinchi natijali funktsiyani yoki ketma-ketlikni olinadi. Doimiy konvolyutsiya integral almashtirishning bir turi bo‘lib, mohiyatan korrelyatsiya funktsiyasiga juda yaqin bo‘ladi.

Keling, diskret konvolyutsiyani hisoblashning bir misolini ya’ni ikkita ketma-ketlikni konvolyutsiyasini ko‘rib chiqamiz, bilamizki, uzluksiz signallardan diskretga o‘tishda integratsiya operatsiyalari birmuncha oddiy ko‘paytmalar va yig‘indilar bilan almashtiriladi. Har biri 5 ta namunaning ikkita alohida ketma-ketligini ya’ni qiymatlari 4 2 1 2 3 bo‘lgan  $x$  va qiymatlari 1 2 4 2 3 bo‘lgan  $y$  ni ko‘rib chiqamiz. (1-rasm)

$$x[n] = [ 4 \ 2 \ 1 \ 2 \ 3 ] \quad h[n] = [ 1 \ 2 \ 4 \ 2 \ 3 ]$$




1-rasm

Vaqt siljishini ko‘rsatish uchun biz birinchi ketma-ketlikni nollar bilan to‘ldiramiz, ikkinchi ketma-ketlikni aks ettiramiz va elementdagi elementlar sonini dastlabki beshta namunaga ko‘paytiramiz. Ko‘paytirish natijalarining elementlari birlashtirilib, biz 4 raqamini olamiz. Keyin biz birinchi ketma-ketlikni bitta hisobotga o‘tkazamiz va ko‘paytirish va qo‘shish amallarini takrorlaymiz. Shunday qilib, biz  $y$

ketma-ketligi elementlarini hisoblaymiz. Ko‘rib turganingizdek, biz birinchi  $x$  ni harakatga keltirib, ikkinchi  $h$  ketma-ketligini aylantirildi.

Darhaqiqat, bu nisbiy siljish muhim ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun ham tub farq yo‘q, ammo bunday namoyishni bekorga misol keltirilmadi. Birinchi ketma-ketlikni kirish signali, ikkinchisini esa ushbu signal o‘tadigan tizimning bir turi deb hisoblash mumkin. Hisoblagan chiziqli diskret konvolyutsiyaning natijasi yig‘iladigan va ketma-ketlikning har biriga qaraganda ko‘proq namunalarni o‘z ichiga oladi. (5-rasm)

$$y[n] = \sum_{m=0}^{\infty} x[m] \cdot h[n - m]$$



2-rasm

MATLAB-ning diskret konvolyutsiyasini tezda hisoblash uchun o‘rnatilgan **conv** funksiyasidan foydalanish mumkin. Buyruqlar oynasida ushbu ikkita ketma-ketlikni yaratamiz va ularning qatlamalarini bitta amalda hisoblaymiz. Keling,  $x$ ,  $h$  vektorlarini yaratamiz va hosil bo‘lgan  $y$  vektorini hisoblaymiz. **stem** funksiyasi yordamida chiqish ketma-ketligini vizuallashtiramiz. Ko‘rib turganimizdek, natija oldindan hisoblab chiqilganga to‘liq mos keladi. Endi abstrakt matematik hisob-kitoblardan raqamli signalni qayta ishlash uchun konvolyutsiyaning amaliy qo‘llanmalariga o‘tamiz, ammo buning uchun bir lahzaga analog dunyoga qaytishimiz kerak. RC zanjirlarini birlashtirish asoslari, elektronlar nazariyasini eslaylik.

Aytaylik, biz kuchlanish manbasini ma’lum vaqt davomida yoqamiz va keyin uni o‘chiramiz. Vaqt diapazonida manbaning kuchlanishga bog‘liqligi to‘rtburchak bo‘ladi. Shuningdek, biz uning impuls reaksiyasini, ya’ni zanjirning delta funksiyasiga reaksiyasini tasvirlaymiz. Delta funksiyasini yoki Dirac funksiyasini eslab o‘tamiz, bu funktsiya nolga teng emas va faqat koordinatalarning boshlanishida yoki  $t$  vaqtida nolga teng bo‘ladi, ya’ni cheksiz qisqa cheksiz kuchli impuls. Shunday qilib tizimning bunday impulslarga reaksiyasi impuls reaksiyasi deb ataladi. Uning yordami bilan biz tizimning dinamikasini tavsiflashimiz mumkin.

Bizning holatlarimizda chiqish signalini hisoblash uchun kondensatordagi kuchlanish, zanjir kuchlanishining kirish signalini elektronning impulsli reaksiyasi bilan birlashtirishimiz kerak.

Konvolyutsiya ma'lum kirish signali va tizimning ma'lum xarakteristikasi bo'lgan tizimning chiqishini hisoblash uchun ishlatiladi.


Endi esa, signallarni topish uchun konvolyutsiyadan foydalanish misolini ko'rib chiqamiz. Agar tizim kirish ketma-ketligi qiymatiga qarama-qarshi bo'lgan impulsli javobga ega bo'lsa, u holda namunalarning bir-biriga to'g'ri kelishi paytida konvolyutsiya operatsiyasining natijasi maksimal bo'ladi. Bunga asos qilib Mos filtrlash printsipini olish mumkin.

Mos keladigan filtrlar qabul qilingan signal shaklini saqlab qolishi biz uchun muhim bo'lmaganda emas, balki uning e'firda mavjudligini aniqlash va yetib kelish vaqtini aniqlash muhim bo'lganda qo'llaniladi.

Bu odatiy radiolokatsiya vazifalaridan biri hisoblanadi, ya'ni agar biz qabul qilmoqchi bo'lgan signal shaklini oldindan bilsak. Filtr koeffitsientlarini topish qiyin emas, ya'ni konvolyutsiya operatsiyasi uchun ikkinchi ketma-ketlikning qiymati, aks etganda ular signal hisobotiga tenglashadi. Bunday holda, tizimning kirish joyiga shovqinli signal kelganda, filtr chiqishidagi qiymat maksimal bo'ladi. Xuddi shunday, signallarni shovqin fonida aniqlash mumkin. Keling, MATLAB-da bir misolni ko'rib chiqaylik. Ushbu misolda  $h$  ning impulsli reaksiyasi bilan mos filtr yordamida  $x$  ning tasodifiy ketma-ketligini qidiramiz. Va biz  $x$  ketma-ketligini aks ettirish orqali  $h$  impuls javobini shakllantiramiz. **filter** funksiyasi massiv elementlarini aks ettiradi.

Keyin biz ketma-ketligimizdan oldin va keyin tasodifiy elementlarni qo'shamiz, shuningdek qo'shimcha shovqin qo'shamiz.

Biz o'z ketma-ketligimizni qayerga qo'yganimizni bilamiz, shuning uchun EXPECTED\_NUM o'zgaruvchisida o'zimizning ketma-ketligimizning so'nggi holatini yozamiz. Keyin shovqinli signalimiz konversiyasini  $h$  impuls reaksiyasidan hisoblaymiz va konvolyutsiyaning maksimal qiymati ketma-ketligimiz oxirining holatini ko'rsatishi kerak. Tekshirib ko'ramiz. Yuqoridagi grafikda shovqinli signal va fonda xaqiqiy ketma-ketliklar, pastdagi grafikda esa bizning konvolyutsiyamiz ko'rsatilgan. Ko'rib turganingizdek, u aniq maksimal darajaga ega. RUN tugmachasini yana bir necha marta bosishga harakat qilamiz, ya'ni shovqinning tabiati kerakli ketma-ketlikning holatiga ta'sir qilmaydi. Ammo biz ketma-ketlikni bir nechta namunalardan bilan almashtirsak, biz xuddi shu tarzda konvolyutsiya funksiyamiz shovqin fonida ham o'z pozitsiyasini muvaffaqiyatli kuzatib borishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



3-rasm

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Z.Qadamova& A.Sotvoldiyev (2023). Taʼlim Jarayoniga Innovatsion Taʼlim Texnologiyalarini Qoʻllashdagi Muammolar Va Ularni Rivojlantirish Omillari. Golden Brain, 1 (27), 201–205.
2. I.X. Siddikov, D.M. Umurzakova, Synthesis Configuring Smith Predictor Parameters For A Variable Line Feature. 15th International Ieee Scientific And Technical Conference Dynamics Of Systems, Mechanisms And Machines, Dynamics 2021 - Proceedings, 2021, Doi: [10.1109/Dynamics52735.2021.9653465](https://doi.org/10.1109/Dynamics52735.2021.9653465)
3. Siddikov I.X., Umurzakova D.M., Synthesis Of The Adaptive-Fuzzy System Regulating The Temperature Of Overheated Steam In Heatelectric Objects / International Conference On Information Science And Communications Technologies Applications, Trends And Opportunities (Icistc 2020). Tashkent University Of Information Technologies Named After Muhammad Al-Khwarizmi. –Tashkent. 4-6 November, 2020.
4. Kodirov, E., & Xontoʻrayev, S. (2023). Ommaviy Xizmat Koʻrsatish Tizimlarini Modellashtirishni Suv Sovutgich Qurilmalaridan Foydalanish Misolida Tahlil Qilish.
5. Kodirov, E., & Xontoʻrayev, S. (2023). Sunʼiy Neyron Tarmoqlariva Ularning Qoʻllanilishi.
6. Xontoʻrayev , S. (2023). Control Manager System Технологияларининг Дастурий Муаммолари. Engineering Problems And Innovations. Извлечено От <https://Fer-Teach.Uz/Index.Php/Epai/Article/View/949>



7. Xonto'rayev , S. (2023). Saving Environment Using Internet Of Things: Challenges And The Possibilities. Engineering Problems And Innovations. Извлечено От <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/950>
8. Ismoilxon o'g'li, E. O., Ergashevich, S. I., & Isroilovich, X. R. S. (2022). Toifalangan Ob'ektlarda Axborotni Himoya Qilish Tizimlari Va Vositalari. Journal Of New Century Innovations, 11(1), 100-109.
9. Tojiboev, I., Rayimjonova, O. S., Iskandarov, U. U., Makhhammadjonov, A. G., & Tokhirova, S. G. (2022). Analysis Of The Flow Of Information Of The Physical Level Of Internet Services In Multiservice Networks Of Telecommunications. Мировая Наука, (3 (60)), 26-29.
10. M.Sobirov Advantages of using LMS as a System for Monitoring, Evaluating and Monitoring Learning Outcomes// International Journal of Development and Public Policy// 2022 C-123-128

## YAPON SAFORASINING KIMYOVIY TARKIBI VA XALQ TABOBATIDAGI O'RNI

**Qodirov Azizbek**

Qo'shtepa tumani 39-maktab kimyo fani o'qituvchisi

**Tuychiyeva Xilola Zokirjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: [tuychiyevafdu1993@gmail.com](mailto:tuychiyevafdu1993@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Yapon saforasi (*Sophora japonica*) bo'yi 25 m gacha bo'lgan dukkakkililar oilasiga mansub Xitoy va Yaponiyada o'sadigan daraxt manzarali shifobaxsh daraxt. Dorivor maqsadlarda biologik faol moddalarning boy majmuasini o'z ichiga olgan kurtaklar va mevalar ishlatiladi, shu jumladan flavonol glikozid rutin, qon tomirlarining devorlarini mustahkamlash qobiliyatiga ega, jarohatlar, kuyishlar va boshqalarni davolashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Yapon saforasi, biologik faol modda, antioksidant, rutin, glikozid, kaempferod-3-soforozid, quersitin-3-rutinosid, genistein-2 soforabiozid, bioflavanoid, flavonoid, ateresekleroz, ekzema, trofik yara, kollagen, elastiklik.

### ABSTRACT

*Sophora japonica* is an ornamental medicinal tree that grows in China and Japan and belongs to the legume family, up to 25 m tall. Buds and fruits containing a rich complex of biologically active substances are used for medicinal purposes, including the flavonol glycoside rutin, which has the ability to strengthen the walls of blood vessels, helps to heal wounds, burns, etc.

**Keywords:** *Sophora japonica*, biologically active substance, antioxidant, rutin, glycoside, kaempferod-3-sophoroside, quercetin-3-rutinoside, genistein-2 sophorabioside, bioflavanoid, flavonoid, atherosclerosis, eczema, trophic ulcer, collagen, elasticity.

Yapon saforasi (*Sophora japonica*) yam-yashil tojli go'zal daraxt. Daraxtning balandligi 25 m ga etadi. Daraxt gullash davrida juda chiroyli kichik sariq kapalak gullari butun daraxtni qoplaydi. *Sophora* mevasi loviya shaklida bo'ladi. Dorivor o'simlik faqat gullash davrida yig'iladi, garchi Yapon saforasi mevalari xalq tabobatida ham qo'llaniladi.

Yapon saforasi qimmatli dorivor o'simlik. Daraxtning gullari dorivor xom ashyo sifatida xizmat qiladi. Ular rutin olish uchun yig'iladi. Gullarda rutin miqdori 17-30% ga etadi, barglar va kurtaklar esa faqat 4% ni tashkil qiladi. Yapon saforasi mevalari, shuningdek, rutindan tashqari, ko'p miqdorda flavon glikozidlarini o'z ichiga olgan yig'iladi. Rutinning ahamiyati shundaki, u askorbin kislotasi bilan birgalikda qon tomirlarining devorlarini mustahkamlaydi va shu bilan ularning mo'rtligini kamaytiradi.

Yapon saforaning yangilanadigan va antioksidant xususiyatlari, asosan, 30% rutin (vitamin P) tarkibiga bog'liq - bu flavonoid teri kollagenining elastikligini saqlashga va ajinlar bilan kurashishga yordam beradi, terini mustahkamlashga yordam beradi, regeneratsiya jarayonlarini tezlashtiradi va lipid muvozanatini tartibga soladi. Bioflavonoidlar - rutin hosilalari - terining sog'lom va yoshligini saqlashga yordam beradi va uning erta qarishini oldini oladi.

Sophora inson tanasining qon aylanish tizimiga juda foydali ta'sir ko'rsatadi. Bu tomirlarga ham, qonning tarkibiga ham tegishli. Sophoraning terapevtik ta'sirining mexanizmi zamonaviy yapon tibbiyoti tomonidan yetarlicha o'rganilmagan.

Sophora preparatlarini qo'llash uchun ko'rsatmalar qimmatli tarkibiy qismlarning kuchli ta'minlanishi tufayli juda ko'p: ichki qon ketishini davolash va oldini olish (miya, ko'z to'qimalarida, yurakda), qon tomirlarining sklerotik shikastlanishi, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasi, gastrit, kolit, angina, gipertoniya

Yapon saforaning xolesterin va qon shakar darajasini (rutinning yuqori miqdori tufayli) kamaytirish qobiliyati ayniqsa diqqatga sazovordir, shu bilan birgalikda uni diabetga qarshi kurashda eng qimmatli vositaga aylantiradi. Bundan tashqari, Sophora preparatlarining kuchli shifobaxsh va tiklovchi xususiyatlari ekzema, trofik yaralar va psoriaz bilan kurashishga yordam beradi.

Yapon saforasi mevalari pishib yetilish davrida 8 ta flavonoidni o'z ichiga oladi, ularning miqdori yig'ish joyi va vaqtiga qarab o'zgaradi. Rutindan tashqari kaempferol-3-soforozid, quersitin-3-rutinosid va genistein-2-soforabiozid topildi. Gullarda alkaloidlar va glikozidlar topilgan. Barglarida rutin (soforin) va 47 mg% gacha vitamin C topilgan. Urug'ida 10% gacha yog' bor.

Yapon soforasi tarkibidagi flavonoid glikozidlar yallig'lanishni yengillashtiradi, hujayralardagi yog' va oqsil almashinuvini normallantiradi, kapillyarlar, tomirlar, qon tomirlarining ohangini va elastikligini yaxshilaydi, teri hujayralarida mikrosirkulyatsiya va kislorod almashinuvini yaxshilaydi. Ulardan ba'zilar, masalan, quercetin va rutin, vitamin C dan 20 baravar va E vitaminiga qaraganda 50 marta faolroqdir. Flavonoidlar, agar ular o'simlikda C vitamini bilan birga bo'lsa, ayniqsa faol bo'ladi.

Sophora japonica mahalliy yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida ishlatilgan. Xitoylik shifokorlar o'simlikning gullari insult paydo bo'lishining oldini olish xususiyatiga ega deb hisoblashadi.

Flavonoidlarning yuqori miqdori tufayli sophora kuchli antioksidant sifatida uzoq umr ko'rishga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. kizi Tuychiyeva, X. Z., & Turdibekov, M. (2022). BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOPHORA JAPONICA. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 146-151.
2. Tuychiyeva, X. (2023). YAPON SAFORASI (SOPHORA JAPONICA L) NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI. Talqin va tadqiqotlar, 1(8).
3. Abdurahim, N. (2023). The Technology of Growing Sophora Japonica L. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(5), 128-133.
4. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). TERMITLARNING BIOEKOLOGIYASI. GOLDEN BRAIN, 1(27), 149-152.
5. Tuychieva, K., Khalilova, B., Mamatova, M., Shakhbazova, G., & Khamrakulova, R. (2023, May). Study Of Bigdata Strategic Analytics in Sustainable Smart System of Farming. In 2023 3rd International Conference on Advance Computing and Innovative Technologies in Engineering (ICACITE) (pp. 1355-1358). IEEE.
6. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). O 'SIMLIKLARNI ZARARKUNANDA HASHAROTLARDAN HIMOYA QILISH USULLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 33-39.
7. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). KERATOFAG HASHAROTLAR VA ULARGA QARSHI KURASHISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 455-457.

## “JIZZAX- ZOMIN” AVTOMOBIL YO‘LLINING SIFAT KO‘RSATGICHINI BAHOLASH

**Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich**

Jizzax politexnika instituti assistant

**Kamolov Ulug‘bek Shokir o‘g‘li**

Jizzax politexnika institute talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunda avtomobil yo‘llarining tarmoqlari va ulardan foydalanishda vujudga keladigan muammolar, ularga qo‘yiladigan talablar, harakat miqdori, xarakat tarkibi, harakat tezligi, harakat zichligi va ularning echimlari to‘g‘risida keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** yo‘l, harakat, avtomobil, tezlik, transport, texnik, ekspluatatsiya, xizmat, qoplama.

Avtomobil yo‘li tarmoqlari har qanday viloyat yoki tumanning yo‘l tarmoqlari deb, shu joydagi aholi yashaydigan nuqtalarni birlashtiruvchi, undagi xalq xo‘jalik, yuk tayyorlovchi va qabul qiluvchilarni xarakat vositalari bilan ta‘minlovchi tarmoqlarga aytiladi. Xar qanday avtomobil yo‘l tarmog‘i asosiy yuk va yo‘lovchilarni tashishni ko‘zlab loyihalaniishi shart. Yo‘l tarmog‘ini qanchalik ko‘p foizini xalqaro va respublika ahamiyatidagi yo‘llar tashkil qilsa, shu mamlakat tez iqtisodini yaxshilay oladi. Yo‘lning ahamiyati qanchalik katta bo‘lsa, shuncha ko‘p avtomobil undan harakatlanadi va unga qo‘yiladigan talablar ham shuncha oshadi.

Hozirgi zamon avtomobil yo‘llariga qo‘yilgan talab. Hozirgi avtomobil yo‘llariga qo‘yilgan talablar juda ko‘p bo‘lib, ular bilan yil davomida tanishib chiqamiz. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- 1). Hisobiy tezlikni ta‘minlash;
- 2). Har qanday ob-xavo sharoitida yuk va yo‘lovchini manzilga vaqtida yetkazish;
- 3). Harakatning qulayligini, xavfsizligini va iqtisodiyligini ta‘minlash;
- 4). Sarflangan harajatlarni oqlab, xalq xo‘jaligiga foyda keltirish.

Yo‘lning transport-foydalanish ko‘rsatgichlari.

Yo‘lning transport-foydalanish ko‘rsatgichlari deyilganda, quyidagilar ko‘zda tutiladi:

Harakat miqdori, xarakat tarkibi, harakat tezligi, harakat zichligi, yetib borish imkoniyati (yetib borish vaqti va tezligi), yo‘lning o‘tkazuvchanlik qobiliyati, yo‘lning

mustahkamligi, yo‘l poyi va to‘shamasi mustahkamligi, yo‘l qoplamasi ravonligi va tishlanish sifati, qoplamaning g‘adir-budirligi, yo‘l to‘shamasi ishlash qobiliyati, yo‘l xizmat muddati va boshqalar.

Avtomobil yo‘lining texnik darajasi – yo‘llarning va uning muxandislik inshootlarining geometrik parametrlari va tavsifini doimiy (ekspluatatsiya jarayonida o‘zgaraydigan yoki faqat qayta qurish va ta‘minlashda o‘zgaradigan) me‘yoriy talablarga to‘g‘ri kelish darajasi;

- Avtomobil yo‘lining foydalanish xolati – yo‘llarning tavsifi va ekspluatatsiya jarayonida transport vositalarining, iqlim sharoitlarining ta‘siri va saqlash darajasi, muhandislik jihozlari va jihozlanishlarini bo‘yicha o‘zgaruvchan parametrlarini me‘yoriy talablarga to‘g‘ri kelish darajasi;

- Avtomobil yo‘lining transport-foydalanish holati – tekshirish va baholash paytidagi yo‘lning texnik darajasi va foydalanish holatining parametrlari va tavsiflarining amaldagi majmuaviy qiymatlari. Avtomobil yo‘lining transport-foydalanish sifati yoki tavsifi – yo‘lning muhandislik inshoot sifatidagi, yo‘l to‘shamasining mustahkamligi, tekisligi, g‘adir-budurligi va qoplamaning ilashish sifati, yer to‘shamasining turg‘unligi va boshqalarni o‘z ichiga olgan ishonchligi va ishlash qobiliyatining tavsifi.

- Yo‘lning iste‘mol xususiyatlari – bu yo‘lning asosiy - transport-foydalanish ko‘rsatgichlari bo‘lib, ularning eng ahamiyatlariga avtomobillarning unumdorligiga, tashish tannarxiga, yonilg‘i sarfiga, yuk va yo‘lovchilarni yetkazish vaqtiga va avtomobil transporti va avtomobil yo‘llarining birgalikdagi ishlarining boshqa tavsiflariga ta‘sir qiluvchi ta‘sir ko‘rsatuvchi tezlikni, harakat qulayligi va xavfsizligini, o‘qlarga ruxsat etilgan yuklama va avtomobillarning umumiy og‘irligini (massasini) ta‘minlovchilar kiritiladi. Avtomobil yo‘lining sifati–mazkur darajadagi yo‘l iste‘mol xususiyatlarini ta‘minlovchi texnik daraja, foydalanish xolat, muxandis jihozlari va jihozlanishi, hamda saqlash darajasi kabi barcha majmuaviy ko‘rsatgichlarini me‘yoriy talablarga mos kelish darajasi.

- - hisobdagi tezlikni ta‘minlovchi foydalanish koeffitsient – bitta yengil avtomobilning ta‘minlangan yo‘lda harakat xavfsizligi, yoki avtomobilning har bir yo‘l uchastkasi bilan o‘zaro ta‘siri sharoitidagi maksimal tezligini ( $V_{fmax}$ ), mazkur darajadagi yo‘l va joyning rel‘efi uchun hisobiy tezlikka ( $V_r$ ) bo‘lgan nisbati:

- $$K_{XT} = \frac{V_{fmax}}{V_p^b}$$

- hisobiy tezlikni ta‘minlanish koeffitsienti –  $V_{fmax}$  ning negizoviy hisobiy tezlikka ( $V_p^b$ ) nisbati:

$$K_{XT} = \frac{V_{f \max}^0}{V_p^b} C$$

- Negizoviy xisobiy tezlik qilib  $V_p^b = 120$  km/s olingan.
- bunda:

$$K_{XT} = \frac{V_{f \max}}{120}$$

Amaliy xisoblarda hisobiy tezlikni ta'minlanish koeffitsientidan foydalanish qulayroq. ko'rsatilgan koeffitsientlarning nisbatlari quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{FXi} = \frac{120 \times K_{rsi}}{V_{ri}}, \quad K_{XTi} = \frac{V_{pi} \times V_{pccc}}{120}$$

bu yerda:  $V_{ri}$  va  $K_{fxti}$  – mazkur darajadagi yo'l uchun mos ravishda xisobiy va hisobiy tezlikni ta'minlash foydalanish koeffitsienti.

Avtomobil yo'llarini transport-foydalanish sifatlarini 4 turkumga ajratishimiz mumkin: avtomobil xarakatiga bog'liq bo'lgan; yo'l sharoitiga bog'liq bo'lgan; harakat xavfsizligiga; harakat iqtisodiylikiga.

Avtomobil harakatiga bog'liq bo'lgan transport-foydalanish sifatlariga quyidagi ko'rsatkichlar misol bo'ladi: harakat jadalligi, harakat tarkibi, harakat hajmi, yo'lning o'tkazuvchanlik va tashuvchanlik qobiliyati, harakat tezligi va harakat vaqti va boshqalar. Yo'l sharoitiga bog'liq bo'lgan transport-foydalanish ko'rsatkichlariga quyidagilar misol bo'ladi: yo'l to'shamasi va yo'l poyi mustahkamligi, qoplama ravonligi va g'adir budurligi, qoplamni g'ildirak bilan tishlashishi va qoplama yemirilishga bardoshligi. Harakat xavfsizligiga bog'liq transport-foydalanish ko'rsatkichlariga yo'lning ishonchligi, xizmat muddati, nisbiy avariyalik, avariyalik va tezlik koeffitsientlari va ko'rinish masofasi misol bo'ladi. Harakatning iqtisodiylikiga bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar bular yuk tashish tan narxi, yo'l-transport hodisasidan keladigan zarar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Yo'l harakati qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.04.2022 yildagi 172-son qarori
2. "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, №PQ-3124, 11.07.2017 y.
3. O'zbekiston Respublikasi «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi 2013-yil 10 aprel, O'RQ-348-son qarori
4. A.A.Akilov, Q.A.Karimova, Sh.Sh.Rizayev «Yo'l harakati qoidalariga suratli sharhlar» T.: 2020.
5. N.F.Muxitdinov, M.B.Kalonov, B.X.Tursunboyev «Yo'l harakati qoidalariga suratli sharhlar va amaliy tavsiyalar» T.: 2017.

## **O‘ZBEKISTONDA XUSUSIY TA’LIM SOHASIDA BIZNES LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

**Nurmetova Muyassar Jumanazarovna**

Ta’lim loyihasi risklarini boshqarish

Urganch Ranch texnologiya Universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

O‘zbekistonda xususiy ta’limda biznes loyihalarni boshqarish umuman loyihalarni boshqarishda ham, xususiy, ta’lim loyihalarini boshqarish ham asosiy tushunchalardan biridir. Biznes loyihalarini boshqarishda risklarni ahamiyati katta. Risk deganda loyiha uchun noxush hodisaning yuzaga kelishi va u bilan bog‘liq oqibatlar potentsialini tushunish kerak. Noqulay hodisa loyihaga nisbatan tashqi omil (rejalashtirilgan voqea kuni ob-havoning keskin yomonlashishi, etkazib beruvchining muhim resursni etkazib berishdan bosh tortishi) va loyihaning o‘zida sodir bo‘lgan hodisa (kechikish) bo‘lishi mumkin. Loyihaga tahdid solishi mumkin bo‘lgan har qanday narsa (uning muddati, byudjeti, sifati va boshqalar) salbiy hodisadir.

Asosiy xavf guruhlari orasida tabiiy-iqlim, ishlab chiqarish-texnik, moliyaviy va boshqalarni ajratib ko‘rsatish mumkin iqtisodiy, bozor, ijtimoiy, siyosiy, innovatsion-texnologik, hududiy-sohaviy, inson omili risklari.

Xatarlarni tasodifiy va oldindan aytib bo‘ladigan, tez va sekin namoyon bo‘ladigan, tizimli va bir martalik, inson omili - qasddan bo‘lmagan va zararli xavflarga bo‘lish mumkin.

Risklarni boshqarish juda murakkab jarayon bo‘lib, bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, loyihani loyihalash bosqichida potentsial xavflarni aniqlash. Bu juda muhim qadam. U loyihaning aksariyat xatarlarini bashorat qilishi va xavflarni oldini olish choralari ishlab chiqishi mumkin. Ma’lumki, yong‘inni o‘chirishdan ko‘ra uning oldini olish osonroq. Potentsial xavflarni aniqlash uchun bir necha usullar qo‘llaniladi.

Texnologik oqim xaritalarini qurish. Ushbu usul sanoat korxonalarini boshqarish amaliyotidan olingan va kamdan-kam hollarda ta’lim loyihalarida qo‘llaniladi, ammo uni istisno qilmaslik kerak. Ta’limdagi yirik kompleks loyihalar uchun bu foydali bo‘lishi mumkin. Uning mohiyati o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ishlar yoki loyiha jarayonlari zanjirini qurish va zanjirning har bir elementida mumkin bo‘lgan xavflarni aniqlashdir.




Shu tarzda, hech narsani o'tkazib yubormasdan, noxush hodisalarning barcha mumkin bo'lgan holatlarini qamrab olish mumkin.

Loyiha bilan bog'liq boshqaruv va moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish. Ushbu usul hisoblashdagi xatolar yoki shubhali ko'rsatkichlarni aniqlash va yo'q qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlashga qaratilgan.

Xavf klassifikatorlarini qo'llash. Amaliyotida ko'pincha turli xil ta'lim loyihalari amalga oshirilayotgan tashkilotlar (masalan, universitetlar) amalga oshirilgan loyihalar tajribasi asosida tuzilgan maxsus xavf tasniflagichlarini ishlab chiqadilar. Bunday tasniflagichlarda yo'nalishlar bo'yicha 350-400 ta turli xil xavflarni to'plash mumkin. Ular yangi loyihalardagi xavflarni aniqlashda yaxshi yordam berishi mumkin.

Ikkinchidan, xavflarni tahlil qilish va baholash. Matematik statistikaning usullari (regressiya, korrelyatsion tahlil, dispersiya, omil tahlili va boshqalar), simulyatsiya modellashtirish va tasodifiy o'zgaruvchilarni o'rganish xavf tahlili bo'lib xizmat qilishi mumkin jarayonlar (Monte-Karlo va boshqalar), ekspert baholash (Delfi usuli va boshqalar).

Ba'zi mualliflar xavflarni loyihaga ta'sir kuchi va xavf ehtimoli kabi mezonlardan foydalangan holda baholashni tavsiya qiladilar (3.1-rasm). **Xavf xaritasi**<sup>1</sup>



Loyihaga ta'sir kuchini ball bilan o'lchash mumkin, masalan, to'rt balli maktabga ko'ra, bu erda nol - loyihaga deyarli ta'sir yo'q, bir nuqta - zaif ta'sir, ikkita - o'rta, uchta - kuchli, to'rtta - juda kuchli (buzg'unchi) ta'sir.

Ikkinchi ko'rsatkich - foiz bilan o'lchanadigan xavf ehtimoli. Nol degani, xavf hech qanday sharoitda ro'y bermaydi va 100% endi xavf emas, balki haqiqiy muammodir.

Ushbu ko'rsatkichlar sub'ektiv bo'lsa-da, ular mutaxassislarni to'g'ri tanlash bilan ma'lum bir xavfning ahamiyati darajasi haqida fikr beradi. Xavf haqida ma'lumot

<sup>1</sup> Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

xavf xaritasi shaklida taqdim etilishi mumkin.

Xatarlarning holatiga ko'ra, ularni zonalarga ajratish mumkin: qizil, to'q sariq, sariq va yashil zonalarning xavflari. Shubhasiz, xaritaning yuqori o'ng qismida joylashgan xavflar (qizil zona) eng xavfli hisoblanadi. Ularni bashorat qilish va ularning sabablarini yo'q qilish kerak. Va agar buning iloji bo'lmasa, unda hech bo'lmaganda ularning ta'siri zaiflashishi kerak. yo'q. Biroq, pastki chap sohada (yashil zona) xavflar unchalik xavfli emas.

Uchinchi, risklarni boshqarish usullarini ishlab chiqish. Bunday usullar, yuqorida aytib o'tilganidek, ikkita yondashuvni o'z ichiga oladi: xavfning oldini olish va ularning ta'sirini kamaytirish. Qanday bo'lmasin, printsipga amal qilish kerak: xavflarni bartaraf etish xarajatlari xavf oqibatlarining narxidan oshmasligi kerak.

Ushbu tamoyilni qo'llashning murakkabligi shundaki, barcha xarajatlar va oqibatlarni pul shaklida o'lchash va to'g'ri baholash mumkin emas. Obro'-e'tibor yoki qimmatbaho mutaxassisni yo'qotish kabi jihatlariga ta'sirini qanday hisoblash mumkin?

Xatarlarni boshqarishning barcha usullarini bir necha guruhlariga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh xavfni uchinchi shaxsga o'tkazishni o'z ichiga oladi. Bu sherik bilan tuzilgan shartnomada, agar u o'z vaqtida etkazib berishdan bosh tortsa yoki biron bir manbani taqdim etishning iloji bo'lmasa yoki sifatsiz manba bilan ta'minlangan bo'lsa, mumkin bo'lgan jarimani belgilash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Boshqa usul, ma'lum shartlarga yoki tashqi omillarga bog'liq bo'lgan narx oralig'i foydasiga hujjatlarda qat'iy narxlarni ko'rsatishni rad etish bilan bog'liq.

Quyidagi usul ularning sug'urtasi yordamida risklarni boshqarish imkonini beradi. Bu amaliyot biznes olamida keng tarqalgan. U shuningdek, jiddiy moliyaviy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan yirik ta'lim loyihalarida ham qo'llanilishi mumkin.

Boshqaruvning yana bir usuli bir nechta sheriklar ishtirokida dizayn qarorlarini diversifikatsiya qilish bilan bog'liq. Biz hamma tuxumni bitta savatga solmaslik kerakligini bilamiz. Agar loyihada bir nechta sheriklar ishlatilsa, ulardan biri bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa, u yagona sherik bo'lgandek zarar ko'rmaydi.

Usullarning ikkinchi guruhi xavflarning sabablari yoki oqibatlarini bartaraf etish usullaridan iborat. Xatarlarni boshqarish uchun, avvalo, yuzaga keladigan xavfning barcha sabablarini, keyin esa - uning barcha oqibatlarini tavsiflash kerak. Ushbu guruhlardan birini yo'q qilish kifoya, chunki xavf xavfli bo'lmaydi. Ushbu usulni qo'llash misolini ko'rib chiqing.

### Sabab - xavf - oqibat<sup>1</sup>

Sabab	Xavf	Oqibatlari
Biznes-rejadagi jiddiy xatolar	investitsiyalarni to'liq qabul qilish (investitsiyalarni qabul qilmaslik)	Loyihani boshlash kechikishi
Investorlarning tor doirasi		Loyihani bajarmaslik
“Taqdimot va ishontirish” kompetensiyasi past darajada shakllangan		Yo'qotilgan foyda

Biz sabablar va oqibatlarni baholaymiz va sabablarni bartaraf etish osonroq degan xulosaga kelamiz. Qabul qilinadigan qarorlar quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Biznes-rejani ekspertizadan o'tkazishda mustaqil ekspertni jalb qilish.
2. Investorlar doirasini kengaytiring. Banklardan tashqari, potentsial investorlar qatoriga davlat organlari, hamkor tashkilotlar va xususiy investorlarni kiriting.
3. Biznes-rejani ilgari surish va taqdim etish bosqichiga kengroq mutaxassislar guruhini, jumladan, mustaqil maslahatchilarni jalb qilish.

Ko'rinib turibdiki, taklif qilingan echimlar loyiha byudjetini va dastlabki tayyorgarlik vaqtini biroz oshiradi, ammo xavfni butunlay yo'q qiladi.

Uchinchi guruh usullari kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun mablag'larni zaxiralash bilan bog'liq. Bu guruh debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha marjinal me'yorlar va limitlarni yaratish usulini o'z ichiga oladi.

Debitorlik qarzi - bu tashkilotga uning qarzdorlari bo'lgan boshqa tashkilotlar va jismoniy shaxslarning qarzlari summasi. Kreditorlik qarzlari - bu tashkilotning boshqa tashkilotlar va jismoniy shaxslarga olingan, ammo to'lanmagan tovarlar va xizmatlar uchun qarzlari summasi. Ikkala turdagi qarzlarning cheksiz o'sishi tashkilotning hisobvaraqlarida bo'sh pul mablag'larining yo'qolishiga olib keladi, buning natijasida u zarur to'lovlarni amalga oshira olmaydi, shuningdek, uning moliyaviy barqarorligini yo'qotadi. To'lovlar hajmi va qarz muddati bo'yicha cheklovlarning kiritilishi ko'plab xavflarni bartaraf etadi. Keyingi usul - bu ularning hamkor tashkiloti tomonidan etkazib berilmagan taqdirda materiallarning zaxira fondlarini yaratish.

Bundan tashqari, bu moliyaviy resurslarning zaxira fondlarini yaratishdir. Loyiha faoliyatida kutilmagan holatlar uchun loyiha byudjetining 15-18% miqdorida zaxira yaratish odatiy holdir.

To'rtinchidan, risklarni boshqarishning amaliy chora-tadbirlarini amalga oshirish. Rejalashtirilgan kompleks loyihani amaliy amalga oshirish jarayonida amalga oshiriladi. Ishlarning butun hajmini ikki guruhga bo'lish mumkin: loyiha

<sup>1</sup> Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

boshlanishidan oldin bajarilgan ishlar va loyiha davomida bajarilgan ishlar. Dizayn ishi tugagandan so‘ng, hisobot odatda ijobiy tajribani saqlab qolish uchun xavfni hal qilish muvaffaqiyatini tahlil qiladi.

Xatarlarni boshqarish sohasidagi ish mashaqqatli, ammo loyiha maqsadlarini amalga oshirish uchun juda muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. – Toshkent, 2017 yil 7 fevral’. Manba: <http://press-servis.uz>.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – 1997 yil 29 avgust. Ta’lim faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami: – Toshkent. – 2020. – 35-46-b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. № 406. – Toshkent. – 2016 yil 14 sentyabr’.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni. – Toshkent, 2018 yil 21 sentyabr’.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli Qarori. – Toshkent. – 2018 yil 20 oktabr
6. Mirziyoev SH.M. Jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun zamonaviy kadrlar kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Oliy ta’lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilmfan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish masalalari”ga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi. Toshkent shahri, 2018 yil 24 oktabr’. Manba: <http://press-servis.uz>.
7. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr’. Manba: <http://press-servis.uz>.

## YARIMO‘TKAZGICHLI MATERIALLARDAN FOYDALANISHDAGI ISTIQBOLLI REJALAR

**Fozilova Nasiba Nozimjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fan-texnika rivojlangan jamiyatda zamonaviy elektronika sohasining ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan. Yarimo‘tkazgichlar va yarimo‘tkazgichli materiallardan foydalanish ularning zamonaviy elektronika sohalaridagi o‘rni xususida qayd etilgan. Bundan tashqari, yarimo‘tkazgichlar qo‘llanadigan sohalar, radioelektronika, optoelektronika sanoatlarining rivojlanishi istiqbollari o‘rganilgan. Yarimo‘tkazgich materiallar va ular tayyorlanadigan asboblarni qo‘llanilishi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** yarimo‘tkazgich, zamonaviy texnika, mexanika, elektronika, material, musbat, manfiy, zaryad.

### ABSTRACT

In this article, opinions are expressed about the importance of modern electronics in a technologically advanced society. The use of semiconductors and semiconductor materials is noted in connection with their role in the field of modern electronics. In addition, the prospects for the development of the fields of semiconductors, radioelectronics, and optoelectronics industries have been studied. Semiconductor materials and the use of devices made of them are analyzed.

**Key words:** semiconductor, modern technology, mechanics, electronics, material, positive, negative, charge

### АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждается важность современной электроники в технологически развитом обществе. Отмечено использование полупроводников и полупроводниковых материалов в связи с их ролью в области современной электроники. Кроме того, изучались перспективы развития полупроводниковой, радиоэлектронной и оптоэлектронной промышленности. Проанализированы полупроводниковые материалы и применение устройств из них.

**Ключевые слова:** полупроводник, современные технологии, механика, электроника, материал, положительный, отрицательный, заряд.

## KIRISH

Zamonaviy elektronika sohasi jahon fani va texnikasida salmoqli o'rinni egallaydi. Ular asosida ishlab chiqarilayotgan asboblarning va qurilmalarning miqdori tez ko'payib, ularning turli sohalarga tatbiqi kengayib bormoqda. Hozir zamonaviy elektronika elementlari qo'llanilmayotgan insoniyat faoliyati sohasini alohida ko'rsatish qiyin ular avtomatikada, telemexanikada, radioelektronikada, elektron-hisoblash texnikasida va boshqa qator sohalarda keng ishlatilmoqda. Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirishdek muhim dunyoviy muammoni yechishda ham elektronika elementlarining ahamiyati juda kattadir. Hozirda unumli foydalanilayotgan fotoelementlar, jumladan, quyosh batareyalari va kichik energetikaga mansub boshqa elementlarni takomillashtirishdan tashqari, yarimo'tkazgichlarga asoslangan katta energetika ancha qudratli quyosh elektrostansiyalarini yaratish loyihalari ham o'rtaga tashlanmoqda, zero quyosh energiyasidan foydalanish inson va tabiatga ziyon keltirmaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'nggi yillarda O'zbekistonda elektronika sanoati rivojlana borishi bilan birgalikda bu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlari ham avj olib bormoqda. Shu tufayli yarimo'tkazgichlar fizikasi va yarimo'tkazgichlar asosida tayyorlanadigan asboblarning, qurilmalarning va mikroxiemalarning hamda mikroelektronika elementlari bo'yicha yuqori ixtisosli mutaxassislarni yetishtirishga ehtiyoj katta. Ana shunday kasbni egallashga intilayotgan yoshlar safi tobora kengayib bormoqda. Bu talabni qondirish maqsadida O'zbekistonning deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida mazkur soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Zamonaviy elektronika elementlarini beshinchi avlod elektronikasi sanoatining asosiy xomashyosi hisoblanadi. Bu avlod elektronikasining asosiy elektronika elementlarini o'zining ma'lum bir xossasiga ega bo'lgan yarimo'tkazgichlar tashkil etadi. Yarimo'tkazgichli asboblarni ishlab chiqarish texnologiyasi juda tez rivojlanib bormoqda. Turli yarimo'tkazgichli asboblarning ajoyib fizik xossalarini tushunish va ularning loyihalash prinsiplarini egallash uchun texnologik tayyorlash yo'llarini va yarimo'tkazgich tuzilmalarni olish usullarini bilish zarur. Diodlar radioelektron qurilmalarda ishlatilishi va bajaradigan vazifasiga muvofiq tasniflanadilar. Yarimo'tkazgichli diodlar elektrovakuum va gaz bilan to'ldirilgan diodlar o'rnini egalladi va hozirda elektron qurilmalarda keng qo'llaniladi. Ular o'zgaruvchan tokni to'g'rilash, elektron qurilmalarni tarmoq kuchlanishining oshishidan himoya qilish uchun qurilmalar uchun quvvat manbalarining asosiy elementi sifatida ishlatiladi. Barcha yarimo'tkazgich diodlarni ikki guruhga ajratish mumkin: to'g'rilovchi va maxsus vazifalarni bajaruvchi. To'g'rilovchi diodlar o'zgaruvchan tokni o'zgarmas tokka o'zgartirish uchun qo'llaniladi. To'g'rilanuvchi tok shakli va chastotasiga bog'liq

holda ular past chastotali, yuqori chastotali va impuls diodlarga ajratiladi. Ko'pchilik yarimo'tkazgichli asboblarning tuzilmasining asosiy elementi elektr o'tishi bo'lib, ularga turli solishtirma qarshilikka, turli o'tkazuvchanlik sohasiga ega bo'lgan yarimo'tkazgichning ikkita sohasida vujudga kelgan o'tish qatlami va metall-yarimo'tkazgich kontakti natijasida ham vujudga kelgan o'tishlar kiradi. Agar yarimo'tkazgich ikki sohasining biri n-tur, ikkinchisi p-tur bo'lsa, bunday o'tishni elektron-kovak o'tish yoki p-n o'tish deyiladi. Ko'pchilik keng tarqalgan asboblarning xossalari p-n o'tishlarda yuz beradigan jarayonlar bilan aniqlanadi. Masalan, n-tur soha va p-tur sohalarda kirishmalar konsentratsiyasi ancha yuqori bo'lsa, unda p – n o'tish volt-ampere tavsifnomasining ko'rinishi oddiy p – n o'tish tavsifnomasidan keskin faqr qilib, tavsifnoma N ko'rinishida bo'ladi. Bunday p – n o'tishlardan tayyorlangan diodlarni tunnel diodlari deyiladi.

Yarimo'tkazgichli stabiltron kuchlanishni barqarorlash uchun xizmat qiladigan diod bo'lib, unda teskari yo'nalishda elektrik teshilish sohasida kuchlanish tokka juda sust bog'langan, ya'ni tok o'zgaradi-yu, ammo kuchlanish deyarli o'zgarmay qoladi. Elektrik teshilish ko'chkisimon yoki tunnellanish teshilish bo'ladi. Stabiltronning eng asosiy parametri stabillash (barqarorlash) kuchlanishi bo'lib, u p – n o'tishning kengligi yoki diod bazasining solishtirma qarshiligiga bog'liq. Shuning uchun ularni tayyorlashda p – n o'tishlarni qotishtirish va diffuzion usullar qo'llaniladi. Bunda bir vaqtda kirishmani kremniy kristallining ikki tarafidan kiritilsa, bu taraflar orasiga kuchlanish berilganda bir-biriga qarshi ulangan ikkita p – n o'tish hosil bo'ladi. Bunday stabiltronlarni ikki anodli stabiltronlar deyiladi. Ular turli qutbli kuchlanishlarni stabillash uchun qo'llaniladi.

O'tkazgichlarda ko'plab miqdordagi erkin elektronlar bo'lib, ularning yo'naltirilgan harakati tufayli tok o'tkazuvchanligi yuzaga keladi. Yarim o'tkazgichlarda esa erkin elektronlarning soni kam. Yarim o'tkazgichlarda valentli elektronlarning oz atomlari bilan bog'lanib turishi, ya'ni ularning erkin bo'lmasligi bilan bu holat tushuntiriladi. Yarim o'tkazgichlarning yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularga tashqi tomondan ta'sir ko'rsatish, ya'ni qizdirish, nurlantirish va aralashmalar qo'shish hisobiga tok hosil qilish va ularni keng chegaralarda o'zgartirish mumkin. Bu yarim o'tkazgichlardagi valentli elektronlarning energiyasini oshishiga sabab bo'ladi. Ushbu energiya hisobiga valentli elektronlar o'z atomlaridan ajralib chiqadi va berilgan kuchlanish ta'sirida yo'naltirilgan harakatga kelishadi, ya'ni tok tashuvchilar yuzaga keladi.

Qanchalik yarim o'tkazgichning harorati yuqori yoki intensiv ravishda nurlantirish amalga oshirilsa, shunchalik unda erkin elektronlar soni ko'p, natijada yarim o'tkazgichda tokning miqdori ham yuqori bo'ladi. Buning natijasida yarim o'tkazgichda elektron elektr o'tkazuvchanlik yoki p-tipidagi o'tkazuvchanlik yuzaga

keladi. Erkin elektronlar yarim o'tkazgichning o'z atomiga tegishli bo'lganligi bois, bunday elektr o'tkazuvchanlik xususiy o'tkazuvchanlik deb ataladi. Elektronlarini yo'qotgan yarim o'tkazgich atomlari musbat zaryadlangan ionlarga aylanishadi. Ushbu atomlar o'z joylarida mustahkam turgan holda harakatlanisha olishmaydi. Atomning tashqi orbitasida elektron ketgan joy teshik deb ataladi. Bu joyni qo'shni atomni tashlab ketgan boshqa bir elektron egallashi mumkin. Shu tarzda elektronlarning saqlashi hisobiga qoshni atomda ham teshik paydo bo'ladi, yani u musbat zaryadlangan zarracha ionga aylanadi. Agar yarim o'tkazgichga elektr kuchlanish berilsa, elektronlar bir atomdan boshqasiga bir xil yo'nalishda harakatga keladi. Teshiklar esa qarama-qarshi yo'nalishda paydo boladi. Zaryadi elektron zaryadiga teng bo'lgan musbat zaryadlangan zarracha teshik deb ataladi.

Elektronika sohasida qo'llaniladigan yarim o'tkazgichli materiallarga mexanik va kimyoviy ishlov berish texnologiyasi quyidagicha amalga oshirildi. Yarim o'tkazgichli materiallar asosan yombi ko'rinishda ostiriladi (slitok). Yombining diametri, vazni, uzunligi har xil bolishi mumkin. Kimyoviy ishlov berish. Bu texnologik jarayon davomida asosan yarim o'tkazgichli materiallar yuzasiga ta'sir qilinadi va ular qatoriga kimyoviy va mexanik sayqal berish (polirovka), kimyoviy tozalash (ochistka) va kimyoviy yemirish (travlenie) jarayonlari kiradi. Yarim o'tkazgichli materiallar sirtida mexanik ishlov natijasida hosil bo'lgan deformatsiya bo'lgan qatlamlarni sof yuza chegarasigacha olib tashlash uchun ishlatildi

Xulosa qilib aytganda yarimo'tkazgichli qurilmalar tokni boshqa elementlarga qaraganda osonroq uzatish, o'zgaruvchan qarshilik va yorug'lik yoki issiqlikka sezgirlikni ko'rsatish kabi bir qator foydali xususiyatlarni namoyish etgani hamda yarimo'tkazgich materialining elektr xossalari doping yordamida yoki elektr maydonlarini yoki yorug'likni qo'llash orqali o'zgartirilishi mumkinligi sababli, yarimo'tkazgichlardan tayyorlangan qurilmalarni kuchaytirish, almashtirish va energiya konversiyasi kabi vazifalar oson bajariladi. Demak yarimo'tkazgichlar asosida yaratilgan asboblarda radioelektronika, elektronika, lazer sanoati, axborot texnologiyalar istiqbolini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Hozirda zamonaviy elektronika elementlarini beshinchi avlod elektronikasi sanoatining asosiy xom ashyosi hisoblanadi. Bu avlod elektronikasining asosiy elektronika elementlarini o'zining ma'lum bir xossasiga ega bo'lgan yarim o'tkazgichlar tashkil etadi. Ularning xossalari o'rganish ustida samarali ishlar olib borilmoqda. Jumladan, o'zining yorug'lik sezgirligining ota yuqoriligi, elektro va pezoelektrik xususiyatining alohidaligi, magnitik va pezooptik sezuvchanligining samaradorligi bilan selinitli pezoelektrik yarim o'tkazgichlar muhim hisoblanadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1.A.T. Mamadolimov. M.N.Tursunov. Yarim o‘tkazgichli quyosh elementlari fizikasi va texnologiyasi Toshkent., 2002- yil
- 2.Lidorenko N.S., “Issledovaniya po priyemu preobrazoniya solnochnoy energii v elektricheskuyu” «Geliotexnika» № 5 1977- yil
- 3.S.Zi. Fizika poluprovodnikovыx priborov. Kniga 2 M., “Mir”, 1984
- 4.Al’ferov J.I. «Geliotexnika» № 2. 1981 - y
5. Novoye polucheniye monokristallov poluprovodnikov sbornik statyey. Kolocheva B.A. 1966
- 6.Risboyev T. Kremniyli quyosh elementining asosiy xarakteristikalarini o‘rganish Umumiy fizika kafedrası. GulDU. Guliston. 2005- yil
- 7.Al saud M.S., Axmedov F, Tursunov M. «Geliotexnika» Toshkent 1994- y
- 8.M.Azizov «Yarimo‘tkazgichlar fizikasi». Toshkent. 1974 y
- 9.X.Akromov, Z.Zaynobiddinov, A.Teshaboyev «Yarim o‘tkazgichlarda elektroelektrik hodisalar» Toshkent 1994 – yil.
10. Z.Zaynobiddinov, A.Teshaboyev, I.Karimov, N.Raximov, R.Aliyev «Yarim o‘tkazgichli asboblار fizikasi» Andijon 2002 – yil.

## ҲОЗИРГИ ЗАМОНДА GPS ВА АЭРОКОСМОФОТОСУРАТЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

**Зарипова Г.К.**

Бухоро давлат университети Ахборот технологиялари факультети доценти,

**Наййимова Д.Р.**

Бухоро давлат университети 2- босқич магистранти

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада ҳозирги замонда GPS ва аэрокосмофотосуратлардан фойдаланиш технологияси ҳақида фикр-мулоҳазалар юритилган бўлиб, унда GPS ва аэрокосмосуратлардан тарихий тадқиқотларда, ер тузиш кадастрида, биноларни топишда ишлатиш мумкинлиги ҳақида бир қанча маълумотлар баён этилган.

**Калит сўзлар:** GPS, сигнал, аэросуратлар, космосуратлар, замонавий усул, “гоогле” хариталари, геодезия ер устида.

### АННОТАЦИЯ

в статье изложены мнения о технологии использования GPS и аэрофотосъемки в современное время, содержатся некоторые сведения о возможности использования GPS и аэрофотосъемки в исторических исследованиях и земельном кадастре.

**Ключевые слова:** GPS, сигнал, аэрофотоснимки, космические снимки, современный метод, «гугловые» карты, геодезия на местности.

### ABSTRACT

The article outlines opinions on the technology of using GPS and aerial photography in modern times, and contains some information about the possibility of using GPS and aerial photography in historical research and land cadastre.

**Key words:** GPS, signal, aerial photographs, satellite images, modern method, Google maps, geodesy on the ground.

Деярли барча замонавий смартфонлар GPS – чип билан жиҳозланган. Навигация модули Андроид операцион тизимида ишлайдиган кўпгина планшет компьютерларда ҳам мавжуд. Бироқ, ҳамма фойдаланувчилар ҳам чип одатда сукут бўйича ўчирилганлигини билишмайди. Натижада, бундай одамлар

фотосуратларга геотегилар қўйилмаганидан хайрон бўлишди ва Google Now хизмати ўз уйига борадиган йўлни кўрсатмайди. Яхшиямки, сиз планшет ва смартфонингизда GPS -ни ҳеч қандай ҳаракат қилмасдан ёқишингиз мумкин.

GPS – бу масофани, вақтни ўлчайдиган ва WGS 84 глобал координата тизимидаги жойлашувни аниқлайдиган сунъий йўлдош навигация тизими. Деярли ҳар қандай об-ҳавода Ернинг исталган нуқтасида ва Ерга яқин фазода жойлашувингизни аниқлаш имконини беради.

Глобал жойлашишни аниқлаш тизими (GPS) – Ернинг орбитасида бир гуруҳ сунъий йўлдошлар томонидан амалга ошириладиган техник мўъжизадир. GPS қабул қилувчиларига аниқ манзил, тезлик ва вақт маълумотларини ҳисоблаш ва кўрсатиш имконини берувчи аниқ сигналларни узатади. GPS АКШга тегишли

Сунъий йўлдошлардан олинган сигналларни ушлаш орқали GPS қабул қилувчилар ўзингизнинг манзилингизни аниқлаб олиш учун трилатерариянинг математик тамойилидан фойдалана олишди. Йўл хариталари, қизиқиш нуқталари, топографик маълумотлар ва бошқа кўп нарсалар каби ҳисоблаш кучи ва хотирада сақланадиган маълумотларнинг қўшилиши билан GPS қабул қилувчилар жойлашувни, тезликни ва вақт маълумотларини фойдали форматга айлантира олади.

Нега сизга GPS керак? Бир неча ўн йиллар олдин GPS йўлдошлари фақат ҳарбийлар учун мавжуд эди. Аммо америкаликлар навигация чиплари, иловалар ва хариталардан кўп пул топиш мумкинлигини тезда англаб этишди. Натижада оддий одамлар технологиядан фойдаланиш имкониятига эга бўлдилар – фақат тегишли қурилмани сотиб олишлари керак эди. Дастлаб, бу махсус GPS – навигаторлар эди. Ва энди навигация модули ҳажми сезиларли даражада камайди ва шунинг учун уни оддий смартфонга ҳам ўрнатиш мумкин. GPS сигнали сизга дунёнинг қаерида эканлигингизни тушунишга ёрдам беради. Бу бир неча сабабларга кўра фойдалидир: Навигация дастури ўрмонда адашиб қолмасликка ёрдам беради; Навигация ёрдамида сиз ҳатто нотаниш шаҳарда ҳам ҳаракат қилишингиз мумкин; Сиз керакли манзилни осонгина топишингиз мумкин; Сиз ўзингизни тирбандликдан қутқарасиз – «Йўл ҳаракати» хизмати улардан қочишга ёрдам беради; Ҳар хил иловалар сизга яқин овқатланиш ва савдо марказларини кўрсатади; GPS ҳаракат тезлигини аниқлашга ёрдам беради. Қисқаси, навигация чипи жуда фойдали бўлиши мумкин. Аммо ундан фойдаланиш учун сиз тўлашингиз керак бўлади. Агар сиз Андроид-да GPS-ни ёқишга қарор қилсангиз, юқори қувват сарфлашга тайёр бўлинг. Бу асосан А-GPS технологиясини қўллаб-қувватламайдиган эски қурилмаларда сезилади. Шунингдек, арзон нархларда GPS сигналларини қабул қилишда муаммо бор. Бизникилар унинг ечимига яқинлашишга ёрдам беради. GPS фаоллаштириш

лекин сўзлар етарли. Келинг, Андроид телефонида GPS -ни қандай ёқиш кераклигини аниқлайлик. Бу жуда содда тарзда амалга оширилади: 1 –қадам: қурилма менюсига ўтинг ва «белгисини босинг. Созламалар». 2 –қадам: Бу ерда элементни танланг «Манзил».

Аэросуратлар — энг замонавий, юқори аниқликдаги тасвирлар

Ўзбекистонда охириги йилларда космосуратлардан энг замонавий усул бўлган аэросуратлар олишга ўтиляпти.

Дунёда ҳали ўлчов асбоблари пайдо бўлмаган даврларда эрлар кўлда қаричлаб, кейинчалик саржин, пўлат лента рулеткалардан фойдаланиб анъанавий метрлар ёрдамида ўлчанган. Аста-секин замонавий қурилмалар пайдо бўлиб, геодезик ўлчовларни олиб боришда электрон тахеометрлар, GPS қурилмалардан фойдаланиш оммалашди. Бугунги кунга келиб эса, топографик ўлчовлар сунъий йўлдош орқали олинган суратлар, дронлар, махсус самолёт, аэрофотокамера сингари энг сўнгги технологиялар ёрдамида амалга ошириляпти.

Бу қурилмалар ўлчашларнинг юқори аниқлигини таъминлайди. Улар асосида геодезик чизмалар чизилиб, хариталар яратилади. Масалан, “google” хариталаридан деярли ҳар куни фойдаланамиз. Улар нафақат олис сафарга йўл олганимизда, балки бир ҳудуддан иккинчи ҳудудга ёки яқин орадаги нотаниш манзилга аниқ етиб боришимизда кўл келади. Аммо бу кичик бир мисол холос. Кенг миқёсда олганда геодезия ер устидаги барча нарсаларнинг ўлчовини олиб, харитага киритишни англатади. Унинг асосида ҳудудларнинг, қолаверса, мамлакат харитаси яратилиб, тез-тез янгиланган борилади.

Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 2-июлда қабул қилинган “Геодезия ва картография фаолияти тўғрисида”ги қонунида давлат геодезия, нивелир, гравиметрия, геодезик зичлаштириш тармоқларини яратиш, ривожлантириш ва ишлаш ҳолатида сақлаб туриш белгиланган. Бу борада геодезия ва картография фаолиятида доимий фаолият кўрсатадиган сунъий йўлдош орқали кузатиш станциялари тармоғини яратиш ва ривожлантириш алоҳида ўрин тутаяди.

Нол нуқтадан асосий координатагача ҳудудларда ана шундай геодезик ўлчов ва тенглаштириш ишларини олиб бориш мақсадида 2018 йили Давлат солиқ қўмитаси ҳузуридаги кадастр агентлиги томонидан туманлар марказларига илк бор 50 та доимий ишловчи глобал навигацион сунъий йўлдош тизимлари — GNSS станциялари ўрнатилди. Мазкур станциянинг ҳар бири сунъий йўлдош маълумотларини қабул қилиб олиб, 30—40 километр масофагача тарқатади.

Тизимнинг ишлаш принципи юқори орбитал навигацион сунъий йўлдошлар гуруҳи маълумотлари асосида RTK (реал вақт кинематикаси) технологиясидан

фойдаланиб объект жойлашган ўрнини аниқлашга асосланган. Яъни, GNSSлар реал вақт режимида геодезик, топографик ишларни аниқ бажариш имконини беради. Станциялар орқали олинган сунъий йўлдош маълумотларидан иқтисодиёт тармоқлари, ер кадастри, транспорт, логистика, қишлоқ хўжалиги соҳаларида, барча лойиҳа-қидирув, қурилиш ишларида нуқталар координаталарини аниқлаш, топографик съёмка ишларини бажаришда фойдаланилади.

Мамлақтимиз шароитида GNSS станцияларининг геодезик ишлаб чиқаришга жалб қилиниши натижасида нуқта координаталарини қисқа муддатда юқори аниқликда топиш имконияти пайдо бўлди. Координаталар аниқлиги иқтисодиётнинг барча соҳаларида зарур. Масалан, давлат координаталар тармоғининг бошланғич нуқтаси Пулково обсерваториясидан олинган. Нуқталарнинг абсолют баландлиги — Болтиқ баландликлар системасида аниқланади. Сабаби баландлик нуқталар боши — нол нуқта ўша эрдан олинган. Агар аниқлик тўғри белгиланмаса, йўл паст-баландликдан иборат бўлади. Қурилиш соҳасида ҳам шундай. Объектларни қуришда ҳар бир бурчак аниқ ўлчанмаса, қийиқлик, носозлик, турли нотекисликлар ва ҳатто силжишлар келиб чиқади. Барчага маълумки, бурчак ўлчов ишларида градус, минут, секундлардан фойдаланилади. Айтайлик, объектлар жойлашуви  $1^\circ$  (градус) хатоликда ўлчанганда, 1 километр масофада 17 метрдан ортиқ хатолик билан жойлашишига олиб келади.

Шу боис, геодезик тармоқлар, шунингдек, шаҳар геодезик таянч пунктларини қуришда GNSS технологияларидан фойдаланиш ривожланган давлатлар тажрибасида оммалашган. Улар юқоридаги жараёнларда аниқ, тезкор, сифатли ва кенг унумли геодезик асос вазифасини ўтайди.

Доимий ишловчи GNSS станция ҳисобига олдин тўрт нафар мутахассис бажариши керак бўлган ишни бир киши RTK режими ёрдамида уддалайди. Яъни, ўлчаш қурилмаларини қўлда қўтариб, ер майдонларини айланиб юришга ҳожат қолмайди — исталган миқдордаги қурилмани станцияга улаб қўйиш кифоя. Бунда ишчи кучини кам сарфлаб, иш ҳажмини 40—50 фоизга ошириш мумкин. Геодезик маълумот олишда анъанавий усулга нисбатан вақт бир неча баробар тежаллади. Қолаверса, GNSS станция ҳисобига ҳудудларда геодинамик тадқиқотларни амалга ошириш имконияти ҳам бор.

Сунъий йўлдош орқали олинган GNSS станциялари маълумотлари рақамли равишда тақдим этилади ва уларни картографик ёки географик ахборот тизимларига осонгина экспорт қилиш мумкин. Бундан ташқари, ўлчовларни автоматлаштириш туфайли кузатувчиларнинг хатолари камаяди. Станция маълумотлари ёрдамида ҳар қандай об-ҳаво шароитида кун давомида дунёнинг

исталган бурчагидаги объектларнинг координаталарини аниқлаш мумкин. Боиси, GNSS ўлчовининг аниқлиги об-ҳаво шароитларига боғлиқ эмас.

Шунингдек, сунъий йўлдош каналларидан фойдаланиш ва сигналларни қайта ишлаш қишлоқ хўжалигида ерларни инвентаризациядан ўтказиш, кадастр объектларини текшириш, ер усти ва ер ости қатламининг бузилиши, турар-нотурар бинолар ҳолатини мунтазам ўрганиш, кўчмас мулк объектларини ҳисобга олиш ва кадастр суратга олиш ишларида ҳам қўл келади.

Харитада гугурт кутисини ҳам кўриш мумкин. GNSS станциялар геодезик чизмалар чизиш, хариталар яратишда ҳам муҳим аҳамиятга эга. Масалан, авваллари турли ҳудудлардаги ер майдони ёки объектларнинг ўлчамини аниқлаш учун ўша жойнинг ўзига бориб, махсус асбобларда ўлчов ишлари амалга оширилиб, сўнг харитага тушириш керак бўлган. Ҳозир эса GNSS станцияга уланган замонавий қурилмалар ёрдамида олинган ортофотоплан орқали мутахассис жойида ўтирган ҳолда объектнинг аниқ ўлчами ва ҳолатини аниқлай олади.

Соҳадан йироқ кишилар учун бироз тушунарсиз бўлган ортофотоплан аниқ геодезик асосда олинган аэро ёки космик суратлар орқали яратилган рақамли хариталар асоси ҳисобланади. У айниқса, геодезик, топографик, геологик, экологик тадқиқотларда, ер тузиш, архитектура ва қурилишни лойиҳалашда ҳамда қурилиш-монтаж ишларини назорат қилишда кенг қўлланилади. Унда жамики ер устидаги объектлар тўғрисидаги маълумотлар қайд этилади.

Ортофотопланлар асосида эса топографик хариталар яратилади. Бу хариталарда геодезик пунктлар, рельеф, гидрография, ўсимлик, тупроқ, иқтисодий ва маданий объектлар, йўллар, алоқа, чегаралар, умуман, жамики ер объектлари тўғрисидаги маълумотлар қайд этилади.

Ўзбекистонда охириги йилларда космосуратлардан энг замонавий усул бўлган аэросуратлар олишга ўтиляпти. Бу янада аниқликни таъминлайди. Бунгача 2015, 2018 йилларда олинган космосуратлардан фойдаланилар эди. Уларнинг аниқлиги нисбатан камроқ бўлиб, олинган тасвирлар харитада яқинлаштирилгани сари хиралашиб боради ва йўқолиб кетади. Аэросуратлар тасвирларини эса қанча яқинлаштира ҳам, расм тиниқлигини йўқотмайди.

Ҳозир юртимизда энг замонавий “Leica DMC III” русумидаги камералар ёрдамида 96 592 квадрат километр ҳудуд аэросуратлари олинди ва 69 318 квадрат километр майдондаги ҳудудлар учун ортофотопланлар тайёрланди. Бунда камера самолётга ўрнатилиб, белгиланган эр майдонлари, объектларни аэротасвирга олади. Ушбу камералар космосуратлардан фарқли тарзда ердаги 5 сантиметргача бўлган нарсани ҳам аниқ кўрсатиб беради. Масалан, аэротасвир

туширилган электрон харитада, ҳатто, эрдаги гугурт қутисини ҳам кўриш мумкин.

Яқинда аэросуратлар олишда фойдаланиш учун Италияда ишлаб чиқарилган “Теспам Р2006Т” русумли самолёт олиб келинди. Энг сўнги русумдаги мазкур самолётдан фойдалана бошланса, Ўзбекистоннинг турли масштабдаги хариталарини тез-тез янгиллаб туриш имконияти юзага келади.

Ҳап шундаки, юртимизда ҳар хил масштабдаги хариталар яратилган бўлиб, улар мунтазам янгиллаб борилади. Натижада, хариталарнинг долзаблиги таъминланади. Бу мамлакатдаги жадал ривожланиш суръати билан боғлиқ. Масалан, Андижон вилояти ҳудудидаги шаҳарларнинг топографик хариталари 2014 йилда янгиланган. Ундан кейин ҳудудда қанча ўзгаришлар бўлди. Янги объектлар, йўллар қурилди. Уларни харитага киритиш учун эса янгиллаб бориш талаб этилади. Шундай эскирган хариталарнинг барчаси рақамлаштирилди. Аммо бу жараён давомий ҳисобланади. Янгиллаш муддатлари эса хариталар масштабига қараб белгиланади.

Авваллари Ўзбекистон ҳудудлари харитасини электрон кўришнинг ҳам имкони йўқ эди. Юртимизда электрон хариталарни яратиш ишлари 2006 йиллардан бошланган. Ҳозирги кунда мамлакатимиз харитасини тўлиқ электрон шаклда кўриш мумкин. Ҳатто, давлат координата тизими ёпиқ ҳолатдан очик тизимга, яъни, бутунжаҳон геодезик тармоғига ўтказиляпти. У эндиликда, оммага очик тақдим этилади.

Яна 80 та станция. Ўзбекистон Республикаси географияси нафақат аҳоли пунктлари, балки чўл ва тоғ зоналаридан иборат. У эрларда ҳам иқтисодиёт ривожланиб, катта заводлар, йўллар қуриляпти. Мазкур ҳудудларда ҳам геодезик тасвирларни олиш, аниқликни таъминлаш зарур. Шу мақсадда GNSS станциялари сонини яна 80 тага кўпайтириб, 2022-2023 йилларда жами 130 тага етказиш режалаштирилган. Ҳозир янги станцияларни лойиҳалаштириш ишлари олиб бориляпти.

Ҳудудларда ишлаб турган станциялар бир нуқтага уланган бўлиб, Республика аэрогеодезия марказидаги GNSS станциялар тармоғини бошқарувчи назорат марказида онлайн тарзда кузатиб борилади. Интернет тармоғи ва алоқа каналлари шакллантирилиб, станциялар тармоғи марказга боғланди ва маълумотларни қайта ишлаш йўлга қўйилди. Станцияларни марказий бошқариш ва назорат қилиш “Spider” дастури пакети ёрдамида амалга оширилади.

Бу ерда GNSS станциялар маълумотлари билан таъминлаш хизмати ҳам жорий қилинган. Станцияларнинг координатаси аниқ бўлгани боис, тадбиркорлар ҳам унга қурилмаларини ўрнатиб, чизмалар, схемалар чизишда фойдаланяпти. Бунинг учун расмий мурожаат қилган ҳолда онлайн рўйхатдан ўтиб, уяли алоқа

компаниялар миждозлари каби абонент сифатида қўшилиш мумкин. GNSS станциялари қабул қилинган маълумотларни қайта ишлаб, ўзларига боғланган объектларга уларнинг жойлашган жойини юқори аниқликда аниқлаб беради. Унда барча архив маълумотлар ҳам сақланади. Геодезик қурилмалар станцияга чексиз тарзда уланиши мумкин.

Доимий ишловчи GNSS станцияларига абонент сифатида қўшиш ишлари босқичма-босқич олиб борилмоқда. Ҳозирги кунда станциялар маълумотларидан кадастр режалари ва карталарини яратиш ҳамда янгилаш, ер усти ва ости қатламларини текшириш, ер ва кўчмас мулк чегараларини аниқлаш, лойиҳа-кидирув ишлари, тупроқ ва структуранинг ўзгариши мониторинги, коммунал хизматлар ва бошқа соҳалар бўйича фаолият олиб бораётган 102 та давлат ва нодавлат ташкилоти беғараз фойдаланмоқда.

GNSS станциялар сони 130 тага етказилгач, юртимизнинг барча ҳудудлари қамраб олинади. Бу исталган ҳудуднинг геодезик ишларини амалга ошириш, хариталарни яратиш ёки янгилаш, марказда ўтирган ҳолда координаталарини аниқлаш имконини беради. Турли соҳаларда тезкор ва аниқ ўлчамларни олишга хизмат қилади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)

1. G. K. Zaripova. Future specialists – spiritual and professional education of secondary school students – a need for the development of our independent country. Educational Research in Universal G. K. Zaripova, Sciences, 2(9), 97–105. (2023). Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3872>; [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAX7A AAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAX7A AAAAJ:VLnq NzywnoUC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAX7A AAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAX7A AAAAJ:VLnq NzywnoUC)
2. G. K. Zaripova, F.F.Norova, T. Subxonqulov. Building the Professional Competence of Globally Competitive Teachers in Digital and Information and Communication Technologies. Journal of Survey in Fisheries Sciences. 10(3S) 2254-2264. 2023. 2254-2264- pages. <https://sifisheriessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/844/837>; [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAX7A AAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAX7A AAAAJ:- dYPAW6P2MC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAX7A AAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAX7A AAAAJ:- dYPAW6P2MC)
3. Г. К. Зарипова, Ф. Хазратов. Геоинформацион тизимларда (ГИС) рақамли космик суратни сонли ва график коринишдаги гистограммасининг аҳамияти. “Педагогик маҳорат”. – Бухоро: 2021 й. Махсус сон. – Б. 266-269. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAX7A](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAX7A)



[AAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFax7AAAAAJ:fEOi  
bwPWpKIC](#)

4. G. K. Zaripova, Sh.Sh.Baxronov, M.M.Muxammedova [THE ROLE OF THEORY AND APPLICATION OF INFORMATION SYSTEMS IN THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGY](#). SCOPE ACADEMIC HOUSE. 11th International Conference. «Science and practice: a new level of integration. in the modern world». November 30, 2020, Sheffield, UK. –Б.101-102.//DOI:[http://doi.org/10.15350/UK\\_6/11.47](http://doi.org/10.15350/UK_6/11.47).[https://scope-science.com/uk\\_6\\_11.html](https://scope-science.com/uk_6_11.html);

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFax7AAAAAJ:KxtntwgDAa4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:KxtntwgDAa4C)

5. Г. К. Зарипова, Н.Ш.Намозов, Э.Л.Қобулова. Роль теоретичности и применения информационных систем в области информационных технологий. «Academy». Российский импакт-фактор: 0,19. Научно-методический журнал. – Москва: № 4 (67), 2021. 48-50-стр. ISSN 2412-8236 (Print). ISSN 2542-0755 (Online).[HTTP://ACADEMICJOURNAL.RU](http://ACADEMICJOURNAL.RU).E-MAIL: [INFO@P8N.RU](mailto:INFO@P8N.RU).

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFax7AAAAAJ:TQgYirikUcIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:TQgYirikUcIC)

6. G. K. Zaripova. [Bo‘lajak Informatika Fani O‘qituvchilarini Tayyorlashda Raqamli Texnologiyalarni Tatbiq Etish Tendensiyasini Takomillashtirish](#). Том 3 № 3 (2021): Pedagogik mahorat – maxsus son (buxdu.uz), 52-58- betlar. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFax7AAAAAJ:dshw04ExmUIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:dshw04ExmUIC)

UDK 631.6:631.4/626

## QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARINI ETISHTIRISHDA TUPROQNI EROZIYADAN HIMOYALAB ISHLOV BERISHNING AHAMIYATI

**Qo‘ziyev Shaxzod Serobovich**

“Umumtexnik fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Hayitov Bobur Komilovich**

“Umumtexnik fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Ro‘ziyev Elbek Rajabovich**

“Umumtexnik fanlar” kafedrasida stajyor-o‘qituvchisi

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tuproqqa ag‘darmasdan ishlov berishni afzalliklari tahlili keltirilgan. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi uni intensivlashtirish hisoblanadi. Bu tuproq-iqlim sharoitiga mos holdagi texnologiya va texnik vositalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Tuproqni ekologik jihatdan himoya qilish asosan, unga ishlov berish texnologiyasi va texnik vositalariga bog‘liq.

**Kalit so‘zlari:** eroziya, plug, yumshatkich, chizell, tuproq, ag‘dargich.

Bugungi kunda, Respublikamizda lemex-ag‘dargichli pluglar bilan asosiy ishlov berish keng tarqalgan. Ular shudgorlanadigan maydonlarni qariyb 90%da keng qo‘llaniladi. Ag‘dargichli ishlov berishda energiya sarfining yuqoriligi, namligi kam va shamol eroziyasiga moyil tuproqlarda uni qo‘llashning maqsadga muvofiq emasligi, «plug tovoni» hosil bo‘lishi kabi kamchiliklarni ko‘rsatish mumkin.

Kam energiya sarflab, tuproqni eroziyadan himoya qiladigan texnologiyalarni qo‘llash quyidagi afzalliklarga ega: tuproqni shamol va suv eroziyasidan himoyalash; ishlov berishdagi energiya sarfini kamaytirish; namlikni to‘plash va saqlashni yaxshilash; qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish [1].

#### 1.1. Tuproqqa himoyalab ishlov berishning hozirgi ahvoli

Tuproqqa ag‘darmasdan ishlov berish tuproqni saqlovchi dehqonchilik tizimi hisoblanib, bu usulda passiv turdagi ish organlari(yassi keskichlar, yumshatkich va o‘qyoysimon tishlar) va tuproq reaksiyasidan harakat oluvchi passiv uzatmali ish

organlari(g'altakmolalar, diskli va rotatsion boronalar)ga ega bo'lgan mashinalar va qurollar ishlatiladi. Ular asosan kesak hosil bo'lishiga moyil bo'lgan og'ir tuproqlarda qo'llaniladi.

Tuproqqa ag'darmasdan ishlov berish texnologiyasi qo'llanilganda erning unumdor qatlami dala ustida qoldiriladi. Natijada tuproq ustki qatlamidagi o'simlik qoldiqlari tez va qisqa vaqt ichida minerallashib, yangi o'simliklar uchun ozuqa bo'lib xizmat qiladi [30].

Bugungi kunda, Respublikamizda lemex-ag'dargichli pluglar bilan asosiy ishlov berish keng tarqalgan. Ular shudgorlanadigan maydonlarni qariyb 90%da keng qo'llaniladi. Ag'dargichli ishlov berishda energiya sarfining yuqoriligi, namligi kam va shamol eroziyasiga moyil tuproqlarda uni qo'llashning maqsadga muvofiq emasligi, «plug tovoni» hosil bo'lishi kabi kamchiliklarni ko'rsatish mumkin.

Kam energiya sarflab, tuproqni eroziyadan himoya qiladigan texnologiyalarni qo'llash quyidagi afzalliklarga ega: tuproqni shamol va suv eroziyasidan himoyalash; ishlov berishdagi energiya sarfini kamaytirish; namlikni to'plash va saqlashni yaxshilash; qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.

$$K_{yuz} = \frac{P_{yuz} - G}{F}, \quad (2.1)$$

bu erda  $R_{uz}$  - tuproqni erdan uzishga sarflangan kuch, N;

G - quti ichidagi tuproq og'irligi, N;

F - uzib olingan maydon yuzasi,  $m^2$ .

Siljishdagi tuproqning qarshiligi esa quyidagi formula orqali topiladi

$$K_{sil} = \frac{P_{sil}}{F}, \quad (2.2)$$

bu erda  $R_{sil}$  - tuproqni siljitishga sarflangan kuch, N;

F - siljirilgan maydon yuzasi,  $m^2$ .

Tuproqning buralishga qarshiligi quyidagi formula orqali topiladi


$$K_{byp} = \frac{P_{byp} - P_u}{F}$$

Och tusli bo'z tuproqlarning turli deformatsiya qarshiliklari 1.1 jadval

Tuproq qatlamlari, sm	Namlik, %	Uzilish, kPa	Siljish, KPa	Buralish, kPa
0...5		39,2	71,3	63,4
5...10	8,7	62,3	79,4	72,8
10...15		75,4	93,1	79,8
15...20	10,4	78,3	96,4	81,2
20...25		77,9	91,5	82,5
25...30	12,2	70,2	89,1	83,8
30...35		73,3	87,3	81,2
40	12,0	78,8	94,2	82,7

Eroziyaga qarshi tuproqqa ishlov berishning eng samarali usuli bu ag'dargichsiz ishlov berishdir. 8...10 yoki 10...12 sm chuqurlikda kultivator-tekis keskichlar bilan ishlov berish; 10...12 yoki 12...14 sm chuqurlikda kultivator-tekis keskichlar bilan ishlov berish; 6...8 sm chuqurlikda shtangali kultivatorlar bilan ishlov berish; 12...14 yoki 14...16 sm chuqurlikda kultivator-tekis keskichlar bilan ishlov berish; 25...27 sm chuqurlikda chuqur yumshatkichlar bilan ishlov berish.

Ammo, bunday ag'dargichsiz korpus bilan ishlov berilganda o'simlik qoldiqlari 50-75% ko'miladi, bu esa ishlov berishning himoya qilish rolini kamaytiradi. O'simlik qoldiqlarini sezilarli darajada shikastlanishi korpus va to'siq old qismining qamrash kengligiga bog'liq bo'lib, agar korpusning qamrash kengligi 35 sm bo'lsa, uning qamrash kengligi korpusning qamrash kengligini beshdan bir qismini tashkil qiladi.




**1-rasm. Chizelli ish organlar turi:**

**1 – tutqich; 2 – pichoq; 3 – dala taxtasi; 4 – boshmoq; 5 – iskana.**

Chizelli ishchi organlar tuproqqa asosiy ishlov berish uchun mo'ljallangan. Ular tuproqni yaxshi yumshatadi. Chizelli ish organlarning qo'yidagi turlari qo'llaniladi: tik tutqichli; qiya tutqichli, kam tortishga qarshilikka ega bo'lib, tuproqni yaxshi yumshatadi; egri tutqichli afzalliklari qiya tutqichlikniki kabi bo'lib, egat tubidagi o'rkachlarni tuliq buzadi.


Natijada, tuproq agregatlari aralashmasdan va dala yuzasiga chiqmasdan palaxsa yumshatiladi. Ishlov berilgan dala yuzasida 90% gacha o'simlik qoldiqlari qoladi, tuproqqa ko'p sonli yoriqlar va siniqlar hosil bo'lishi tufayli yuzadagi namni yo'qotish ag'dargichli shudgorlashga nisbatan 85-90% ga kamayadi.

Chizelli ishlov berishda erishilgan yutuqlarning eng ahamiyatlisi bu ag'dargichli-ag'dargichsiz ishlov berish ish organlarini yaratilishidir (1.4 –rasm).



### 2 - rasm. Agʻdargichli qiya tutqichli agʻdargichsiz ish organi

Ushbu ish organi bir qator afzalliklarga ega [26]. Bu ish organda agʻdargich tutqichning yuqori qismiga berkitiladi. Agʻdargichning ishlov berish chuqurligi 15 sm. Iskana qiya tutqichli ishchi organidagi kabi oʻz funksiyasini bajaradi. Agʻdargich yuqori qatlamni agʻdaradi, natijada begona oʻtlar va oʻsimlik qoldiqlari keltirilgan chuqurlikka koʻmiladi. Natijada qoʻshimcha yumshatilgan 0-15 qatlamda mikrobiologik jarayonlar jadal kechadi, bu esa yuqori qatlamda gumus hosil boʻlishi va organik moddalarni toʻplanishiga olib keladi [2, 3,5]



### 3-rasm. Oʻrkachli-pogʻonasimon plug bilan ishlov berilgan egatning koʻndalang profile

Palaxsa toʻliq agʻdarilmaganda palaxsaning ogʻirlik markazini koʻndalang yoʻnalishda (yon tomonga) siljitib va siljitmasdan agʻdarish qoʻshib bajariladi. Bu texnologiya vintsimon korpus va zaplujnik bilan quyidagi usulda amalga oshiriladi.

#### XULOSA

Tuproqqa ishlov berishning takomillashgan tizimini ishlab chiqish va joriy qilish, ishlov berishni texnologik va texnik taʼminlash hisobiga tuproqni eroziyadan himoyalash shudgorlashning sifat koʻrsatkichlarini yaxshilash, energiya va material sigʻimini kamaytirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Yerni meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari toʻgʻrisida Prezident farmoni. T. 2007 y. 29 oktyabr.
2. Mamatov F.M., Mirzaev B. Teoriya rezaniya lezviem i raschet ploskovrachatelnykh nojey diskovogo tipa. – Tashkent: Fan, 2013. – 105 s.
4. Mirzajonov K.M va boshq. —Eroziyaga uchragan tuproqlarning unumdorligini oshirish// Toshkent —Oʻzbekiston// 1976 y.
5. Zaslowskiy M.N —Eroziya pochvi// Moskva,—Mysl// 1979 g.
6. Mamatov F.M —Qishloq xoʻjaligi mashinalari// Voris-nashriyat. Toshkent 2014 y. 388 b.
7. Mamatov F.M., Mirzaev B., Buranova SH. Tuproqqa ishlov berish texnologiyalari va texnik vositalarining rivojlanishini asosiy yoʻnalishlari// Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari toʻplami. —Qarshi, 2013.

## NAZAR ESHONQULNING “URUSH ODAMLARI” ASARIDA URUSH TASVIRI

**Berdiyeva Sabina Zayniddin qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek  
tili va adabiyoti universiteti 4-bosqich talabasi

E-mail: [sabinabonu1008@gmail.com](mailto:sabinabonu1008@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kun adabiyotining ilg‘or adiblaridan biri bo‘lmish Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” qissasi tahlilga tortilgan. Qissada Boyxun tilidan keltirilgan rivoyat ilmiy-nazariy, badiiy jihatdan atroflicha yoritilgan. Asardagi urush tasviri boshqa urush haqida yozilgan asarlar bilan qiyoslab o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompozitsiya, kiritma voqea, syujet, qissa, personaj, badiiy detal.

### ABSTRACT

In this article, the story “Urush odamlari” by Nazar Eshankul, one of the leading writers of today’s literature, is analyzed. In the short story, the narration from the Bayhun language is comprehensively covered from the scientific-theoretical and artistic point of view. The image of the war in the work is compared with the works written about other wars.

**Keywords:** composition, introductory event, plot, story, character, literary detail.

Inson tafakkurining yangilanishida, uning ongiga ma’lum bir g‘oyani singdirishda hech qaysi soha adabiyotchalik imkoniyatga ega emas. Ijodkorning “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Maymun yetaklagan odam”, “Xayol tuzog‘i”, “Tobut”, “To‘zon”, “Og‘riq lazzati” kabi hikoyalarini har jihatdan ilmiy-estetik tahlil va tadqiq qilish, ular orqali o‘zbek hikoyachiligida g‘arb modern adabiyotiga xos xususiyatlarning shakllanishi va o‘ziga munosib o‘rin egallash jarayonini o‘rganish mumkin. Nazar eshonqul hikoya janrida o‘zini sinab ko‘rganidan so‘ng qissa yozishga ham qo‘l urgan va hozirgi o‘zbek adabiy jarayoniga ulkan o‘zgarish sodir etdi. Qissa janri hikoyaga nisbatan badiiy fikr harakati uchun keng imkon beradi. Ana shu imkoniyatdan foydalangan yozuvchilar inson fojiasining yangicha badiiy talqinini yaratishga erishmoqdalar. Qissa epik tur janrlari orasida imkoniyatlari hikoyaga qaraganda kengligi, shaklining rang-barangligi, mazmunining ko‘lamdorligi bilan ham ajralib turadi. Mana shu xususiyatlariga ko‘ra bu janrni ummonga qiyoslash mumkin. Badiiyat olami esa kashfiyotlar manbaidir. Xususan, mustaqillik davrida ko‘plab ijodkorlar

qissachilik janrida barakali ijod qilmoqdalar. Sh.Bo'taev, M.Boboev, X.Do'stmuhammad, N.Norqobilov, Sh.Hamro, N.Eshonqul yaratgan asarlar kitobxonlar e'tiborini jalb qilmoqda. Chunki, bugungi adabiyot - alohida, ayni chog'da turli-tuman shaxslarning tuyg'ulari, qiyofalari aks etgan adabiyot sifatida qad rostlagan. Zamondoshimizning o'zi - alohida, betakror va yaratuvchi inson. Shu ma'noda, zamondoshimizni o'z shaxsiyatining elchisi, deyish mumkin. Yozuvchilar ijtimoiy hayot muammolari yoki ma'naviy-axloqiy yo maishiy hayotga oid muammolarni ko'tarib, ularning inson hayotiga, ruhiyatiga ta'sirini badiiy tadqiq etishdan ko'ra odamlar qismatining fojeiy nuqtalarini tadqiq qilishga, adabiyotning asosiy predmeti insonni o'rganishga bor imkoniyatlarini safarbar etishmoqda va o'ziga xos badiiy kashfiyotlar yaratmoqdalar. Shunday ijodkorlardan biri Nazar Eshonquldir. Nazar Eshonqul bugungi milliy zamonaviy adabiyotimizda o'ziga xos ijodkor sifatida allaqachon keng jamoatchilikka tanilib ulgurgan. Uning asarlarida uslubning o'ziga xosligi, ifodaning qabariqligi, yangicha yechimlar, asarning inson ruhiy dunyosiga, uning ichki sezimlariga kuchli ta'sir ko'rsatishi yaqqol namoyon bo'ladi. Shunday asarlardan biri yozuvchining "Urush odamlari" qissasidir.

Urush. U qoldirgan asoratlari haqida ko'p asarlar, kitoblar yozilgan. Ma'lumki, ko'pchilik yozuvchilar o'z asarlarida urush mavzusini to'laqonli tasvirlashga, insoniyat uchun baxtsizlik olib kelgani va uning oqibatlarini yoritishga harakat qiladilar. Mualliflar nafaqat urush maydonlarida to'kilgan qon va urush fojialarini tasvirlaydilar, bundan tashqari, ular asarlarining ichki mazmuniga ishonch, e'tiqod, or-nomus, vijdon va insoniylik kabi xislatlarni joylaydilar.

Iste'dodli yozuvchi, hozirgi o'zbek adabiyotining ilg'or ijodkori Nazar Eshonqul o'zbek nasriga, ayniqsa, hikoyachiligiga yangi ovoz, yangi ruh olib kirgan va mana shu janrni Sharq va G'arb adabiyoti an'analari bilan uyg'unlashtirayotgan adiblardan biridir. Yozuvchining ilk asari- "Urush odamlari" qissasidir. Dastlabki ijod namunasi bo'lishiga qaramay, ulug'vor badiiy g'oyani o'zida mujassam etgan. Urushning bor dahshati aks ettirilgan ushbu qissani o'qir ekanmiz, urush yillaridagi insonlarning fe'l-atvori, ularning boshidan o'tkazgan qiyinchiliklari-yu ko'rguliklari bilan tanishamiz. Urushdan avval o'zining polvonligi bilan namoyon bo'ladigan Normat polvonning urushdan keyingi ahvoli yoki o'sha davr odamlarining urushdan qaytganlarining nogiron, mayib-majruh kelganiga ko'nikib qolganini ko'rishimizning o'zi hayratlanarlidir. Ko'pgina qahramonlar urushga bormagan bo'lsa-da, uning qiyinchiliklarini his qilganlar, front orti mehnatlarida toblanganlar, urush bo'layotgan hudulardan uzoqda bo'lsa-da uning zahmatlarini totganlar. Bu asarda ba'zi bir mansab egalarning fursatdan foydalanib, o'z manfaatlari, xohish-istaklari, shahvoniy nafslarini qondirish uchun xalqning ojizalarini nochor ahvollaridan foydalanish kabi

qabihliklari va uning oqibatlarini ochib berilgan. Urush insonlar taqdirida o'zining qora soyasi bilan namoyon bo'lishi ifoda etilgan.

Nazar Eshonqul ushbu qissasida urush, uning davr va insonlar hayotiga qanchalik ulkan muammolar olib kelganligini birgina kichkina Tersota qishlog'i va unda yashovchi obrazlar orqali ochib berishga, o'sha davrdagi insonlarning qalbida, ruhiyatida ro'y bergan o'zgarishlarni, urush fojiasini mahorat bilan chizish bilan birgalikda urushsiz, tinch zamonlarni qo'msash, tinchlik degan buyuk ne'matni qadriga yetishimizni aks ettirishga harakat qilgan. Adib asar ichida bir rivoyat keltiradi:

“Shunda o'sha davrlardagi urug' oqsoqoli Boyxun( balki Boysundir) endi bu joylarga yashab bo'lmasligini va qon to'kilgan yer endi hosil bermay qo'rganini, suv ham, oftob ham ulardan yuz o'girganini, endi bu yerlardan urushsiz yurt izlab ketish kerakligini aytibdi. Uning gapini hamma ma'qullabdi. Urug' turli tomonga: urushsiz yurt axtarib tarqalib ketibdi.

Boyxun boshchiligidagi o'troqlar esa quyoshga, muqaddas olovga tomon yo'l olibdi. Ular quyosh tomonga urushsiz yurt bor, deb o'ylab, tobora tikroqqa ko'tarilibdi. Biroq ular qayerga borsa, urush izlaridan quvlab yetar, ularning hayotiga xavf solar, qonlariga tobora singib borar ekan. Oxiri shu Katta suv atrofiga kelib o'rnatilib qolishibdi. Bu davrda Boyxun juda qarib, o'lim to'shagida yotar ekan. U: “ Agar urushsiz yurtni topmasalaring, unda aka ukaga, do'st do'stga, xotin erga, odamlar bir-biriga xiyonat qiladigan, bir-birini aldaydigan bo'lib qoladilar. Qayerda qon oqsa, o'sha yerda xiyonat ko'p sodir bo'ladi, baxt u yerdan yuz o'giradi, odamlar yashash ilmini emas, bir-birini o'ldirish ilmini o'rganib boshlaydilar, suv o'rniga qon ichadigan mahluqqa aylanadilar. Urush – yer yuzidagi hamma ezgu narsani quritadi, sizlarni yer yuzidan supurib tashlaydi. Sizlar hammalaring johil va adashgan urush odamlariga aylanib qolasizlar. Shu sababli sizlar urushsiz yurtni topinglar, urushni oralaringdan haydanglar, totuv yashashga o'rganinglar. Bilinglarki, odamizotning otasi bitta: onasi bitta- hamma bir-biriga jigar, kimki urushga qarshi bo'lsa: ular sizlarning jigarlaringiz- urushsiz yurt axtarib ketgan qo'ng'irotlar. Ularni qo'llanglar. Agar urushsiz yurt topsalaring, boshqalarni ham olib kelinglar...” deb jon beribdi. Shundan beri qancha zamonlar o'tibdi, qancha suvlar oqib ketibdi, lekin odamlar urushsiz yurtni topisha olmabdi. U hech qayerda yo'q ekan. Boshqa urug'doshlari ham topolmagan shekilli, ulardan darak bo'lmabdi. Qo'ng'irotlar urushning qonli girdobida hamon yashab kelishar, urush ularni asta-sekin yer yuzidan supurib tashlayotgan ekan”

Adabiy asardagi asosiy voqealar tizmasiga bevosita aloqador bo'lmagan, lekin muayyan maqsadga buysundirilgan epizodlar kiritma voqealar deb ataladi. Ular ko'pincha asarga mazmun chuqurlashtirish xarakterlar rivojini dalillash va ifodalanayotgan g'oya kitobxonga aniqroq yetib borishini ta'minlash maqsadida kiritiladi.[1;65] Ushbu rivoyat asarning muayyan syujet tarmog'iga emas, balki butun



kompozitsion qurilishiga, uning g'oyaviy-estetik yo'nalishiga aloqadordir. Muallifning badiiy niyati rivoyatdan kelib chiqqan xulosada namoyon bo'lgan. Rivoyatda muallif pozitsiyasi, uning g'oyaviy-estetik qarashlari o'ziga xos didaktik formada mujassamlashgan. Rivoyatning asar voqealari bilan uyg'unlashib bir butunlikni hosil qilishi ham asarga o'zgacha ruh bag'ishlagan.

Adib rivoyat tasviri orqali urushni qoralaydi. Insoniyatga xos illatlar: isyonkorlik, johillik, xiyonatkorlik, aldoqchilik kabilar urush tufayli kjelib chiqishini bayon etadi. Urush shunday narsaki, insonni yo'ldan adashtirib, johil kimsaga aylantirib qo'yishi haqida Boyxun tilidan hikoya qilinadi. Urug' ahli urushsiz yurt topolmasligi va hamma joyda urush borligi achinarli holat. Urush bor joyda esa johillik, xiyonat bor. Bu rivoyat qissa mazmuniga mos, qissada ham urush tufayli xiyonat, xiyonat sababli qotillik bo'lib qon to'kiladi. Rivoyat ham qissa kabi urushni qoralaydi. Ajdodlarimiz qadim-qadimdan tinchlik ne'matini xohlashgan, urushni qoralashgan va tinchlikning qadriga yetishgan, biroq urushlar yer yuzida hali hanuz davom etmoqda, urushsiz yurt go'yoki bir afsonaviy manzil bo'lib qolgan. Urushning oqibatlarini, insoniyat boshiga kulfatlar keltirishi ochib berilgan ushbu rivoyatda asarning umumiy mazmuni o'z aksini topgan. Bu rivoyat o'z mazmuni va mantiqiy xulosalari bilan syujetning ma'lum qismini tashkil etib, asarning kompozitsiya bo'lagi sifatida voqealarning rivojlanishi va yozuvchi g'oyasining ravshan, ta'sirli ifodalanishini ta'minlaydi. Bu rivoyat asarga shunchaki kiritilgan emas, balki zamirida shu kunning muhim hayotiy muammolari yotadi. Ularda yozuvchining ijodiy izlanishlarining samarasi bo'lgan falsafiy yechim va xulosalari ham bor.

Ushbu keltirilgan rivoyatdagi : "...urushni oralaringizdan haydanglar, totuv yashashga o'rganinglar" Boyxun tilidan aytilgan ushbu vasiyat butun bashariyatga qaratilgan vasiyat va nasihatdir deyish mumkin. Yozuvchi ushbu asarda berilgan rivoyat orqali asarning mazmuniga tinchlikning qadriga yetish, urush qilmaslik, tinch-totuv yashash, insonlar bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishi, xiyonat va aldoqchilik qilmasligi, behuda qon to'kmaslik, johilikka qo'l urmaslik kabi yuksak g'oyalarni jamlaydi.

Tinchlik so'zi arab tilida "salami", "islom" ma'nolarini o'z ichiga oladi. Dinimiz nomi ham tinchlik demakdir. Islom dini insonlar bir-birlari bilan tinch-totuv yashashga undaydi. Alloh taolo bandalarini o'zaro ittifoqlikda, ahillikda tinchlikda-omonlikda yashashga da'vat etib:

"Agar mo'minlardan ikki toifa o'zaro urushib qolsalar, darhol ular o'rtasini isloh etingiz!"(Hujurot surasi, 9-oyat)

Hadisi sharifda : " Kishi ertalab uyqudan uyg'onib tursa, uning oilasi tinch, tani sog', uyida yegulik ozuqasi barqaror bo'lsa, ne'matlarning barchasiga muyassar bo'libdi", deb marhamat qilinadi. Haqiqatan, inson uchun tinchlik-osoyishtalikdan

yaxshiroq ne'mat yo'q. Oila, yurt notinch bo'lsa, to'y-tomosha, shodlik-xurramlik, xullas, hayotning hech bir ne'mati tatimaydi. Urush- janjal sabab mehr-oqibat, insoniylik unutiladi, ezgu maqsadlar amalga oshmay qoladi.

“Urush! Noming o'chsin jahonda

Hamon bitmas sen solgan alam...” deydi taniqli shoiramiz Zulfiya. Haqiqatan ham urush besh yil davom etgan bo'lsa-da, tugagandan so'ng ham yana bir qancha yillar davomida uning asoratlari qolib ketdi.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, Nazar Eshonqul “Urush odamlari” qissasini yozishdan ko'zlagan maqsadi urush va uning oqibatlarini bayon qilish bilan birgalikda, undan ham yuksakroq g'oya ya'ni tinchlikni qo'msash, tinchlikning qadriga yetish turadi. Urushsiz yurtni izlash haqidagi rivoyatni adib asarga mahorat bilan kiritganki, asar g'oyasini mufassil ochib bergan. Ushbu rivoyat yozuvchi maqsadining ko'zgusidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. D, Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004
2. Hamrayev, K. Hikoya kompozitsiyasi. - Toshkent: Nurafshon business, 2020.
3. Hotamov, N., Sarimsoqov, B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. - Toshkent.: O'qituvchi, 1979.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. - Toshkent: Hilol-nashr, 2022
5. <https://n.ziyouz.com>
6. N.Eshonqul. Urush odamlari- “Sharq” nashriyoti, 2008

## PYTHON DASTURLASH TILIDA ELEKTRON DARSLIK YARATISH

**Baxriyev Navro‘zbek Maxsud o‘g‘li**

BuxDU kopyuter ilmlari va dasturiy taminot yo‘nalishi

2- kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada python dasturlash tilida elektron darslik yaratish, elektron darsliklar ahamiyati, elektron o‘quv qo‘llanmaning maqsad, mazmuni haqida fikrlar bildiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Python dasturlash tili, elektron darslik, ma’lumotlar bazasi, O‘quv modellari.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается создание электронного учебника по языку программирования Python, значение электронных учебников, назначение и содержание электронного учебника.

**Ключевые слова:** Язык программирования Python, электронный учебник, база данных, модели обучения.

### ABSTRACT

This article discusses the creation of an electronic textbook in the Python programming language, the importance of electronic textbooks, the purpose and content of an electronic textbook.

**Keywords:** Python programming language, e-textbook, database, Learning models.

## KIRISH

Ta'lim jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni qo'llanilishi dars-mashg'ulotlarning samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Ta'lim mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirish, ularning uzviyligini ta'minlash, o'qitishning noan'anaviy usullari, zamonaviy axborot va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, didaktik materiallar va texnik vositalarni qo'llash, fanlararo bog'lanishlarni hisobga olish bularning barchasi o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgandir. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini tatbiq etish yo'nalishida yaratilayotgan dasturiy vositalar tahlil qilinganda shu narsani guvohi bo'lamizki, kompyuterda o'quv dasturi yaratayotgan ko'pgina mualliflar bir-birlariga bog'liq bo'lmagan holda, parallel ravishda o'quv-ilmiy materiallarni axborot texnologiyalari asosida taqdim etishning original uslublarini yaratmoqdalar.

Muhokama va natijalar. Uzluksiz ta'lim tizimida fanlarini sifat va samaradorligini oshirishda noan'anaviy elektron darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish va undan foydalanish bo'yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari, mamlakatimiz olimlarining A.Abduqodirov, U.Begimqulov, N.I.Tayloqov, Q.T.Olimov, F.M. Zakirova, A.G'.Hayitovning ishlarida elektron darsliklar va elektron qo'llanmalar yaratish yo'llari, ularga qo'yiladigan talablar ta'lim tizimida elektron axborot reasurslari tushunchasi; I.A.Allayarov, masofaviy ta'lim, uni tashkil qilish, sun'iy intellekt, ekspert tizimlar, bilimlar ombori, bilimlar omborini boshqarish tizimlari haqidagi fikrlar; S.M.Nadjimova, L.T.Zaylobov, umumiy kimyoni o'qitishda foydalaniladigan axborot texnologiyalari vositalarining imkoniyatlari, didaktik funksiyalari ularni amalga oshirish yo'llarining belgilanishi ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratishi haqida aytilgan.

S.S. G'ulomov, A.X.Abdullayev va M.X.Lutfillayev larning ishlarida virtual stend yaratish va ularni o'quv jarayoniga qo'llash bugungi kunning dolzarb masalalardan biri ekanligi ko'rsatilgan. A.M.Po'lotov talabalarning «Informatika va informasion texnologiya» fanidan o'zlashtirgan bilimi asosida kelajakda o'zlashtiradigan bilimi darajasini prognoz qiluvchi imitasion model va undan foydalanish metodikasi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan. Maqsad «Python dasturlash tilini» o'rganishda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish tushunchalarning mantiqiy sxemalar yordamida amalga oshirilishini metodik muammo sifatida ishlab chiqishdan iborat.

Python turli sohalar uchun yuqori darajadagi umumiy maqsadli dasturlash tili. Uning dizayn falsafasi muhim chekinishdan foydalangan holda kodning o'qilishiga urg'u beradi. Uning til konstruksiyalari va obyektga yo'naltirilgan yondashuvi dasturchilarga kichik va yirik loyihalar uchun aniq, mantiqiy kod yozishda yordam

berishga qaratilgan. Shuningdek Python sun'iy intellekt hamda ma'lumotlar muhandisiligi sohalarining tili hisoblanadi.


Python deyarli barcha platformalarda ishlay oladi, xususan Windows, Linux, Mac OS X, Palm OS, Mac OS va boshqalar shular jumlasidandir. Python Microsoft.NET platformasi uchun yozilgan realizatsiyasi ham mavjud bo'lib, uning nomi — IronPython dasturlash muhitidir. Guido van Rossum 1980-yillarning oxirida ABC dasturlash tilining davomchisi sifatida Python ustida ishlay boshladi va birinchi marta 1991-yild Python 0.9.0 versiyasini ommaga e'lon qildi. Python dasturlash tiliga bo'lgan talab yildan yilga oshib bormoqda. CodingDojo portalining tadqiqotlariga ko'ra, 2020—2021-yillarda aynan Python tilida dasturlovchi mutaxassislariga eng ko'p talab bo'lgan.

Elektron o'quv qo'llanma - o'quv adabiyotining yangi janri. Ekranlashtirilgan o'quv adabiyotining bu janri mutloqo yangidir. Bu janrni yangilash ham oson, ham qulay bo'lib, qidirish tizimiga ega. U o'zida boy ma'lumotlar video, kartinka, ma'lumotnomalar, matnlar joy olgan. Elektron o'quv qo'llanma maksimal darajada tushunish va tushuntirilishga ega bo'lishi, inson miyasi, ongiga nafaqat eshitish balki ko'rish orqali yetib borishi, kompyuter tushuntirishidan foydalanish kerak. Tashkil qiluvchi matnlar hajmi chegaralangan bo'lishi kerak.

Elektron o'quv qo'llanma, albatta, ko'rgazmali o'qitish degani. Zamonaviy didaktika shuni ta'kidlaydiki, ko'rgazmalilik tushunchasi bu nafaqat konkret vizual predmetlarga tayanidir. Buning odatdagi ko'rgazmalilikdan farqi - bu obyekt yoki obyektlar turlarining shartli ko'rinishi. O'rganilayotgan mavzuning ijodiy ko'rinishi haqida tasavvur hosil qiluvchi natural predmetlarni anglatadi. Model esa faqat hodisa va jarayonning ayrim, zarur bo'lgan tomonlarini ko'rsatadi. Bu tomonlar to'g'ri aks ettirilishi zarur. O'rganish vositasi ko'rgazmali bo'lishi uchun hodisa modelga aylantirilishi kerak, uning asosiy xossalarini ko'rsatish, modelning tushunarligini ta'minlaydi. Izomorflik va oddiylik bu ko'rgazmalilikning farqli tomonlari, o'quv modellarining teoriya tushunchalari shakllanishidagi o'rni ilmiy fikrlash asosi deb topiladi. O'quv modellarini ko'rgazmalilik va tushuncha uyg'unligi deb ta'riflanadi.

Elektron o'quv qo'llanmaning maqsadi - o'quv materialini hamma yutuqlarini saqlab qolish emas, balki kompyuter orqali tasvir uchun ko'rgazmalarni tanlash. Tasviriy material turi va soni qaysi tartibda tanlanadi. O'quv matni tushunilishi qiyin joyida tasvir kiritiladi, qo'shimcha ko'rgazmali tasvir orqali mavzuviy-mazmuniy sodda ravishda ochib beriladi. Bu o'quvchini matn parchasini o'rganishdan aniq anglashni beradi. Bir mavzuda nechta tasvir bo'lishi kerak, bu nazariy o'quv dasturining mazmuni va harakteriga bog'liq. Ko'rgazmalarga boy betlar yoki elektron matnlar kerak. Bir marta tasvir ko'rib, ko'p marta elektron matnni o'qigandan yaxshiroq. Misol uchun siz yumuq ko'z bilan notanish xonaga kirib, yoningizdagidan

xonani tasvirlashni so‘rasangiz, shunda uning so‘zlari orqali tassavur kengligi aniqlik talab qiladi va sust noma’lumlik paydo bo‘ladi. Undan ko‘ra 3-5 sekund ichida ko‘rish ma’qul. Elektron darsliklar yaratish uchun eng qulay dasturlash tili bu python tilidir. Uning bir qancha foydalanishga qulay tomonlari mavjud:



### Pythonning xususiyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **O‘qish oson:** Python nisbatan kam kalit so‘zlar, oddiy tuzilish va aniq belgilangan sintaksisga ega. Bu o‘rganuvchini qisqa vaqt ichida yodlab olish imkonini beradi.

- **O‘qish qulay:** Python kodi juda aniq va ko‘zga ko‘rinadigan bo‘ladi.

- **Oson ishlash:** Pythonning muvaffaqiyati – manba kodi juda oson.

- **Keng standart kutubxona:** Pythonning eng qudratli jihatlaridan biri kutubxonaning asosiy qismi juda portativ va UNIX, Windows va Macintosh-da o‘zaro faoliyat platformalar bilan mos keladi.

- **Interaktiv usul:** Pythonda ishlashda terminalda ishlash uchun juda qulay terminalda test qilib ko‘rsa bo‘ladi.

- **Portativ:** Python keng apparat platformalarida ishlaydi va barcha platformalarda bir xil interfeysga ega.

- **Kengaytirilgan:** Python tarjimoniga past darajadagi modullarni qo‘shishingiz mumkin. Ushbu modullar dasturchilarni o‘zlarining vositalarini samaraliroq bo‘lishiga qo‘shish yoki sozlash imkonini beradi.

- **Ma’lumotlar bazasi:** Python barcha ma’lumotlar bazasini qo‘llab quvvatlaydi.

- **GUI dasturlash:** Python Windows MFC, Unix, X Window kabi platformalarga GUI dasturlar tuzishni qo‘llab quvvatlaydi.

• **Moslashuvchan:** Python, qobiq buyruq fayliga qaraganda katta dasturlarga yanada yaxshi tuzilish va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Xulosa. Hozirgi dolzarb va jadal rivojlanib borayotgan davrda ta’lim sohasida oqsoqliklar bo‘lmasligi zamon talabiga mos, intellectual salohiyati yuqori shaxsiy-milliy qadryatlarga ega bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlashda electron mashinala o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishi juda muhim bo‘lib, bu bir qancha muammolarning yechimi sifatida baholanishi mumkin. Python dasturlash tilida o‘quv mashinali qo‘llanmalar yaratish esa foydalanuvchilarga bir qancha ustunliklar va qulayliklar yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. // Под ред. Е.С. Полат. / М.: «Академия», - 2001.
2. Кузнецов А.А. Образовательные электронные издания и ресурсы: методическое пособие / А. А. Кузнецов, С. Г. Григорьев, В. В. Гриншкун - М.: Дрофа, 2009. - 156 с.
3. Гриншкун В.В., Григорьев С.Г. Образовательные электронные издания и ресурсы. // Учебно-методическое пособие для студентов педагогических вузов и слушателей системы повышения квалификации работников образования. / Курск: КГУ, Москва: МГПУ, 2006. - 98 с.
4. Алексеева М.Б., Балан С.Н. Технология использования систем мультимедиа: Учебное пособие. - СПб.: Изд.дом «Бизнес-пресса», 2002. - 176 с.

## SPORT VA FALSAFANING ALOQASI. SALOMATLIKGA TA'SIRI.

**Saidova Mahbuba Ayubovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti Jismoniy Madaniyat kafedrası o'qituvchisi

E-mail: [mahubasaidova@gmail.com](mailto:mahubasaidova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Inson taraqqiyoti ixtisoslikni talab qiladi. Ammo mehnat taqsimotiga ega jamiyat aqliy falsafaga ega bo'lmaguncha – jamiyatning maqsadi, ya'ni inson ongini insoniylikka, ya'ni kontseptuallikka tarbiyalashdan iborat bo'lgan asosiy tamoyillarning mustahkam poydevoriga ega bo'lmaguncha yashay olmaydi. Shu zaruriyatdan faylasuf va faylasufni jamiyat, huquq, tarix, fizika, metafizika, bilim, fan, din, axloq, san'at, siyosat, sport va hokazolar qiziqtiradi. Bu sohalar va falsafa tushunchalarini shubha ostiga olib, yangi ma'nolar bera boshladi; Fan falsafasi, bilim falsafasi, metafizika, ontologiya, din falsafasi, axloq falsafasi, san'at falsafasi, tarix falsafasi, siyosiy falsafa va sport falsafasi kabi kichik tarmoqlar paydo bo'la boshladi. Hozirgi kunda tez o'zgarib borayotgan dunyomizda. va ommaviy axborot vositalari bilan torayib borayotgan sport inson hayotiga ta'sir qiladi va bu jamiyatga ta'sir qilish kuchiga ega bo'lgan hodisadir. Bunday hodisaning falsafa tomonidan ko'rib chiqilishi juda qimmatli ishdir. Shu sababli, bizning ushbu tadqiqotimizdagi maqsadimiz sportning falsafaning predmetiga aylanishi jarayonini tushuntirish va falsafa va sport o'rtasidagi munosabatlarning turli o'lchovlarini umumlashtirishdir.

**Kalit so'zlar:** falsafa, sport, sport falsafasi, qadriyat, madaniyat

**Key words:** philosophy, sport, philosophy of sport, value, culture

### KIRISH

Sport va falsafiy izlanishning sport uchun ahamiyati va dolzarbligi nimada? Ushbu amaliyotlarda ishtirok etayotgan odamlarning ko'pligi bu savolga javobdir. G'arb jamiyatlarida aholining yarmidan ko'pi haftada kamida bir marta jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadi. Elita sportiga jamoatchilik qiziqishi katta va sport xalqaro ko'ngilochar bozorda eng mashhur mahsulotlardan biridir. Shuningdek, u bosma yoki elektron mahsulotlar va umumiy ommaviy axborot vositalarida juda muhim o'rin tutadi. Sog'lom sport siyosati, amaliyoti va sport tadqiqotlari uchun kontseptual asos sifatida sportning imkoniyatlari va chegaralarini baholash uchun bizga falsafiy bilim kerak. Sport haqida falsafa qilish hech qachon yangi fikr emas.



Boshqa fan sohalorida bo'lgani kabi, jismoniy tarbiya va sport fanining rivojlanishiga falsafiy oqimlar katta ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasiga e'tibor qaratgan g'arb sport olimlari bakalavriat ta'lim davrida odatda falsafani o'rganishgan. 1776 yilda Oldenburgda tug'ilgan va 1841 yilda Gettingenda vafot etgan Iogann Fridrix Gerbart bu avlodning kashshoflaridan biridir. Bakalavr bosqichida o'qiyotganda Jena ham falsafaga yuzlanib, Fichtening eng yaxshi talabasi bo'ldi. Bu davrda odamlar Fixte idealizmga murojaat qilib, realizm, kantcha fikrlash tarzidan katta ta'sir o'tkazdilar. 18-asr boshlarida Yevropada falsafa va bu sohadagi akademik martaba muhim ahamiyatga ega edi. Darhaqiqat, bugungi falsafiy dunyoda ko'plab fikrlash harakatlari Kant bilan bog'liqdir. Ayniqsa, Kantning "burchni axloqiy tushunishi" sportning axloqiy jihati bo'yicha ko'plab tadqiqotlar uchun manba va asos bo'ldi.

Sport falsafasi sportning metafizikasidir. Bu sport, ayniqsa, sport fanlari haqidagi barcha texnik, falsafiy va hatto mifologik ma'lumotlarga asoslanib, sport tushunchasini, sport tushunchasida ifodalangan haqiqatni tushuntirishga, tushunchaning ma'nosini chuqurlashtirishga intilishdir. Bu yerda, birinchi navbatda, sport tushunchasi tahlil qilinadi va yuzaga keladigan barcha elementlar; Tana, harakat, ishlash, raqobat, g'alaba qozonish, mag'lub bo'lish va boshqa tushunchalar xuddi shunday munosabat bilan ta'kidlanadi. Aslida fanning asosiy maqsadi nazorat qilish va bashorat qilish emas, balki tushunishdir. Samarali nazorat tushunish uchun mukofotdir, bashorat qilishda aniqlik esa tushunish uchun nazoratdir. Bu kontekstda falsafa faylasuflar yoki "falsafalar" tomonidan kelishilgan yaxlitlik va birlikka ega emas. Boshqa tomondan, "tizimli" va "tizimli" g'oyalar doimo mavjud bo'lib, bu g'oya bilan falsafiy an'analarni tizimli ravishda tasniflashga urinishlar doimo amalga oshiriladi. Quyidagi tasnifni qo'pol bo'linish sifatida tushunish kerak.

## **Falsafa sohalari**

### **1. Nazariy falsafa**

- Adolat ta'limoti
- Umumiy metod doktrinasi
- Fanning umumiy nazariyasi
- bilimlarning umumiy nazariyasi
- Mantiq

### **2. Amaliy falsafa**

- Umumiy amaliyot
- Umumiy etika
- Biznes falsafasi
- O'yin falsafasi
- Yaratilish falsafasi

### **3. Madaniyat falsafasi**

- Madaniyat nazariyalari
- Madaniyatning tizimli falsafasi
- Jamiyatning umumiy falsafasi
- Tarix falsafasi
- Til falsafasi
- Ta'lim falsafasi
- Tibbiyot falsafasi
- San'at falsafasi
- Davlat va huquq falsafasi
- Texnik falsafa
- Iqtisodiyot falsafasi

### **4. Absolyut falsafasi**

- Ilohiyot falsafasi
- Din falsafasi
- Mistik falsafa
- Mif falsafasi

### **5. Matematika falsafasi**

### **6. Falsafa tarixi**

### **7. Falsafiy antropologiya**

### **8. Tabiiy falsafa**

### **XULOSA**

Xuddi shu mavzudagi qarashlar qanchalik ko'p bo'lsa, falsafa shunchalik boy, samarali va foydaliroq bo'ladi. Yangi falsafalar ko'pincha bir xil asosiy savol bilan boshlanadi, masalan, "Sport nima?" Bu savolga turli yondashuvlar va paradigmlar bilan murojaat qilish va yangi talqinlarni ilgari surish orqali erishiladi. Chunki falsafada "nima bor" tushunchalarning ma'nosini so'raydi. Bu "nima"da hayrat bilan aralashgan tadqiqot istagi paydo bo'ladi. "Nima" to'g'ridan-to'g'ri ma'noga bog'liq. "Nima uchun", "... bu nima degani?" Bu bilan bir xil narsa. Biz bu qolipga barcha falsafiy savollarni qo'yishimiz mumkin. Tasodifiy g'oyalar emas, balki "Bu nima?" Savol kabi savollar bilan ilgari surilgan yondashuvlar falsafiy maqsadga erishishimizga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, "Sport falsafasi nima?" Savolga javob izlash uchun ilgari surilgan fikrlar mamlakatimizda sport falsafasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Insonga hech narsa avtomatik tarzda berilmaydi: na bilim, na o'ziga ishonch, na xotirjamlik, na aqldan to'g'ri foydalanish. Insonga kerak bo'lgan yoki xohlaydigan har qanday qiymatni (hatto tananing o'ziga xos holatini ham) kashf qilish va o'rganish kerak. Chunki bilim donolik emas. Faqat o'rganish donolik emas. Donolik bilim va

hodisalarni qo'llashdir. Donolik biz hech narsa bilmasligimizni anglaydi. Hikmat: "Mening ongim hamma narsaga ochiq. Men qanday darajada bo'lishimdan qat'iy nazar, men faqat boshidaman. Bu "men bilganimdan yuz barobar ko'p o'rganishim kerak", deb ayta olish demakdir. Bu donolikning boshlanishi. Muayyan ko'rish qobiliyatiga ega bo'lish va mavjud noto'g'ri qarashlarni noto'g'ri qarashlar sifatida qabul qilish jasorati - dono odamlarga xos xususiyatlardan biridir. Binobarin, aql-zakovat, tasavvur va his-tuyg'ularni qayta ishlash orqali odamlarni baxtga, insoniyatni esa farovonlikka yetaklaydi.

Yaratgan har bir insonga butun umri davomida mashq qilish va rivojlantirish uchun tana va ruh beradi. Endi uni boshqarish va rivojlantirish inson va jamiyatga bog'liq. Qiziqish kashf qilish va o'rganish uchun zarur bo'lib, qiziquvchanlik falsafaning negizida muhim o'rin tutadi. Hayron bo'lish, shubha qilish va savollar berish orqali inson o'zi kashf etmoqchi bo'lgan va o'rganmoqchi bo'lgan ma'lumotga erishadi. Shunday ekan, sportchilarimizni umuman falsafaga, xususan, sport falsafasiga qiziqtirish choralarni ko'rish kerak. Bizningcha, shunday chora-tadbirlardan biri Jismoniy tarbiya va sport maktablari hamda sport fanlari fakultetlarida "Sport falsafasi" kursini majburiy kurs sifatida o'qitishdir. Shuningdek, sport falsafasiga oid kitob va maqolalarni rag'batlantirish sportchilarimizning sport falsafasiga qiziqishini oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Sayfiyev, H., & Saidova, M. (2023). EFFECTS OF GYMNASTICS ON FUNDAMENTAL MOTOR SKILLS (FMS), POSTURAL (BALANCE) CONTROL, AND SELF-PERCEPTION DURING GYMNASTICS TRAINING. *Modern Science and Research*, 2(9), 204-210.
2. Xayrullayevich, S. H., & Ayubovna, S. M. (2023). BADMINTONCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH METODIKALARI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(18), 201-208.
3. Ayubovna, S. M., & Xayrullayevich, S. H. (2023). YOSH BOLLALARDA SPORT SPORT GIMNASTIKASINING PEDAGOGIK O'LGHOVLAR NAZARIYASI VA TASHKILY-METODIK ASOSLARINI TADQIQ ETISHNING MAQSADI, VAZIFALARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 108-118.
4. Xayrulloevich, S. H. (2023). SPORT GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARIDA ASOSIY HARAKAT QOBILIYAT (FMS), POSTURAL (MUVOZANAT) NAZORAT VA O'ZINI O'ZI IDROK ETISHGA SPORT GIMNASTIKASINING TA'SIRI

5. Sayfiyev, H., & Saidova, M. (2023). EFFECTS OF GYMNASTICS ON FUNDAMENTAL MOTOR SKILLS (FMS), POSTURAL (BALANCE) CONTROL, AND SELF-PERCEPTION DURING GYMNASTICS TRAINING. *Modern Science and Research*, 2(9), 204-210.
6. Sirojev, S., Nuriddinov, A., & Sayfiyev, H. (2023). THE CONCEPT AND IMPORTANCE OF SHOOTING SPEED IN VOLLEYBALL. *Modern Science and Research*, 2(9), 187-191.
7. Сайфиёв, Х., & Саидова, М. (2023). БАДМИНТОНИСТЫ ФИЗИЧЕСКИЙ ПОДГОТОВКА И ЕМУ РАЗРАБОТКА МЕТОДЫ. *Инновационные исследования в науке*, 2(4), 45-54.
8. Xayrullayevich, S. H., & Ayubovna, S. M. (2023). BADMINTONCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH METODIKALARI. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(18), 201-208.
9. Ayubovna, S. M., & Xayrullayevich, S. H. (2023). YOSH BOLLALARDA SPORT SPORT GIMNASTIKASINING PEDAGOGIK O 'LCHOVLAR NAZARIYASI VA TASHKILY-METODIK ASOSLARINI TADQIQ ETISHNING MAQSADI, VAZIFALARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(22), 108-118.
10. Khairullayevich, S. H. Development of gymnastics in Uzbekistan and attention to gymnastics. *International scientific-educational electronic magazine "OBRAZOVANIE I NAUKA"*, 21.
11. Ярашева, Д. (2023). СТИЛИ ОРГАНИЗАЦИИ НЕТРАДИЦИОННЫХ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 19(5), 6-10.
12. Sayfiyev, H., & Saidova, M. (2023). EFFECTS OF GYMNASTICS ON FUNDAMENTAL MOTOR SKILLS (FMS), POSTURAL (BALANCE) CONTROL, AND SELF-PERCEPTION DURING GYMNASTICS TRAINING. *Modern Science and Research*, 2(9), 204-210.
13. Yarashova, D. (2023). STRENGTH TRAINING AND STRENGTH TRAINING IN CHILDREN. *Modern Science and Research*, 2(9), 211-215.
14. Ярашева, Д. (2023, April). ФИТНЕС КАК ОЗДОРОВИТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 4, pp. 278-283).
15. Yarasheva, D. (2022). BOLALARDA MASHQ QILISHNING ANAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 19(1), 139-142.
16. Groff, C. (1998). Demarketing in park and recreation management. *Managing Leisure*. 3 (3), 128-135.

17. 3. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. *Modern Science and Research*, 2(9), 390-394.
18. 4. Ikromova, S. (2023). CONCEPT OF IDEOLOGY AND FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY IN YOUTH STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(6), 1223-1226.
19. 5. Ikromova, S. (2023). FORMATION OF IDEOLOGICAL IMMUNITY TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN TEENAGERS. *Modern Science and Research*, 2(5), 1009-1014.
20. 6. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O‘RNI. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 675-678.

## BO'SH VAQTDA QILADIGAN SPORTNING STRESS VA SALOMATLIKGA TA'SIRI

**Saidova Mahbuba Ayubovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti Jismoniy Madaniyat kafedrası o'qituvchisi

E-mail: [mahubasaidova@gmail.com](mailto:mahubasaidova@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Dam olish - bu gavjum jamoalarda intensiv yashovchi odamlar yoki guruhlarning ish vaqtdan tashqari bo'sh vaqtlarida o'zlarini yaxshi his qilish va dam olish uchun qiladigan faoliyatni nazarda tutuvchi tushuncha. Ushbu bo'sh vaqt mashg'ulotlari orasida jismoniy mashqlar yoki turli sport tarmoqlarini amalga oshirishga asoslangan va dam olish faoliyatining katta qismini tashkil etuvchi tur sport dam olish deb ataladi. Stress intensiv ravishda ishlaydigan va bu intensivlikka qaramasdan bo'sh vaqtlaridan foydalanmaydigan odamlarda ham paydo bo'ladi.

Stress - bu odamda zo'riqish, qayg'u va tushkunlikni keltirib chiqaradigan kuch. Stress - bu odamga tahdid soladigan va tahdid soladigan xavf-xatarlarga jismoniy va psixologik reaksiya. Stress bilan tananing himoya mexanizmi zaiflashishi va shunga mos ravishda biz qo'rqishimiz kerak bo'lgan kasalliklar paydo bo'lishi faqat vaqt masalasidir. Agar stress doimiy va kuchli davom etsa, biz uni charchash bosqichi deb ataymiz; Agar odamlarning moslashuvi muvaffaqiyatli bo'lmasa va stress davom etsa, kompensatsiya mexanizmlari buziladi, immunitet tizimi bostiriladi, yurak va buyraklar bilan bog'liq muammolar va boshqa ba'zi kasalliklar paydo bo'lishi mumkin. Sport bugungi kunda katta ijtimoiy hodisaga aylangani bilan bir qatorda, sog'liq uchun muhim bo'lgan muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish odatiga ega bo'lish sifatida ham baholash mumkin. Har kuni muntazam ravishda bajariladigan jismoniy mashqlar salomatlik uchun ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mashqlar; Bu mushaklar, suyaklar, bo'g'inlar, yurak-qon tomir tizimi va uning funksiyalarining optimal ishlashini ta'minlaydi. Ushbu tadqiqotda biz ko'rib chiqadigan mavzu; Ma'lum bo'lishicha, band va doimiy ishlaydigan jamiyatlarda bo'sh vaqt sport kabi ko'ngilochar mashg'ulotlar bilan o'tkazilmasa, stress tufayli stress va sog'liq muammolari paydo bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Sport, Salomatlik, Sportli dam olish, Dam olish.

### KIRISH

Dunyo aholisining soni 7,7 milliarddan oshgan hozirgi kunda aholining tez sur'atlar bilan o'sishi va sanoat rivojlanishi tufayli qishloqlardan shaharlarga

migratsiyaning kuchayishi, aholi sonining ko'payishi va shaharlardagi gavjum va ishbilarmonlik hayoti odamlarda stress bilan bog'liq sog'liq muammolarini keltirib chiqarmoqda. . Sog'lom hayot; Bu to'g'ri ovqatlanish, sog'liqni saqlash sharoitlarini yaxshilash, tibbiy texnologiyalar, sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish va bo'sh vaqtni sport bilan o'tkazish orqali ta'minlanadi. Sog'lom shaxslarning mavjudligi jamiyatdagi odamlarning o'z kapitali unumdorligini oshirishi va iqtisodiy o'sish va taraqqiyotga katta hissa qo'shishini anglatadi.

Dam olish va dam olish tushunchalari ko'p ma'noga ega, chunki ular shaxsiy tajriba va tasavvurlarga asoslanadi. Dam olish tushunchasi individual nuqtai nazardan aniqlanganda; Bularga televizor ko'rish, opera tomosha qilish, maysazorda sayr qilish, bolalaringizni hayvonot bog'iga olib borish, shashka o'ynash, musiqa yuklab olish, shaharda bir oqshom o'tkazish va boshqa nima qilishni xohlasangiz. Bo'sh vaqt nazariyotchilari bu kabi tajribalarni qanday chaqirish kerakligi, ularni dam olish, bo'sh vaqt, bo'sh vaqt, bo'sh vaqt, xudbinlik yoki gedonizm, ya'ni ishlamaslik va o'yin-kulgi deb atash kerakligi bilan kurashdilar.

Boshqa bir ta'rifga ko'ra, dam olish - bu odamlarning majburiy mehnat, vazifa va uy vazifalarini bajargandan so'ng, dam olish, ko'ngil ochish, yangilanish va bo'sh vaqtlarida shaxsiy zavq olish uchun ixtiyoriy ravishda ishtirok etadigan faoliyat yoki tajriba. Dam olish; Bu bo'sh vaqtni baholashni ham anglatganligi sababli turli mavzular bilan birgalikda muhokama qilinadi. Adabiyotlar o'rganilsa, dam olish tushunchasi turli tadqiqotchilar tomonidan juda ko'p turli mavzular, ayniqsa xarid qilish bilan bog'lanishi mumkin. Bundan tashqari, turizm sohasining ko'p mehnat talab qiladigan tabiati malakali mehnatni talab qiladi, malakali mehnatni tayyorlash esa har doim insonni o'ziga xos talabga aylantiradi. "Turizm ta'limi" mavzusi ustuvor hisoblanadi.

Dam olish faoliyati; Agar u jismoniy mashqlar yoki turli sport tarmoqlarini amalga oshirishga asoslansa va rekreatsion faoliyatning katta qismini tashkil etsa, bunday dam olish sport dam olish deb ataladi. So'nggi paytlarda dam olish haqida gap ketganda, odamlar asosan jismoniy faoliyatga asoslangan sport mashg'ulotlarini o'ylaydilar. Sport faoliyati yoki boshqacha qilib aytganda, dam olish sporti bugungi kunda tobora ommalashib bormoqda va keng tarqalgan bo'sh vaqt faoliyati sifatida dam olishning muhim qismini tashkil etadi. Sport dam olishning deyarli barcha yosh toifalariga manzur bo'lishi, oson kirishi, sog'lom turmush tarzi bilan bir qatorda sog'lom bo'lish kabi ijobiy hissasi ham sport dam olishning ahamiyatini yanada oshiradi. Sanoatlashtirish bilan gavjum va konkret bo'lib qolgan katta shaharlarda odamlar jismoniy og'ir ish, shovqin va shunga mos ravishda stress kabi hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan uzoqlashib, sog'lom hayot kechirish va dam olish uchun sport mashg'ulotlariga murojaat qilishadi. Shu ma'noda olib borilgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, dam olish maqsadida sport mashg'ulotlarini

afzal ko‘radiganlar soni boshqa ko‘ngilochar mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanuvchilar soniga nisbatan foiz jihatidan ko‘proq ekanligini yaqqol ko‘rish mumkin. Germaniyada 61% odamlar bo‘sh vaqtlarida sportni afzal ko‘rishadi.

Sog‘liqni saqlash nuqtai nazaridan o‘tkazilgan tadqiqotda sport va salomatlik bilan bog‘liq natijalar quyida keltirilgan:

- Sport bilan shug‘ullanuvchilar va sport bilan shug‘ullanmaydiganlar o‘rtasida o‘zini yaxshi his qilish darajasi sport bilan shug‘ullanuvchilarda yuqoriroq (sport bilan shug‘ullanuvchilarning 90 foizi sog‘lig‘i yaxshi desa, sport bilan shug‘ullanmaydiganlarning 70 foizi ularning sog‘lig‘i yaxshi emas).

- Sport bilan shug‘ullanadigan 35 yoshdan oshgan keksa odamlarda sport bilan shug‘ullanmaydigan bir guruhdagilarga qaraganda kamroq sog‘liq muammolari mavjud.

- Barcha yosh toifalarida sport bilan shug‘ullanadiganlar sport bilan shug‘ullanmaydiganlarga qaraganda kamroq kundalik shikoyatlarga ega.

Sportning salomatlikka ta’siri

- a-Organik rivojlanish: Sport tufayli insonning organik tizimi o‘zgaruvchan sharoitlarga osonroq moslashadi va o‘z vazifasini bajaradi.

- b-Mushak-skelet tizimini rivojlantirish: ko‘nikmalar sport mashg‘ulotlari orqali rivojlantiriladi va ulardan samaraliroq foydalanish ta’minlanadi. Bu odamlarga o‘z ishlaridan zavq olish imkonini beradi; Osilib turish, sakrash, yugurish, otish kabi harakatlar uyg‘unligi orqali charchoqqa qarshi turish orqali nerv-mushak uyg‘unligi rivojlanishini ta’minlaydi.

- c-Aqliy rivojlanish: Aqliy rivojlanish sport mashg‘ulotlarida ishtirok etuvchi shaxslarni tarbiyalashning bir qismi bo‘lishi kerak. Jismoniy faoliyatni egallashda bunga erishish uchun idrok, fikrlash va fikrlash kabi aqliy tadqiqotlar kerak.

- d-ijtimoiy rivojlanish: o‘yinchi o‘yin qoidalarida amalda demokratiyani ko‘radi. Shu tarzda sportchi sportning ijtimoiy maqsadlarini tushunadi. Shaxs o‘zini bilish, kim bo‘lishni xohlayotganini anglash, o‘z darajasi va muhitini qanday idrok etish haqida ongli bo‘ladi.

olmaydi. Predmetni har tomonlama ko‘ra bilish, ya‘ni uni qismlarga ajratish, belgi va turlariga qarab farqlash — uni analiz qilish demakdir. Bu esa bolaga butunlikni tushunish imkonini beradi. SHu sababli, bolalarni yangi predmetlar bilan tanishtirganda, ularni bir-biridan ajratib turadigan shakli, rangi va qismlariga e‘tibor berish lozim. Mana shunday tarbiyaviy ta‘sir natijasida bolalarning predmetlar haqidagi tasavvurlari o‘sadi. Bola bir yarim Yoshga borganda, o‘zlari tez-tez uchratib turgan predmetlarni, ularning rangi, hajmi, shaklining o‘zgarishidan qat‘iy nazar, xatosiz tanib oladilar. Bola ikki Yoshga to‘lay deganda, tanish kuy va tovushlarni bilib oladi. Borliqni bilish jarayonida bola o‘z hayotida va tevarak-atrofidagi kishilar turmushida o‘rnatilgan tartibni tushuna boshlaydi. Bu olamni bilishning eng muhim tomoni bo‘lgan zamon - vaqtni bilib olishi uchun asos bo‘ladi. Bolaning organizmi ma‘lum tartibga ko‘nika boshlaydi, bu vaqt bilan tanishishdagi dastlabki qadamdir. Keyinchalik bolalar tabiat hodisalari va odamlarning kundalik hayoti singari tushunchalarni anglay boshlaydilar. Albatta, buning uchun kattalar bolalarning e‘tiborini hayotning muhim belgilariga qaratishi lozim. Bolaning har bir sezgan va idrok etgan narsalari o‘ziga xos sezgilar bilan mustahkamlanishi kerak. So‘z bolaning ko‘rayotgan predmetlarini tushunib olishini osonlashtiradi, predmetni so‘z yordamida bilib olish ko‘z va quloq ishini kuchaytiradi.

Bolaning aqliy jihatdan o‘shida makon va zamon haqidagi tushunchalarni anglashga yordam beradigan so‘zlarni o‘zlashtirib olishi muhimdir. Predmetlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan har xil fazoviy belgilarning (masalan, katta oraliq, tor oraliq) va turli fazoviy munosabatlarning nomlarini (o‘ngda, chapda, orqada, bir qatorda) bilib olish natijasida bolalar predmetlar o‘rtasidagi bu munosabatlarni ajratib olishga o‘rganadilar. SHu tariqa, nutq predmetlarning belgilarini differensiyalash va umumiyashtirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Lekin, shu bilan bir qatorda, so‘z birinchi signal sistemasi bilan bevosita bog‘lanmog‘i lozim. Ikki-uch yashar bolalardagi idrok o‘zining etarli darajada o‘smaganligi va beqarorligi bilan ajralib turadi hamda bir kuzatish ob‘ektidan ikkinchi kuzatish ob‘ektiga tez-tez ko‘chib turishi bilan xarakterlanadi. Yaltiroq, chiroyli, ko‘zga tez tashlanadigan predmetlar bola diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Bog‘chagacha bo‘lgan Yosh davridagi bolalar idroklarini qo‘yilgan vazifa asosida tashkil eta olmaydilar, ulardagi bu xil idrok juda qisqa muddatli bo‘ladi. O‘zlaridan uzoqda turgan predmetlarni idrok qilishda ayniqsa ko‘p xato qiladila. Bolada idrok asta-sekin mustaqillashib, ma‘lum maqsadga tayangan bo‘ladi, kuzatuvchanlik rivojlana boradi. Bola o‘zini qiziqtirayotgan narsaga uzoq vaqt qarab, uni kuzatishi, o‘sha predmet to‘g‘risida biror narsani so‘rashi mumkin.

Lekin bola hali predmet va hodisalarni har tomonlama kuzatib, uning asosiy, muhim tomonlarini ajratib, ayrim elementlarini o‘zaro bog‘lab olishning uddasidan chiqa olmaydi. Bolada kuzatuvchanlikni o‘stirishda sayr va ekskursiyalar muhim

ahamiyatga egadir. Bunda bolalar kattalarning rahbarligida tevarak-atrofdagi predmet va hodisalarda o'zlari uchun yangi bo'lgan muhim va qiziqarli narsalarni aniqlashga o'rganadilar. Rasmlarga qarash, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilish idrokning o'sishiga juda yaxshi ta'sir etadi.

Xulosa qilib aytsak, ilk bolalik davri bola psixik taraqqiyotidagi eng muhim davrlardan biri bo'lib, bu davrda bolaning yetakchi faoliyati predmetlarni o'rganish bo'lib, bu orqali esa bolaning bilish jarayonlari: sezgi, diqqat, xotira, hayol, tafakkur, idrok, nutqning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" 2017-y.
2. Неъматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.
3. Ne'Matullayeva, S. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.
4. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.
5. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 1(6).
6. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).
7. Неъматуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.
8. Kizi, N. S. K. (2022). Use of Game Therapy in Preschool Educational Organizations.
9. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43-46. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>
10. qizi Ne'matullayeva, S. X., & Ulug'bek qizi Abduqahhorova, M. (2023). BOLA SHAXSINING RIVOJIDA O'YIN TERAPIYASINI QO'LLASH SHART-SHAROITLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 341-344.

## LMS TIZIMIDA INTERAKTIV ELEMENTLARNI YARATISH TEXNOLOGIYASI

**Axmedova Zulxumor Ikromovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Umumtexnik fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: [axmedovazulxumor85@gmail.com](mailto:axmedovazulxumor85@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Jahon tajribasida oliy ta’limning muhim maqsadlaridan biri - bu talabalarni kasbiy rivojlantirish, ularning bilish mahoratlarini shakllantirish va olingan bilimi, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini hayotga amaliy qo‘llash texnologiyalari tatbiq etilgan. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha «Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish» xalqaro ta’lim kontseptsiyasi asosida ta’limning barcha bosqichlarini intensivlashtirish, modernizatsiyalash, axborot texnologiyalari yordamida bilimlar sifatini oshirish metod va usullarini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

### KIRISH

Ma’lumki, o‘qitish vositalari – o‘quv jarayonini tashkil etishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchining bosh vazifasi talabalarga o‘z predmetini qiziqarli qilib ko‘rsatish va shu bilan birga talabalarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini ortirishdan iboratdir. Bu o‘rinda o‘qitishning zamonaviy texnik va dasturiy vositalaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Zamonaviy multimediyaga texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratini, texnologik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

**Elektron o‘quv kursini ta’lim jarayonida qo‘llash.**

**Moodle ta’lim axborot tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish.**

Moodle ta’lim axborot tizimida o‘quv jarayoni Davlat ta’lim standarti, namunaviy o‘quv rejasi asosida ishlab chiqilgan va rektor (o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor) tomonidan tasdiqlangan ishchi o‘quv rejasi va fan dasturlariga muvofiq tashkil etiladi.

Moodle ta’lim axborot tizimini qo‘llashda ta’lim muassasasi ta’lim oluvchilarning, professor o‘qituvchilar, mutaxassis xodimlarning o‘quv-metodik majmuaga tarmoq orqali kirish imkoniyatini ta’minlaydi. Ushbu o‘quv-metodik majmua qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassislikning Davlat ta’lim standarti;
- Davlat ta’lim standartiga mos ravishda yaratilgan namunaviy dastur;



- fanning maqsadi, vazifalarini, ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining mazmunini, nazorat hamda kurs ishlarining mavzularini, masalalar, topshiriqlarni, yakuniy nazorat savollarini va fanning o'quv-metodik ta'minoti, mustaqil ishni tashkil etishga doir yo'riqnomani o'zida mujassamlashtirgan ishchi dastur;

- o'quv-uslubiy xarita va kalendar tematik rejalar;

- darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv materiallarining elektron versiyalari;

- mashg'ulotlarda pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalar;

- nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlarining metodik ta'minoti;

- o'quv-malakaviy amaliyot dasturi, uni tashkillashtirish bo'yicha metodik qo'llanma;

- nazariy va amaliy o'quv materiallarini o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga qaratilgan nazorat topshiriqlari va testlar;

- fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar bo'yicha ballar taqsimoti, topshiriqlar turi, baholash mezonlari.

- O'quv-metodik majmua, zarurat bo'lganda ma'lumotnomalar va lug'atlar, vaqtli, soha nashri va ijtimoiy-siyosiy nashrlar, ilmiy adabiyot va xrestomatiyalar, ma'lumotlar bazasiga murojaatlar yo'li, saytlar, axborot beruvchi tizimlar va boshqa tarmoq resurslari bilan to'ldirilishi mumkin.

Moodle ta'lim axborot tizimida o'quv jarayoni quyidagi hujjatlar asosida tashkil etiladi:

- o'quv jarayoni grafigi;

- yo'nalish bo'yicha ishchi o'quv rejasi;

- fanlar bo'yicha o'quv dasturlari, nazorat ishlari (ularning bajarilish muddatlari ko'rsatilgan holda);

- sessiya oralig'i davrida o'quv mashg'ulotlari jadvali;

- nazorat ishlarini qayd etish jurnali;

- reyting nazorati natijalarini qayd etish jamlama qaydnomasi;

- talabalarning seminarlar bo'yicha forumda qatnashishini qayd etish jurnali;

- tarmoq orqali nazorat ishlarini qabul qilinishini va o'tkazilgan konsultastiyalarni qayd etish jurnali.

- O'qitiladigan fanning sifati bo'yicha PO' va kafedra mudiri javobgar hisoblanadi.

• Tizimga kiritiladigan elektron o'quv kurslari uchun umumiy bo'lgan quyidagi talablarni olish mumkin:

• fanga kirish (tarixi, predmeti, dolzarbligi, mutaxassislik bo'yicha dasturning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va o'rni);

• fan (kurs) bo'yicha o'quv dasturi;

• fanni o'rganishning maqsad va vazifalari;

• kursni mustaqil o'rganish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar;

• mundarija;

• bo'limlar bo'yicha tuzilgan asosiy mundarija;

• bo'limlar bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar, testlar, savollar, trening uchun javoblari bilan mashqlar;

• yakuniy test;

• mustaqil ishlash uchun amaliy topshiriqlar;

• katta bo'lmagan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun mavzular (mini-ITI);

• Glossari (terminlarning izohli lug'ati);

• qisqartma va atamalar ro'yhati;

• xulosa;

• adabiyotlar ro'yxati(asosiy, qo'shimcha, fakultativ);

• kursning mavzulari bo'yicha darsliklardan, jurnallardan olingan va ilmiy maqolalar lavhalarini o'z ichiga olgan xrestomatiya (dayjest);

• qo'llanmaning muallifi haqida qisqacha ma'lumot.

O'qish davrida o'qiladigan MA'RUZALAR Moodle ta'lim axborot tizimida asosiy elektron o'quv kontent hisoblanadi. Ularning maqsadi – talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladigan materiallarni umumlashtirish va tizimga solish, kursning eng muhim, asosiy va murakkab masalalarini ajratib ko'rsatish. Ma'ruzalar talabalarga pedagogik dastruiy vositalar asosida tayyorlangan holda video- yoki multimedia ma'ruzalar qo'rinishda tizimga yuklanadi. Video- yoki multimedia ma'ruzalar Moodle ta'lim axborot tizimi orqali tarqatiladi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR talabalarga o'qituvchi rahbarligida elementlari barcha turdosh fanlarda mavjud bo'lgan eng ko'p uchraydigan masalalarni hal etishga, hisob-kitoblarni amalga oshirish ko'nikmalarini egallashga, ma'lumotnomalardan foydalanishni o'rganishga imkoniyat beradi. Amaliy mashg'ulotlar talaba egallagan nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishga yordam beradi. Har bir ma'ruza mashg'ulotidan keyin amaliy mashg'ulotga oid o'quv elementlari joylashtiriladi.

SEMINARLAR gumanitar fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning asosiy shaklidir. Bu turdagi mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, seminar

suhbati davomida talabalar o'z fikrini asoslash, mantiqiy izchillikda bayon etish, berilgan savollarga tezlik bilan javob topish, dastlabki manbalardan to'g'ri foydalanishni o'rganadilar. Seminar mashg'uloti Moodle ta'lim axborot tizimi mavjud bo'lgan "o'quv elementlar" orqali tashkilashtirish tavsiya etiladi.

LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI talabalarga tajribani to'g'ri qo'yish va olib borish haqida tasavvur hosil qilish, zamonaviy laboratoriya va o'lchov apparaturasi bilan ishlash ko'nikmalarini egallashga imkoniyat beradi, ularda talabalar tajriba natijalarini tahlil qilish, bajarilgan ish haqida hisobotni rasmiylashtirishni o'rganadilar. Laboratoriya mashg'ulotlari davomida talabalar tajriba natijalarini nazariyaning mavjud qoidalari bilan qiyoslaydilar, bu esa nazariy bilimlarni yanada chuqurroq egallashga imkon beradi.

**Moodle ta'lim axborot tizimida o'qitish sstenariyasi.** Moodle ta'lim axborot tizimida o'qitish samarali bo'lishida zamonaviy texnologiyalar talabiga javob beruvchi o'quv qurollari bilan bir qatorda mohirona tuzilgan ma'ruza matni va o'qitish jarayoni undagi amallar ketma-ketligini ifodalovchi o'qitish sstenariyasining ham roli juda katta.

O'qitish sstenariyasi bu masofaviy o'qitish jarayonida o'qituvchi va talabaning o'zaro bajarishi kerak bo'lgan amallar ketma-ketligi va bu amallarni bajarishda masofaviy o'qitish o'quv qurollaridan qanday tartibda foydalanishni ko'rsatuvchi dastur-rejadir. Bu klassik o'qitishdagi o'quv rejaga o'xshab ketadi. Undan farqi shuki, o'qitish sstenariyasida o'quv qurollari, programma ta'minotlari qay tarzda ishlatilish kerakligi ham ko'zda tutiladi.

Quyidagi Moodle ta'lim axborot tizimidan foydalanganda uning imkoniyatlarini hisobga olgan holda taklif qilish mumkin bo'lgan o'qitish sstenariyasi keltirilgan:

1. Foydalanuvchi tomonidan Moodle ta'lim axborot tizimidan foydalanishga ruxsat so'rash so'rovnoma to'ldiriladi.

2. So'rovnoma OTM axborot texnologiyalar markazi tomonidan ko'rib chiqiladi va tizimdan (platformadan) foydalanishga ruxsat beruvchi talablari bajarilgan holda foydalanuvchiga so'rovnomada ko'rsatilgan foydalanuvchi nomi va parol bo'yicha platformadan foydalanish huquqi beriladi. Agar foydalanuvchi o'qituvchi bo'lsa, unga ma'ruza qo'shish huquqi beriladi; agar talaba bo'lsa, bu huquq faqatgina platformaga kirish va undagi o'quv materiallaridan foydalanish imkonini beradi.

3. Platformaga kirish huquqini olgan talaba platformaga kirib, platformaga joylashtirilgan fanlar bilan tanishib chiqib, ularga a'zo bo'lishi va o'sha fanlarni o'rganishi mumkin bo'ladi.

4. Fanga a'zo bo'lish uchun avval a'zo bo'lmoqchi bo'lgan fan tanlanadi. U erda fanning nomi va kelasi yig'iladigan guruh va bu guruhga a'zo bo'lishning oxirga sanasi va dars boshlanish sanasi ko'rsatilgan bo'ladi. Shu axborotlar asosida talaba

o'qituvchiga fanga a'zo bo'lish so'rovnomasini yuboradi. O'qituvchi talabning fanga a'zo bo'lish shartlarini bajargan holda fanga a'zo bo'lish ruxsatini beradi.

5. O'quv rejada o'qituvchi har bir ma'ruzaga ajratilgan vaqt, ma'ruza yuzasidan o'qituvchiga beriladigan savollar uchun muddat, ma'ruza uchun testdan o'tish muddati va uni tugatish muddati ko'rsatilgan bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 08-oktabrdagi PF-5847 sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/>
3. A.A. Abduqodirov, A.X. Pardayev. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. "Fan va texnologiya". Toshkent. 2012 y. 104 b.A. Abduqodirov, A.Pardayev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: «Fan». 2009, 145 b.
4. Турсунов, БЖ; Алланазаров, ГО; ,Перспективные технологии производства по улучшению качества бензина,Теория и практика современной науки,,3 (45),305-308,2019,ООО «Институт управления и социально-экономического развития»
5. Begimqulov U., Voqiyev R. va boshqalar. Masofaviy ta'lim terminlari izohli lug'ati. - T.: Nizomiy nomli TDPU, 2008. -58- b.
6. Karimov Feruz. "ANIQ INTEGRALNI TAQRIBIY HISOBLASH." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ ([buxdu.uz](http://buxdu.uz)) 14.14 (2022).
7. Bates A.W. Distance education in a knowledge-based society / A.W. Bates // A keynote address in the ICDE Conference on The Metamorphosis of Distance Education in the Third Millennium. – Toluca, Mexico, 2007.

УДК. 681.31.(075.8)

## METHODOLOGY OF TEACHING INFORMATION TECHNOLOGIES IN MEDICINE USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES

**Normamatov Sardor Fakhriddinovich**

Tashkent Medical Academy

E-mail: [nsardor1991@gmail.com](mailto:nsardor1991@gmail.com)

**Karaboev Avazbek Alijonovich**

Tashkent Medical Academy

E-mail: [koraboyev.avazbek@gmail.com](mailto:koraboyev.avazbek@gmail.com)

### ABSTRACT

Reforming the modern system of medical education is aimed at increasing the efficiency of training future doctors who not only have knowledge and skills, but are also ready to apply them in solving problems of professional activity. The authors show the need for biophysics in the future professional activity of a future specialist doctor in solving professional problems.

**Keywords:** information technologies in medicine, medicine, methodology, integration, contextual learning.

### INTRODUCTION

Interest and attention to the use of innovative technologies, pedagogical and information technologies in the educational process is growing day by day. One of the reasons for this is that, until now, in traditional education, students were set to acquire only ready-made knowledge, but modern technologies teach them to search for the acquired knowledge by themselves, to study and analyze it independently, and even to draw their own conclusions.

Pedagogical technology and knowledge, experience and interactive methods of pedagogical skills ensure that students acquire knowledgeable, mature skills. Innovation (English innovation) is innovation.

#### **Three-step strategy for solving physical problems.**

Innovative technologies are innovations and changes in the pedagogical process and teacher's and student's activities. Interactive methods are called collective thinking, that is, pedagogical influence methods are unique in that they are implemented only through the joint activity of the pedagogue and the student.

Such a process of pedagogical cooperation has its own characteristics, which include:

- forcing the student not to be indifferent during the lesson, to think independently, to create and search;
- student - to ensure that students are constantly interested in knowledge during the educational process;
- to strengthen the student's interest in knowledge by independently approaching each issue creatively;
- organization of activities of pedagogue and pupil-student in constant cooperation.

In the opinion of teachers, researchers, and practitioners studying the issues and problems of pedagogical technologies, pedagogical technology is defined as the use of TSO, computer, distance learning, or various techniques that are related to information technology and must be used in the teaching process.

It is up to the teacher and the student-student to choose the technology to achieve the goal, because the main goal of both sides is clear: to achieve the result, in which the technology used is chosen depending on the level of knowledge of the students-students, the nature of the group, the situation, for example, maybe a movie to achieve the result, handouts, drawings and posters, various literature, information technology will be needed, it depends on the teacher and the student.

Together with the teacher, it is necessary to plan the teaching process in advance, in this process, the teacher must take into account the specific aspect of the educational subject, the place and conditions, TSO, and most importantly, the ability and need of the student, as well as his ability to organize cooperative activity, so that the desired rewarded result can be achieved. In short, the pupil should be brought to the center of education.

### **Problem definition and problem solving.**

It is necessary for the teacher to design the future lesson process in order to see each lesson as a whole, in a situation, and imagine it. It is very important for the teacher to draw up a technological map of the future lesson, because the technological map of the lesson is created based on the nature of the subject, the subject taught for each subject, the possibilities and needs of the students. It is not easy to make such a technological map, because for this the teacher needs to be aware of pedagogy, psychology, special methodology, pedagogy and information technology, as well as to know a lot of methods and methods. Making each lesson colorful and interesting depends on the planned technological map of the lesson.

### **Strategy design.**

How to create a technological map of the lesson depends on the teacher's experience, goals and discretion. No matter how the technological card is structured, it should reflect the lesson process as a whole, and the clearly defined goal, task and rewarded result, the technology of organizing the lesson process should be fully expressed. The structure of the technology card saves the teacher from writing an extended synopsis of the lesson, because all aspects of the lesson process are reflected in such a card.

### **Implementation of the strategy.**

The modern methods presented in this methodical manual, or technological trainings that help to increase the effectiveness of teaching, help students to form logical, intellectual, creative, critical, independent thinking, develop their abilities, become competitive, mature specialists and educate the professional qualities needed by a specialist.

Below is a description of some technologies (trainings) that can be used in the training process, and a recommendation on the procedure for conducting some of them.

### **"Fifth plus" method**

This method is especially important for students to acquire logical thinking skills. Being able to show and justify the logical connection between the concepts that illuminate the essence of the subject forms in students the skills of independent thinking, the ability to justify a personal approach, as well as the ability to compare their personal opinions with the opinions of their peers.

### **"Charkhpalak " technology**

This technology is aimed at helping students to remember the topics covered, to think logically, to independently answer correctly to the questions, and to assess the knowledge acquired by all students by the teacher in a short period of time.

The purpose of technology. This technology teaches students to think logically during the lesson, express their thoughts independently, work individually and in groups, respect other people's opinions, and choose the right one from many opinions.

### **"Networks" method (Cluster)**

Brainstorming is a pedagogical strategy that helps students learn about a topic in depth by teaching them to freely and openly link a topic-related concept or specific idea in a coherent sequence.

This method can serve to intensify and expand the thinking activity of the students before any deep learning. It also encourages students to consolidate, master, and generalize the learned topic in the form of drawings.

### **Boomerang technology**

This technology aims to help students to work with various literature during the lesson, outside of the lesson, memorize the learned material, express their opinion

freely, get a lot of information in a short time, and be able to evaluate all students by the teacher during the lesson.

The purpose of the method. Through this method, the students are able to determine the sequence of actions shown on the cards distributed to the students independently, to be able to convey their opinion to others in small groups or to stay in their opinion, and to form skills such as being able to agree with others.

#### **"I know. I want to know. I learned" method**

This method allows students to assess their level of knowledge on specific topics. In the process of applying the method, it is possible to work with students in a group or mass. When working as a group, at the end of the training, the activity performed by each group is analyzed. The activities of groups can be organized in the following form:

1) each group performs the tasks given by the teacher based on the general scheme, and at the end of the training, the relations of the groups are summarized according to the project items;

2) groups perform the tasks given by the teacher according to the separate clauses of the general scheme.

#### **"BLITS - SURVEY" method**

This technology is aimed at teaching students to correctly organize the sequence of actions, to think logically, to choose what they need from many, diverse opinions and information based on the subject they are studying. During this technology, students are able to communicate their independent thoughts to others because this technology provides the perfect environment for this.

The purpose of the method. This technology helps the listeners to determine the sequence of actions shown in the distributed papers first independently, and then to be able to transfer their opinion to others or stay in their opinion and agree with others.

In academic lyceums and vocational colleges, management representatives, management staff, methodologists, teachers are often puzzled about what to pay attention to when entering the teachers' classes and analyzing the lesson. In fact, entering the teacher's lesson and analyzing it, first of all, depends on the goal of the person entering the lesson. For example: "I wanted to learn (observe, publicize) your experience in presenting a new topic or your assessment, strengthening the topic, organizing a complete lesson plan, communicating with students, etc.

#### **REFERENCES:**

1. Б.Т. Рахимов. Современное состояние биофизики и особенности преподавания биофизики в медицинском вузе. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. Italia © Sp. z o. o. "CAN", 2021 © Authors, 18-27.



2. Б.Т. Рахимов, М.И. Базарбаев, А.З. Собиржонов Состояние проблемы подготовки студентов-медиков к решению профессиональных задач в обучении биофизике. New Day in Meditcina. www.bsmi.uz <https://newdaymedicine.com> E: ndmuz@mail.ru. 4/54/200-207
3. М.И. Базарбаев, Д.И. Сайфуллаева, Б.Т. Рахимов, З.Р. Жўраева Роль информационных технологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в период цифровой трансформации в образовании. 10.10.2022. ТТА. Ахборотномаси. 8-13.
4. Bobur Raximov. Innovative technologies in teaching biophysics. Дата публикации 2021/4/24 Издатель Tashkent medical academy Описание This article provides information on innovative technologies used in the teaching of biophysics and their importance.
5. Б.Т. Рахимов. [The role of innovative educational technologies in teaching biophysics](#). research and education. 2023. issn: 2181-3191 volume 2 | issue 3 | 202 91-99.
6. Б.Т. Рахимов, Х.А. Мухитдинов, З.Р. Жўраева. [Алгоритм обучения биофизике с использованием инновационных образовательных технологий](#). 30.03.2023 Innovative Development in Educational Activities issn: 2181-3523 volume 2 issue 6 2023. 191-200.
7. M.I.Bazarbayev, B.T.Raximov, A.Z.Sobirjonov, D.I.Sayfullayeva, Z.R.Jurayeva, S.I.Ixrrova The Importance of Digital Technologies in the Teaching of Fundamental Sciences in Medical Universities. American Journal of Medicine and Medical Sciences. American Journal of Medicine and Medical Sciences 2023, 13(6): 814-820 DOI: 10.5923/j.ajmms.2023.13.06.09
8. Бобур Рахимов, Зиёда Жураева. Методика обучения информационным технологиям в высших медицинских учебных заведениях. Educational Research in Universal Sciences. 2-том. Страницы 4-13. 2023/2/27.
9. ВТ Рахимов, АЗ Собиржонов, ИБ Зупаров, ЗР Жураева. Роль инновационных образовательных технологий в обучении биофизике. Educational Research in Universal Sciences. 2-том. Страницы 4-13. 2023/4/27.
10. Bobur Raximov, Umida Abdujabbarova. The importance of physical and biophysical processes in the study of medicine. ТТА Ахборотномаси. ISSN:2181-7812. URI:<http://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/5762>. 30-Dec-2022
11. В.Т. Raximov. Tibbiyotda ximiya terapiya jarayonini matematik modellashtirish masalasalasi. XXXIV Міжнародної наука-практичної інтернет-конференції. Том 33, Номер 34, Страницы 603-608. 2014/04/30

## BAYES FORMULASINING TIBBIYOTDA QO‘LLANISHI

**Bozarov U.A.**

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

### ANNOTATSIYA

Bayes formulasi nafaqat matematikada, balki tibbiyotda ham keng qo‘llanilishini topdi. Misol uchun, u ma‘lum kasalliklarning ehtimolini hisoblash uchun ishlatiladi. Shunday qilib, agar  $A_1, A_2, \dots, A_n$  bu bemor uchun taxminiy tashxislar bo‘lsa,  $A$  – ular bilan bog‘liq ba‘zi bir belgi (simptomlarni, qon yoki siydik tahlilining ma‘lum bir ko‘rsatkichi, rentgenografiya tafsilotlari va boshqalar) va shartli ehtimollar  $P(A/A_i)$  bu simptomning har bir tashxis uchun namoyon bo‘lishi ( $i = 1, 2, \dots, n$ ) oldindan ma‘lum bo‘lsa, Bayes formulasi kasallik ehtimoli (tashxislar)  $P(A_i/A)$  bemorda xarakterli xususiyat mavjudligi aniqlangandan keyin shartli hisoblash imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** hodisa, ehtimollik, shartli ehtimollik, to‘la guruppa, ESR, perinatal o‘lim, intrauterin rivojlanish.

Agar  $A$  va  $B$  bog‘liq hodisalarning birgalikda sodir bo‘lish ehtimoli ular qanday tartibda sodir bo‘lishidan bog‘liq bo‘lmasa,

$$P(AB) = P(A) \cdot P(B/A) = P(B) \cdot P(A/B).$$

Bunday holda, hodisalardan birining shartli ehtimolini ikkala hodisaning ehtimolini va ikkinchisining shartli ehtimolligini bilgan holda topish mumkin:

$$P(B/A) = \frac{P(B) \cdot P(A/B)}{P(A)}.$$

Bu formulani ko‘p hodisalar uchun umumlashtirish Bayes formulasi hisoblanadi.

$n$  ta birgalikda bo‘lmagan tasodifiy hodisalar  $A_1, A_2, \dots, A_n$  hodisalarning to‘la guruhini tashkil etsin. Ushbu hodisalarning ehtimoli  $P(A_1), P(A_2), \dots, P(A_n)$  ma‘lum va ular to‘la guruhni tashkil qilganligi sababli,

$$\sum_{i=1}^n P(A_i) = 1$$

Ba‘zi tasodifiy hodisa  $A, A_1, A_2, \dots, A_n$  hodisalar bilan bog‘liq. Bundan tashqari,  $A_i$ -hodisalarning har biri bilan  $A$ -hodisaning yuzaga kelishining shartli ehtimollari ma‘lum, ya‘ni  $P(A/A_1), P(A/A_2), \dots, P(A/A_n)$ . Bunday holda, shartli ehtimolliklarning  $P(A/A_i)$  yig‘indisi 1 ga teng bo‘lmasligi mumkin, ya‘ni.  $\sum_{i=1}^n P(A/A_i) \neq 1$ . Keyin  $A$  hodisasi sodir bo‘lgandagi  $A_i$  hodisasining yuzaga

kelishining shartli ehtimolligi (ya'ni, A hodisasi sodir bo'lishi sharti bilan) Bayes formulasi bilan aniqlanadi:

$$P(A_i/A) = \frac{P(A_i) \cdot P(A/A_i)}{P(A_1) \cdot P(A/A_1) + P(A_2) \cdot P(A/A_2) + \dots + P(A_n) \cdot P(A/A_n)}$$

Va bu shartli ehtimollar uchun  $\sum_{i=1}^n P(A_i/A) = 1$ .

**Misol.** Bemorni dastlabki tekshirishda 3 ta tashxis-  $A_1, A_2, A_3$  qo'yildi. Ularning ehtimolliklari, shifokorning fikriga ko'ra, quyidagicha taqsimlanadi:  $P(A_1) = 0,5$ ;  $P(A_2) = 0,17$ ;  $P(A_3) = 0,33$ . Shuning uchun birinchi tashxis taxminiy ko'rinadi. Bunga aniqlik kiritish uchun masalan, qon tahlili tayinlanadi, unda ESRning (eritrositlarning cho'kish tezligi) o'sish kutilmoqda (A hodisasi). Oldindan ma'lum (tadqiqot natijalariga ko'ra) shubhali kasalliklarda ESRning ko'payishi ehtimoli:  $P(A/A_1) = 0,1$ ;  $P(A/A_2) = 0,2$ ;  $P(A/A_3) = 0,9$ .

Olingan tahlilda ESR ning o'sishi qayd etildi (A hodisa ro'y berdi). Keyin Bayes formulasi bo'yicha hisob-kitoblar ESR ko'rsatkichi oshgan da'vo qilingan kasalliklarning ehtimollik qiymatlarini beradi:

$$P(A_1/A) = \frac{P(A_1) \cdot P(A/A_1)}{P(A_1) \cdot P(A/A_1) + P(A_2) \cdot P(A/A_2) + P(A_3) \cdot P(A/A_3)}$$

$$P(A_1/A) = \frac{0,5 \cdot 0,1}{0,5 \cdot 0,1 + 0,17 \cdot 0,2 + 0,33 \cdot 0,9} = 0,13;$$

$$P(A_2/A) = 0,09; P(A_3/A) = 0,78.$$

Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, laboratoriya ma'lumotlarini hisobga olgan holda eng haqiqiy birinchi emas, balki uchinchi tashxis bo'lib, uning ehtimoli hozir ancha yuqori bo'lib chiqdi.

Yuqoridagi misol Bayes formulasidan foydalanib, tashxis qo'yishda shifokor mantig'ini qanday rasmiylashtirish va buning natijasida kompyuter diagnostikasi usullarini yaratishning eng oddiy tasviridir.

**Misol.** Anatomik jihatdan tos suyagi tor ayollarda bolaning perinatal (perinatal davr homiladorlikning 28-haftasidan boshlab homilaning intrauterin rivojlanishini, tug'ilish davri va bolaning hayotining birinchi 7 kunini o'z ichiga oladi) o'limi xavfi darajasini baholaydigan ehtimollikni hisoblang.

**Yechish.**  $A_1$  – muvaffaqiyatli tug'ilish; klinik hisobotlar ko'ra,  $P(A_1) = 0,975 = 97,5\%$ , agar  $A_2$  – perinatal o'lim bo'lsa, keyin  $P(A_2) = 1 - 0,975 = 0,025 = 2,5\%$ .

$A_{ni}$  – tug'ruq paytida ayolda tor tos suyagi mavjudligi bor deb belgilaymiz. O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lumki: a)  $P(A/A_1)$  – tor tos suyagi bilan muvaffaqiyatli tug'ilish ehtimoli,  $P(A/A_1) = 0,029$ , b)  $P(A/A_2)$  – ehtimollik perinatal o'limda tor tos suyagi ehtimolligi,  $P(A/A_2) = 0,051$ . Keyin tug'ruq paytida

ayolning tor tos bo'shlig'ida perinatal o'limning istalgan ehtimoli Bayes formulasi yordamida hisoblanadi va quyidagilarga teng:

$$P(A_2/A) = \frac{P(A_2) \cdot P(A/A_2)}{P(A_1) \cdot P(A/A_1) + P(A_2) \cdot P(A/A_2)}$$
$$P\left(\frac{A_2}{A}\right) = \frac{0.025 \cdot 0.051}{0.975 \cdot 0.029 + 0.025 \cdot 0.051} = 0.44 = 4.4\%$$

Shunday qilib, anatomik jihatdan tor tosda perinatal o'lim xavfi o'rtacha xavfdan sezilarli darajada yuqori (deyarli ikki marta) (4,4% ga nisbatan 2,5%).

Odatda kompyuter yordamida amalga oshiriladigan bunday hisob-kitoblar u yoki bu og'irlashtiruvchi omil mavjudligi bilan bog'liq xavfi ko'tarilgan bemorlar guruhlarini shakllantirish usullarining asosini tashkil qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Т. Рахимов. Современное состояние биофизики и особенности преподавания биофизики в медицинском вузе. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences. Italia © Sp. Z o. O. "CAN", 2021 © Authors, 18-27.
2. Б.Т. Рахимов, М.И. Базарбаев, А.З. Собиржонов Состояние проблемы подготовки студентов-медиков к решению профессиональных задач в обучении биофизике. New Day in Meditcina. [www.bsmi.uz](http://www.bsmi.uz) <https://newdaymedicine.com> E: [ndmuz@mail.ru](mailto:ndmuz@mail.ru). 4/54/200-207
3. М.И. Базарбаев, Д.И. Сайфуллаева, Б.Т. Рахимов, З.Р. Жўраева Роль информационных технологий в медицине и биомедицинской инженерии в подготовке будущих специалистов в период цифровой трансформации в образовании. 10.10.2022. ТТА. Ахборотномаси. 8-13.
4. Bobur Rahimov. Innovative technologies in teaching biophysics. Дата публикации 2021/4/24 Издатель Tashkent medical academy Описание This article provides information on innovative technologies used in the teaching of biophysics and their importance.
5. Б.Т. Рахимов. The role of innovative educational technologies in teaching biophysics. Research and education. 2023. Issn: 2181-3191 volume 2 | issue 3 | 202 91-99.
6. Б.Т. Рахимов, Х.А. Мухитдинов, З.Р. Жўраева. Алгоритм обучения биофизике с использованием инновационных образовательных технологий. 30.03.2023 Innovative Development in Educational Activities issn: 2181-3523 volume 2 issue 6 2023. 191-200.
7. M.I.Bazarbayev, B.T.Raximov, A.Z.Sobirjonov, D.I.Sayfullayeva, Z.R.Jurayeva, S.I.Ixrorova The Importance of Digital Technologies in the Teaching of Fundamental Sciences in Medical Universities. American Journal of Medicine and Medical

Sciences. American Journal of Medicine and Medical Sciences 2023, 13(6): 814-820  
DOI: 10.5923/j.ajmms.2023.13.06.09

8. Бобур Рахимов, Зиёда Жураева. Методика обучения информационным технологиям в высших медицинских учебных заведениях. Educational Research in Universal Sciences. 2-том. Страницы 4-13. 2023/2/27.

9. ВТ Рахимов, АЗ Собиржонов, ИБ Зупаров, ЗР Жураева. Роль инновационных образовательных технологий в обучении биофизике. Educational Research in Universal Sciences. 2-том. Страницы 4-13. 2023/4/27.

10. Bobur Raximov, Umida Abdujabbarova. The importance of physical and biophysical processes in the study of medicine. ТТА Ахборотномаси. ISSN:2181-7812. URI:<http://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/5762>. 30-Dec-2022

11. В.Т. Raximov. Tibbiyotda ximiya terapiya jarayonini matematik modellashtirish masalasalasi. XXXIV Міжнародної наука-практичної інтернет-конференції. Том 33, Номер 34, Страницы 603-608. 2014/04/30

12. Bozarov U.A., Maxsudov V.G., Ermetov E.Ya., Norbutayeva M.K., Abdullayeva N.U. Tibbiyot sohasida differensial tenglamalarning qo'llanishi-Toshkent ТТА ахборотномаси-2023, №7 12-15.

13. M Bazarbayev, U Bozarov, V Maxsudov, E Ermetov. Application of differential equations in the field of medicine. International Journal of Engineering Mathematics: Theory and Application-2023

14. U.A. Bozarov Sh.M. Mirakhmedov [Remarks on the Pitman's Efficiency of Goodness of Fit Tests Based on Grouped Data](#). Uzbek Mathematical Journal - 2022

15. I.A. Golenova Fundamentals of medical statistics. Vitebsk – 2017

## TALABALARNING KREATIVLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARINI NAZARIY ASOSLASH

Quvvatova Mohira Hikmatullayevna

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

### ANNOTATSIYA

Bo'lajak pedagogik ta'lim bakalavriatlarining kreativligini rivojlantirish jarayoni yetarli bilim, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lmaganligi sababli ilmiy asoslash va uslubiy ta'minlashni talab qiladi. Shuning uchun ham shu maqolamizni shu mavzuda bayon etishga harakat qildik.

**Kalit so'z:** bilim, ko'nikma, malaka, kreativlig, pedagogik yo'nalish, Ijodkorlik, divergent, kompetensiya.

Hozirgacha konsepsiyalarni belgilash masalasi munozarali bo'lib qolmoqda. "Ijodkorlik" va "kreativlik". Dastlab, ko'pchilik tadqiqotchilar kreativlikni ijod psixologiyasini o'rganishga umumiy yondashuv doirasida ko'rib chiqdilar. T.A.Rebeko yozganidek, ijodkorlikni o'rganishda ikkita yondashuv mavjud: birinchisi ijodkorlik va ijodning mohiyatini belgilaydi, ikkinchisi ijodkorlik nuqtai nazaridan ijodning mohiyatini tavsiflaydi. Kreativlikning zamonaviy xorijiy tadqiqotlarida turli xil yondashuvlar mavjud. N.M. Gnatko "ijodkorlik" va "kreativlik" tushunchalarini ajratib, ularni hodisalarning yagona doirasining ikki tomoni sifatida belgilaydi, bunda ijodkorlik bu birlikning protsessual-mahsulotli tomoni, kreativlik esa sub'ektni shartlashtiruvchi tomoni hisoblanadi. Bugungi kunda xorijiy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda "kreativlik" tushunchasiga juda ko'p ta'riflar mavjud: J.Gilford kreativlikni obektning funksiyalarini qayta ko'rib chiqish, undan yangi miqyosda foydalanish qobiliyati deb hisoblaydi. Uning fikricha, konformizm kreativ shaxsga xos emas. Bu unga boshqa odamlar kulgili ko'rinishdan qo'rqib, kirishga jur'at etmaydigan yo'llarni o'rganishga imkon beradi, kreativ odam hayot va jamiyat haqidagi g'oyalarda, shuningdek, o'z harakatlarining ma'nosi haqida ozgina dogmatizm va noaniqlik bilan ajralib turadi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida u kreativlikning rivojlanishiga genetika emas, balki inson tarbiyalangan madaniyat katta ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga keldi va eksperimental ravishda isbotladi: kreativlikni maxsus trening orqali olib tashlash mumkin. Shunday qilib, ushbu formulaga ko'ra, kreativlik mezoni natijaning sifati emas, balki ijodiy mahsuldorlikni faollashtiradigan xususiyatlar va jarayonlardir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Hikmatullaevna, M. K. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 571-574.
2. Quvvatova, M. (2022). PEDAGOGIK TA'LIMNING BO'LAJAK BAKALAVRLAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH KONTEKSTIDA TAYYORLASHDAGI KASBIY XUSUSIYATLAR. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 1(27), 29-31.
3. Quvvatova, M. (2022). LEARNING TO DEVELOP THE CREATIVITY OF HIGHER EDUCATION STUDENTS. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(28), 131-134.
4. M Quvvatova, F Kholmuminova (2023). Development of creativity of students of higher educational institutions pedagogical justification *International Conference On Higher Education Teaching* 1 (3), 110-111
5. QM Hikmatullayevna (2022). TO DEVELOP THE CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION IMPORTANCE TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 2 (12), 262-264
6. M Quvvatova, R Abdusalomova (2023). REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BASED ON A COMPETENCE-BASED APPROACH *Наука и инновация* 1 (9), 137-139
7. Quvvatova M.H. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS PEDAGOGICAL JUSTIFICATION "Экономика и социум" 1 (Выпуск №5(108) (май, 2023).), 278-280
8. Quvvatova, M. (2022). WAYS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Models and methods in modern science*, 1(18), 4-7.
9. Quvvatova, M. H., & Alisherova, S. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI O'STIRISHDA LUG 'AT ISHINING AHAMIYATI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 472-474.
10. X Nuritdinova "МАКТАБГАЧА TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNI МАКТАБ TA'LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI" *Евразийский журнал академических исследований* 2022/3/17 <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1492>
11. X Nuritdinova "SHAXSNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY VAZIFALARI" *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar* 2022/12/15 <https://zenodo.org/record/7445514>

12. XN Nuritdinova. “KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING MUTAXASSISNI KASBIY SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI” Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. 1, № 7, 158-160, 2022.12.15
13. X Nuritdinova. “MULOQOT MUAMMOLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MAZMUN TAVSIFI” «zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot» Nomli Ilmiy, Masofaviy, Onlayn Konferensiya, 1(28), 135–137. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7445534>
14. XN Nuritdinova. “TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI” Educational Research in Universal Sciences, 2, № 9, 212-214, 2023.9.21
15. X Нуритдинова “Общетеоретические аспекты определения содержания образования и проектирования педагогической науки” Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education 1, № 6, 151-154 2023.5.17
16. ST Xabilova, M Nazarova “MENTAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN” Innovative research in modern education 97-99 2023.5.17 <http://aidlix.com/index.php/ca/article/view/651>
18. S Xabilova “EDUCATION OF FUTURE PRESCHOOL TEACHERS IN A MODERN SPIRIT” International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research 3(4) 132-135 2023.4.26 <http://www.researchcitations.com/index.php/ibmscr/article/view/1234>
20. Xabilova, S. (2023). THE PECULIARITY OF FORMING THE PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE OF EDUCATORS. Educational Research in Universal Sciences, 2(6), 202–204. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3373>
21. Xabilova, S. T. qizi, & Nazarova, M. (2023). TARBIYA TURLARI VA ULARNING SHAXS KAMOLOTIGA TA’SIRI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 94–96. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3809>
22. Xabilova, S. T. qizi, & Payg‘amova, H. (2023). PEDAGOG - TARBIYACHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 100–102. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3811>
23. Xabilova, S. T. qizi, & Ziyodullayeva, M. (2023). HOZIRGI JAMIYATDA TARBIYACHI SHAXSIGA QO‘YILADIGAN TALAB VA VAZIFALAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 97–99. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3810>
24. Xabilova, S. T. qizi. (2023). BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 215–218. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3731>



25. SA Abdullayev “МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI” Educational Research in Universal Sciences 2(4) 1168-1171 2023.6.16 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3036>
26. Abdullayev , S. (2022). A MODERN APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF RESEARCH ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN. International Bulletin of Engineering and Technology, 2(11), 25–26. Retrieved from <https://internationalbulletins.com/intjour/index.php/ibet/article/view/143>
27. METHODOLOGY OF LEARNING THE SPEECH OF STUDENTS WITH SPECIAL NEEDS IN THE CONDITIONS OF INCLUSIVE EDUCATION MA Buriboyevna Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (12), 147-151
28. Conditions For Planning The Educational Process In A Preschool Institution With Compensatory Groups AM Buriboyevna Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 1 ...
29. Recommendations for Improving the Quality of Preschool Education through an Assessment System AM Buriboyevna Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 1 ...
30. ЭКОЛОГИК ЎЙИНЛАР ОРҚАЛИ МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ КОГНИТИВ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ: [https://doi.org/10.53885 / edinres. 2022.10. 10.026](https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.026) Астанақулова Манзура Бўрибоевна ...
31. МБ Астанақулова Образование и инновационные исследования международный научно-методический ...
32. IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING THE SUBJECT OF PRESCHOOL EDUCATION MANAGEMENT A Manzura Open Access Repository 4 (3), 561-567
33. TA'LIMDA BOSHQARUV FAOLIYATI VA MENEJMENTNING IJTIMOIY OMILLARI M Astanakulova, J Shahina Journal of new century innovations 28 (5), 73-78
34. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ МЕНЕЖМЕНТИ ФАНИНИ О'ҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRIS A M. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ 2 (307-311), 307-311
35. G'afforova , X. Y., & Jumayeva , S. B. qizi. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY URF-ODATLARNI SHAKLLANTIRISHDA МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARINING O'RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 51–53. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3801>

36. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING O‘RNI VA AHAMIYATI  
XY G‘afforova, X Raximova Educational Research in Universal Sciences 2 (9), 195-198
37. Content and Conditions of Pedagogical Work on the Development of Speech for Children from Birth to Five Years GH Yangiboyevna EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY 2 (1), 81-83 10 2022
38. The role and importance of the family in the development of creative skills through introducing preschool children to fine literature GH Yangiboyevna 4 2022
39. INNOVATSION TA‘LIM FAOLIYATI JARAYONIDA MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH GH Yangiboyevna “Fizika va texnologik ta‘lim” jurnali 11 (4), 159-162

## SPORTCHILAR FAOLIYATI DAVOMIDA XORIJIY TILLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Ulug'bek Ergashev**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiyali o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sportchilar faoliyatida xorijiy tillarni o'rni va ahamiyati haqida soz borgan. Xorijiy tillarni biladigan sportchilar va murabbiylar jurnalistlar bilan yaxshiroq muloqot qilishlari va ularning chiqishlari, yutuqlari va rejalari haqida ma'lumot berishlari mumkin ekanligi ko'plab faktlar orqali yoritib berilgan.

**Kalit so'z:** globallashuv, tasavvur, fikrlash, tasavvur, fan, siyosat, sport, madaniyat, san'at, dunyoqarash, siyosat, iqtisod, ijtimoiy hayot.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о роли и значении иностранных языков в деятельности спортсменов. Тот факт, что спортсмены и тренеры, владеющие иностранными языками, могут лучше общаться с журналистами и предоставлять информацию о своих выступлениях, достижениях и планах, подтверждается многими фактами.

**Ключевые слова:** глобализация, воображение, мышление, воображение, наука, политика, спорт, культура, искусство, мировоззрение, политика, экономика, общественная жизнь.

### ABSTRACT

This article talks about the role and importance of foreign languages in the activities of athletes. The fact that athletes and coaches who know foreign languages can better communicate with journalists and provide information about their performances, achievements and plans is highlighted by many facts.

**Key word:** globalization, imagination, thinking, imagination, science, politics, sport, culture, art, worldview, politics, economy, social life.

### KIRISH

Hozirgi vaqtda chet tillarini o'rganish zamonaviy inson hayotining muhim jihati hisoblanadi. Chet tili bizga boshqa mamlakatlar madaniyati va urf-odatlarini bilan tanishish imkoniyatini beradi, fikrlash, tasavvur va xotirani rivojlantirishga yordam beradi. Uning bilimlari davlatlarning hayotning ko'plab sohalarida (fan, siyosat, sport,

madaniyat, san'at va boshqalar) bir-biri bilan samarali o'zaro ta'siri uchun zarurdir. Hozirgi kunda chet tilini bilish kasbiy kompetentsiyaning shartlaridan biridir.

"Mars-Express" asboblari yordamida Mars atmosferasida metan aniqlandi. Marsni o'rganishdan tashqari, qurilma doimo yaqinlashib kelayotgan Phobos haqida juda ko'p ma'lumotlarni to'playdi. 2003-yil 10-iyunda "Mars rover Spirit NASA Mars Exploration Rover" loyihasi doirasida ishga tushirildi, u Delta-2 uchirish vositasidan foydalangan holda, 3-yanvar 2004-yilda Marsga qo'ndi. Uning faoliyati davomida Ruh 7.73 kilometrni tashkil etdi va rejalashtirilgan masofani 12 martadan ortiq qopladi. Rover kameralari 124 mingdan ziyod suratlarni sayyoramiz tomon yubordi. Spektrometr va mikroskop yordamida 100 ga yaqin tosh namunalarini tekshirdi. 2009-yilda roverning oltita g'ildiraklari ikkitasini kesib tashlandi, statsionar tadqiqot moduliga aylandi.

So'nggi muvaffaqiyatli muloqot sessiyasi 2010-yil 22-mart kuni bo'lib o'tdi. 2011-yil may oyining oxirida NASA Aviatsiya va kosmik aviatsiya agentligi Spirit rover missiyasining bajarilishini rasmiy ravishda e'lon qildi.

2003-yil 7-iyulda "Fursat" roynomasi Amerika Qo'shma Shtatlarida "NASA Mars Exploration Rover" loyihasi doirasida "Delta-2" uchirish vositasi yordamida ishga tushirildi. Ish vaqtida samolyot dasturlarining bir necha "takomillashuvi" o'tdi. Fursat dunyoning sayyorasida uch oy mobaynida ishladi, lekin bu kosmik apparat hali ham ishlaydi.

2007-yil 4-avgust kuni Amerikaning "Feniks" avtomashinasi "Delta-2" uchirish vositasi yordamida ishga tushirildi. Qurilmaning Mars yuzasiga qo'nish jarayoni 2008-yil 25-may kuni bo'lib o'tdi. Qurilma Marsda suv izlash uchun mo'ljallangan. Feniks probi tufayli sayyoramiz atmosferasida tuproq va atmosfera o'rtasida yetarlicha kuchli suv almashinuvini aniqlash mumkin edi. Uning vazifasi davomida apparat unga yuklangan barcha vazifalarni bajardi va dastlab rejalashtirilganidan deyarli ikki oydan ko'proq ishlashga muvaffaq bo'ldi. Qurilma bilan oxirgi aloqa sessiyasi 2008 yil 2 noyabrda bo'lib o'tdi, shu yilning 10 noyabrida missiya e'lon qilindi. Olimlar Qizil sayyoradagi barcha kashfiyotlarni Marsda ishlash yiliga tasdiqlashdi.

2013-yil 5-noyabrda Hindistonda Mangalyan probasi (Mangalyaan) bilan PSLV C25 raketasi Satish Dhawan kosmodromidan Marsni kashf etish uchun ishga tushirildi.

Prob samolyotning raketasidan muvaffaqiyatli ajralib chiqib, Yerning orbitasiga tushdi. 2013 yil 1 dekabr kuni u Yerning orbitasidan chiqib, Marsga uchadigan parvoz yo'lini bosib o'tdi. Proba 2014-yil sentabr oyida yaqin Mars-orbitaga tushishi kerak. Missiyaning asosiy maqsadi - "sayyoralararo missiyalarni loyihalashtirish, rejalashtirish, boshqarish va amalga oshirish" uchun zarur bo'lgan texnologiyalarni sinovdan o'tkazish.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida yuqoridagi ma'lumotlardan unumli foydalanib o'quvchilarni mavzuga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. M. Qosimov. Astronomiyadan ma'lumotnoma. Toshkent. 2014
2. Енохович А.С - «Справочник по физике». Москва. «Просвещение» 1978.
3. Будько А.И - Весь мир в цифрах и фактах. Универсиальный справочник. Моква. «Рипол Классик» 2001.
4. NASA rasmiy sayti - [www.nasa.gov](http://www.nasa.gov) materialлари.

## THE LAWS OF THE UNIVERSE AND MICROWORLD

**Zakirov Mamajon**

Jizzakh State Pedagogical University

candidate of physical and mathematical sciences

### ABSTRACT

This work deals with the laws of the universe and the microworld .


**Keywords:** space, Sun system, Sun system, microworld.

The elementary particle physics section of physics studies all the processes that occur in the microworld, that is, in the physics of elementary particles, their characteristics, their interactions, and the types of interactions between them. We will talk about elementary particles related to the microcosm, the history of the development of **elementary** particle physics, the concept of elementary particles, classification of particles, types of interactions, and characteristics of particles.

Information about how the universe is structured is determined by studying the long distances that can be observed using human-made instruments. If these distances are described in units of light years used in astronomy (1 light year= $9.5 \cdot 10^{12}$  km or  $\sim 0.3$  parsec, 1 parsec  $\sim 3.1 \cdot 10^{13}$  km), the distance to the most distant objects is 5000 million parsecs or 15 billion light years! The observed universe today consists of a collection of huge stars - galaxies and gases in the interstellar medium. Actually, the universe consists of matter and radiation.



The radiation era of the development of the universe is very important. It was during this period that heavy nuclei, the basis of the elements that make up D. Mendeleev's periodic system, began to appear. This process is called nucleosynthesis. The lightest nucleus, the proton, appeared 10 seconds after the beginning of the universe. During this period, the temperature and density of the Universe was large

enough for the fusion of deuterium - a nucleus consisting of two nucleons, which was formed as a result of the collision of a proton and a neutron.




Here  $Q = 2.2 \text{ MeV}$  is the energy released in this fusion reaction. Then, within 10-15 minutes, the reaction of  ${}^2\text{H}$  deuterium into  ${}^3\text{H}$  tritium, followed by the formation of a  ${}^3\text{He}$  helium nucleus from deuterium and tritium took place. According to the calculation results, helium made up 24 percent of all nucleons. The results of the current observation also emphasize this.


The extremely high temperature of the early universe caused particles to collide and transform into other particles. For example, an electron and a positron pair were created from two photons, and their mutual collision (the collision of a particle and an antiparticle is called annihilation) leads to the creation of more photons.



Neutrino ( $\nu$ ) and of antineutrinos ( $\bar{\nu}$ ). appear to be even possible has been



The collision of a neutrino and an antineutrino, in turn, created a pair of electrons and positrons. At extremely high temperatures, particles collide and transform into other particles like a boiling "soup" in which the number of particles and antiparticles in the "soup" is equal. Along with this Universe comes the existence of the Antiuniverse.



Schematic representation of nucleosynthesis in stars.



Elementary particles related to the microcosm, the history of the development of **elementary** particle physics, the concept of elementary particles, classification of particles, types of interactions, and characteristics of particles are described based on a historical approach. Issues that need to be addressed for future integration of interaction types are discussed. The structure of the universe is divided into mega and micro worlds.

So, education if it is explained in the institutions of the natural-scientific landscape of the world on the scale of micro-, macro- and mega-worlds in a scientific-popular way, relying on the latest theoretical and experimental data, future students will enter higher education in the world he can come knowing the current situation .

### **REFERENCES**

1. A. Satorov . Astrophysics Part I Tashkent. Turan-Iqbal . 2007
2. Astrophysics . Educational and methodological complex. JDPU
3. [www. phys. ru](http://www.phys.ru).
4. [www. google. ru](http://www.google.ru).

## ANALYSIS OF SOME ASPECTS OF ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION

**Saparova Ayzada Alauatdin qizi**

doctoral student at Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

### ABSTRACT

It is important to implement a special approach to the organization of independent educational activities of students, in which the personal approach is often carried out on the basis of selection through the content of the proposed tasks. In this article, the author reflects on the improvement of educational efficiency and the development of their cognitive abilities by students of higher educational institutions today through independent education.

**Keywords:** independent education, independent work, educational system, independent activity, higher education, analysis, result, experience, student.

### INTRODUCTION

Development trends in the field of world education show the urgency of introducing a modern system of education in the information society and further increasing their efficiency. Scientific approaches to the formation of the global educational environment specific to European countries show that ensuring the continuity and practical orientation of education, independent education, orientation to creative development, the creation of a modern education system and the improvement of mechanisms for their use in the active development of new formats of education are of particular importance.

### MATERIALS AND METHODS

The skills of independent thinking, which are necessary to come to a certain solution to the set problems and tasks and to choose its optimal option, are formed and strengthened in the process of independent creative work. One of the important factors of training highly qualified personnel is to increase the quality and efficiency of education. In improving the quality and efficiency of education, modern methods, forms and tools of teaching, problem teaching, in particular, non-traditional methods of independent work also play an important role. The modern educational process consists not only of imparting knowledge to these students, developing their thinking ability, and forming educational skills for using the acquired knowledge, but it also consists of teaching them to search for independent knowledge, to teach them the forms, methods, and means of acquisition.

## RESULTS AND DISCUSSION

In the process of independent education, didactic conflict forms and tools are set as a means of independent work education and a form of teaching, as well as scientific knowledge.

Achieving the complete unity of these two sides, if each independent work forms the task of clear knowledge, then learning basically loses its developmental and teaching tasks.

Solving the task allows the teacher to appropriately manage the student's learning process and exercise the necessary control.

We consider independent learning to be a learning tool that [2]:

- corresponds to the didactic system;
- at each stage of the teacher's movement from knowledge to knowledge, he forms the volume and level of knowledge, skills and qualifications necessary to solve a specific audience of knowledge tasks and, accordingly, moves from low to high levels of mental activity;
- develops psychological attitude to students' knowledge independence and activities;
- done by the students themselves,
- enables an individual approach to the educational process.

In the educational process, independent education acts as a means of activity activation and performs the following tasks [3]:

1. Independent education helps to consciously acquire, deepen and expand creative knowledge;
2. Existing skills for creative learning of the subject are improved and new ones are developed,
3. The student's independent actions understand the methods of scientific knowledge of a particular subject, acquire the necessary skills of creative knowledge.

This is the most elementary stage of educational knowledge, in which thinking and knowledge enter into an initial relationship. In this case, the activity of students is low, and knowledge independence can be formed only at the lowest level - at the level of creative independence.

The main goals of independent education of students are [4]:

- acquiring new knowledge acquisition methods, being able to independently analyze processes;
- strengthening, deepening, expanding and organizing the knowledge acquired in classroom training;
- learning to work with regulatory and legal acts, information and special literature;

- independent study of educational materials;
- development of activity, knowledge acquisition, creative initiative, responsibility and order;
- formation of the ability to apply the acquired knowledge in practice;
- independent thinking, self-development, forming the implementation of one's own plan, etc.

### CONCLUSION

Striving to independently acquire knowledge in any field is the most distinctive feature of student activity in an educational institution, the basis of independent study and knowledge acquisition. Independent learning and control in the educational system is one of the main factors of independent education. In getting independent education, first of all, it is necessary to form the need for independent work, free, creative activity and, most importantly, independent thinking in students. In general, educational-methodological support of the science, introduction of digital educational resources into the educational process of the higher educational institution creates an opportunity for the development of educational education, independent guidance of students, and it is necessary to increase the share of independent education of students in the educational processes of higher educational institutions.

### REFERENCES:

1. Usmanov B.Sh., Khabibullaev R.A. Organization of the educational process in higher educational institutions in the credit-module system. Study guide. T.: —Tafakkur publishing house, 2020. 120 pages
2. Abdumalik o'g'li, O. R. Cultural Comparison of Uzbek and English Language Speech Styles.
3. Ортиқов, Р. А. Ў. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ «СИНЕКДОХИ» КАК СТИЛИСТИЧЕСКОЙ ФИГУРЫ. Scientific progress, 4(5), 313-319.
4. Abdumalik o'g'li, O. R. (2023). Theoretical Aspect of "Synecdoche "As a Stylistic Figure. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(4), 249-254.
5. Abdumalik o'g'li, O. R. (2021). THE BRIEF INVESTIGATION OF CONTEMPORARY SPEECH STYLES OF THE ENGLISH LANGUAGE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1280-1283.
6. Rustamjon, O., & Shahboz, M. Y. (2022). Websites as Support Tools for Learning the English Language in Fergana State University. Czech Journal of Multidisciplinary Innovations, 4, 38-46.

7. Ortiqov, R. (2022). FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETIDA INGLIZ TILINI O‘RGANISH UCHUN YORDAM BO‘LADIGAN INTERNET VEBSAYTLAR. *Science and innovation*, 1(B6), 530-535.
8. BO, I., & TAVSIYALAR, Y. Ortiqov–Farg ‘ona davlat universiteti o ‘qituvchisi. FARG ‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 128.
9. Ortiqov, R. (2022). STRUCTURAL AND SEMANTICAL FEATURES AND DIFFERENCES OF ORAL AND WRITTEN SPEECH. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(9), 438-442.
10. Эшанова, Г. Н. (2018). К вопросу толерантности в исламском учении. Редакционная коллегия, 182.
11. ESHANOVA, G. (2022). THE IMPORTANCE OF VALUES IN INCREASING THE SOCIO-POLITICAL ACTIVITY OF YOUTH. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 173-176.
12. Bazarova, D. B. (2023). ON THE USE OF ALTERNATIVE WORDS. *American Journal Of Philological Sciences*, 3(05), 48-51.
13. Bozorova, D. B. (2015). Some notes of variability in the Uzbek linguistics. *Theoretical & Applied Science*, (4), 135-138.
14. Аликулова, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭПИТЕТОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АИ КУПРИНА. *Scientific progress*, 4(5), 387-390.

## BUXORO VILOYATIDAGI URUG‘ VA QABILA NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR

**Maftuna Safarova Zoir qizi**

Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

E-mail: [Safarovamaftuna21@gmail.com](mailto:Safarovamaftuna21@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada urug‘ va qabila nomlari asosida yuzaga kelgan Buxoro viloyatida bugungi kunda ham uchraydigan toponimlar xususida fikr yuritilgan. Etnotoponimlarning etnik xususiyatlari hamda nomlanish sabablari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** nom, etnonim, toponim, etnotponim, urug‘, qabila, nayman, ming, qatag‘on, burqut, mang‘it.

O‘zbek nomshunosligi, ayniqsa, etnonimika sohasi jadal rivojlandi. Atoqli ot materiallarini tizimli va izchil ravishda to‘plash, ularni ilmiy asosda tahlil qilish o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Endilikda, o‘zbek etnonimlarining materiallari qoniqarli ravishda to‘plangan va tadqiq qilinganini, deyarli barcha viloyatlar, bir qator tumanlar etnonimiyasi ilmiy asosda o‘rganilganligini qayd etish mumkin.

Etnonimiya sohasida shu vaqtga qadar bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, turkiy etnonimlarni ilmiy jihatdan o‘rganish bilan bir qator rus va Yevropa olimlari shug‘ullanishgan. Bular qatoriga N.A.Aristov, L.Z.Budagov, N.N.Muravyov, V.V.Radlov, M.N.Galkin, G.Vamberi, K.Bades kabi olimlarni kiritish mumkin.

XX asrda turkiy, jumladan, o‘zbek etnonimlarining tarixi va etnografik xususiyatlari taniqli tarixchi va sharqshunoslardan B.Bartold, L.S.Tolstova, Y.G‘ulomov, D.X.Karmisheva, B.Ahmedov, A.Muhammadjonov, K.Shoniyozov va boshqalar tomonidan yoritilgan.

O‘zbek etnonimlarini lingvistik nuqtayi nazaridan to‘laqonli tadqiq qilingan deyish qiyin. Bu masalaga oid ba‘zi ilk kuzatishlar X.Doniyorov, A.Ishayev, A.Otajonovning ishlarida uchraydi. Ushbu olimlarning ishlarida ham etnonimlar, asosan, etnografik va tasniflash nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan<sup>1</sup>.

Yuqoridagi asarlar va nomlari sanab o‘tilgan olimlarimizning ilmiy izlanishlaridagi etnonimlar asosida shakllangan toponimlar anchani tashkil etadi. Qabila va urug‘lar yashab o‘tgan joylar aholi istiqomat qiladigan hudud nomiga

<sup>1</sup> Маркаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Автореферат. –Т.: 2007. 4-6.

ko'chgan va ular bugungi kun qadar yashab kelmoqda. Bularni etnotoponimlar sifatida o'rganib kelmoqdamiz.

Etnonim asosida shakllangan etnotoponimlar toponimikaning bir bo'limi sifatida o'rganilmoqda. Bu esa o'z navbatida, o'zbek nomshunoslik sohasining yanada kengayishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonning boshqa viloyatlari singari Buxoro viloyati hududida ham qadimgi davrlardan boshlab turli xalq, elat va qabilalar istiqomat qilib kelgan. Ma'lumotlarga qaraganda, bu hududda turkiy qavmlarning o'ndan ortig'iga mansub aholi yashagan<sup>1</sup>. Biz quyida Vobkent tumani misolida qabila va urug' nomlari asosida shakllangan joy nomlarini ko'rib o'tamiz:

**Qatag'on.** Buxoro viloyati hududida qatag'on etnonimi asosida hosil bo'lgan quyidagi toponim(lar) mavjud: **Qatag'an** (G'ijduvon tumani Havzak MFY), **Qatag'on** (Romitan tumani Taranut MFY), **Yuqori Qatag'an** (Vobkent tuman), **Sharqiy Qatag'on** (Vobkent tuman).

Qatag'onlar – o'zbeklar tarkibidagi yirik qabila. Afg'oniston shimoliy tumanlari (Qunduz va Toshqo'rg'on), Tojikiston (Ko'hitang tog'ining sharqiy yonbag'irlari, Vaxsh, Surxon, Panj va Yaxsudaryolarining bo'ylari)da, O'zbekiston hududida, asosan, Qashqadaryoning Shahrisabz vohasi (Yakkabog' daryosining yuqori oqimi), Buxoro vohasi (Navoiy va Kattaqo'rg'on tumanlari), Xorazm, Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasida yashashgan<sup>2</sup>.

**Burqut** – qishloqning tarixiy nomi. Qo'ri, Tumat kabi bir-biriga yaqin qabilalar hisoblanib, umumiy nom bilan burqut deb atashgan. Tarixchi olim Rashididdinning fikricha, "Burqut" so'zining asli kelib chiqishi Borgujin to'qim so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "daryoning naryog'i" degan ma'noni anglatgan.

**Mang'itlar.** Buxoro viloyati hududida mang'it etnonimi asosida hosil bo'lgan quyidagi toponim(lar) mavjud: **Mang'it** (Jondor tuman), **Mang'iton** (Buxoro tumani Sohibkor MFY), **Mang'itlar** (Peshko' tuman Quchoq MFY), **Mang'itondiyor** (G'ijduvon Firishkent MFY), **Mang'itonobod** (G'ijduvon Firishkent MFY).

Mang'it etnonimi xususida Milliy ensiklopediyada quyidagicha fikrlar uchraydi: Buxoro amirligini boshqargan sulola (1757-1920). Uning vakillari mang'it qabilasiga mansub bo'lganlar<sup>3</sup>.

**Qipchoq** – XVI asrda Shayboniyxon bilan kelgan qabilalardan biri. Turkiy qabilalarning yirik bo'g'ini. O'g'iz itbaroq qabilasidan yengilib chekinayotgan vaqtida eri urushda o'lgan bir xotinini to'lg'oq tutib qoladi. Katta bir daraxtning kavagida ko'zi

<sup>1</sup> Қиличев Б. Бухоро этнотопонимлари ва уларнинг этимологик хусусиятлари. Бухоро, 2018.

<sup>2</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: Давлат миллий нашриёти. 2004.

<sup>3</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: Давлат миллий нашриёти. 2004. 5-жилд, 456-бет.

yoriydi. Buni eshitgan O'g'iz xotinga achinib, bolani o'ziga o'g'illikka oladi va ismini Qipchoq deb qo'yadi. Rashididdin fikricha, qipchoq so'zi turkcha "qobiq" so'zidan olinib, hamma qipchoqlar ana shundan tarqalgan emish<sup>1</sup>.

**Minglar.** Buxoro viloyati hududida ming etnonimi asosida hosil bo'lgan quyidagi toponim(lar) mavjud: **Minglar** (Vobkent tuman; Romitan tumani Taranut MFY), **Mingon** (Shofirkon tumani Bobur MFY), **Yuqori Minglar** (G'ijduvon tumani Tarxonon MFY).

Minglar etnonimi xususida Milliy ensiklopediyada quyidagicha fikrlar uchraydi: Minglar – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Hozirgi Samarqand viloyati, qisman Farg'ona vodiysi hamda Buxoro vohasida, tarqoq holda Surxondaryo viloyatining Boysun, Sherobod, Denov tumanlarida, Xorazmda va Tojikistonning Hisor tumanida yashaganlar. Zarafshon vodiysida yashovchi minglar 3 yirik uruqqa, bu urug'lar, o'z navbatida, yana bir qancha kichik urug'larga bo'lingan: 1) tug'ali (axmat, chag'ir, to'yinamoz, oqshiq va b.); 2) bog'lon (chibli, qora, mirzavab.); 3) uvoqtamg'ali (alg'ol, chaut, jayli, o'ramas, to'qnamoz, kiyuxo'ja, yarat) urug'lari. Minglar boshqirdlar tarkibiga ham kirgan. Qo'qon xonlari minglardan bo'lgan. Buxoro vohasida yashagan minglar ham Buxoro xonligi siyosiy hayotida faol qatnashgan<sup>2</sup>.

**Nayman** – qishloqning tarixiy nomi bo'lib, qadimiy va kuchli qabilalardan biri bo'lgan. X.Doniyorovning ma'lumotlariga qaraganda, Chingizxon davrida naymanlarning boshliqlari Buyruqxon, Tayon va Eniyatlar bo'lgan va shuning uchun ham bu qabilar bir necha tarmoqlarga bo'lingan.

Demak, inson borliqdagi narsa-hodisalarni bir-biridan farqlash uchun ularni nomlaydi. Shuning uchun ham onomastikaning har bir obykti millatning madaniyati va ma'naviyatini, boy lingvistik, etnografik hamda tarixiy xususiyatlarini o'zida mujassam etuvchi qimmatli manbadir. Etnotoponimlarning ilmiy tadqiqi bunday nomlar asosida yotgan lug'aviy birliklarning ma'noviy xususiyatlarini aniqlashtiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Т.: “Фан”, 1968, 21-б.
2. Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Номзод.диссер. автореф. –Т.: 2007. 4-б.
3. Қиличев Б. Бухоро этнотопонимлари ва уларнинг этимологик хусусиятлари. Бухоро университети ахборотлари, 2018 1-сон.
4. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2004, 4-б.

<sup>1</sup> Дониёров Х., Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Ўзбекистон ССР “Фан”, -Т.: 1968 й. 21-б.

<sup>2</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: Давлат миллий нашриёти. 2004. 5-жилд, 670-бет.



5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, 10-жилд. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2005, 615-б.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, 3-жилд. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2002, 399-б.
7. Kilichev B.E. Onomastics // Study guide. - Bukhara, Durdona, 2023. - 180.
8. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
9. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region’s typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, <http://t-science.org/> p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2021.02.05.
10. Kilichev B.E., Safarova M.Z. [The Concept of Totemism and Ethnonym.](#) Central Asian Journal of Literature, Philosophy and..., 2022.
11. Safarova M.Z. [Alisher Navoiy ijodida etnonimlarning qo‘llanilishi.](#) Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya. 2021.

## ON THE ANALYSIS OF ETHNONAMES

**Maftuna Safarova Zoir qizi**

Teacher of Bukhara State University

E-mail: [Safarovamaftuna21@gmail.com](mailto:Safarovamaftuna21@gmail.com)

### ABSTRACT

This article discusses the motivations, reasons and etymology of the names of clans and tribes. The spiritual classification in the formation of ethnonyms is shown.

**Key words:** name, ethnonym, toponym, ethnonym, clan, tribe, naiman, thousand, katagon, burgut, mangit.

It is known that people have been in different social environments, political and economic positions since ancient times, and are divided into certain groups and classes depending on this social position. Such stratification and various concepts and ideas related to it are expressed in the language using certain words. In some cases, clans and tribes were named according to the social position of the person who founded them or was the head of the clan. For example:

a) ethnonyms denoting the group of people considered to be poor, poor, that is, low-class: bare-footed, bare-headed, bangi;

b) ethnonyms representing the group of people considered to be rich, wealthy, ruling, upper class: beklar, beklartop, rich, boybicha, darkhan, mirza, malikbachcha, begish, eshankhoja, shikhlar, jabu//jabga, qazilar, ataliq.

It can be seen that the names of the groups belonging to the upper class were given by themselves in most cases, while the name of the poor, lower class ethnos was given by the representatives of the upper class. Because in these names, in addition to the real situation, the shades of contempt, discrimination, and insult are expressed.

S.Otaniyozov cites some interesting ethnonyms related to the given motive among the Turkmen ethnonyms: boytokhum (rich egg, clan of the rich), bayat, bayindir (rich, statemen), on the contrary, algachik (barefoot), achikbash (without headdress), ach, achlar (hungry), bitli (those who are hungry), kenbeli (those who live in shanties), bavatan (widower, homeless).

In addition, we can observe that ethnoses are named based on their profession and occupation. A. Otajonova noted the occurrence of clan names such as Uychi, Damirchi, Kolalalla, Maryanla, Arkanchi, Tuyachi in Khorezm ethnonyms. According to S.Otaniyozov, there are more than 150 ethnonyms related to profession in the Turkmen

language. These ethnonyms indicate that the ethnos is engaged in hunting, cattle breeding, agriculture, trade, and various handicrafts.

Among our materials are the milkman, the hare-keeper, the deer-keeper, the walker, the barker, the plowman, the beaver, the window-keeper, the saddler, the catari, the caravan, the jomachi, the hunter, the mirishkor, the hunter, the saiot, the tevachi, the tonchi, the turgok, the camel driver, the bearer, the ungur, there are ethnonyms such as Shatyrchi, Shalikor, Karavul, which provide information about the profession and occupation of the ethnic group in the past. Below we will touch on some of these ethnonyms.

Baqirchi – mang‘it qabilasining qoramang‘it bo‘limiga mansub urug‘lardan biri. Baqirchi – paqir qadimiy turkiy tilda mis tanga, pul birligi (4 gramm hajmdagi) bildirgan. Baqirchi etnonimi misga ishlov beruvchi, undan buyumlar yasovchi ma’nosida kelgan.

Baydaqchi is the name of a clan opposite to the Akmangit section of the Mangits. It is known that flag-flag-flag is a genetic word. The flag is a piece of wood with a special silk hanging on it, and it is determined by which side the soldier belongs to. The ethnic name indicates that flag bearers came from this clan.

Bovurchi - Mongol khan Temuchin founded the middle court position in the 70s of the 12th century. One of them is bavoruchi, which means the person who deals with food and nutrition of the khan. It is known that this position is also known as bakovul, waiter. There is also the karabovur clan, which is a branch of the liverwort. The suffix -chi in the ethnonym means collective, group, gang. Mergan - a sniper in the division of bells, sniper; kenagas, kovchin, mangits contain mergan seeds. This ethnonym is мeрҗан in the Turkic language, мeрҗeн in the Mongolian language is a hunter, a master shooter; derived from a word meaning wise, clever, skillful and referred to the activities of clan members.

Hunter, mirishkor, sayot - these ethnonyms are close to each other in terms of meaning. One of the Uzbek tribes is called a hunter. The meaning of the word can be seen from the meaning of the word. The word Mirishkor is a special position in the khan's court, and the person who holds this position was engaged in the hunting activities of the khan, i.e., he served as a huntsman.

B.Kh.Karmisheva also points out that the emergence of the ethnonym "mirishkor" is related to this type of training.

Turkic ethnonyms include the ethnonym sayad//sayyot//sayyotlar. This ethnic group is part of the Uzbek, Tajik and Turkmen people, and the Kenagas and Kosan Mangits have a clan with this name. Sayod//sayyot - a hunter, one engaged in hunting; is a lexeme meaning a person who organizes work related to hunting in the khan's

palace, and indicates that the representatives of the sayad//sayyot clan are related to this profession.

Karovul, Turguq - these two ethnonyms are spiritually close. The Qarovul clan is found in the Yovmut Turkmen. His representatives worked as guards in Khiva and Bukhara khanates. Turgoq is the name of one of the Turkic tribes. Abulghazi Bahadirkhan explains the original meaning of the word turgok as "guard", "guard".

### REFERENCES:

1. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Т.: “Фан”, 1968, 21-б.
2. Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Номзод.диссер. автореф. –Т.: 2007. 4-б.
3. Қиличев Б. Бухоро этнотопонимлари ва уларнинг этимологик хусусиятлари. Бухоро университети ахборотлари, 2018 1-сон.
4. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2004, 4-б.
5. Kilichev B.E. Onomastics // Study guide. - Bukhara, Durdona, 2023. - 180.
6. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
7. Kilichev B.E., Safarova M.Z. Bukhara region’s typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, <http://t-science.org/> p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2021.02.05.
8. Kilichev B.E., Safarova M.Z. The Concept of Totemism and Ethnonym. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and..., 2022.
9. Safarova M.Z. Alisher Navoiy ijodida etnonimlarning qo‘llanilishi. Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya. 2021.

## INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING TA'MINLASH SOHASIDA HUQUQIY TA'LIMNING O'RNI

Nazarov Ismoiljon Baxtiyor o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi 4-kurs

### ANNOTASIYA

Mazkur maqolada inson huquq va erkinliklarining ta'minlash sohasida huquqiy ta'limning o'rni ilmiy-nazariy tadqiq etilgan. Shuningdek, inson huquq va erkinliklarining ta'minlash sohasida huquqiy ta'limning o'rni va rolga qaratilgan ustuvor vazifalar atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** inson huquqlari, inson erkinligi, implementatsiya, majburiy mehnat, inson huquqlari deklaratsiyasi, konstitutsiyaviy islohot, malakaviy yuridik ta'lim.

Yer kurasidek ulkan ijtimoiy-siyosiy makonda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi kun sayin dolzarblashib bormoqda. Jahonning ko'plab rivojlangan demokratik mamlakatlar qatorida, so'nggi yillarda yurtimizda ham inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishga aylanib bormoqda. Buni qabul qilinayotgan davlat dasturlari va qonun hujjatlar, mustaqil va odil sudlovni ta'minlash, majburiy mehnatdan voz kechish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar misolida ham bilishimiz mumkin. Bunga yaqol misol tariqasida so'ngi yillarda bolalar majburiy mehnati yurtimizga tugatilganligi va o'tmishning uzoq vaqtlaridagi qiynoq turlarini yo'q qilinganligini ta'kidlash mumkin. Yurtimizda amalga oshirilayotgan bunday islohatlar tag zamirida inson qadri uchunligi bosh maqsad qilib olinganligi, uning xalqimiz ongida va amaliy jarayonlarida ro'y berayotganligida ham ko'rishimiz mumkin. Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash doirasida ham olib borilayotgan islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Yangi O'zbekiston – strategiyasi asarida alohida to'xtalib o'tilgan. Unga ko'ra: **“Eng asosiysi, bolalar mehnati va majburiy mehnat bartaraf etildi. Xalqaro va milliy hamkorlarimiz bilan paxta yig'im-terimi mavsumida bolalar mehnati va majburiy mehnatdan foydalanmaslik yuzasidan Milliy monitoring tizimi yaratildi. Ana shunday muhim qadamlarning natijalari jahon hamjamiyati tomonidan tan olinmoqda. Jumladan, jahonda Bolalar mehnatiga barham berish yili, deb e'lon qilingan 2021 –yilda ham doimiy**

## **hamkorimiz bo‘lgan Xalqaro mehnat tashkiloti bu boradagi sa’y-harakatlarimiz samarasini alohida e’tirof etmoqda”.[1]**

Inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash – konstitutsiyaviy islohotlarning ajralmas qismi bo‘lib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida, bir qator davlatlarning konstitutsiyalarida, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy shartnomalardagi normalar implementatsiya<sup>1</sup> qilingan. Inson huquqlarini himoya qilishning samarali tizimini mustahkamlash maqsadida Konstitutsiyada bolalarning majburiy mehnatiga barham berish, nogironligi bor bo‘lgan shaxslar, keksa avlod vakillarining huquqlarini himoya qilish masalalarini mustahkamlab qo‘yish, shuningdek, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning maqomi va vakolatlari to‘g‘risidagi qoidalar o‘z aksini topishini amalda ko‘rishimiz mumkin.

Inson huquqlari va erkinliklarining ta’minlashning eng samarali va ta’sirchan yo‘li bu inson huquqlari ta’limidir. Shu bilan birga huquqiy ta’limda xalqaro inson huquqlari markazlarining amaliy jarayonlari va nazariy bilimlarini izchil va to‘liq kiritish ham ancha samarali bo‘ladi. Chunki ta’lim, xususan, huquqiy ta’lim sabab jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksaladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksalgan jamiyatda. Inson huquqlarini paymon qiluvchi uning erkinligiga soya soluvchi omillarga va ta’sirlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Zamonaviy demokratiya boshqacha qilib aytganda fuqarolik jamiyati eng avvalo inson sha’ni va qadr qiymati daxlsiz muqaddas hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida jamiyatimizdagi demokratik prinsiplar va inson huquqlariga oid normalar belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra: **“O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hioblanadi.**

**Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.”[2]**

Bundan tashqari 2020-yil 20-iyunda qabul qilingan inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiya va 2023-yil 7-fevralda PQ-46-son Prezidentimizning qarori bilan tasdiqlangan inson huquqlari sohasidagi milliy ta’lim dasturi singari me’yoriy hujjatlar ayni inson huquqlari va erkinliklarining ta’minlashning qonuniy asoslarini mustahkamlaydi.

Yana bir nozik masala ayollar huquqlarini ta’minlash ularni turli kamsitishlar va zo‘ravonlikdan himoyalashdir. Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida xotin qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga yuksak e’tibor qaratilmoqda. Xususan 2023-yilgacha gender tengligini ta’minlash strategiyasi doirasida xotin qizlar

<sup>1</sup> IMPLEMENTATSIYA – qonun yoki qarorni amalda joriy qilish(Milliycha.uz)

va erkaklar jamiyat hayotining turli sohalarida teng huquqli bo'lishi va faoliyat yuritishiga bir xil shart sharoitlar yaratib berilmoqda.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha Respublikamizda amalga oshirilayotgan barcha ishlar inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalar va prinsiplarga muvofiq olib borilmoqda. Misol uchun O'zbekiston mustaqillikka erishgach ilk ratifikatsiya qilgan hujjati bu – "Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi." Ushbu deklaratsiyaning **6-moddasiga ko'ra: "Har bir inson qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'zining huquq sub'ekti sifatida tan olinishiga haqli".**[3] Huquq subyekti bo'lgan har bir inson daxlsizdir. Uning ijtimoiy muhofazasi qonun bilan kafolatlanadi. Jahonning ko'plab mamlakatlari qonunchiligi eng avvalo inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash asosida yaratiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy ta'limsiz imkoni yo'qdir. Chunki huquqiy ta'lim insonga huquqiy o'zligini tanishni o'rgatuvchi jarayon bo'lib huquqiy munosabatlarni barqaror bo'lishida xizmat qiladi. Bugungi kunda milliy ta'lim tizimida huquqiy fanlarni o'qitish va huquqiy ta'lim berish masalasi ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi. Afsuski, huquqiy ta'limga oid ayrim muammolar mavjud. Birinchidan, fuqarolar orasida o'z haq huquqlarini bilmaslik, shuningdek ba'zi fuqarolar haq huquqlarini bilsalarda talab qilishda qo'rquv stratipini borligi huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasini tushuruvchi omil hisoblanadi. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa hollarda fuqarolarning firibgarlarga aldanishi bu ularning huquqiy savodxonligining pastligini ko'rsatadi. Uchinchidan, inson huquq va erkinliklarining ta'minlash maqsadida aholi bilan tizimli va manzilli huquqiy targ'ibot ishlari yetarlicha olib borilmayotganligi. To'rtinchidan, huquqiy ta'lim sohasida malakali yuridik kadrlarning yetishmasligi va huquqiy tadqiqot ishlaridagi passivlik. Beshinchidan, internet jahon tarmog'ida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksaltirish va huquqiy ta'lim bilan bog'liq media kontentlarning yetarli emasligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish va salbiy huquqiy oqibatlarini tug'diruvchi holatlarni oldini olishning birdan bir yo'li bu huquqiy ta'limdir. Xulosa qilib aytilganda, inson huquqlari va erkinliklari ta'minlash tizimining huquqiy asoslari huquq ta'limining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham yuqorida sanab o'tilgan omillar natijasida huquqiy ta'lim jarayonining rivojlantirish orqali inson huquqlar va erkinlik ta'minlash tizimi rivojlana olishini xulosa qila olamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 117-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 13-modda. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023-yil.
3. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” 6-moddasi. 1948-yil 10-dekabr.
4. Muhammadieva, O. Zairov, A. (2023). IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Ijtimoiy –gumanitar fanlarning dolzarb masalalari, Xalqaro simpozium materiallari, 451-457.  
<https://doi.org/10.24412/2181-1385-2023-2-451-457>



## ZAMONAVIY TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI QO'LLASH USUL VA VOSITALARI

**Murodov Oybek To'raqulovich**

“OSIYO XALQARO UNIVERSITETI”

“Umumtexnik fanlar” kafedrası assistent o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Maqolada umumta'lim maktablarining darslarida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Zamonaviy ta'limni olib borishda axborot texnologiyalarining o'rnini haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot texnologiyalari, tarbiya, taqdimot, multimedia, videolavha.

### АННОТАЦИЯ

В статье выделены преимущества использования современных информационных технологий на уроках общеобразовательной школы. Дана информация о роли информационных технологий в проведении современного образования.

**Ключевые слова:** информационные технологии, образование, презентация, мультимедиа, видео.

### ABSTRACT

The article highlights the advantages of using modern information technologies in the lessons of a general education school. The information about the role of information technologies in modern education is given.

**Keywords:** information technology, education, presentation, multimedia, video.

### KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotgan ekan, aynan kadrlar tayyorlash tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topmoqda. Aynan o'quv-tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalar bilan ta'minlash zarurati Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir.

Hammamizga ma'lumki axborot taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxs, predmet, dalil, voqea, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar to'plamidir. Axborot

texnologiyalari esa axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar hisoblanadi.

### **ASOSIY QISM**

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari va ularni qo'llash masalalari, innovatsion o'zgarish va yondashuvlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O'qituvchi tomonidan axborotni yig'ish, saqlash, ishlov berish va tarqatish, pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta'lim rivojiga hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda bukletlar, informatsion byulletenlar, taqdimotlar, namunali konspektlar, sxemalar, grafika va jadvallar turidagi mustaqil ishlarda axborot texnologiyalari muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarga erkin ijod va mustaqil ishlash uchun keng sharoit yaratildi. Internet manbalari, Power Point, Word kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan taqdimotlar va axborot ma'lumotiga ega bo'lgan dasturlar mavzuni yoritishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday jarayonda tushunchalar va hodisalar o'rtasida o'zaro aloqadorlik o'rnatiladi, o'quvchilarning shaxsiy bilimlari ko'payadi, muammoli masalalarni mustaqil echish vaziyatida tayyor taqdim etilgan faktlar, tushunchalar, izohlarni faol qabul qilishadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir.

O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi.

Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va

boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya axborotni ruyxatdan utkazish va aks ettirishning turli qurilmalari

- multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida hayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'iladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

g) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Multimedia tizimining paydo bo'lishi ta'lim, fan, san'at, kompyuter treninglari, reklama, texnika, tibbiyot, matematika, biznes, ilmiy tadqiqot kabi bir qancha kasbiy sohalarda revolyutsion o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib keldi.

Kompyuterlarni ta'lim tizimida qo'llash g'oyasi ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lgan bo'lsada, ta'lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo'llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo'lgach to'liq ma'noda amaliyotga joriy etilib boshlandi.

Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'limning gumanizatsiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);

- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;

- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadrdimmatini tan olish;

- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;

- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;

- ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivatsiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi.

Kompyuter bilimlaridan qiynalgan o'qituvchilar animatsiya va tovushsiz oddiy taqdimot usullaridan foydalanishlari mumkin. Taqdimotda mavzu bo'yicha asosiy tushuncha va iboralar, kalit so'zlar, risolalar, sxema va ko'rgazmali rasmlar taqdim etilishi mumkin. Taqdimot uchun ekran 45 gradus burchakda o'rnatilsa o'qituvchi markazda turib o'quvchilarga mavzu bo'yicha taqdimotni ilova qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Taqdimotda ko'rgazmalilik va qisqa matnlar muhim o'rin egallaydi. Power Point taqdimotini tuzish jarayoni quyidagi harakatlarda amalga oshiriladi: taqdimotning umumiy bezagini tanlash; slaydlarning mazmuniy o'lchamlarini tanlash (maksimum 6 qatordan iborat 36 ta so'z bo'lmog'i lozim); yangi slayd va uning tarkibiy qismlarini qo'shish; slayd o'lchamlarini tanlash; slaydlarni bezashda zarur bo'lgan o'zgarishlardan foydalanish; slaydlarni ko'rsatishda tovushli animatsiya jihatlarini yaratish.

Dars berish jarayonida bilimlarni hosil qilishda videolavhalar ham muhim o'rin egallaydi. Videolavhalarni avtonom yoki fakultativ tariqasida ko'rish hech qanday natija bermaydi. Tanlangan videolavhalar mavzuga mos kelishi va aniq maqsadlarga qaratilishi lozim. Videomateriallardan foydalanish usuli o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini orttirishi va emotsional ta'sir ko'rsatishi lozim. Videolavhalarni ko'rsatishda o'qituvchi har bir lavhani sharhlab borishi va o'quvchilarning diqqatlarini aniq maqsadga jalb qilishi dardkor.

Videolavhalarning davomiyligi 5 – 7 daqiqadan oshmasligi maqsadga muvofiq. Pedagogik texnologiya nazariyotchilarining fikricha, mavzular bo'yicha didaktik masalalar (didaktik maqsad, mazmun hamda o'quvchining o'zlashtirishi)ni aniq belgilash asosida didaktik jarayonni, ya'ni texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etish mumkin. Shunga ko'ra, didaktik jarayon quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

Motivatsiya. Bu bosqichda o'qituvchi turli usullar yordamida mavzuni o'rganish ehtiyojini vujudga keltiradi.

Bunday usullarga quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Mavzuga oid kinokadr, filmlar ko'rsatish, rasmlar namoyish etish.

2. Mavzuga oid statistik materiallardan foydalanish.
3. Hujjatlar bilan ishlash.

Bu usullar mashg'ulot boshlanishidayoq o'quvchilarni mavzuni qiziqish bilan o'rganishga undaydi. O'quvchining o'quv-biluv faoliyatini amerikalik pedagog olim B.Blum tomonidan ishlab chiqilgan o'quv maqsadi taksonomiyasi asosida tashkil etish ijobiy samara beradi. "Bilish" darajasi kognitiv sohaning eng quyi bosqichi bo'lib, u tushunchalar, dalillar va tamoyillarni eslash demakdir. Bu bosqichda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarini xotirada saqlashi, eslashi, nomlashi va aytib bera olishi kerak.

"Tushunish" bosqichida o'zlashtirilgan bilimlar moxiyati oydinlashtiriladi va anglab etiladi.

"Qo'llash" bosqichida o'zlashtirilgan nazariy bilimlar va turli shakllardagi amaliy qo'llashning nazariy jihatlari o'zlashtiriladi (o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llashni biladi, lekin bu xali qo'llay oladi, degani emas).

"Tahlil" bosqichida o'quvchi o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil qilish salohiyatiga ega bo'ladi.

"Sintez" bosqichida o'quvchi o'zlashtirilgan bilimlarni o'zaro bir-biriga bog'laydi va umumiy aloqadorliklarni aniqlay oladi.

"Baxolash" darajasi eng yuqori bosqich hisoblanib, bu bosqichda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida muayyan tushuncha, dalil va tamoyillarga nisbatan o'z fikrini bildirish hamda ularni baholash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Bu jarayonning ketma-ketlikda amalga oshirilishi o'quvchining faqat bilimlarni o'zlashtirish emas, balki mavzu bo'yicha ularda ko'nikma va malakalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Didaktik jarayonning so'nggi tarkibiy qismi – o'quv-biluv faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Mashg'ulotda zaruriy axborotlar o'qituvchidan o'quvchilarga aloqa yordamida to'g'ridan-to'g'ri uzatiladi.

Boshqarishning muhim jihati shundaki, o'quvchi tomonidan o'quv faoliyati bajarilsa, boshqarish algoritmini o'qituvchi ham, o'quvchi ham bajarishi mumkin.

O'quv fani yakunida, albatta, o'quvchilar bilimini nazorat qilish kerak. Nazorat shakli quyidagicha bo'lishi mumkin: so'rov o'tkazish; yozma ish o'tkazish; test olish; krossvordlar tuzish va yechish; ilmiy maqolalarga taqrizlar yozish; referat yozish.

## **XULOSA**

Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning pedagogik va axborot texnologiyalari asosida amalga oshirilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Ular qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiradi va amalga oshiradi. O'quvchilarga vizual materiallar orqali hissiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. T. Fan va texnologiya. 2012.
2. Mavlyanov A., Abdalova S., Yusupova L.Yu., Mavlyanova I. Interfaol usullar asosida o`tiladigan mashg`ulotlarda ta`lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish // O`quv qo`llanma. - Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2009.
3. Xodiev B., Darslarda taqdimotlardan foydalanish uslub va vositalari. – T.: TDIU, 2017. – 87 b.
4. G`ulomov S.S. va boshq. Axborot texnologiyalari –T.: O‘zbekiston, 2017. –481-485 b.

## TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA YANGICHA FAOL USULLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA DARS JARAYONLARIDA QO‘LLANILISHI

**Alovddinova Nilufar Mansurovna**

Respublika ta'lim markazi amaliy fanlar bo'lim boshlig'i

### ANNOTATSIYA

Maqolada har bir ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki darslarda qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liq ekanligi, dars davomida qo'llaniladigan interfaol metodlar, qiziqarli o'yinlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining xususiyatini belgilab berishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qiziqarli, yangicha metodlar, ko'nikmalarni shakllantirish, faollik, muloqot, amaliy, interfaol.

Ta'lim jarayonida metodlarning pedagogik mohiyati "Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo'lda mustahkam tut.

**Fransuz yozuvchisi Anri Barbyus.**

Bugungi kunda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama mukammal etib tarbiyalash, ularni kasb-hunar turlariga bo'lgan mehrini oshirish, Texnologiya darslarida amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, kelajakda kasb-hunar turlarini to'g'ri tanlashga o'rgatish, haqiqiy fidoyilik va mustahkam iroda talab etadi.

Har bir ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki darslarda qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Har bir dars jarayonida metodlar markaziy o'rin egallaydi. "Metod" yunoncha metodos so'z bo'lib, "yo'l", tatbiq qilish kabi ma'nolarni anglatadi.

Texnologiya darslarida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi, amaliy mashg'ulot jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu mashg'ulotlarda o'quvchilar qanday ish harakatlarini bajarish kerakligini belgilab beradi.

Yangicha metodlar o'qituvchi bilan o'quvchilarning bilim olishlariga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir.

Darslar davomida qo'llaniladigan metodlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining xususiyatini belgilaydi hamda ta'limning maqsadi va mazmuniga bog'liq bo'ladi.

**Interfaol metodlar.** Interfaol atamasi, bu "interactive" ya'ni keng xalqaro miqyosdagi harakat faolligini bildiradi. Lotincha inter so'zining ma'nosi – ichki potentsial imkoniy quvvat degani. Interfaol ta'lim – bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatlarni tashkil etishga asoslanuvchi ta'limdir.

Interfaol metodining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni mustaqil, ijodiy tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
2. Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;
3. O'z-o'zini fikrlashga majbur etish;
4. Faollashtirish;
5. O'quvchilarni tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash;
6. Do'stona munosabatlarni shakllantirish;
7. Refleksiya.

Interfaol usul tarbiya nuqtai nazaridan, har bir kishini ruhiy, ilohiy tavsifini ko'zda tutgan holda, xalqaro miqyosdagi ta'lim – tarbiya yangiliklarni hamda ma'naviy manbalarimizdagi aks ettirilgan intellektual salohiyatimiz ko'nikmalariga asoslanib komil farzand tarbiyalash demakdir. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va boshqalardir.

Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zigzag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va kabilar. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

"Aqliy hujum" metodi – o'qituvchi o'quvchi egallashi kerak bo'lgan mavzuni oddiydan – murakkabga tomon bosqichma bosqich loyihalab beradi.

"Tarmoqlar" metodi – o'quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

"3×4" metodi – o'quvchi-talabalarni erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, tarif bera olishiga qaratilgan.



“Blits-o‘yin” metodi – harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma-xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan.

“Intervyu” texnikasi – o‘quvchi-talaba savol berish, eshita olish, to‘g‘ri javob berish, savolni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatishga qaratilgan.

“Bumerang” texnikasi – o‘quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchini baholay olishga qaratilgan.

“O‘quvchi” treningi – o‘quvchi-talabalar bilan individual holda ishlash o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi to‘siqni yo‘q qilish, hamkorlikda ishlash yo‘llarini o‘rgatishga qaratilgan.

“O‘qituvchi shaxsi” treningi – o‘qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi “O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talabalar” mavzusidagi mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

“Muloqot” texnikasi o‘qituvchilarni o‘quvchilar diqqatini o‘ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga, uni tashkil etishni o‘rgatishga qaratilgan.

“Boshqaruv” texnikasi o‘qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o‘quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o‘rgatishga qaratilgan.

Texnologiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish.

Aytsang unutaman. Ko‘rsatsang, eslab qolaman.

O‘zim bajarsam, anglab yetaman.

Xitoy faylasufi Konfutsiy


(mil.avvalgi 551-479 yy)

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtirish jiddiy muammoga aylanib borayotganligi hech kimga sir emas. Texnologiya fani mashg‘ulotlarida ham o‘quvchilarni darsga qiziqtirish va kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida interfaol metodlardan atroflicha foydalaniladi. Quyida bir necha xillarini misol tariqasida keltiramiz.

Venn Diagrammasi.

Gazlamashunoslik bo‘limida tabiiy va kimyoviy gazlamalarning bir-biriga o‘xshaydigan va o‘xshamaydigan xususiyatlarini taqqoslovchi vosita. Buning uchun ikki yoki undan ortiq doira quriladi. Doiralarning ikki tomoniga gazlamalarning nomlari yoziladi. Kesishuvchi doiralarga mos ravishda o‘xshaydigan yoki

o'xshamaydigan xossalari, qanday kiyim va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari tikilishi mumkinligi yoziladi.



#### HARFLARNI TO'G'RI QO'Y

1. \_ a \_ \_ i (A vitaminiga boy sabzavot)
2. \_ i \_ \_ o\_ (Sutli mahsulot nomi)
3. \_ a \_ a (U sutdan tayyorlanadi)
4. \_ a \_ ao (Issiq ichimlik turi)
5. \_ a \_ a \_ (Sabzavotlardan tayyorlanadigan yaxna taom)
6. O \_ \_ a (Temirga boy meva)
7. \_ a \_ \_ a \_ a (Milliy suyuq taom nomi)
8. \_ o \_ i \_ (Ham taom, ham daryo nomi)
9. \_ a \_ o \_ (O'zbeklarni dunyoga tanitgan taom)
10. \_ o \_ i (Quritilgan meva)

#### HARFLARNI TO'G'RI QO'Y

1. S a b z i (A vitaminiga boy sabzavot)
2. P i s h l o q (Sutli mahsulot nomi)
3. K a s h a (U sutdan tayyorlanadi)
4. K a k a o (Issiq ichimlik turi)
5. S a l a t (Sabzavotlardan tayyorlanadigan yaxna taom)
6. O l m a (Temirga boy meva)
7. M a s t a v a (Milliy suyuq taom nomi)
8. N o r i n (Ham taom, ham daryo nomi)
9. P a l o v (O'zbeklarni dunyoga tanitgan taom)
10. Q o q i (Quritilgan meva)

“SO‘ZNI TOP” o‘yini.

O‘quvchilarda tezkorlikni, zukkolikni rivojlantiradi. Bu o‘yinni texnologiyani o‘g‘il va qizlar guruhlarida tatbiq qilish mumkin.

P	I	T	E	L	Q	O	SH
O	CH	A	R	K	A	Q	I
Q	S	T	A	A	S	O	K
CH	N	A	K	S	A	N	CH
O	Y	N	A	K	SH	I	Q
N	A	G	A	L	K	A	F

Topilgan oshxona idish-tovoq va jihozlardan kelib chiqqan holda qo‘shimcha savol-javob o‘tkazish mumkin.

1. Ovqat tayyorlashda ishlatiladigan nechta idish bor?
2. Ovqat iste‘mol qilishda ishlatiladigan nechta idish bor?
3. Nechta oshxona jihozi bor?

Dars o‘tish jarayonida ta‘lim vositalaridan, ya‘ni interfaol metodlaridan umumli foydalanish, o‘tilgan materialni yaxshi eslab qolishga, mustaqil fikrlay oladigan o‘quvchining shakllanishiga, ta‘lim mazmunini o‘zlashtirishga yordam beribgina qolmasdan, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashning shakllanishiga, rivojlanishiga yordam beradi. O‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash o‘sadi, muloqotga kirishish ko‘nikmasi takomillashadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quraylik. – T.:“O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
  2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187-sonli Qarori. //O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 14-son, 230-modda. – T.,2017
  3. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T.2004
  - 4.Ochilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.: Nasaf. 2000.
  5. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). - T.: Moliya, 2003.
  - 6.Ta‘limning faol usullari. Uslubiy tavsiyalar. TVPQTMOI. T.2004.
  - 7.M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., 2000 y.
- Elektron ta‘lim resurslari
1. www. tdpu. uz,
  2. www. pedagog. Uzm,
  3. www. ziyonet. Uz,
  4. www. edu. Uz,
  5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz),
  6. www. giu.uz,
  7. www.texnologiya.zn.uz.

## НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИДА КАДРЛАР ИШИНИ ЮРИТИШ ҚОНУНЧИЛИГИ ВА БОШҚАРИШНИ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

**Хасанов Жахонгир Ботир ўғли**

Олий Мажлис ҳузуридаги жамоат фонди бош ҳисобчиси

E-mail: [903202221@mail.ru](mailto:903202221@mail.ru)

### АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада нодавлат нотижорат ташкилотларида кадрлар ишини юритиш ва бошқаришни ўзига хос хусусиятлари таҳлил қилинган ва тавсиялар берилган.

**Таянч сўзлар:** Нодавлат нотижорат ташкилотлар, кадр ишини юритиш, бошқариш, меҳнат қонунчилиги.

**Keywords:** Non-governmental non-profit organizations, human resource (HR) management, labor legislation.

**Ключевые слова:** Негосударственные некоммерческие организации, кадровое делопроизводство, менеджмент, трудовое законодательство.

Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил 28 октябрда “Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодексини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қонунни имзолади ва янги таҳрирдаги Меҳнат кодекси 2023 йил 30 апрелдан кучга кирди.

Нодавлат нотижорат ташкилотларининг (ННТ) тижорат ташкилотларидан фарқи бўлсада ходим билан меҳнат муносабатларига киришганда меҳнат тўғрисидаги қонун ҳужжатларига, яъни амалга кирган Меҳнат кодекси ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг қоидаларига тўлиқ риоя этишлари лозим.

Умумий олганда кадрларга оид иш юритиш деганда иш берувчи ва ходим ўртасидаги меҳнатга оид муносабатларни тўғри расмийлаштириш, кадрларга тегишли ҳужжатлар билан ишлашни ташкил этишни таъминлайдиган фаолиятни тушуниш мумкин. Шу билан бирга, кадрлар бўйича иш юритишга қуйидаги вазифаларни киритиш мумкин: ходимларни бошқариш, ходимларни ва уларнинг иш вақтини ҳисобга олиш, ходимлар билан ҳисоб-китоб қилиш билан боғлиқ ҳужжатларни ишлаб чиқиш ва юритиш, ҳужжатларни сақлаш, улардан фойдаланиш ва ҳужжатларни архивга топшириш.

Айрим ҳолларда бўш иш ўринларга номзодларни қидириш, уларни танлаш билан боғлиқ ҳужжатларни юритиш (бунда номзодларнинг резюмеларини қабул қилиш, улар билан суҳбат ўтказиш, тест синовларидан ўтказиш ва янги ишга

қабул қилинган ходимларнинг бажарган ишлари тўғрисидаги ҳисоботларни шакллантириш ва ҳ.к.), ходимлар малакасини ошириш ишини юритиш ва бошқа вазифаларни киритиш ҳам мумкин.

Кадрлар бўйича ишнинг асосий мақсади кадрлар бўйича ҳужжатлар билан ишлашнинг самарали тизимини йўлга қўйиш ва уни бошқариш ҳисобланади.

Қонун ҳужжатларида тиждат ташкилотларига ҳамда нотижорат ташкилотларига алоҳида тартиблар белгиланмаган бўлсада, ННТ ўз фаолиятдан ва молиявий манбаларидан келиб чиқиб меҳнат муносабатларини амалга оширади ва кадрларни ҳисобга олиш, ҳужжатларни расмийлаштиришда қуйидаги қийинчиликлар ва ўзига хосликларни пайдо қилади:

- нотижорат ташкилот бўлганлиги сабабли доимий молиявий манбалари аниқ бўлмаслиги натижасида ойлик иш ҳақи мунтазам равишда тўлай олмаслиги. Айрим ННТлар штат бирликларини тўлиқ шакллантириб, ойлик иш ҳақи билан доимий таъминлашни авзал кўрмайди.

- ННТлар фаолиятини юритишда зарур бўлган харажатларни кўп ҳолларда бир нечта манбалардан қоплайди. Бунинг натижасида ходимларнинг ойлик маошлари қисмларга бўлиниб шаклланиш амалиёти мавжуд бўлиб, ташкилотлар ҳар бир манбадан тўловларни амалга оширишда иш вақтини алоҳида ҳисобини олиб боришга мажбур.

- миллий ва халқаро грантларни жалб этиш орқали ННТлар молиявий манбага эга бўлишлари мумкин. Бироқ, аксарият ННТлар “грантдан-грантгача” принципига асосланган ҳолда ишлашга ўрганиб қолган. Маълум бир лойиҳани амалга ошириш учун грант олган даврида (одатда грантлар бир йилгача бўлган муддатга берилади) ННТлар ходимларни меҳнат шартномасидан кўра фуқаролик тусдаги шартнома ёки ўриндошлик асосида жалб этишдан фойдаланади.

- баъзи бир ННТлар фаолиятини фақат грант маблағлари эвазига юритиши натижасида ташкилот раҳбари томонидан ходимлар бир лойиҳадан бошқа лойиҳага ўтказилиши ҳамда бир ходим бир вақтнинг ўзиде бир нечта лавозим вазифаларини бажариши амалиёти мавжуд. Бу эса ходимларни самарали бошқаришга ва лойиҳаларнинг мақсад ва вазифаларига эришишга ҳам ўз таъсирини ўтказди.

- иш берувчи томонидан ходимни ходим учун белгиланган иш вақти давомийлигидан ташқари ишга жалб этиш иш вақтидан ташқари иш деб ҳисобланиб, иш вақтидан ташқари иш учун компенсация ва ҳақ тўланиши лозим.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси, 189-моддаси (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси,

Бироқ, ташкилотларда молиявий ресурслар танқислиги пайдо бўлган ҳолларда ННТ раҳбарлари иш берувчи сифатида ўз қонуний мажбуриятларини бажара олмайдиган вазиятлар ҳам учрайди. Айниқса грант ҳисобига фаолият юритадиган ННТларда лойиҳанинг бюджетидан бундай харажатлар кўзда тутилмаган бўлса, иш вақтидан ташқари иш учун компенсация ва қўшимча ҳақ тўлашга имкони бўлмайди.

- фуқаролар ва уларнинг гуруҳлари томонидан юридик шахсларнинг (ННТларнинг) манфаатларини кўзлаб ихтиёрий фаолиятни амалга ошириш волонтерлик деб аталади.<sup>1</sup> ННТда одатий ҳолатларда ҳақ тўланмайдиган, ихтиёрийлик асосида бажариладиган ишлар бўлиши мумкин. Бу каби ишлар штатдаги ходимларга хос бўлган муайян вазифалар ва жавобгарлик доирасида ҳам белгиланиши мумкин.

- баъзи бир ННТларнинг ташкилий-ҳуқуқий шаклларида қонунчиликка асосан ходимларга тўловлар тўлаш бўйича чекловлар мавжуд. Аксарият ННТларда йиллик харажатлар сметаси, штат жадваллари юқори раҳбар орган билан келишилади ёки улар орқали тасдиқлаб берилади. Уларни тасдиқлашда эса йиллик даромадларига ҳам мувофиқ бўлиши ҳамда ННТнинг барча харажатлари суммасининг муайян фоизидан ошмаслиги керак.

Мисол учун, Ўзбекистон Республикасининг “Жамоат фондлари тўғрисида”ги қонунининг 24-моддасига кўра ҳар йилги маъмурий харажатларнинг жами суммаси, шунингдек фонднинг васийлик кенгаши ҳамда тафтиш комиссияси аъзоларига ҳақ тўлаш ҳамда уларнинг ўз вазифаларини бажариш билан боғлиқ харажатларини компенсация қилиш фонд барча харажатлари суммасининг йигирма фоизидан ошмаслиги керак. Мазкур чеклов ҳомийлик дастурларини амалга оширишда иштирок этадиган шахсларнинг меҳнатига ҳақ тўлашга нисбатан қўлланилмайди.

Қайд этилган қийинчиликлар ва ННТларнинг ўзига хос хусусиятлар айрим ҳолларида иш берувчи ва ходим ўртасидаги меҳнат муносабатлари ҳамда меҳнат қонунчилигида белгиланган талабларни бузилишига сабабчи бўлади. Булардан ташқари, ННТларнинг раҳбарлари меҳнат муносабатлари бўйича ўтказиладиган қўшимча ревизиялар ортириб олиши ҳам эҳтимолдан холи эмас. Ревизиялар натижасида аниқланган ҳолатлар бўйича норозиликлар вужудга келса иш суд органларига оширилиши ва суд кўпроқ иш берувчига эмас, ходимларга ён босиши аён дир.

29.10.2022 й., 02/22/798/0972-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон)

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Волонтерлик фаолияти тўғрисида”ги қонуни, 3-моддаси (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.12.2019 й., 03/19/585/4096-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)

ННТларнинг бошқарув аппарати масъулларига бу борада ишга қабул қилиш ҳуқуқига эга бўлган мансабдор шахс томонидан ёхуд унинг рухсати билан ходимни ҳақиқатда ишга қўйиш, ишга қабул қилиш лозим даражада расмийлаштирилганлигидан ёки расмийлаштирилмаганлигидан қатъи назар, меҳнат шартномасини иш бошланган кундан эътиборан тузиш деб ҳисобланишига алоҳида эътибор қаратишларини тавсия этамиз.<sup>1</sup>

Шу муносабат билан, нафақат ННТларда балки барча ташкилотларда кадрлар ишини юритиш зарурлигининг асосий сабабларини қуйидагилар деб ҳисоблаймиз:

1. Ушбу талаб Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги талабларида белгиланган;

2. Кадрлар бўйича ҳужжатларни тўғри юритиш натижасида меҳнат муносабатларида аянчли хатоларга йўл қўймаслик, ревизиялар жараёнида аниқланадиган камчилақлар учун жарималардан холис бўлиш ҳамда низолар пайдо бўлган ҳолда суд жараёнларидаги харажатлардан сақланиб қолиш имкониятларини яратиш мумкин.

3. Кадрларга оид ҳужжатлар нафақат инспекция жараёнларида керак бўлади, балки ходим ва иш берувчи ўртасидаги меҳнат муносабатлари тартибга солишга, зарур шартларни келишиб олишга асос бўлади. Бунинг натижасида меҳнат муносабатларидаги томонлар нималарни билиши ва нимани қандай амалга ошириши кераклигини яхши тушуниб олишадилар.

ННТларда меҳнат қонунчилигига асосан ички низом талаблари ишлаган ҳолда, иш берувчи ходимга қачон ишга келиши, тушлик вақтининг бошланиш вақти ёки тугаш вақти каби саволлар умуман туғилмайди. Сабаби, бу каби масаллар билан ишга кириш даврида ходимлар меҳнат шартномасида ҳамда ички низомларда, буйруқларда танишиб чиқиб ўзларининг хоҳиш ва розиликлари билан шу шартларга имзо қўйган бўладилар. Икки томонлама имзоланган шартноманинг шартларини бажаришга томонлар мажбур ҳисобланади.

Шунингдек, меҳнат қонунчилигига амал қилган ҳолда кадр ишларини юритадиган ННТ раҳбарлари, режадан ташқари меҳнат инспекциялар ёки ходимлар билан ноқонуний низоларга дуч келиш эҳтимоллари жуда пасайади.

Булардан ташқари, амалдаги қонунчиликка мувофиқ ННТлар ўз фаолиятини юритиш учун ходимлар билан келишувлар тузишда ҳуқуқий асосга эга бўлган икки хил шаклларда шартномалар имзолаш орқали тегишли иш, хизмат ва вазифаларини бажартирадилар. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси, 128-моддаси (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.10.2022 й., 02/22/798/0972-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон)

кодексига асосан меҳнат шартномаси ёки Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодексига мувофиқ ҳақ эвазига хизматлар кўрсатиш шартномаси тузишлари мумкин.

	<b>Меҳнат шартномаси</b>	<b>Ҳақ эвазига хизматлар кўрсатиш шартномаси</b>
<b>Ҳуқуқий асоси</b>	Меҳнат кодекси	Фуқаролик кодекси
<b>Таъриф-таъсифи</b>	Иш берувчи ва ходим ўртасида муайян лавозим бўйича ички меҳнат тартибига бўйсунуш ва меҳнат қонунчилиги асосида ҳақ эвазига бажариш ҳақидаги келишув	Ижрочи ва буюртмачининг ўртасида муайян хизматларни кўрсатиш ва унга ҳақ тўлаш мажбуриятини олиш ҳақидаги келишув
<b>Бажариладиган ишлар хили</b>	Доимий тарзда аниқ лавозимнинг муаян ишини, ўрнатилган тартибда функцияларини бажариш	Иш ва хизматларнинг муайян ҳажмини бир марталик бажариш
<b>Юридик тартибга солинадиган объект</b>	Лавозим функционал вазифасига кўра меҳнат жараёни	Буюртмачи томонидан бериладиган иш ва хизматни бажариш натижаси
<b>Бажариш ва ижро муддатлари</b>	Муайян ишни бажариш даврига, муайян бўлмаган муддатга, 5 йилдан кўп бўлмаган муддатга	Келишувда (шартнома) кўрсатилган муддатга
<b>Бекор қилиш тартиби</b>	Меҳнатга оид муносабатларни тугатиш шартлари Меҳнат Кодексининг 155-174-моддаларида белгиланган	Агар-да буюртмачи ижрочи томонидан ҳақиқатда қилинган харажатларни тўлаб берса, ёки ижрочи агар-да буюртмачига зарарларни қоплаб берса томонлар шартномадан бош тортишга ҳақли.
<b>Ижтимоий ёрдам, нафақалар олиш имконияти</b>	Меҳнат қонунчилигига асосан ҳақ тўланадиган таътил, вақтинча меҳнатга қобилиятсизлик, болани парваришlash нафақалари ва боқа ёрдамлар	Мавжуд эмас
<b>Келишувга илова ҳужжатлари</b>	Ишга абул қилиш ва меҳнат шартномасини бекор қилиш тўғрисидаги буйруқ	Мавжуд эмас
<b>Тўловларни тўлаш учун асос</b>	Ишга қабул қилиш тўғрисидаги буйруқ, меҳнат шартномаси, иш вақтини ҳисобга олиш табели	Бажарилган ишлар бўйича тузилган далолатнома
<b>Иш стажини ҳисоби</b>	Меҳнат дафтарчасига иш тўғрисида маълумотлар киритилади, меҳнат стажи сифатида ҳисобланади	Меҳнат дафтарчасига киритилмайди, лекин меҳнат стажи сифатида ҳисобга олинади
<b>Ички меҳнат тартибига риоя этиш</b>	Ходим ички меҳнат қоидаларига бўйсунуши шарт	Шартномада келишилмаган бўлса, ходим ички меҳнат қоидаларига бўйсунушга мажбур эмас

**1-жадвал. Меҳнат ва фуқаролик қонунчилиги ҳужжатларига асосан имзоланадиган шартномалар фарқи. (Муаллиф ишланмаси)**



Юқоридаги жадвдан кўриниб турибтики, меҳнат муносабатлари томонларига ноқулай ва кенгроқ чекловларга эга меҳнат қонунчилиги ҳужжатларига қараганда фуқаролик қонунчилиги ҳужжатларида ННТлар учун ходимларни ишлатишда кўпроқ эркинликлар берилган. ННТлар учун ҳақ эвазига хизматлар кўрсатиш шартномаси тузиш меҳнат шартномаси тузишдан кўра анча қулайроқ ва кенг мослашувчан форматга эга.

Амалиётда ҳам маълум, ННТлар фаолиятини амалга ошириш учун доимий молиявий манбалари мавжуд бўлмаганлиги сабабли меҳнат шартномасидан кўра ҳақ эвазига хизматлар кўрсатиш шартномаси тузишни афзал кўради. Бунинг сабаби эса, иш берувчи ташкилот ҳисоб рақамларида маблағлар бор йўқлигидан қатъи назар иш ҳақи харажатларини айрим ҳолларда ижтимоий нафақаларни мунтазам тўлаб боришлари шарт ҳисобланади.

Шундай бўлсада, узоқ муддат давомида ходимлар билан фуқаролик тусдаги шартнома асосида ходимларни ишлатиш ҳолатини ревизия давомида меҳнат муносабатларини яшириш деб баҳо берилиши мумкин. Бунинг оқибатида эса иш берувчига нисбатан жарима ҳамда меҳнат қонунчилигида кўрстаилган кафолатларни ходимга компенсацияланиши талаб этишлари мумкин.

Бундай ҳолатларни олдини олиш учун иш берувчилар узоқ муддатли меҳнат муносабатлари киришганида меҳнат қонунчилигида имкониятлар яратилган. Мисол учун маълум бир давр давомида грант ёки бошқа молиявий кўмаклар оладиган ННТлар ходимларига ижтимоий кафолатларни беришни хоҳласа Меҳнат окдесига мувофиқ муддатли меҳнат шартномаси тузишлари мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Меҳнат Кодексининг 112-моддасига мувофиқ муддатли меҳнат шартномалари:

меҳнат тўғрисидаги қонунчиликка ва меҳнат ҳақидаги бошқа ҳуқуқий ҳужжатларга, меҳнат шартномасига мувофиқ иш жойи ўзида сақланиб қоладиган, йўқ бўлган ходимнинг мажбуриятларини бажариш вақти учун;

вақтинчалик (икки ойгача) ишларни бажариш вақти учун;

табиий шароитлар туфайли иш фақат муайян давр (мавсум) ичида амалга оширилиши мумкин бўлганда мавсумий ишларни бажариш учун;

иш берувчининг одатдаги фаолияти доирасидан ташқарига чиқадиган ишларни (реконструкция қилиш, монтаж қилиш, ишга тушириш-созлаш ишлари ва бошқа ишлар), шунингдек ишлаб чиқаришни ёки ишлар (махсулот, хизматлар) ҳажмини олдиндан маълум бўлган вақтинчалик (бир йилгача) кенгайтириш билан боғлиқ ишларни бажариш учун;

таъсис ҳужжатларига биноан олдиндан белгиланган муддатга ташкил этилган ташкилотларга ишга қираётган шахслар билан;

ишнинг тамомланиши аниқ сана билан белгиланиши мумкин бўлмаган ҳолларда муддатли хусусиятга эга бўлган, олдиндан белгиланган ишларни бажариш учун қабул қилинадиган шахслар билан;

ишлаб чиқаришда ўқитиш шартномаси билан бевосита боғлиқ бўлган ишларни бажариш, ҳақ тўланадиган ишлаб чиқариш амалиётини ёки стажировкани ўташ учун;

меҳнат органлари томонидан вақтинчалик хусусиятга эга бўлган ишларга ёки ҳақ тўланадиган жамоат ишларига юборилган шахслар билан;

муқобил хизматни ўташ учун юборилган фуқаролар билан;

Ўзбекистон Республикасига унинг ҳудудида меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун қонуний равишда кириб келган чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар билан тузилади.

ННТ раҳбарлари ўз фаолиятларидан келиб чиқиб ушбу белгилан ҳолатларнинг бир нечасига мувофиқ муддатли меҳнат шартномалари имзолашлари мумкин.

Аксарият ННТларнинг лойиҳа ёки дастурларни амалга ошириш давомийлиги бир йилдан кам муддатда бўлганлиги сабабли, уларни молиялаштирувчи институтлар ҳам шу муддатга маблағ ажратади. Шу сабабли лойиҳа ва дастурларни амалга ошириш учун ННТлар ходимлар билан муддатли меҳнат шартномаси ёки ҳақ евазига хизмат кўрсатиш шартномаси имзолайдилар.

Ўриндошлик асосида ҳамда бир неча касбда ва лавозимда ишламоқчи бўлган ходимлар билан иш берувчилар муддатли меҳнат шартномаларини белгиланган тартибда тузишлари мумкин. Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, шунингдек хорижий фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаган шахслар мулкчиликнинг барча шаклларидаги корхоналар, муассасалар, ташкилотларда (шу жумладан ННТлар) меҳнат шартномасига мувофиқ ўриндошлик асосида ҳамда бир неча касбда ва лавозимда ишлашларига қонунчиликда ҳуқуқий имкониятлар яратилган.<sup>1</sup>

ННТлар томонидан амалга ошириладиган лойиҳа ва дастурлар бир неча манбалардан молиялаштирилган ҳолларда айна ишлаб турган ходимлар ушбу лойиҳаларда ўхшаш вазифаларни бажарадилар. Бундай ҳолатларда муддатли меҳнат шартномаси имзоланган бўлса унга бошқа лойиҳаларни вазифаларини бажариш учун қўшимча келишув расмийлаштирилиши керак. Бунда молиялаштириш манбаи ва меҳнатга ҳақ тўлаш миқдори ҳам кўрсатилиши керак.

Бу ҳолатла асосий муддатли меҳнат шартномаси биринчи даражали қилиб олинади, агар иккинчи тузиладиган шартнома (қўшимча келишув) давомийлиги

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 18.10.2012 йилдаги 297-сон

асосий шартнома давомийлигидан узоқроқ бўлса, иккинчи шартнома асосий шартнома даврига мос равишда имзоланади. Сабаби муддатли меҳнат

шартномасининг муддатини узайтириш мумкин эмас (узайтирилса у муддатсиз шартнома ҳисобланади). Шартнома амал қилиш муддати тугаганидан ёки бекор қилинганидан сўнг молиялаштиришнинг иккинчи манбаидан қолиб кетган вазифаларни бажариш учун қўшимча муддатга алоҳида муддатли меҳнат шартномаси имзолаш мумкин бўлади. Ундан кейинги меҳнат муносабатлари ҳам худди шундай тарзда расмийлаштирилиб бориш тавсия этилади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ННТларнинг ижтимоий муаммоларни ҳал этиш, ижтимоий соҳаларни ривожлантиришда муҳим ўрни бўлганлиги сабабли кадрлар масаласига алоҳида эътибор қаратилиши керак. Зеро бу орақали жамиятда амалга оширилаётган ислоҳотлар, ижтимоий масалаларни ҳал этилиши ва энг асосийси халқнинг фаровон ҳаёт кечиришига замин яратиш мумкин.

Шу муносабат билан ННТларда кадрлар бўйича иш юритиш тизимини самарали ташкил этиш зарур ҳисоблаймиз. Давлат томонидан ҳам бу масалада имкониятларни кенгайтирилиши ва ННТларни қўллаб-қувватланиши давлат сиёсатини олиб боришда муҳим вазифалардан бири бўлиб сақланиб қолиши керак.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати: (REFERENCES)**

1. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.10.2022 й., 02/22/798/0972-сон; 12.04.2023 й., 03/23/829/0208-сон).
  2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси (биринси ва иккинчи қисмлари).
  3. Ўзбекистон Республикасининг “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни.
  4. Ўзбекистон Республикасининг “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Қонуни.
  5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 4 мартдаги ПФ-6181-сон Фармони.
- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 18.10.2012 йилдаги 297-сон

## AXBOROTNI RUXSATSIZ FOYDALANISHLARDAN HIMOYALASH

Umarov Abdumuxtor, Ro‘zaliyev Abdumalikjon

TATU Farg‘ona filiali

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ma‘lumotlarni ruxsatsiz kirish va foydalanishdan himoya qilish uchun qo‘llaniladigan usullar va strategiyalar haqida qisqacha ma‘lumot beradi. Texnik va tashkiliy jihatlar, shuningdek, maxfiy ma‘lumotlar va axborot resurslarini samarali himoya qilish uchun zarur bo‘lgan asosiy vositalar va amaliy tavsiyalar muhokama qilinadi. Ushbu mavzu o‘zlarining axborot infratuzilmasi ishonchligini ta‘minlashga intilayotgan shaxslar uchun ham, tashkilotlar uchun ham katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biz ma‘lumotlarni ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilishning asosiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

**Kalit so‘zlar:** Axborot xavfsizligi, autentifikatsiya, shifrlash, kirishni nazorat qilish, axborot xavfsizligiga tahdidlar, ma‘lumotlarni himoya qilish, maxfiylik, ruxsatsiz kirish, kiberxavfsizlik.

Hozirgi dunyoda axborot shaxslar, korxonalar va hukumatlar faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. U eng qimmatli boyliklardan biridir va shuning uchun uning xavfsizligi birinchi o‘rinda turadi. Axborotga ruxsatsiz kirish jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, jumladan, maxfiy ma‘lumotlarning sizib chiqishi, obro‘sigga putur yetkazish va moliyaviy yo‘qotish.

Axborot – huquq ob‘ektidir. Kompyuter jinoyatchiligi uchun asboblari sifatida telekommunikatsiya va hisoblash texnikasi vositalari, dastur ta‘minoti va intellektual bilimlar, ularni mukammallashgan sohalari nafaqatgina kompyuterlar, korporativ va global tarmoqlargina bo‘lib kolmasdan, balki zamonaviy yuqori axborot texnologiyalari vositalari ishlatiladigan, katta xajmdagi axborotlar qayta ishlanadigan, masalan, statistika va moliya institutlari, faoliyatni istalgan sohasi bo‘lishlari mumkin.

Zamonaviy kompaniyalar o‘zlarining ixtiyorida katta miqdordagi ma‘lumotlarga ega. Bugungi voqelikda bu asosiy resursdir. Ma‘lumotlar bazalari kompaniya faoliyati va mavjudligi uchun jiddiy xavf tug‘diradigan jinoiy foydalanishdan ishonchli himoyalangan bo‘lishi kerak. Shuning uchun ma‘lumotlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qilishni ta‘minlash juda muhimdir. Bu foydalanuvchi vakolatlarini nazorat qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Kompaniya xodimlarning bevosita vazifalarini bajarishi kerak bo‘lmagan ma‘lumotlardan foydalanishga cheklovlar

kiritadi. Qog'oz hujjatlar bilan ham, elektron tashuvchilardagi ma'lumotlar bilan ham harakatlarni nazorat qilish kerak.

Ishonchli axborot xavfsizligi tizimini yaratish uchun siz ma'lumotlarni olishning mumkin bo'lgan usullarini aniqlashingiz kerak.

Chet elliklar uchun ma'lumotlarga kirish usullari

Axborotga ruxsatsiz kirish (axborotga ruxsatsiz kirish) turli usullar bilan olinishi mumkin. Hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri o'g'irlash yoki kompyuter operatsion tizimlarini buzish variantlarning faqat kichik bir qismidir. Axborotni saqlashning elektron vositalari eng zaif hisoblanadi, chunki ularni masofaviy boshqarish va boshqarish usullaridan foydalanish mumkin.

**Noqonuniy kirishni olishning mumkin bo'lgan variantlari:**

aloqa tizimlariga ulanish (telefon liniyalari, interkomlar, simli interkomlar);

hujjatlarni o'g'irlash, shu jumladan dushmanlik maqsadlarida nusxa ko'chirish (ko'paytirish);

kompyuterlar, tashqi disklar yoki ma'lumotni o'z ichiga olgan boshqa qurilmalardan bevosita foydalanish;

Internet orqali operatsion tizimga joriy etish, shu jumladan josuslik dasturlari, viruslar va boshqa zararli dasturlardan foydalanish;

axborot manbalari sifatida kompaniya xodimlaridan (insayderlardan) foydalanish.

Gartner ma'lumotlariga ko'ra, odamlarning 60 foizi vaziyat bo'yinturug'i ostida jinoyat qilishga tayyor. Sizning xodimlaringiz SearchInform ProfileCenter-dan qanday foydalanishga qodirligini bilib oling.

Faol aloqa kanaliga ulanish ma'lumotlar bazalariga to'g'ridan-to'g'ri kirishsiz, bilvosita ma'lumot olish imkonini beradi. Optik tolali liniyalar tashqi kirishdan eng himoyalangan hisoblanadi, ammo ular ba'zi tayyorgarlik operatsiyalaridan keyin ham birlashtirilishi mumkin. Bunday holda, hujumchilarning maqsadi xodimlarning ishchi muzokaralari - masalan, tergov tadbirlari paytida yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda.

Ruxsatsiz kirish himoya tizimidagi har qanday xatolikdan foydalanadi va himoya vositalarining irratsional tanlovi, ularning noto'g'ri o'rnatilishi va konfiguratsiyasi bilan mumkin.

Ma'lumotni o'g'irlash, o'zgartirish yoki yo'q qilish mumkin bo'lgan buzish kanallarining tasnifi

1. Shaxs orqali:

- axborot tashuvchilarni o'g'irlash;
- ekran yoki klaviaturadan ma'lumotlarni o'qish;
- chop etilgan ma'lumotni o'qish.

2. Dastur orqali:

- parollarni ushlash;

- shifrlangan axborotning shifrini ochish;
- tashuvchidan ma'lumotlarni nusxalash.

3. Uskunalar orqali:

- axborotga kirishni ta'minlovchi maxsus ishlab chiqilgan texnik vositalarni ulash;
- uskunalar, aloqa liniyalari, elektr ta'minoti tarmoqlari va boshqalardan soxta elektromagnit nurlanishni ushlab turish.

Kompyuterda ishlash jarayonida ko'pincha ma'lumotlardan birini yoki boshqasini noqonunuy, ruxsatsiz ko'rish va tahrirlashdan himoya qilish kerak. Ushbu vazifa odatda lokal tarmoqda ishlayotganda, shuningdek turli vaqtlarda bir nechta foydalanuvchilar kompyuterdan foydalana olganda paydo bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Umarov, A. M. O. G. L. (2021). AXBOROT XAVFSIZLIGI XAVFINI BAHOLASH. Scientific progress, 2(8), 293-300.
2. AXBOROT XAVFSIZLIGIDA BIOMETRIK HIMOYA USULLARI
3. RA Vahobjon o'g, UA Maxammad o'g'li, R Adaxanov - Proceedings of International Educators Conference, 2022
4. AXBOROTNI XIMOYALASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH
5. MF Muxammadovich, UA Maxammad o'g'li - Proceedings of International Educators Conference, 2022
6. Muxtarov, F., Umarov, A., & Ro'zaliyev, A. (2023). AXBOROT TIZIMLARIDA XAVFSIZLIK TAHDIDLARINING TASNIFI. Engineering problems and innovations.
7. "Оснoвы защиты", Москва, 2020 71 б.
8. "СБОРНИК РУКОВОДЯЩИХ ДОКУМЕНТОВ ПО ЗАЩИТЕ ИНФОРМАЦИИ ОТ НЕСАНКЦИОНИРОВАННОГО ДОСТУПА"
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligi-xavfini-baholash>

## FAOL FUQAROLIK JAMIYATIDA YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH

**Yusupova Shahzoda**

Jizzax davlat pedagogika universiteti,  
“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’lim” yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi, O‘zbekiston.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamiyat hayotida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning muhim masalalari tahlil qilingan. Bundan tashqari prezidentimizning “Yoshlarga oid davlat siyosati” ning yuritilishi, yoshlarga berilgan imkoniyatlar, faol fuqarolik jamiyatida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish usullari va turlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik jamiyati, ijtimoiy-siyosiy faollik, “Yoshlarga oid davlat siyosati”, ijtimoiy faollik, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi.

Hozirgi kun miqyosida oladigan bo‘lsak, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek eng yuqori maqsadlar ro‘yobini, albatta, biz yoshlarning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda fuqarolik jamiyati atamasi haqida ham to‘xtalib o‘tish joiz:

“Fuqarolik jamiyati-yuksak fazilatlarga ega bo‘lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta’minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va hamda institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta’minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayot kafolatlanadi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining mavqeyi yuksak bo‘ladi”. (<https://xs.uz> 08.07.2022-yil Alisher Xursanov O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti) Aynan respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrdanoq biz yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, salomatligi va globallashuv davrida ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga katta e’tibor berib kelinmoqda. Bu dolzarb masala davlat siyosatining eng muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim, ijtimoiy-siyosiy sohadagi jahon andozalariga mos islohotlar, aholi, aynan yoshlarning faolligini oshirishga qaratilgan beqiyos ishlarning zamirida ham ana shunday mushtarak maqsadlar mujassam. Yoshlarning yanada rivojlanishi, iqtidorli yoshlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, shu bilan birgalikda ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida mustaqillik yillarida bu borada 23ta qonun va 100dan

ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotga izchil tadbiriq etib kelinmoqda. Jumladan: 1991-yil noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1997-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet ellarda o'qishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Umid" jamg'armasini tashkil etish to'g'risida farmoni e'lon qilindi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yildagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 206-yilda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi etiborga molikdir. Unga ko'ra mamlakatimizda yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bo'lib xizmat qiladi. Zero, intellektual salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng mustaqil fukrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishdandir.

Hozir turli xil g'oyalar va mafkuralar hukm surayotgan davrda yoslarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jud muhimdir. Shu o'rinda ijtimoiy-siyosiy faollik nima? Bu faolliklarga nimalar kiradi? degan bir qancha savollar yuzaga keladi. Ijtimoiy-siyosiy faollik- insonlar yoki jamiyatning siyosiy masalarda aktiv, ya'ni faoll bo'lishi va o'z fikrini erkin bayon qilishi demakdir. Biz demokratik huquqiy davlatda yashaymiz, kelajakda eng yuqori bosqichi bo'lgan fuqarlik jamiyatini qaror toptirishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Bu jamiyatda fuqarolarning erkin va demokratik faoliyatlarining keng namoyon bo'lishini taqozo etadi. Kelajak qo'lida bo'lgan biz yoshlar o'qishda, sportda, ilmiy-texnikaviy ijodida, mehnat ko'nikmalarini hosil qilishda, mustqil hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishimizning ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Buning uchun birinchidan, oilada sog'lom turmish muhitining bo'lishi, ikkinchidan, talim muassasalarida yuqori sifatli o'qitish, o'quvchining fikrini eshitish va erkin munozarani yo'lga qo'yish, uchinchidan, mustaqil hamda erkin fikr yuritish uchun ijtimoiy muhitni shakllantirish ham muhimdir.

"Ijtimoiy-siyosiy faolliklarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. Tanqid va muhokama. Ijtimoiy-siyosiy faollik o'z fikrini ifoda qilish. siyosiy qarorlarni baholash va ularga tanqid qilish orqali boshlanadi. Bu- demokratik jamiyatning asosiy qismidir.

2. Qatnashuvchi tashkilotlar. Ijtimoiy-siyosiy faollik tashkilotlar, jamiyat guruhlari, siyosiy klublar va boshqa tashkilotlar orqali olib boriladi. Ular siyosiy muammolarni muzokaraga chiqarish, insonlarni siyosiy jadvalga chiqarish va o'zlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun ishlaydilar.



3. Protestsiyalar va yig'ilishlar. siyosiy faolliklarning bir qismi, insonlar va guruhlar o'zlarining talablari uchun protestsiyalarni tashkil etish orqali chiadi. Bu siyosiy tizimga ta'sir ko'rsatishning bir usuli bo'lib, insonlar o'zlarining fikrlarini e'tirof etish uchun ko'rsatilgan tushuncha.

4. Eng ko'p qo'llanadigan axborot vositalar. Media va ijtimoiy tarmoq, siyosiy masalalarni keng tarqatish hamda insonlarga siyosiy yangiliklarni yetkazishda muhim bo'lib xizmat qiladi. Bu siyosiy masalalarni, muzokaralarni yoshlarga o'rgatish va mamlakat siyosiy hayotiga qatnashishiga imkon berish juda muhimdir.

Ijtimoiy-siyosiy faollik–demokratik jamiyatda insonlarning o'zlarining huquqi va siyosiy huquqlarini boshqarish, o'zgarishlarga yo'l qo'yish va jamiyatning o'zgarishlarini talab qila olishini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar odatda yangiliklar, siyosiy rivojlanish va o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun bir nechta usul mavjud:

-Siyosiy ta'lim. Yoshlarning siyosiy jarayonlarga oid bilim va tushunchalarni olishadi. Bular ularning siyosiy bilimlarini oshirish, demokratik tizimning tushunchalarini o'rganish va o'zaro muzokaralar olib borish orqali amal qilinadi;

-Bu jarayonda qatnashuvchi tashkilotlar. Yoshlar siyosiy tashkilotlarga a'zo bo'lishi, klublar, jamoat tadbirlari va tanqidda qatnashish orqali siyosiy tajribalar olishadi;

-Yozuvlar va fikrlar. Yoshlar o'zlarining fikrlarini yozish, blog olish, ijtimoiy tarmoqda tushunchalarini taqdim qilish orqali siyosiy muammolarni muzokara qilib, unga yechimlarni berishi mumkin;

-Tanqid va muzokaralar. Yoshlar yangi siyosiy qarorlarini tanqid qila olishi va o'zlarining fikrlarini bayon qilish orqali ijtimoiy muzokaralarda ishtrok etishlari mumkin. Siyosiy aktivizm yoshlarning o'zlarining siyosiy muammolarini o'rganish, fikrlarini bayon qilish va o'zaro tushunchalarini o'zlashtirish uchun muhim bir vosita bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarni ifoda etar ekanmiz, nima sababdan aynan yoshlar? Nima uchun barcha imkoniyatlar yoshlar uchun? degan savol tug'uladi. Buning birinchi sababi aholimizning qariyb 60%idan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Shu bilan birgalikda yillar o'tib aynan mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishi, uni qay darajada boshqarish va isloh qilish, davlatimizni turli xil yot g'oyalardan, mafkuralardan himoya qilinishi aynan biz yoshlarning hozirgi kundagi ijtimoiy-siyosiy faolligimizga bog'liq. Lekin fikrimizcha, Hozirda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, jamiyatda bo'ladigan tub islohotlarga befarqdek, go'yoki bir qadar orqada qolgandek. Buning asl sababi sifatida esa hozirgi "zamonaviy yoshlarning vizual hayotdan ko'ra kunning yarmidan ko'prog'ini virtual hayotda o'kazayotganligi, globallashuv davrida yoshlar orasida "g'arbcha madaniyat"ning shakllanib

borayotganligidir. Lekin mamlakatimiz rahbari hamda mutasaddi tashkilot rahbar-xodimlari bunday omillarga qarshi yoshlarda mafkuraviy immunitetni oshirishga doir ko‘plab chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.” Jumladan:

-2017-yil 19-sentabirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Asambleyasida yoshlar huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi mexanizmni tashkil etishda BMTning “Yoshlar huquqlari to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusi oldinga surildi. Ushbu g‘oya jahon hamjamiyati tomonidan dolzarb masala sifatida qabul qilinib, qo‘llab –quvvatlandi;

-joriy yilning 22-fevral kuni Prezident Shvakat Mirziyoyev tomonidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida Yoshlar huquqlari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachi institute tashkil etish taklifi bildirildi. U ham ma‘qullandi;

Yana bir muhim tashabbus, “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyada O‘zbekiston davlati tomonidan Yoshlar masalasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida doimiy faoliyat yuritadigan Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari Yoshlar kengashini tuzish tashabbusi ilgari surildi

Aynan ushbu chora-tadbirlar orasida muhim ahamiyati kasb etganlaridan biri bu prezidentimiz tomonidan yuritilib kelayotgan–“Yoshlarga oid davlat siyosati”dir. Ushbu siyosat yuzasidan ham yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qilishi tizimining isloh qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan:

-O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyun kuni bo‘lib o‘tgan IV qurultoyi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgani ma‘lumot uchun qabul qilinishi;

-O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun — 30-iyun sanasi mamlakatimizda “**Yoshlar kuni**”, deb e‘lon qilinishi;

-Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtning ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlarini yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga “**Temurbeklar maktabi**” nomi berilishi;

Yoshlarning ilmiy va ijodiy faoliyati natijalarini, ilm-fan va adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini hamda yoshlar siyosatiga oid muhim yangiliklarni keng yoritish maqsadida:

-O‘zbekiston yoshlar ittifoqining “Turkiston” va “Molodyoj Uzbekistana” gazetalari, “Yosh kuch” jurnali hamda boshqa yoshlar nashrlarini chop etishga ixtisoslashgan “**Yoshlar nashriyoti uyi**” tashkil qilinganligi;

Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Qoraqalpog‘iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ikki hafta muddatda:

“Adabiyotga e’tibor — ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” shiori ostida “Men sevib o‘qigan kitob” va “Eng yaxshi kitobxon” respublika tanlovlarini, “Kitob bayrami” va “Bolalar kitoblari” an’anaviy respublika festivallarini;

“Biz Vatanga tayanchimiz”, “Bizning eng katta tayanchimiz va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yoshlar” shiorlari ostidagi aksiyalarni;

“Adabiyot va san’at — shaxs ma’naviyatini boyitish va yuksaltirish omili” mavzusida yozuvchilar, shoirlar, san’atkorlar, adabiyotshunos olimlar ishtirokidagi uchrashuvlarni;

respublikaning chekka hududlarida xalq rassomlari, xalq ustalari bilan bolalar, yoshlar va ularning ota-onalari uchun “Bunyodkor xalqim bilan muloqot – ijodim ilhomi” mavzusida master-klasslar va ijodiy uchrashuvlarni;

“Eng buyuk jasorat- manaviy jasorat” mavzusida davrasuhbati kabilarning amalga oshirilishi ahamiyatlidir.([https:// lex.uz](https://lex.uz) “Yoshlarga oid davlat siyosati” 2016-yil )

“Bundan tashqari mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligik darajasini oshirish sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir:

-davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar;

-oila,mahalla, ta’lim muassasi, yoshlar tashkilotining faoliyatida ijtimoiy sherikchilik mexanizmining faol ishlashi;

-yoshlar tashkiloti tomonidan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlar;

-yoshlar iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlar”. Albatta, bu omillar bilan birgalikda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga to’sqinlik qiluvchi omillar ham yo‘q emas.” Bular quyidagilar:

-yoshlar o‘rtasida huquqiy darajasining pastligi;

-ota-onlar va jamoatchilik tomonidan yoshlarga nisbatan e’tibor va mas’uliyatning yo‘qligi;

-yoshlar o‘rtasida turli xildagi illatlarning keng tarqalishi (narkomaniya. Ichkili, fohishalik va h.k)

-yoshlar o‘rtasida erta nikoh qurish holati;

-destruktiv g‘oyalar va g‘arb madaniyatiga intilish”.

(<https://sciencebox.uz> “Synergy:Journl of ethics and gourenment” 02.08.2022.- B.21-22 O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish strategiyasi. Boltayev Sunnat Baxtiyor o‘g‘li Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti 2-kurs talabasi)

Bu kabi to'sqinlik qiluvchi omillarga qarshi yuqorida takidlab o'tilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bir qadar muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan ishlarning amalga oshirilishi, prezidentimiz tomonidan biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, albatta, barchamizga mas'uliyat yuklaydi. Endilikda jamiyatda bo'ladigan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga befarq bo'lishimiz, bugungi globallashuv davrida sustkashlik bilan harakat qilishimiz, bir joyda qimirlamay qotib qolishimiz yaramaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yeti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // Xalq so'zi, 2018 yil, 1-sentabr. N/180-181.
2. (<https://sciencebox.uz> "Synergy: Journl of ethics and gourenment" 02.08.2022.- B.21-22 O'zbekistonda yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish strategiyasi. Boltayev Sunnat Baxtiyor o'g'li Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti 2-kurs talabasi)
3. (<https://marifat.uz> 26.08.2021-yil E'tibor Sultonova "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, siyosiy fanlar doktori)
4. ". (<https://xs.uz> 08.07.2022-yil Alisher Xursanov O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti)
5. (. ([https:// lex.uz](https://lex.uz) "Yoshlarga oid davlat siyosati" 2016-yil )

## USMONIYLAR DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI TARIXIDAN

**Jabborov Zokirjon**

Namangan davlat universiteti, Tarix yoʻnalishi talabasi

### ANNOTASIYA

Ushbu maqolada jahon tarixida oʻziga xos iz qoldirgan, 1299-yilda Usmon Gʻoziy tomonidan asos solingan, va oradan 7 asrdan koʻproq vaqt oʻtib, 1922-yilga kelibgina oʻz poyoniga yetgan, oʻz vaqtida Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrimdan iborat boʻlgan ulkan imperiya Usmoniylar (Usmonlilar, Ottomanlar, Porta) imperiyasi boshqaruv tizimi haqida malumot berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Usmon I, beklik, Murod I, sultonlik, Usmoniylar imperiyasi, sulton, Valide Sulton, Buyuk Vazir, Devon, Shayx ul-islom, beylarbey, sanjaq, yanicharlar, "Midhat konstitutsiyasi".

### ABSTRACT

In this article, Asia Minor, which left a unique mark in world history, was founded in 1299 by Osman Ghazi, and after more than 7 centuries, reached its end only by 1922, information about the administrative system of the Ottoman Empire (Ottomans, Ottomans, Porta), a huge empire consisting of Eastern Europe, the Middle East and North Africa, and partly the Caucasus and the Crimea.

**Keywords:** Osman I, beylik, Murad I, Sultanate, Ottoman Empire, Sultan, Valide Sultan, Grand Vizier, Devon, Sheikh ul-Islam, beylarbey, sanjak, janissaries, "Constitution of Midhat".

1299-yilda Usmon Gʻoziy tomonidan asos solingan Usmoniylar imperiyasi davomiyligi jihatdan rekordchilardan hisoblanadi va oradan 7 asrdan koʻproq vaqt oʻtib, 1922-yilga kelibgina oʻz poyoniga yetgan.

Usmonli turk imperiyasi (Yevropada Ottoman imperiyasi deb atalgan) – Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, qisman Kavkaz va Qrimdan iborat boʻlgan ulkan imperiya. Bu davlat dastlab Kichik Osiyoning Shimoliy-gʻarbiy qismi Eski shahar va Anatoliya hududida saljuqiylarning Koʻniya sultonligiga tobe kichik bir beklik (beylik) shaklida tashkil topgan. Bu beklikning ilk hukmdori Ertoʻgʻrul boʻlsa ham, uning oʻgʻli – Usmonbey davrida beklik mustaqil davlatga aylanganligi uchun uning nomi bilan Usmonli bekligi deb atalgan. Keyinchalik bu davlat Usmonli turklar imperiyasi nomini olib, oʻrta asrlarda jahonning eng qudratli

davlatlaridan biriga aylangan. Usmon I va uning o'g'li O'rxon bek (bey) unvonini qabul qilgan bo'lsa, O'rxonning o'g'li Murod I davridan boshlab hukmdorlar sulton deb atalgan.

Usmonli imperiyasining davlat tashkiloti – ikki asosiy o'lchovga ega tizim bo'lgan, harbiy ma'muriyat va fuqarolik ma'muriyatidan iborat. Sulton tizimdagi eng yuqori lavozim edi. Oliy ma'muriyatning muhim qismi sulton saroyi edi (XV asrda u 5 minggacha xizmatkor va ma'murga ega edi). Hovli tashqi (sulton) va ichki qismlarga (ayollar turar joyi) bo'lingan. Tashqi qismni amalda saroy vaziri bo'lgan va sulton mulkini tasarruf etuvchi boshqaruvchi (oq amaldorlarning boshlig'i) boshqargan. Ichki qism – sultonga yaqin bo'lgan qora amaldorlarning boshlig'i tomonidan boshqarilgan [1].

Usmonli sultoni, podshoh yoki “podshohlarning podshosi”, imperiyaning yagona regenti bo'lib xizmat qilgan va u har doim ham to'liq nazoratni amalga oshirmagan bo'lsa ham, uning hukumatining mujassamligi deb hisoblangan. Sulton saroyida haram muhim rol o'ynagan. Imperial Haram Usmonli sudining eng muhim vakolatlaridan biri edi. Uni Valide Sulton boshqargan. Ba'zida Valide Sulton davlat siyosatiga aralashgan. Haram ayollari bir muncha vaqt davomida “Ayollar sultonligi” deb nomlangan davrda davlatni samarali nazorat qilganlar.

Sulton oliy hukmdor bo'lsa-da, sultonning siyosiy va ijro etuvchi hokimiyati turli davlat muassasalariga topshirilgan. Davlat siyosatida bir qancha maslahatchilar va vazirlar Devon nomi bilan tanilgan kengash atrofida to'plandilar. Usmoniylar davlati hali ham Beylik bo'lgan yillarda Devon qabila oqsoqollaridan iborat edi. Keyinchalik, uning tarkibiga harbiy ofitserlar va mahalliy elita (diniy va siyosiy maslahatchilar kabi) kiritilgan.

1320-yildan boshlab, sultonning ba'zi majburiyatlarini o'z zimmasiga olishga Buyuk Vazir tayinlangan. Bu lavozim sulolaning boshidanoq ta'sis etilgan. Sulton nomidan ma'muriy, moliyaviy va harbiy ishlarni olib borgan. Buyuk Vazir, go'yo sultonning davlat noibi hisoblangan (uning diniy masalalarga aloqasi yo'q edi). U har doim Sulton huzuriga kirish imkoniga ega edi, uning ixtiyorida davlat muhri bor edi. Buyuk vazir amalda mustaqil davlat vakolatlariga ega edi (qonun chiqaruvchi vakolatlardan tashqari); mahalliy hukmdorlar, lashkarboshilar va qozilar unga itoat qilganlar. Sulton tomonidan tayinlangan Buyuk Vazir sultondan deyarli mustaqil bo'lgan, lavozimidan ozod etish va ishdan bo'shatish va nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan. XVI asr oxiridan boshlab sultonlar siyosatdan voz kechganlar va Buyuk Vazir amalda davlat rahbari bo'lgan. Buyuk vazirning idorasi fransuzcha La Sublime Porte (“Brilliant darvoza”) deb atalgan.

Buyuklardan tashqari, oliy martabali kishilar oddiy vazirlar edi (ularning soni yettitadan oshmagan), ularning vazifalari va tayinlanishi sulton tomonidan

belgilangan. XVIII asrga kelib vazirlar (xuddi sadr o‘rinbosarlari hisoblangan) barqaror ixtisoslashgan vakolatlarga ega bo‘ldilar: vazir-kiyashi – sadr kotibi va ichki ishlar bo‘yicha vakolatli, reis-afendi – tashqi ishlarga, chaush-boshi – quyi ma‘muriy-politsiya apparatiga, kapudan – flotga mas‘ul bo‘lgan va hokazo. Buyuk vazir va uning yordamchilari buyuk imperator kengashi – Divanni tashkil qilishgan [2].

Davlat ishlarining ma‘naviy-diniy qismini Shayx ul-islom boshqargan (bu lavozim 1424-yilda tashkil etilgan). Shayx ul-islom – sulton o‘zining ruhiy hokimiyatini ishonib topshirgan eng oliy musulmon ruhoniysidir. U “fatvo” berishga haqli edi, ya‘ni hukumat hujjatining Qur‘on va shariatga muvofiqligi haqida maxsus xulosa. Imperator kengashi Divon-i Humoyun maslahat organi vazifasini bajargan [3]. Shayx ul-islom butun ulamolar tabaqasini (qozilar, ilohiyot va huquqshunoslar – muftiylar, diniy maktablar o‘qituvchilari va boshqalarni ham o‘z ichiga olgan musulmon ruhoniylari) boshqargan. Shayx ul-islom nafaqat ma‘muriy hokimiyatga, balki qonunchilik va adolatga ham ta‘sir ko‘rsatgan, chunki sulton va hukumatning ko‘plab qonunlari va qarorlari fatvo shaklida uning qonuniy tasdiqlanishini olgan. Shayx ul-islom sulton tomonidan tayinlangan.

Usmoniylar tizimida uchta sud tizimi mavjud edi: biri musulmonlar uchun, biri musulmon bo‘lmaganlar uchun, va uchinchi o‘zlarining diniy jamoalari ustidan hukmronlik qilgan tayinlangan yahudiylar va nasroniylarni jalb qilgan holda va “savdo sudi”. Butun tizim yuqoridan ma‘muriy Qonun, ya‘ni qonunlar, islomgacha bo‘lgan davrda ishlab chiqilgan turkiy Yassa va Törega asoslangan tizim orqali tartibga solingan [4].

Usmonli imperiyasi dastlab XIV asr oxirida sulton tayinlagan hokimlar bilan belgilangan hududiy birliklar ma‘nosida viloyatlarga bo‘lingan. [Ma‘muriy bo‘linish](#) eyaletlarga (viloyatlarga), ularga hokimlar – beylerbeylar (1590-yildan – valiyalar) boshchilik qilgan. Beylerbeyning vazir unvoni va posho unvoni bor edi, shuning uchun eyaletlarni ko‘pincha pashalik deb atashgan. Vali Istanbuldan tayinlanib, ulug‘ vazirga bo‘ysundirildi. Har bir viloyatda yangichalar korpusi bor edi, ularning qo‘mondonlar ham Istanbuldan tayinlangan.

Kichikroq ma‘muriy birliklar “sanjaqlar” deb atalgan, boshchiligidagi harbiy boshliqlar – sanjaqbeylar. Dastlab ularning soni 50 tagacha bo‘lgan. Murod III davrida imperiya 21 eyalet va 2500 ga yaqin sanjaqdan iborat edi. Sanjaqlar okruglarga (kazalar), okruglar volostlarga (naxiye) bo‘lingan [5].

Abdulhamid II (1876 – 1909) hukmronligi davrida Usmoniylar davlatining ichki va tashqi siyosatida, boshqaruv tizimida katta ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Abdulhamid II davrida Usmoniylar imperiyasi davlat boshqaruviga ko‘ra, birinchi Usmonli konstitutsiyasi “Kanun-i Esasi” e‘lon qilingan va parlament yig‘ilgan. Ikki palatali parlament tuzilgan. 1876-yil 23-dekabrda qabul qilingan “Midxat

konstitutsiyasi” Turkiyani konstitusion monarxiya deb e’lon qilgan. Lekin Konstitutsiya va parlament uzoqqa bormagan. Keyinchalik, 1908-yil 23-iyulda yangi Konstitutsiya qayta kuchga kirgan. Ikkinchi parlament chaqirilgan. Amalda Usmonlilar davlati respublika boshqaruvi sari qadam tashlagan [6].

Sultonning barcha fuqarolari ikki toifaga bo’lingan: harbiy (askeriy) – professional askarlar, musulmon ruhoniylari, davlat amaldorlari; soliqqa tortiladigan (raya) – barcha dindagi dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar. Birinchi toifa soliqdan ozod qilingan. Ikkinchi toifa – arab-musulmon an’analariga ko’ra, soliq to’laganlar [7].

Usmonli davlatining birinchi harbiy bo’limi XIII asr oxirida Anadolu g’arbiy qismida yashovchi qabilalardan Usmon I tomonidan tashkil qilingan qo’shin edi. Harbiy tizim imperiyaning rivojlanishi bilan murakkab tashkilotga aylangan. Usmonli harbiylari yollash va ushlab turishning murakkab tizimi edi. Usmonli armiyasining asosiy korpusiga Yangiissariy, Sipaxi, Akinji va Mehteran kirgan. Usmonli armiyasi bir paytlar dunyodagi eng ilg’or jangovar kuchlardan biri bo’lib, birinchilardan bo’lib mushaklar va to’plardan foydalangan. Usmonli turklari Konstantinopol qamali paytida kalta, ammo keng zambaraklar bo’lgan falaklardan foydalanishni boshladilar.

Usmonli otliq qo’shinlari tez turkman va arab otlarida kamon va kalta qilichlardan foydalangan holda, og’ir zirhga emas, balki yuqori tezlik va harakatchanlikka bog’liq edi (zodagon poyga otining ajdodlari), va ko’pincha mo’g’ullarnikiga o’xshash taktikalarni qo’llaganlar. Usmonli armiyasi XVII – XVIII asr boshlarida samarali jangovar kuch bo’lib davom etgan [8].

O’sha davrning yana bir e’tiborga molik voqeasi qo’shin tarkibida sultonga yaqin bo’lgan harbiy qismlarga kiritilgan askarlardan yanicharlar korpusining tashkil etilishi bo’ldi. Chet elliklar tomonidan yanicharlar deb atalgan bu askarlar keyinchalik nasroniy oilalardan, xususan, Bolqon yarim orolidagi asirga olingan o’g’il bolalar orasidan jalb etila boshlandi. Devshirme tizimi nomi bilan mashhur bo’lgan bu amaliyot Murod I (1362 – 1389) davrida joriy qilingan. Maqomi bo’yicha sultonlarning qullari bo’lgan yanichalar intizomli muntazam armiya bo’lib, yaxshi tayyorgarlikdan o’tgan va qurollangan piyoda askarlaridan iborat bo’lib, jangovar qobiliyati bo’yicha Lyudovik XIV davrida fransuz armiyasi paydo bo’lgunga qadar Yevropadagi barcha o’xshash qo’shinlardan ustun edi.

Yanicharlar dastlabki yillarda juda qo’rqinchli harbiy qism bo’lgan, ammo G’arbiy Yevropa o’zining harbiy tashkil etish texnologiyasini modernizatsiya qilganidan so’ng, ularni mavqeyi pasayib borgan. Asta-sekinlik bilan Usmonlilarning harbiy qudrati eskirgan, ammo yanicharlar o’zlarining imtiyozlariga tahdid solinayotganini sezganlar va isyon ko’targanlar. Sulton Mahmud II (1808 – 1839) 1826-yilda qo’zg’olonni bostirgan, rahbarlarni qatl qilgan va yirik tashkilotni tarqatib yuborgan [9]. Sulton Mahmud II Yanichar korpusini tugatgan va zamonaviy



Usmonlilar armiyasini tashkil etgan. U ularni Nizom-i Cedid (Yangi tartib) deb nomlagan. Usmonli armiyasi, shuningdek, xorijiy mutaxassislarni yollagan va zobitlarini G'arbiy Yevropa mamlakatlariga o'qishga yuborgan birinchi muassasa bo'lgan [10]. Yanicharlar nasroniylar va boshqa ozchiliklardan yollangan bo'lib, ularning bekor qilinishi Usmonli imperiyasini boshqarish uchun turk elitasining paydo bo'lishiga imkon bergan.

Usmonli dengiz floti Yevropa qit'asida imperiya hududlarini kengaytirishga katta hissa qo'shgan. U 1517-yilda Jazoir va Misrning Usmonli imperiyasiga qo'shilishi bilan Shimoliy Afrikani zabt etishga kirishgan. 1821-yilda Yunoniston va 1830-yilda Jazoirmi yo'qotishdan boshlab, Usmonlilarning dengiz kuchlari va imperiyaning uzoq xorijdagi hududlari ustidan nazorat pasayib ketgan. Sulton Abdulaziz (1861 –1876) Angliya va Fransiyadan keyingi eng katta flotni qurib, kuchli Usmonli dengiz flotini tiklashga uringan. Angliyaning Barrou shahridagi kemasozlik zavodi 1886-yilda Usmonli imperiyasi uchun birinchi suvosti kemasini yasagan.

Biroq XVII asr oxiridan boshlab sultonlikning harbiy, siyosiy va iqtisodiy qudrati astasekin zaiflasha boshlagan. Birinchi jahon urushidan so'ng Usmonlilar davlati mustaqilligi xavf ostida qolgan. Mustafo Kamol (keyinchalik "Otaturk" familiyasi berilgan) Turkiyaning Mustaqillik urushida g'alaba qozongan (1919 – 1923). Sultonlik 1922-yil 1-noyabrda tugatilgan va oxirgi sulton Mehmed VI (1918 – 1922) 1922-yil 17-noyabrda mamlakatni tark etgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Османская империя / [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Османская\\_империя](https://ru.wikipedia.org/wiki/Османская_империя)
2. Xronologik tartibda Usmonli imperiyasi tarixi. Usmonlilar imperiyasi Usmonlilar imperiyasi qachon paydo bo'lgan? / <https://goaravetisyan.ru/uz/istoriya-osmanskoi-imperii-v-hronologicheskom-poryadke-osmanskaya-imperiya/>
3. Usmonli imperiyasi. Asosiy narsa haqida qisqacha Usmonli imperiyasi qanday tashkil topgan / <https://crazylike.ru/uz/osmanskaya-imperiya-korotko-o-glavnom-kak-obrazovalas.html>
4. Османская империя / [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Османская\\_империя](https://ru.wikipedia.org/wiki/Османская_империя)
5. Usmonli imperiyasi. Asosiy narsa haqida qisqacha Usmonli imperiyasi qanday tashkil topgan / <https://crazylike.ru/uz/osmanskaya-imperiya-korotko-o-glavnom-kak-obrazovalas.html>
6. Османская империя / [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Османская\\_империя](https://ru.wikipedia.org/wiki/Османская_империя)
7. Usmonli imperiyasi. Asosiy narsa haqida qisqacha Usmonli imperiyasi qanday tashkil topgan / <https://crazylike.ru/uz/osmanskaya-imperiya-korotko-o-glavnom-kak-obrazovalas.html>
8. Абдул-Азиз / [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Абдул-Азиз](https://ru.wikipedia.org/wiki/Абдул-Азиз)
9. Махмуд II / [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Махмуд\\_II](https://ru.wikipedia.org/wiki/Махмуд_II)
10. Османская империя / [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Османская\\_империя](https://ru.wikipedia.org/wiki/Османская_империя)

## NUCLEAR ENERGY

**Jurakulov S.Z**

Asian International University

E-mail: [sanjarzafarjonjurakulov@gmail.com](mailto:sanjarzafarjonjurakulov@gmail.com)

### ABSTRACT

Nuclear power is the most important sub-sector of the world energy industry, which began to make a significant contribution to the world's electricity production several decades ago. Today, the price of electricity produced by nuclear power plants allows us to talk about serious competition with other types of power plants. A clear advantage of nuclear power plants is the absence of aerosol and greenhouse gas emissions into the atmosphere.

**Keywords:** nuclear energy, nuclear power plant, nuclear reactor, fission reaction, energy source.

### INTRODUCTION

Nuclear energy is a branch of energy that uses atomic energy (nuclear energy) to produce electrical and thermal energy, and a branch of science and technology that deals with the theoretical development of methods and means for converting nuclear energy into electrical and thermal energy and their practical implementation. A nuclear power plant (NPP) is the technical basis of nuclear energy. The energy source is a nuclear reactor (nuclear reactor). In nuclear fission reactions (see Nuclear reactions), the fission of uranium and plutonium nuclei releases thermal energy, which is then converted into electrical energy, as in conventional thermoelectric installations. In the event of depletion of fossil fuel reserves (coal, gas, oil, peat), the use of nuclear fuel is currently the most reliable way to provide humanity with energy. Therefore, in most developed countries (USA, UK, France, Canada, Japan, Germany, Sweden, Russia, India, Pakistan, etc.), highly efficient methods of using other energy sources, including, first of all, nuclear energy, are used instead of thermal and hydropower sources, development work is being carried out at a rapid pace. In Uzbekistan, scientific research in the field of nuclear energy is carried out by the Institute of Nuclear Physics of the Academy of Sciences of Uzbekistan.

The history of the development of various energy technologies shows that it often takes at least 25-30 years before a new technology moves from the laboratory level to the commercial level. It will take another 20 years for this technology to gain a significant place in the energy market. Many unconventional energy sources are still

in the early stages of development and few have reached the prototype demonstration stage. It follows that the energy demand for many decades can only be met on the basis of proven sources and currently available technologies.

While all our efforts should certainly be directed towards developing all possible sources of energy, fossil and nuclear fuels (and to a lesser extent hydroelectricity) will become available to humanity by the end of this century. there are opportunities, and maybe even later.[1] This, of course, does not exclude the possibility of using solar energy or biomass in highly specialized local conditions, but on a global scale these types of energy cannot play an important role in the world energy sector.

#### **Relevance of the research topic.**

In Decree No. PQ-5032 of March 19, 2021 “On measures to improve the quality of education in the field of physics and the development of scientific research,” the scope of scientific work aimed at solving problems in the field of physics has been expanded. all areas of medicine, increasing the efficiency and practical significance of scientific research when testing innovative results.[2]

#### **Level of knowledge of the subject.**

Based on the general goal of education, at one stage of training taking into account the need to resolve educational and developmental issues the selected option is analyzed and evaluated. This is one of the important requirements for the organization of modern education is to achieve high results in a short time, without spending too much mental and physical effort imparting, developing in them skills and competencies in relation to certain activities to do, as well as monitor the activities of students, undertakes.[3] Assessing the level of knowledge, skills and qualifications is more pedagogical than the teacher requires a new approach to skills and the educational process.

#### **Statement of the research objective:**

to raise the quality of knowledge in nuclear energy to a high level, to form an understanding of nuclear processes, and also to bridge the gap between the insufficient knowledge of the methodology of nuclear energy education based on innovative information technologies in Nuclear Energy Education.

#### **Purpose of the study:**

In physics courses, all topics such as “Analytical assessments of the upcoming growth in energy consumption”, “Organic fuel energy and prospects for its development”, “Renewable energy sources and their resources” were used using innovative computer technologies is to develop an innovative educational methodology that allows achieving effective results that shape the modern vision of nuclear processes.

### **Research objectives:**

Pedagogical technology is inherently subjective that is, each teacher has his own capabilities, his own professional process of training and education. Based on his abilities, he should organize creatively.[4] What form, method and pedagogical technologies, regardless of their organization using tools:

- increase the effectiveness of teaching activities;
  - make decisions on mutual cooperation between teachers and students;
  - students' deep knowledge of academic subjects
- security of tenure;
- formation of independent, free and creative thinking skills in students;
  - necessary for students to realize their potential
- creation of conditions;

### **Research methods.**

The “mental attack” method in the process of teaching students ensuring their activities, encouraging them to think freely and equally liberation from the inertia of thinking, diverse on a specific topic collecting ideas, as well as beginning the process of solving creative problems. It serves to teach one to overcome the thoughts that appear on the scene. The brainstorming method was recommended by A.F. Osborne, who the main principle and state of each training participant absolutely prohibiting criticism of the expressed opinion, any biting and encourage jokes. The purpose of this is to ensure the free participation of students in the educational process. Education the effective and successful use of this method in the process is the responsibility of the teacher it depends on pedagogical skill and breadth of thinking. When using the mental attack method, the number of students should not exceed 15. Training based on this method is one of can be arranged up to several hours. The total brainstorming method was developed by J. Donald Phillips and it can be used in groups of several dozen students.

### **Main part:**

Resources of educational innovative technologies are used for modeling and animation of the processes being studied, developing students' thinking skills in a figurative way, demonstrating educational information, conducting laboratory work in computer experiments, and most importantly, creating a real situation by modeling on the monitor creates ample opportunities for gaining interest to learning [5]. In order to improve the methodology of teaching nuclear energy by using such opportunities, it is necessary to ensure that the content of educational subjects corresponds to the achievements of modern science and technology, to ensure the connection between theory and practice, to take into account the environmental organizers of physical education and to perceive the physical essence of each concept, that is, a physical

phenomenon, a physical quantity, a model, idea, theory, atomic nucleus, mass defect, binding energy, radioactivity, ionizing rays. and other concepts must correspond to fundamental and scientific laws. The block structure of the content of logically related NPP educational materials can be chosen as follows. Atomic nucleus – nuclear changes – nuclear energy – effects of ionizing rays on living organisms. The theory of the atomic nucleus includes two interrelated parts - the structure of the nucleus and nuclear fission reactions, which gives rise to the need to use nuclear models to express nuclear properties. In this case, the use of the necessary model for understanding a particular process using models representing the special properties of the nucleus, and demonstration of the limits and possibilities of using each model directly using computer programs to expand information about the properties and structure of the nucleus without updating, and to expand universal information about kernel. They will have information that the model has not been created

### **Experimental results and discussion.**

The method is designed to encourage students to come up with new ideas serves to create conditions. Each has 5 or 6 students different groups that need to be solved positively within 15 minutes assignments or creative tasks are given. Objectives and creative tasks defined after it is resolved positively in time, one of the group members will report this. Information provided by the group is the teacher and other group members will be discussed and assessed at the end of the training among solutions to problems or creative problems given by the teacher publishes answers that are considered good and unique. During training assessment of the activities of group members depending on the level of their participation i'll go.

### **REFERENCES:**

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. Е.С.Полат, М.Ю.Бухаркина, М.В. Моисеева: А.Е. Петров; Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пособие/ – М.: Издательский центр «Академия», 2008, с.269.
3. Владимирова Е.В., Янин Л.А. Краткая информация об атомных ядрах (Электронный ресурс) // Ядерный практикум для школьников ЛОСП НИИЯФ МГУ.- Режим доступа: <http://pracgw.sinp.msu.ru/teacher/leaflet/pdf>. (дата обращения: 20.03.2018).
4. Волнистова Т.В. Ядерная физика: Методические рекомендации учителю физики.– М.: ИОСО РАО, 2004. – 62 с.
5. Лев Н.Р. Об изучении энергии связи атомных ядер // Физика в школе, 2001.- № 2. – с. 33-34.

6. Мастропас З.П., Синдеев Ю.Г. Физика: Методика и практика преподавания. – Р-нД: Феникс, 2002. с.11-32.
7. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования.- М.: Академия, 2003.-272 с.
8. Qo‘chqarov X.O., Yusupov D.A Fundamental fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari va yechimlari : Academic Research in Educational Sciences. Volume 2. Uzbekistan 2021. p. 448-455.
9. Mamatkarimov O.O., Qo‘chqarov X.O., Yusupov D.A., Adashaliev A.U. Radionuklidlar va ekologiya. NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan 2020 yil. №2. 47-51 betlar.
10. Jo‘orakulov S.Z. //BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI//2023, 8-sentabr 32-37-betlar

## ARXITEKTURADA FUNKSIONALIZM USLUBI

**Umarmulova Shaxodat Mashrab qizi**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston.

E-mail: [umarkulovashaxodat@gmail.com](mailto:umarkulovashaxodat@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoritilayotgan mavzu funksionalizm uslubining shaxarsozlikda, arxitekturada va interyerda qanday namoyon bo'lishi, qaysi davrda vujudga kelgan va uning san'at, madaniyat shu bilan birga insonlar turmush tarziga qanday ta'sir qilganligi haqida ma'lumotlar taqdim etiladi. Bundan tashqari bu uslub asoschilari haqida umumiy ma'lumotlar hamda ular yaratgan san'at asarlari haqida so'z yuritiladi. Funksionalizm uslubini o'tmishdagi, hozirgi kundagi hamda kelajakdagi o'рни va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Arxitektura, funksionalizm, san'at, obyekt, dizayn, shaxarsozlik, Le Korbyuze, Quyoshli shaxar, eksteryer dizayni, interyer dizayni, uslub.

### ABSTRACT

This article provides information on how the style of functionalism is manifested in urban planning, architecture and interior design, in what period it was created, and how it influenced art, culture, and the way of life of people. In addition, general information about the founders of this style and the works of art created by them are discussed. The role and importance of the functionalism style in the past, present and future is discussed.

**Keywords:** Architecture, functionalism, art, object, design, urban planning, Le Corbusier, Sunny City, exterior design, interior design, style.

### KIRISH

Funksionalizm uslubining arxitekturadagi o'рни haqida so'z yuritishdan avval qisqacha bo'lsada arxitektura o'zi nima ekanligi haqida gapirib o'tmoqchiman. Arxitektura inson faoliyatining qadimiy va nafis sohalaridan biri bo'lib, uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Inson paydo bo'libdiki u yashash uchun makon qidiradi. Turli tashqi omillar, havf-hatarlardan xoli bo'lish uchun o'ziga boshpana barpo etadi. Bu esa o'z-o'zidan arxitekturaning vujudga kelishi uchun asos bo'ladi. Qadim zamonlarda odamlar qoya toshlar, g'orlarda yashaganlari tarixiy manbalardan bizga ma'lum [1]. Insoniyat rivojlangani sari o'zlari uchun takomillashgan uy-joylar bunyod etadilar va tobora qulay sharoitlarda yashay boshlaydilar. Bu rivojlanish hozirgi kunda

ham to‘xtagani yo‘q. Odamlar turli innovatsiyalar qilib turmush tarzlarini yanada yaxshilash yo‘llarini izlab kelishmoqda.

Yana shuni aytish mumkinki arxitektura qurilishning yuqori bosqichi, ya’ni oliy darajadagi qurilish demakdir. Aynan shu ma’noda «arxitektor» o‘zbek tilidagi «me’mor» so‘ziga yaqin turadi. Shuning uchun ham arxitekturaga nisbatan me’morchilik atamasi keng ishlatiladi. Arxitektura qurilish san’atining oliy darajasi, biroq har qanday qurilishni ham arxitekturaga tenglashtirish yoki o‘xshatish mumkin emas. Chunki qurilish juda keng qamrovli so‘z bo‘lib, arxitekturaga mos bo‘lmagan ayrim sohalami ham o‘z ichiga oladi. Masalan, temiryo‘l qurilishi, yerosti quvurlari yoki shaxtalar qurilishi va hokazo. Demak, har qanday qurilish ham arxitektura bo‘la olmaydi, lekin har qanday arxitektura negizida, avvalambor, qurilish yotadi. Qurilishning arxitekturaga aylanishi uchun u yuqori darajadagi san’at namunasi yoki asari tarzida yaratilishi kerak. Arxitekturani inson amaliy faoliyatining boshqa turlaridan, shu jumladan, qurilishdan farqi shundaki, u foydalilik masalalaridan tashqari, muayyan tarixiy va ijtimoiy- ma’naviy muhit hamda davr ehtiyojlarini qondiruvchi mafkuraviy va badiiy estetik vazifalarni ham bajaradi [2]. Aynan shunday davr talabi bilan vujudga kelgan uslublardan biri bu- funksionalizm hisoblanadi. Bunday hollardan kelib chiqib keng tarqalgan va rivojlangan uslublar bir qancha. Ushbu maqolada esa aynan funksionalizm uslubi keng tarqalgan davrni, shu uslub asnosida yaratilgan arxitektura san’at asarlarini va ularning asoschilari haqida so‘z yuritamiz.

Yana shuni qo‘shimcha qilishim mumkinki, umumiy ma’noda arxitektura — bu insoniyatning yashashi va faoliyati uchun sun’iy shakllantiriladigan, amaliy va ma’naviy ehtiyojlarga mo‘ljallangan moddiy muhitlar tizimidir. Ayni paytda, arxitektura bu san’at hamdir. Shu boisdan arxitekturada muayyan hayot tarzi, davr tafakkuri va talabi, muayyan estetik va mafkuraviy ehtiyojlar, g‘oyalar majmuasi o‘zining moddiy va badiiy ifodasini topadi.

### **ASOSIY QISM**

Funksionalizm uslubi. Funksionalizm xalqaro me’moriy uslublardan ajralib turadigan katta yo‘nalishlardan biri. Funksionalizm “ortiqcha” dekorni rad etadi va qulaylikni eng yaxshi foyda deb biladi. Biroq, uning o‘ziga xosligi bor, bu uslubda funkcionallikni ta’minlaydi. Funksionalizm (nemis.Funkionalismus, lotin tilidan functio—bajarish, harakat)-g‘arbiy Yevropa, Rossiya, va keyin Amerika arxitekturasi, interyer va mebel dizaynida XX asr boshida yuzaga kelgan va tez rivojlangan. Ushbu uslubda ishlaydigan arxitektorlar “shakl maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak” shioridan foydalanganlar. Har qanday bezak amaliy foyda keltirmasa, u keraksiz deb hisoblangan. Funksionalizm 1910-1920 yillar konstruktivizm va avangard uslubi asosida shakllangan va 1930-yillarda mustaqil oqim sifatida



shakllangan. Funktsionalizm uslubi arxitektorlari ushbu formula asosida ishlashgan: funksiya-konstruksiya-shakl-sifat.

G'arbiy Yevropa funksionalizmining g'oyalari yangi materiallar va qurilish texnologiyalari ishlab chiqarish sohasidagi ilmiy va texnologik taraqqiyotning ehtiyojlari bilan tug'iladi. Funktsionalizmning mafkuraviy tamoyillari XX-XXI asrlardagi urbanizm mafkurasi va shaharlarni rejalashtirishning yangi usullari asosida yuzaga kelgan. Parijdagi Voizin rejasi (1925), Nanterdagi Ayo minoralari (1977), R. Bofilning tajribalari 1980-yillarda K. Kurokava kesimli (kapsulali) uylar, turar-joy massivlarining "chiziqli" qurilishi.

### **Funksionalizm shaxarsozlikda**

1922 yilda me'mor Le Corbusier 100 kvadrat metr maydonga ega bo'lgan Salon Automne mehmonlariga "Quyoshli shahar"ning birinchi shahar rejasini taqdim etdi. Le Korbyuzening yozishicha, Quyoshli shahar qurilishi quyidagi tamoyilga asoslangan: aholi zichligining ortishi; yangi transport turlari. Umuman olganda, transport imkon qadar ko'p bo'lishi kerak - metro, avtobuslar va boshqalar; ko'p sonli bog'lar va yashil hududlar; ko'p odamlar intilayotgan shahar markazini "tushirish"(aholi zichligini kamaytirish)ga urindi.



1922-yili Le Korbyuze o'zining 3 mln. kishilik markazida yuqori qavatli minorali uylari bo'lgan zamonaviy shahar loyihasini kashf etdi. Bunda markazda 1 mln, ko'kalamzor joylarda esa 2 mln aholi yashashi ko'zda tutilgan. Bu shahar markazlashtirilgan rejasining kompozision o'qi bo'lib, baland imoratlar bilan qurilgan prospektlar xizmat qiladi. Shaharning markaziy qismida tarhiga xoch shaklli, jamoat va ma'muriy mo'ljaldagi 60 qavatli imoratlar joylashadi. Markaz atrofida 6 qavatli uylar bilan qurilgan, egri-bugri rejali turar-joy tumanlari joylashadi. Qolgan hududlar bog'lar va dam olish qismlariga ajratiladi. Turar-joy tumanlarining eni 50 metrli asosiy ko'chalari bir-biridan 400 m masofada joylashadi. Markazda aerodrom, uning tagida transport tuguni joylashadi, uning tagida esa yer osti jamoat transportining vestibyuli va stansiyalari joylashadi.

Le Korbusier haqli ravishda XX asrning taniqli me'mori deb ataladi. U bosh rejalarni ishlab chiqdi va uning loyihalaridan biri zamonaviy shahar rejalashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. U Ville Radieuse yoki Quyoshli shahar deb nomlangan.

Nega u bunday g'alati nom oldi?

Arxitektorning o'zi aytganidek, "Bu shahar inson uchun quriladi, oddiy odam u yerda qulay yashashi uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'ladi." Birinchi marta ular 1924 yilda shahar haqida gapira boshladilar. Le Korbusier "yer yuzida jannat" qurishni orzu qilgan. Arxitektorning rejalari global edi. U yangi, yanada mukammal jamiyat yaratmoqchi yedi.

Le Korbyuze tomonidan 1933 yilda taklif etilgan “Quyoshli shahar” (Лучезарный город) loyihasi yana ham mashhur bo‘lib ketdi. Unda ochiq chiziqli tarkib g‘oyasi ilgari surilgandir. Bu g‘oya biroz N. Milyutinining «Ijtimoiy shahar» loyihasini takrorlaydi.



### Le Korbyuzening “quyoshli shahar” loyihasi.

1-turar-joy hududlari; 2 - elchixona va mehmonxonalar; 3 - savdo- ma’muriy markaz; 4 - yengil sanoat; 5 - og‘ir sanoat; 6 - yo‘ldosh shaharlar; 7 - asosiy magistral va aerodrom.

1950 yili Le Korbyuze hind arxitektorlari bilan Hindistonning Panjob va Xariana shtatlari poytaxti Chandigarx shahrining bosh tarhini ishlab chiqish va qurishda o‘zining shaharsozlik g‘oyasini amalga oshirdi. Chandigarx shahrining shaharsozlik konsepsiyasi issiq iqlim sharoitidagi shaharni rejalashtirish va qurishning namunasidir [3].

Le Korbyuze bu shaharni rejalashtirishning asosiy tamoyillarini quyidagicha shakllantiradi:

- shaharning asosiy kompozision o‘qini janubiy-g‘arbdan shimoliy-sharq tomonga yo‘naltirgan (magistrallar bo‘yicha joylashgan binolarni quyosh nurlaridan saqlaydi);
- shaharning ko‘kalamzor tizimi turar-joy qismidan o‘tuvchi ochiq ko‘kalamzor hududlar ko‘rinishida ko‘zda tutilgan;
- umumshahar markazi shunday joylashganki, u shaharning barcha qismlariga bir xilda yetarlidir;
- sanoat shahardan tashqariga chiqarilgan;
- transport aloqasi turlarga bo‘lingan, ko‘cha va yo‘llar oddiy va mantiqiy joylashtirilgan, yechimi muvaffaqiyatli hal etilgan.

Chiziqli shaharning bir qancha o'zgartirilgan g'oyasini amalda arxitektorlar L.Kosta va O.Nimeyerlar loyihasi bo'yicha yaratilgan Braziliya shahrining rejasida ko'rish mumkin. Mamlakatning ichkarisida, tropik kontinental iqlimli savannalarda joylashgan shaharning qurilishi uch yildan ko'proq vaqtda amalga oshiriladi. Shahar 500-700 ming kishiga mo'ljallangan. Hisob vaqtidan keyingi aholi joylashuvi yo'ldosh shaharlarda amalga oshiriladi. Bu tabiiy sharoitlarni o'zgartirish, zamonaviy arxitektura tamoyillari va Braziliya qurilish san'ati milliy an'analarini uyg'unlashtirishning yeng muvaffaqiyatli namunasidir.

### **Funksionalizm arxitekturada.**

Funksionalizm estetikasini rivojlantirishning birinchi bosqichi g'oyalari Le Korbyuze tomonidan shakllantirilgan: "uyg'unlik estetik kategoriya emas, balki har qanday narsaning erkin ishlashi uchun dastlabki shartdir. Uyg'unlik, uning funksiyasining ob'ekt shakliga muvofiqligi sifatida, har bir narsaning harakat va rivojlanish erkinligini oshirishga imkon beradi." Uy faqat "yashash uchun mashina", stul — "o'tirish apparati", "vaza –idish" bo'lishi kerak. Ushbu tamoyillar keyinchalik Ludvig Mis van der Roe ilgari surdi. Le Corbyuze arxitektura va qurilish birligining beshta tamoyilini shakllantirdi:

1. Ustun ochiq maydonda erkin turishi kerak.
2. Binoning konstruktiv karkasi funksional ravishda devorga bog'liq emas.
3. Erkin reja tashqi devorlarning konfiguratsiyasiga bog'liq emas.
4. Fasad binoning ichki Konstruksiya tuzilishi bilan belgilanadi.
5. Tomda joylashgan bog' uyning maydonini ochib beradi



### **2-rasm. Funksionalizm uslubidagi uy**

Funksionalizm uslubining belgilari:

- Toza geometrik shakllardan foydalanish: to'rtburchak, kvadrat, doira.
- Bitta materialning katta, ajratilmagan tekisliklaridan foydalanish, odatda, monolit va prefabrik beton, shisha, kamroq-g'isht. Shunday qilib, ustun rang sxemasi kulrang (shuvalgan betonning rangi), sariq (Le Corbusiarning sevimli rangi) va oq.

Funksional maqsadlardan mahrum bo‘lgan bezak va chiqib ketish qismlarining yo‘qligi.

- Yassi, iloji bo‘lsa, ishlaydigan tomlar. Ushbu g‘oyadan Le Corbyuze ko‘pincha murakkab ob-havo sharoitlariga qarshi tura oladigan binolarni qurgan.

- Sanoat, qisman turar-joy va jamoat binolari uchun derazalarning doimiy gorizontal chiziqlar shaklida joylashishi xarakterlidir.

- Pastki qavatlarini devorlardan to‘liq yoki qisman ozod qilish va jamoat ehtiyojlari uchun bino ostidagi makondan foydalanishdan iborat “pilonlardagi uy” (maison sur pilotis) tasviridan keng foydalanish.

- Geometrik burchakli tuzilmalar - qurilish uchun eng oddiy va to‘g‘ri shakllar tanlanadi: kub, to‘rtburchak. Hatto silindrsimon shakllarning bo‘limlari kamdan-kam uchraydi.

Oddiy toza ranglar – funksionalizm turli xil bezaklarga tushadi. Binoda ishlatiladigan barcha materiallar zarurat bilan belgilanadi va shuning uchun binolarning tashqi ko‘rinishining ranglari deyarli o‘xshash.

Funksionalizm badiiy uslub emas, balki bu harakat, falsafa va mafkura bo‘lib, me‘morchilikning oldingi rivojlanishi bilan hech qanday ko‘rinadigan aloqadan mahrumdir. Funksionalizmning formulasi “shakl funksiya bilan belgilanadi” (Lui Sallivan). Uy-joy me‘morchiligi sohasida u Le Corbyuzening mashhur asarida aks ettirilgan: “Uy-bu yashash uchun mashina”. [4]

### **Funksionalizm interyerda.**

Mustahkamlikni yaxshi ko‘rasizmi? Sizga tartib va narsalarning qulay joylashuvi yoqadimi? Ehtimol, sizni klassik uslublarga xos bo‘lgan interyerlar, dekorativ jihatdan jim-jimador bo‘lgan interyerlar qiziqtirmas... Agar siz hayot tarzingizda ortiqcha bezaklardan holi bolgan, sodda makonni xush ko‘rsangiz interyerda funksionalizm uslubi sizni qiziqтира olishi shubhasiz.



**3-rasm. Funksionalizm uslubidagi interyer**

Funksionalizm uslubidagi interyerning asosiy g'oyasi shuki shu xonada yashaydigan odamlarning shaxsiy ehtiyojlari va turmush tarzini hisobga olgan holda qulay va shinam muhitni yaratishdir. Bunday uyda deyarli har bir element va har bir xonaning funksional vazifasi bo'ladi va muayyan maqsadlarga xizmat qiladi. Interyerda funksionalizm har qanday xonani va uyni bezash uchun mos bo'lgan unversal yechimdir, bu hatto oddiy sodda yoki nostandart tartibda loyihalangan katta dalahovli uchun ham mos keladi.

Funksionalizm: konseptual xususiyatlar

- ortiqcha yuklanmagan muhit;
- minimal dekorativ yechim;
- minimalistik o'zgaruvchan mebel;
- umumiy ko'rinishda oddiy va sodda shakillarning qo'llanishi,
- to'g'ri nisbatlar.

Funksionalizm uslubidagi materiallar. Funksionalizm uslubida vaqt sinovidan o'tgan materiallar ko'p qo'llaniladi. Bular: beton, g'isht, metall, yog'och, shisha. Shu bilan birga qurilish bozorining yangi mahsulotlari bo'lgan materiallarni ham qo'llanilish mumkin.

Ushbu uslubda:

- Devorlarni bo'yashadi, shtukaturka qilishadi, gul qog'ozlar yopishtirishadi yoki devor pannellari bilan bezatiladi;
- Pollar plitka, parket, laminat bilan qoplanadi, shuningdek, yasalgan taxta pollar va iqtisodiy kamharajat variant sifatida-linoleum yoki gilam (kovrolin) bilan qoplangan bo'lishi ham mumkin.
- Shiftni oqlash, bo'yash mumkin, lekin ichi yoritgichli cho'zilgan shiftlar ko'pincha ko'p bosqichli tuzilmalardan foydalaniladi.

Rang yechimi. Funksionalizm uslubi rang palitrasi pastelni ranglarni o'z ichiga oladi. Devor va shift uchun qo'llaniladigan ranglar: oq, marvarid rang, qum rang, och-kulrang kabi ranglardir. Pol uchun ko'proq to'yingan ranglar qo'llaniladi: kulrang, jigarrang, yog'och ranglar. Shuningdek, istisno tariqasida aksent detallar uchun sariq, olovrang, yashil, qizil, ko'k va qora ranglar ham qo'llaniladi.

Mebel. Funksionalizm uslubidagi mebel ergonomik talablarga mos, mustahkam va deyarli oddiy shakillardan tashkil topgan bo'ladi. Yig'iluvchi divan - kravat va kreslo-kravat, burchakli, qulay stollar va g'ildirakli stullar, va shu bilan birga ko'pgina transfarmasiya bo'ladigan hamda ko'p funksiyali mebellar funksionalizm asosida vujudga kelgan. Bu uslubdagi mebelining qoplamasi odatda oddiy va bardoshlidir.

Yorug'lik. Funksionalizm yorug'lik katta ahamiyatga ega, shuning uchun ham derazaning qayerga loyihalaniishi, sun'iy yorug'lik manbalarini qayerga joylashtirishni obdon o'ylab chiqish lozim. Bu uslubda katta oynalar juda qo'l keladi, hamda yengil

